

Tadqiqot uz

# ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ

## МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2021

» Ҳуқуқий тадқиқотлар
» Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
» Тарих саҳифаларидаги изланишлар
» Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
» Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
» Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
» Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
» Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
» Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
» Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
» Физика-математика фанлари ютуқлари
» Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
» Кимё фанлари ютуқлари
» Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
» Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
» Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

doi
Crossref

31 MAY
№28

CONFERENCES.UZ

# "ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ
## 10-ҚИСМ

---

# МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ 28-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
## ЧАСТЬ-10

---

# MATERIALS OF THE REPUBLICAN 28-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL RESEARCH IN UZBEKISTAN"
## PART-10

**ТОШКЕНТ-2021**

**УУК 001 (062)**
**КБК 72я43**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 28-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 173 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**
Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**
Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар**
Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**
Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**
Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

**6.Журналистика**
Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**
Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**8.Адабиёт**
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**
Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**
Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**
Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

***Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.***

**© Муаллифлар жамоаси**
**© Tadqiqot.uz**

**PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

## ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

**1. Jalilova Xurshida Muzaffarovna, Mannonova Umida Zamonovna**
ADABIYOT DARSLARIDA KO`RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISH METODIKASI........11
**2. Шодиева Тамара**
БИОЛОГИЯ ДАРСЛАРДА ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЎЙИН ОРҚАЛИ ФАНГА ҚИЗИҚТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ........13
**3. Aliyarova Maftuna Axmad qizi, Qahhorov Sharofiddin Nusratovich**
BOSHLANG'ICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING MANTIQIY KO'NIKMALARINI SHAKLLLANTIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI........15
**4. Bafoyeva Kamola Toshpulatovna**
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI........17
**5. Berdiyeva Dilbar Maratovna**
TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNI AQLIY RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI........19
**6. Ergashova Sadoqat Ismatullo qizi**
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARI KASBIY KOMPETENTLIGI........21
**7. Ibodullayeva Shaxnoza Oktamboyevna, Xudayberganov Xusanboy Shonazarovich**
O`QISH DARSLARIDA VIRTUAL KO'RGAZMALAR TIZIMIDAN FOYDALANISH........23
**8. Ibragimova Munojot Davronovna**
BOSHLANG`ICH SINFLARDA O`QISH DARSLARIDA O`QUVCHILARNING BILIMINI OSHIRISH........24
**9. Karimova Dilfuza Tojiyevna, Xojiyeva Salomat Kuchkorovna**
BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING O'RNI........25
**10. Karimova Gulnoza G'aynazarovna**
BOSHLANG`ICH SINFDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI TASHKIL ETISHNING YO`NALISHLARI........27
**11. Qosimova Dilrabo Qosimovna**
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA TEXNOLOGIYA FANINING AHAMIYATI........29
**12. Sattarova Sapura Beknazarovna, Sattarova Surayyo Beknazarovna**
INFORMATIKA FANINI O`QITISHDA TEST TOPSHIRIQLARI TUZISH VA UNING USLUBIY JIHATLARI........31
**13. Shahobidinova Farida Mamatjanovna**
UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR........33
**14. Sobirova Shoxista Foziljon qizi**
BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA ELEKTRON DARSLIKLARDAN FOYDALANISH........34
**15. Ubaydullayeva Feruza Habibullayevna**
BOSHLANG'ICH SINFLARDA FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION METODIKALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI........35
**16. Xayrudinov Abdulaziz Abdurashidovich**
UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH........36
**17. Dildora Xolmatova Alisher qizi**
AXBOROT TEXNOLOGIYALARNI O'QITISH DASTURI........38

**18. Xurramova Mohidil Baxtiyorovna**
PEDAGOGIK FIKRLARNI TARAQQIY ETISHIDA ILMIY PEDAGOGIK YONDASHUV ........................................40
**19. Абдурахмонова Феруза Рустамовна, Абдуллаева Гулноза Илхомовна**
КИТОБ – БЕЪМИННАТ УСТОЗ. ........................................41
**20. Имомова Мухаббат Муротовна**
РАБОТА ПО ОБОГАЩЕНИЮ СЛОВАРНО – ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОГО ЗАПАСА УЧАЩИХСЯ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ШКОЛЕ ........................................42
**21. Санжар Эшқобилов Қўзибоевич**
TALIS ТАДҚИҚОТЛАРИДА УМУМТАЪЛИМ МАКТАБ ДИРЕКТОРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ ........................................43
**22. Adilova Saodat Abdurahimovna**
TILLARNI O'RGANISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI ........................................45
**23. Alibekova Nodira Odilbekovna**
SOG'LOM AVLOD VA JISMONIY BARKAMOLLIK TUSHUNCHALARINI BOLALARDA AMALIY JIHATDAN SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYA DARSINING AAHAMIYATI ........................................47
**24. Allaberganov Ulug‘bek Reyimbarganovich**
TA’LIM JARAYONIDA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION YANGILIKLARNI QO‘LLASHNING SAMARADORLIGI ........................................49
**25. Z.Allanazarova**
SHE’R UMRI – SHOIR UMRI........................................51
**26. Anorbayeva Ruxsora Raimovna**
TASVIRIY SAN`ATNING TUR VA JANRLARI ........................................53
**27. Ashilova Altinay Duysenovna**
BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING O‘RNI........................................55
**28. Bekqulova Gulchehra Ne’matovna**
SINF RAHBARINING O`QUV FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO`LLARI........................................57
**29. Boltayeva Shohida**
FUNKSIYA TUSHUNCHASINI KIRITISH VA UNI O‘RGATISH METODIKASI........................................58
**30. Sohiba Boymirzayeva To’lqinboyeva**
SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI........................................59
**31. Bozorova Malohat Ibodullayevna**
O‘QUVCHILARNI IFODALI O‘QISHGA O‘RGATISHDA ABDULLA ORIPOV IJODIDAN FOYDALANISH METODIKASI........................................61
**32. Chuliyev Azim**
CHET TILINI O’QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O’RNI ........................................62
**33. Djumaniyazova Zamira Marimbayevna, Maksutova Zulfiya Lenarovna**
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH USULLARI ........................................64
**34. Eshpo’latova Sarvinoz Dilshod qizi**
BIRINCHI SINF ONA TILI DARSLARIDA GAP MAVZUSI USTIDA ISHLASH ........................................66
**35. Fayziyev Akmal Murotovich**
O’QUV MUASSASALARIDA TA`LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI ........................................67
**36. G’ofurov Shuxrat Mubillayevich**
MAKTAB O’QUVCHILARIGA GEOMETRIK MASALALAR YECHISHNI O’RGATISH METODIKALARI........................................69
**37. Hikmatullayeva Gulzira G’aybullo qizi**
NUTQNI O’STIRISHNING BOSHQA O’QUV PREDMETLARI BILAN BOG’LIQLIGI ........................................70
**38. Imomova Dilfuza Abdihakimovna**
ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHI FAOLLIGINI OSHIRISHGA YO‘NALTIRILGAN METODLAR ........................................71

39. Исаева Лобар Мелихурамовна
ЎҚУВЧИ КОГНИТИВ ЖАРАЁНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КИЧИК ГУРУҲЛАРДА ИШЛАШ АФЗАЛЛИКЛАРИ........73
**40. Ismailova Shoxzoda**
O‘QITUVCHILARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI........75
**41. Istamov Zuxriddin Qaynarovich, Allaberdiyeva Zarnigor Xolmo’minovna**
HOZIRGI ZAMON BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARI MA’NAVIYATINI YUSUF HOS HOJIBNING “QUTADG’U BILIG” ASARI ORQALI YUKSALTIRISH........77
**42. Jaminova Madina Abdujalil qizi**
BOSHLANG’ICH SINFLARDA TABIATSHUNOSLIK FANINING MAZMUNI........79
**43. Jumayeva Dildora Gafurovna**
MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARI TARBIYALANUVCHILARIDA INGLIZ TILIDAN BOSHLANG‘ICH TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRUVCHI ELEKTRON TA’LIM RESURSLARINI YARATISH........81
**44. Gulbahor Madrahimova Zayniddinova**
MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARI VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA BOSHLANG’ICH TA’LIMDA ONA TILI DIDAKTIKASI........83
**45. Madriyantseva Alla Baxtiyarovna, Kalandarova Sayyora Kurbandurdiyevna**
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O’QITISH METODIKASINING DIDAKTIK TAMOYILLARI........85
**46. Mahmudova Nargiza, Majidova Zamira, Nuriddinova Iroda**
O’QITUVCHI VA O’QUVCHILAR O’RTASIDA MULOQOT JARAYONINI TASHKILLASHTIRISH MASALALARI........87
**47. Mamajonova Nozima Abdusattorovna**
TIL O’RGATISHDA MASOFAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH VA UNDA YUZAGA KELADIGAN INTERFAOLLIK MNAMMOSI........89
**48. Matnazarova Gavharjon Nazarovna**
BOSHLANG`ICH TA`LIMDA NUTQ FAOLIYATINI OSHIRISH OMILLARI........91
**49. Matyoqubova Zumrad Amanovna**
O’QISH DARSLARINING MAQSAD VA VAZIFALARI, TA’LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI........93
**50. Mirzayeva Xilola Rajabboyevna, Nurmetova Lobar Erkinboyevna**
O’QUVCHILARIDA TABIATSHUNOSLIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI........95
**51. Муродова Гулрух Боборaимовна**
ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ЎҚУВЧИЛАР КОМПИТЕНЦИЯСИНИ ОШИРИШДА ТАЪЛИМГА ИННАВАЦИОН ЁНДАШУВ........97
**52. Naimova Aziza Isomovna, Ma‘rupova Muhabbat Maxmudboyevna**
XALQARO TADQIQOTLARNING TA’LIMDAGI AHAMIYATI........99
**53. Nazarov Olimjon Ubaydullayevich**
BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLAR ASOSIDA DARSDAGI FAOLLIGINI OSHIRISH........101
**54. Nurmatova Gavhar Mahmudovna**
INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN SECONDARY SCHOOLS........103
**55. Nurmetova Muyassar Sadullayevna**
BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI HUSNIXATGA O’RGATISHNING METODIK SHARTLARI........105
**56. Ostonova Yulduz Baxtiyarovna**
O‘ZBEK TILI DARSLARIDA ILG‘OR TA’LIM VOSITALARI........107
**57. Ortikova Maxfuza Kuvvat qizi**
MAKTABLARDA UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH........109
**58. Pirmanova Aziza Xolmurot qizi**
BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MUAMMOLI METODDAN FOYDALANISH........111

**59. Qalandarova Shoira Ibragimovna, Begliyev Sanjar Reymbergenovich**
SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI..........................................113
**60. Qayumova Gulnoza Abdumo'minova**
NEMIS TILI DARSLARIDA INTERFAOL USULLARINI QO'LLASHDA O'QUVCHILARNING HAMKORLIK MUNOSABATLARI ................................................115
**61. Romonov Xurshid Atabekovich**
UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYA TADBIRLARINI TASHKIL ETISH USLUBLARI VA TAMOYILLARI ..............................116
**62. Sa'dullayeva Gulshod Yodgorovna**
BOSHLANG'ICH SINFLARGA ZAMONAVIY METODLARNI QO'LLASH USULLARI...........................................................................................................118
**63. Safarova Niyazjon Ibragimovna, Udalsova Rozaliya Vladimirovna**
IX-XII ASRLARDA ILM-FAN TARAQQIYOTIGA HISSA QO'SHGAN O'RTA OSIYOLIK OLIMLAR...........................................................................................119
**64. Shakarbayeva Ra'no Erjigitovna**
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MIQDORLAR TUSHUNCHASINI O'RGATISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV.........................................................................121
**65. Sheraliyeva Ra'no Onarboyevna**
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQIY SAVODXONLIGINI O'STIRISHNING AHAMIYATI..........................................................................123
**66. Shukurlayeva Zuxra Ismoilovna**
INFORMATIKADAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH .......................................125
**67. To'liyeva Gulruh**
BOSHLANG'ICH SINFGA QABIL – MUHIM IJTIMOIY- FIZOLOGOGIK, RUHIY TAYYORGARLIK MASALALARI............................................................................126
**68. To'liyev Sobirjon Mavlonberganovich, Saparniyazov Azamat Xasanovich, Xaytmetov Umidjon Soatboyevich**
INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA MAKTAB VA OTM O'RTASIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR (MASOFAVIY TA'LIM) YORDAMIDA OSHIRISH.............................................................128
**69. To'rateva Mashhura Ravshanovna**
O'QUVCHILARNI O'ZBEK TILIGA QIZIQISHINI OSHIRUVCHI USULLARNING AHAMIYATI ...........................................................................................................131
**70. Turtikova Lola Shokir qizi**
O'ZBEK TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRUVCHI USUL VA O'YINLAR ...............................................................................................................133
**71. Userova Beksulu Nurlibayevna**
O'ZBEK TILI DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV USULLARI ...........135
**72. Malika Usmanova Muhammaduroyimovna**
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MANTIQIY VA TANQIDIY FIKRLASHNI O'RGATSH...........................................................................................................137
**73. Xalilova Dildora Mehriddinovna**
BOSHLANG'ICH TA'LIM-BILIMNING ASOSIY POYDEVORI........................................139
**74. Xayitova Shohida Rajabovna**
SHAXS - PSIXOLOGIK BILISH PREDMETI SIFATIDA ..................................................141
**75. Xukumatova Lobarxon Akramaliyevna**
TA'LIMGA TEXNOLOGIK, AN'ANAVIY VA TADQIQIY-IJODIY YONDASHUV ...........142
**76. Yaqubova Gulbahor Komulovna**
XALQARO TADQIQOTLARGA TAYYORGARLIK KO'RISHDA ADABIYOT FANINING ROLI........................................................................................................144
**77. Yunusova Nasiba Zarifjanovna**
INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH ..............................................................146
**78. Yunusova Shaxnoza Muxamedumarovna**
O'ZBEK TILSHUNOSLIGIGA O'ZLASHMA SO'ZLARNING KIRIB KELISHI .............148

**79. Yusufjonova Navbahor, Viloyat Sobirova, Maqsudaxon Siddiqova**
BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISH VA SAVODXONLIK KOMPETENSIYALARINI O'RGANILISHI ....150
**80. Qalandarova Shoira Ibragimovna, Yusupov Ikrom Erkinovich**
PAST O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI VA KASBIY KOMPETENSIYASI ....152
**81. Yusupova Gulbahor Sadullayevna**
BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH ....154
**82. Алимова Алфия Сапарбаевна**
СОВРЕМЕННЫЙ РЕБЕНОК – СОВРЕМЕННЫЙ ПЕДАГОГ ....156
**83. Арифова Гульнар Османовна**
ОБУЧЕНИЕ РУССКОМУ ЯЗЫКУ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЭЛЕМЕНТОВ СИТУАТИВНОЙ НАГЛЯДНОСТИ ....158
**84. Ахметова Нигорахон Мухитдиновна**
БЎШ ЎЗЛАШТИРУВЧИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ОТА-ОНАЛАРИ БИЛАН ЎҚИТУВЧИЛАР ЎРТАСИДА ҲАМКОРЛИКНИ ЙЎЛГА ҚЎЙИШ УСУЛЛАРИ ....160
**85. Болтаева Вазира Зарибовна**
БОШЛАНҒИЧ МАКТАБДА ФАОЛ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ ....162
**86. Бугибаева Патима Баймухамедовна**
МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ РЕЧИ У ДЕТЕЙ ....164
**87. Ниёзметова Жамила Шарипбаевна**
БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРНИ ЎҚИТИШДА ТАБИАТ ДАРСЛАРИНИ АҲАМИЯТИ ....165
**88. Ҳамроева Шохсанам Махмудовна**
ГЛОБАЛЛАШУВ ВА ИҚТИСОДИЙ ИНТЕГРАЦИЯ ШАРОИТИДА ЎЗБЕКИСТОН ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТИДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ ....167
**89. Юсубова Сабохат Янгибоевна, Нурметова Моҳира Сафарбаевна**
ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ЕЧИМИДА ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ....169
**90. Vohidov Ikrom Baxramjonovich**
MAKTAB O'QUVCHILARIGA KIMYO FANINI O'QITISHDA MASALALAR YECHISHNI O'RGATISH METODIKASI ....171

# ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

## ADABIYOT DARSLARIDA KO`RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

**Jalilova Xurshida Muzaffarovna**
Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi 6- umumiy
o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
normurodov.oibek@mail.ru
**Mannonova Umida Zamonovna.**
Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi 6- umumiy
o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
normurodov.oibek@mail.ru

**Annotatsiya.** Adabiyot darslaridagi ko`rgazmalilikning bosh vazifasi, o`quvchilarga adabiy asarni idrok etishda ko`maklashish, yozuvchi ijodini to`laroq tasavvur etishga yordam berishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar**: eshitish,adabiyot, ko'rgazmalilik, o'quvchi, o'zlashtirish, idrok etmoq, obrazlar orqali aks ettiradi.

Tabiatiga ko`ra adabiyotning o`zi borliqning ko`rgazmali tasviridan iborat. Ammo adabiyot darslarida san'atning boshqa turlari: Texnika vositalaridan kompyuter, ideoproektor, kino, televideniya, musiqa, tasviriy san'at ham yordamga kelishi mumkin. Bular adabiyot darslariga qo`shimcha axborot manbasi bo`lib xizmat qiladi, o`quvchilarda estetik tuyg`ularning shakllaniishi va rivojiga imkon beradi. Shuningdek, adib yaratgan obrazlarning o`quvchi ongida yanada puxtaroq muhrlanishiga yordam beradi. Hozirgi paytda turli kinoapparatlar, televizor, epidiaskop, kompyutep va.b. har bir maktabda ham, har bir xonadonda ham deyarli mavjud. Bularnnng hisobiga ko`rgazmali qurollar doirasi yanada kengayadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko`rgazmalilikdan darsda va sinfdan tashqari ishlarda foydalanish, bir-biridan o`z xarakteriga ko`ra jiddiy farq qiladi hamda boshqaboshqa maqsadlarni ko`zda tutadi. To`garak ishlarda, fakultativ mashg`ulotlarda olib borish mumkin.

Darsda esa ko`rgazmalilik, o`quvchilarning aksari o`zlashtirishiga yordam bera oladigan darajadagina qo`llanishi mumkin. Aks holda u birinchi rejaga chiqib, asosiy mavzu orqa rejada qolishi mumkin.

Adabiyot darslaridagi ko`rgazmalilikning bosh vazifasi, o`quvchilarga adabiy asarni idrok etishda ko`maklashish, yozuvchi ijodini to`laroq tasavvur etishga yordamlashish adabiy-nazariy tushunchalarni egallashga qo`shimcha imkon yaratish, o`quvchilar nutqini o`stirishni ta'minlashdan, bir so`z bilan aytganda adabiyot o`qituvchisi oldida turgan barcha vazifalarni hal qilishga yordam berishdan iborat. Bu xususiyat har bir aniq holatda turli xususiyatlarga ega bo`lishi mumkin. Ko`rgazmalilikdan foydalangandagina darslarda shartli ravishda o`quvchining passiv yoki faol ishtiroki haqida gapirish mumkin.

Agar ko`rgazmali qurol o`quvchi faolligini ijobiy ta'sir ko`rsatmasa, undan foydalanmagan ma'qul. Demak, ko`rgazmalilikning vazifalari nihoyatda xilma-xil bo`lishi mumkin. Hozirgi paytda ko`rgazmalilikning turlari nihoyatda xilma-xildir: illyustrativ-badiiy hamda grafik (chizma) materiallar, gramofon yozuvi va radioeshittirishlar, kinofilm va o`quv filmlar, televizion darslar, slaydlar v.h. Ularning har biri ko`rish, eshitish, sintetik shakldosh ko`rgazmalilikka tegishli bo`lishi mumkin. Ayniqsa ko`rish bilan bog`liq bo`lgan ko`rgazmalilikning ahamiyati kattadir. Bunga yozuvchi va shoirlarning portretlari, asarlarga illyustrastiyalar, yozuvchi (adib) hayoti va ijodiga aloqador bo`lgan joylar fotografiyasi, yoki yozuvchiinng hayoti bilan bog`liq fotosuratlar, v.b. kirishi mumkin.

Har holda eng kamida darslik va darslik majmualardagii rasm namunalari shu vazifani bajarishi mumkin.

Otkritka ko`rinishidagi rasmlardan tarqatma material sifatida foylalanish mumkin. Uning qulayligi shundaki, bu holda har bir o`quvchining qobiliyati va imkoniyatini ham nazarda tutish mumkin bo`ladi. Yozuvchi hayoti va ijodini o`rganishga doir albomlarda tasviriy san'at asarlaridan namunalargina emas, yozuvchining o`zi va zamondoshlari aytgan fikrlar, xatlardan namunalar bo`lishi mumkin. Tinglash bilan aloqador ko`rgazmalilik ham alohida mavqega ega.

Asarni, xususan she'riy asarlarni to`liq tushunish va hazm qilish uchun adib yaratgan tovushni obrazlarni eshitish, his qilish va baholash ham nihoyatda beqiyos ahamiyatga molik. Oybek, H.Olimjon, E.Vohidov, A.Ori povlarning tovushlari yozilgan disklar, A.Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy, Furqat she'rlari bilan aytiladigan qo`shiqlar plastinka va disklar butun o`rgatuvchilarimiz ko`p qiyinchiliksiz topishi mumkin bo`lgan va amaliyotga ko`p qo`llaydigan manbalardir. Musiqa va badiiy-ifodali o`qish, adabiyot o`qitish jarayonida o`quvchilar faolligini oshirishda katta ijobiy rol o`ynaydi. Disklarning adabiyot darslaridagi zaruriyati ba'zan nihoyatda ochiq seziladi.

O`quvchilarni kitob o`qishga qiziqtirishda ko`rgazmali qurollar muhim didaktik vosita sanaladi. Agar ko`rgazmalilikning didaktik funksiyasi oldindan puxta o`ylab ko`rilmasa, dars samaradorligi bir qadar susayishi, ayrim holatlarda esa unga mutlaqo salbiy ta'sir ko`rsatishi mumkin. Adabiyot darslaridagi ko`rgazmalilik oxirgi maqsad emas, balki vositadir. Shunga ko`ra o`quvchi filmni yoki rasmni ko`rib, kuy yoki qo`shiqni tinglab bo`lganidan keyin unga shunday savollar berilishi lozimki, bu topshiriq va savollar o`quvchini badiiy asar ichiga olib kirishga, badiiy obraz yoki tasvir mohiyatini chuqurroq anglashga, so`zning ta'sir kuchini yaqqolroq his etishga yordam bersin. Yana bir muhim holat shundaki, ko`rgazmali qurollarni yaratishga o`quvchilarning o`zlarini jalb etish ham muhimdir. Bunda faqat nusxa ko`chirish emas, balki jiddiy ijodiy mehnatni talab qiladigan ko`rgazmalar yasash, o`quvchining umumiy badiiy estetik tayyorgarligiga ham jiddiy ijobiy ta'sir ko`rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o`qitish metodikasi. -T.: O`qituvchi. 1992.

2.G`ulomova N. O`quvchilarning badiiy adabiyotga bo`lgan qiziqishlarini orttirish. Til va adabiyoti ta'limi. 1992.

# БИОЛОГИЯ ДАРСЛАРДА ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЎЙИН ОРҚАЛИ ФАНГА ҚИЗИҚТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

**Шодиева Тамара**
Бухоро вилоят Вобкент тумани
34-умумий ўрта таълим
Биология фани ўқитувчиси

**Аннотация:** Ушбу макола биология дарсларда ўкувчиларни ўйинлар оркали фанга бўлган кизикишини оширишда самарали фойдаланилади.

**Калит сўзлар:** интенсивлаш услубий тавсиясида педагогик технология, методика, ўйинли технологиялар, муаммоли таълим технологияси, Мотивацион ўйинлар, Интеллектуал ўйинлар.

Ҳозирги кунда республикамизда ўқув жараёнида педагогик технологиялардан фойдаланиш бўйича кўплаб қўлланма ва услубий тавсиялар мавжуд. Республика таълим марказининг “Ўқув-тарбия жараёнини фаоллаштириш ва жадаллаштириш (интенсивлаш) асосидаги педагогик технологиялар” услубий тавсиясида педагогик технология, методика, ўйинли технологиялар, муаммоли таълим технологияси ҳақида атрофлича тушунча берилган. Зарафшон шаҳар мактабларида таълим рус, ўзбек, қозоқ тилларида олиб борилади. Албатта, биз Республика таълим маркази томонидан берилган услубий кўрсатмаларни таълим тилидан қатъий назар ўқитувчилар билан ишлаб чиқиб, уларни ўқув жараёнида қўллашни амалга оширамиз. Бундан ташқари, ижодкор ўқитувчилар билан ҳамкорликда бошқа методик қўлланмалардан ҳам фойдаланамиз. Педагог-олим Л.С. Выготскийнинг ўйин технологиялари ҳақидаги назарий маълумотларини ҳам ишлаб чиқишга ҳаракат қилдик. Л.С. Выготскийнинг таъкидлашича: “шахсни камол топтиришда ўйин муҳим таълимий ва тарбиявий аҳамиятга эга ва ўқувчиларнинг билиш қобилиятларини ривожлантиришда ҳам ўйиннинг муҳим ижобий томонлари мавжудлиги эътироф этилган”[1.217]. Шунингдек, ўйин ўқувчиларнинг мотивацион, интеллектуал ва билиш қобилиятларини ривожлантиришда педагогик ва психологик аҳамиятга эга бўлган муҳим илмий хулосаларга асосланган омиллардан ҳисобланиши илгари ҳам, ҳозир ҳам дунё олимлари томонидан ижобий натижалар бериши илмий асосда исботланган.

Демак, юқоридаги олимларнинг фикрига таянган ҳолда кичик мактаб ёшдаги ўқувчилар учун ўйиннинг педагогик-психологик асослари ва уларнинг омилларини таснифлашда тавсия этиладиган ўйинларнинг асосий қисмини миллий ҳаракатли ва интеллектуал ўйинлардан ташкил топиши муҳимлиги кундалик тажрибаларимиздан кузатилмоқда. Мактабларда, айниқса, мактабда психологик хизмат кўрсатиш мутахассисларининг тавсиялари бўйича ўйин ўқувчиларга “разменка”(толиққан пайтида зериктирмаслик учун қўлланиладиган восита сифатида) тавсия этилмоқда. Бу тавсияларни эса ҳар томонлама ижобий томонларини ўрганган ҳолда, ўқувчиларнинг психологик ва жисмоний хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда қуйидаги тартибдаги ўйинлар тавсия этилиши методик жиҳатдан ишлаб чиқилмоқда:

1. Ҳаракатли ўйинлар.
2. Мотивацион ўйинлар.
3. Интеллектуал ўйинлар.
4. Ўқувчилар билиш қобилиятларини чиниқтирадиган ўйинлар

Демак, ўйинлар мактаб ўқувчиларининг ёшлигидан то катта ёшга ўтгунча давом этадиган муҳим педагогик ва психологик жараён эканлиги ўзини оқламоқда

Юқорида таснифланганларнинг барчаси ўйин дарслари сифатида ўзининг методик ишланмаларига эга ва концептуал хусусиятларга асосланган. (Спорт ўйинлари алоҳида жисмоний тарбия дарсларида ўзининг талаблари асосида ўрганилганлиги учун уларни биз мазкур ишимизга киритмадик. Спорт ўйинлари алоҳида таҳлил этилади.).

Кичик мактаб ёшдаги ўқувчилар фаолиятида ўйинларни ташкил этишнинг умумметодологик асосларини ёритишда қуйидаги хулосаларни тавсия этамиз:

-ўйиннинг полифункционаллиги –(кўп қирралиги) кўпгина функция(вазифаларни) бажаради: жумладан, билиш қобилияти, интеллектуал, эстетик, эмоционал, ахлоқий-тарбиявий вазифаларни;

-ўйиннинг коммуникативлиги- ўйин ўқувчиларнинг фаоллигини, ички руҳий эркинлигини, ёш-психологик барьер(тўсиқлар)ни енгиб ўтишни ўқувчиларда тараққий эттиради;

-ўйин фаолиятининг адаптацияси(мослаштирилиши)да болалар жамоаси ўртасидаги ўйин фаолиятини ташкил этишда уларнинг ёш-ривожланувчи хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ўйин турларини(айниқса мантиқий ўйинларни) адаптация қилиш зарурати туғилади;

-ўйиннинг мақсадга қаратилганлиги – бунда ўқитувчи ўйин ситуациясини ташкил этишда дарс мақсади талабидан келиб чиқиб, дарс мавзуси,унинг мақсади ва вазифаларини амалга оширишга қаратилиши зарур. Бунга мос келмаса, мазкур дарсда ўйиндан фойдаланиш ҳеч қандай эффект бермайди;

-ўйинларнинг вариативлиги - бунда ўқитувчи математика дарс машғулотида фойдаланган ўйин ситуацияси(вазиятини) она тили дарсида қўллаш тавсия этилмайди. Шу сабабдан ҳам ўйин вариативлиги деган тушунча, педагогикада ҳам, методикада ҳам, психологияда ҳам мавжуд.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Farberman B.L.Pedagogik texnologiya.-T.,2004.
2. Ochilov M.Pedagogik texnologiya.-T.,2004.
3. http://www.edunet.uz – maktablar sayti.

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING MANTIQIY KO'NIKMALARINI SHAKLLLANTIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

**Aliyarova Maftuna Axmad qizi**
TerDU Ta'lim- tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 1- bosqich magistranti
normurodov.oibek@mail.ru
**Qahhorov Sharofiddin Nusratovich**
Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi 6- umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.
normurodov.oibek@mail.ru

**Annotatsiya.** Maqolada oʻquvchilarda geometrik tasavvurlarni tarkib toptirish, ularni chizish va oʻlchash malakalari bilan qurollantirish, ular tafakkurini rivojlantirish masalalariga geometriya elementlarini oʻrgatishda qoʻllanadigan oʻqitish metodlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar**: boshlangʻich,, geometrik tasavvurlarni tarkib toptirish, fazoviy tasavvurlar, boshlangʻich taʻlim jarayonida, matematik nutqni oʻstirish.

Boshlangʻich taʻlim jarayoni bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, duyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va oʻz oʻzini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sogʻlom boʻlishga, moddiy borliq goʻzalliklarini his eta olishga, goʻzallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni oʻziga singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga oʻrgatadi. Boshlangʻich taʻlim bosqichi oldiga qoʻyilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Boshlangʻich taʻlim bosqichiga davlat va jamiyat tomonidan qoʻyilgan talabda taʻlim sohalari boʻyicha oʻzaro muvofiqlik, mutanosiblik, uygʻunlik toʻla taʻminlangan boʻlmogʻi kerak. Shu jihatdan boshlangʻich talim standartini belgilash taʻlim jarayoning tarkibini xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlangʻich taʻlim jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyani qoʻllash imkonini beradi.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda oʻrta maktabda matematika oʻqitish butun sistemasida oʻz koʻlami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta boʻlgan oʻzgarishlar amalga oshirildi. Maktab oldiga prinsipial yangi maqsadlarning qoʻyilishi matematika oʻqitish mazmunining tubdan oʻzgarishiga olib keldi. Matematika boshlangʻich kursida ham kattagina oʻzgatishlar qilindi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga matematikadan samarali taʻlim berilishi uchun boʻlajak oʻqituvchi boshlangʻich sinflar uchun ishlab chiqilgan matematika oʻqitish metodikasini egallab, chuqur oʻzlashtirib olmogʻi zarur. Bolalar mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish masalasi bilan ularda toʻgʻri, aniq, qisqa matematik nutqni oʻstirish masalasi uzviy ravishda bogʻlangandir. Bu boshlangʻich taʻlimning muhim vazifalaridan biridir. Matematika bilan shugʻullanish faqat xotira va tafakkurni shakllantiribgina qolmay, balki bolalarning mehnat tarbiyasi maktabi ham boʻladi. U mehnat qilishga odat qilishni va mehnatga ehtiyojni tarbiyalash boʻyicha doimiy sistemali ishlash uchun material beriladi, tafakkur intizomini va mhnatni aniq tashkil etishni, fikrning bir joyga toʻplanishini, aniqlikni talab qiladi. Maktabning boshlangʻich sinflarida bolalar matematika sohasida dasturda nazarda tutilgan bilimlar va koʻnikmalarning maʻlum hajmini ongli ravishda va mustahkam egallab olishlari haqida gap borganda yuqorida aytib oʻtilgan mulohazalarni hisobga olish kerak. Boshlangʻich taʻlimning muhim masalalaridan biri oʻquvchilarda ongli va mustahkam hisoblash malakalarini shakllantirish edi va shunday boʻlib qoladi.

Boshlangʻich matematika programmasida geometrik material katta oʻrin oladi. Koʻpchilik hollarda bu material arifmetik material bilan uzviy bogʻlanadi. SHu bilan birga geometriya elementlarini oʻrganishga ilgarigiga qaraganda koʻproq mustaqillik beriladi va maqsadga yoʻnaltiriladi. Geometrik materialni oʻrganishning asosiy maqsadi geometrik figuralar (nuqta, toʻgʻri va egri chiziq, toʻgʻri chiziq kesmasi, siniq chiziq, koʻpburchak, aylana va doira) haqida, ularning elementlari haqida, figuralar va ularning elementlari orasidagi munosabatlari haqida, ularning baʻzi xossalari haqidagi tasavvurlarning toʻla snetemaenni tarkib toptirishdan iborat. Geometrik figuralar haqidagi fazoviy tasavvurlar, geometrik figuralarni chizmachilik va oʻlchash asboblari yordamida va bu asboblarning yordamisiz oʻlchash va yasashlarning amaliy

malakalarini (kuzda chamalash, qoʻlda chizish va hokazo) tarkib toptiriladi. Oʻquvchilarning nutq va fikrlashlari shu asosda rivojlantiriladi. Oʻquvchilarda geometrik tasavvurlarni tarkib toptirish, ularni chizish va oʻlchash malakalari bilan qurollantirish, ular tafakkurini rivojlantirish masalalariga geometriya elementlarini oʻrgatishda qoʻllanadigan oʻqitish metodlari javob beradi. Geometriya propedevtik kursini oʻqitishning muayyan metodlari kuzatishlar metodlari, takkorlash metodidan iboratdir; induktiv xulosa chiqarish bilan bir qatorda deduksiya elementlaridan ham foydalaniladi. Laboratoriya va amaliy ishlar metodi geometrik materiallarni oʻrganishning samarali metodlaridan biridir.

Boshlangich matematika dasturida geometrik material katta oʻrinni oladi. Geometrik materialni oʻrganishning asosiy maqsadi geometrik figuralar (nuqta, toʻg_ri va egri chiziq, toʻg_ri chiziq kesmasi, siniq chiziq, koʻpburchak, aylana va doira) haqida ularning elementlari haqida, figuralar va ularning elementdari orasidagi munosabatlari haqida, ularning baʻzi xossalari haqidagi tasavvurlarning toʻla tizimini tarkib toptirishdan iborat. Umuman aytganda boshlangich sinflarda geometrik bilim berishda oʻquvchilarning tasavvuri kengayadi, matematika oʻzlashtirishga boʻlgan ehtiyoji qondiriladi va pedagogik-psixologik hususiyatlari geometrik tushunchalarni oʻzlashtirish jarayonida mustahkamlanadi.

**Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Bikboyeya N.U. va boshqalar. Matematika 4-sinf uchun darslik Toshkent:O`qituvchi‖ -2003 yil 14.
2. Ahmedov M. va boshqalar ‖Matematika‖ O`qituvchi kitobi. Toshkent : Uzinkomtsetr -2003 yil 80 15.
3. Jumayev M va boshqalar. ‖Matematika o`qitish metodikasidan praktikum Toshkent : Oʻqituvchi- 2004 yil.

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI

**Bafoyeva Kamola Toshpulatovna,**
Navoiy shahar 8-umumta’lim
maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Ta’lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o‘qituvchi o‘zining ish shakllari va o‘quvchilarning ko‘nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, qanday o‘qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. O‘qitish metodi – ko‘zlangan maqsad, yoki rivojlantirilgan aniq bir maqsadga erishish yo‘lidagi amallar ketma-ketligidir. “Interaktiv ta’lim” - bu doimiy muloqatga asoslangan metodlar tizimi, birgalikda o‘qish va faol ishtirok etishdir. Bu - o‘zaro harakat, ya’ni hamkorlik asosida o‘qitish demakdir. Buyuk faylasuf Konfutsiy 2500 yil oldin shunday degan: “Eshitganimni yoddan chiqaraman, ko‘rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam tushunib yetaman”. Biz darslarda o‘quvchilar bilan birgalikda, juftlikda, guruhlarda ishlashda juda ko‘plab interaktiv metod va mashqlardan “Guruhlarda ishlash”, “Taqdimot” yangi mavzuni bayon qilishda “Kichik maruza”, “Rolli o‘yin”, “Aqliy hujum”, “Charxpalak” metodlaridan va “Hamma, hammaga o‘rgatadi”, “Mevalar salati,” “Impuls” “Hayot yo‘li”, “Vaziyatlar” “Aqlcharxi” mashqlaridan foydalanishimiz mumkin. Bunda o‘quvchilar ta’lim olish jaroyonida guruhlarda, hamjihatlikda ishlaydilar, mustaqil bajaradilar va eslab qoladilar. Bunda birinchi navbatda o‘quvchilarda – “do‘stona kelishuv” va hayotiy ko‘nikmalar shakllantiriladi. “Do‘stona kelishuv” - intizom, faollik, o‘zoro hurmat, o‘ng qo‘l qoidasi, ijodkorlik, ijodiy jarima, reglament (aniq, qisqa, lo‘nda fikrni bayon qilish) “Hayotiy ko‘nikmalar” - muloqat qila olish, ijodiy fikrlash, stress hooopolatdan chiqib ketish, histuyg„ularni jilovlay olish, muammolarni hal qila olish, o‘z-ozini tahlil qila olish, qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lishda ham “kichik guruhlar ishi” metodidan foydalanish mumkin. O‘quvchilarni guruhga bo‘lish jarayonida “enerjayzer” mashqlaridan foydalanish mumkin. Bunda stol ustiga 3-4 xil mevalarning rasmlari teskari holda qo‘yiladi. O‘quvchilar bu rasmlarni navbatma-navbat oladilar. Uzum rasmini olgan o‘quvchilar bir guruh, pomidor rasmini olgan bolalar ikkinchi guruhni, olma rasmini olgan bolalar esa uchinchi guruhni tashkil etadi. Har bir jamoa o‘ziga ajratilgan joyga borib o‘tiradi. Bu guruhlarda turli metodlardan foydalanib, munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o‘tkazishda, yoki o‘quv rejasi asosida biror bo‘lim o‘rganib bo‘lingach, umumlashtiruvchi darslarda qo‘llash mumkin. Bunday metodlarning barchasida ham o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik, o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faol harakati nazarda tutiladi. Quyida ana shunday metodlardan ayrimlarini e’tiboringizga havola etamiz. “Charxpalak” metodidan ona tili darslarida “So‘z turkumlari” mavzusini mustahkamlashda foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilarni istalgan metodingiz bilan guruhlarga bo‘lib olishingiz mumkin. Bu metod o‘quvchilarni juftlikda ishlashga, bir-birining fikrini tinglashga, so‘z turkumlarini farqlay olishiga, ijodiy fikrlashga, barcha o‘quvchilarning faol qatnashishlariga yordam beradi. “Hamma, hammaga o‘rgatadi” mashqidan foydalaish boshlang`ich sinflarda ham qo‘l keladi. Buni barcha fanlarga moslab o‘tkazish mumkin. Matematikada mustahkamlash darslarida o‘qituvchi mavzularga doir ma’lumotlarni qisqacha yozib keladi. Masalan, uzunlik birliklariga millimetr, santimetr, detsimetr, kilometrlar kiradi. Hamma tomonlari teng to‘rtburchak kavadrat deyiladi va hokazo. Bu ma’lumotlar o‘quvchilarga tarqatiladi. Ular o‘zlaridagi ma’lumotlarni o‘qib, o‘rganadilar. Ma’lum vaqtdan keyin yonidagi o‘rtog‘i bilan bir- birining ma’lumotini o‘rganadi.

Belgilangan vaqt tugagach, 4 ta o‘quvchi bir biriga ma’lumotlarini o‘rgatadilar. O‘qituvchi tomonidan vaqt belgilanib, vaqt tugaganligi, endi yonidagi sherigiga o‘rgatishini eslatib, aytib boradi. Mashq tugagach, o‘qituvchi quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilishi mumkin: ushbu mashq sizga nimasi bilan yoqdi va nimalari foydali bo‘ldi? Bu mashqda siz uchun nima osonroq bo‘ldi, o‘zingiz o‘qib o‘rganganingizmi yoki boshqaga ma’lumot berganingizmi? Bu mashq orqali o‘quvchilar o‘tilgan mavzularni yodga oladilar. O‘zlashtirmagan o‘quvchilar bo‘lsa, ular ham bilib oladilar. “Aql charxi” usulida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari, nutqi rivojlanadi, tez va to‘gri javob berish malakasi shakllanadi. Bu mashqda ikki yoki uchta o‘quvchidan iborat guruhlar ishtirok etadi. Birinchi o‘quvchi mavzuga oid terminlardan birini

aytadi, ikkinchi o'quvchi birinchi o'quvchi aytgan terminni qaytaradi va o'zi ham bitta termin aytadi. Uchinchi o'quvchi avvalgi ikkita terminni qaytaradi va bitta termin qo'shib aytadi. Navbat birinchi o'quvchiga keladi. Qaysi o'quvchi adashib ketsa yoki, aytilgan terminni qaytarib aytsa, o'yindan chiqadi. Bu o'yinni tashkil etishda – maqsad aniq bo'lishi va o'quvchilarning qaysi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga e'tibor qaratilishi lozim. Masalan: ot – so'z turkumiga tegishli so'zlarni ayting: Ta'limtarbiya jarayonida dars samaradorligini oshirish, o'quvchilar bilimini mustahkamlash, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llash bilan birgalikda turli ko'rgazmali qurollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda ayniqsa qo'lda, ijodkorlik bilan tayyorlangan ko'rgazmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ana shunday ko'rgazmalardan biri oddiy daraxt shoxining rasmi chizilgan plakat bo'lib, uning shoxlariga gullarni, qushlarni, mevalarni joylashtirish mumkin. Bu qo'lda tayyorlangan ko'rgazmadan barcha fanlarda o'z o'rnida foydalanish mumkin. Bu ko'rgazma orqali o'quvchilar fanlarning bir-biriga o'zaro bog'liqligini, vatanning muqaddasligini, tabiatni sevishni, jonivorlarni asrashni o'rganadilar. Quyida ana shunday ko'rgazmalardan namuna keltirilgan:Masalan, matematika darslarida gullardan foydalanganimizda mashqni shunday davom ettirish mumkin. Gullarning bir tomoniga matematika faniga oid savollar yozilgan bo'ladi, ikkinchi tomoniga esa bo'g'inlar yozilgan O'quvchilar gullarning bir tomoniga yozilgan matematikaga oid savollarni o'qiydilar va bo'g'inli tomonini daraxt shoxiga qistiradilar. "Kimki savollarga to'g'ri javob bersa, daraxtning gullashiga yordam beradi." – degan gaplar o'qituvchi tomonidan aytiladi. Shu tariqa daraxt shoxlaridagi gullarda bo'g'inli so'zlar hosil bo'ladi. Darslarning samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim darajalarini boyitishda darslarda turli interfaol metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarda bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchilar darsga puxta hozirlik ko'rishga intiladilar. Bunday usullar darsning qiziqarliligini va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. O'quvchilarning mustaqil bajarib, tushunib yetishlari uchun turli interaktiv metodlar va mashqlardan foydalanishimiz mumkin.

# TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNI AQLIY RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

**Berdiyeva Dilbar Maratovna,**
Navoiy viloyat Konimex tumani
2-umumta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalar kabi ta'lim tizimida ham yangi islohotlarning joriy etilishi yosh avlod tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni yanada oshirmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni manaviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga talim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ3907-sonli qarorining asosiy maqsadi O'zbekistonda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni manaviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishdan iboratdir. Shunday ekan, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun ularninmg aqliy taraqqiyotini maksimal darajada ta'minlaydigan rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etish katta ahamiyatga ega.

O'quvchi intellekti uchun eng muhim narsa shuki, u atrofni o'rab olgan olamdagi narsa va hodisalar o'rtasida bog'lanish va munosabatlarni aks ettirish bilan birgalikda voqelikni ijodiy ravishda qayta o'zgartirish imkonini beradigan tafakkurni shakllantirishdir.

**L.V.Zankov** nuqtai nazariga ko'ra, aqliy rivojlanishning sohasida hal qiluvchi narsa - o'z tabiatiga ko'ra turli xarakterga ega bo'lgan harakat usullarini muayyan funkstional tizimga birlashtirishdan iborat. Masalan, kichik yoshdagi o'quvchilar aqliy faoliyatining turli xarakterdagi usullarini bitta tizimga, yagona analitik-sintetik faoliyatga birlashtish ro'y bergan chog'da aqliy rivojlanish amalga oshishi mumkin.

**N.D.Levitov** nuqtai nazariga ko'ra, aqliy rivojlanish quyidagi ko'rsatkichlar bilan: 1) tafakkurning mustaqilligi bilan, 2) o'quv materialning o'zlashtirishning tezligi va mustahkamligi bilan, 3) standart bo'lmagan vazifalarni hal qilishda aqliy chamalashning tezligi bilan, 4) o'rganib chiqayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish bilan va 5) aqlning tanqidiy qarashi bilan xarakterlanadi.

D. B.Elkonin uchun aqliy rivojlanishning asosiy mezoni – to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati strukturasining hamda uning komponentlari – masalani qo'yilishi, vositalar tanlash, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z o'zini tekshirishning mavjudligi, shuningdek, o'quv faoliyatidagi predmet va simvolik rejalarning to'g'ri nisbatidir.

E. N.Kabanova-Meller aqliy faoliyatning bir ob'ektda tarkib topgan usullarini boshqa ob'ektga keng va faol ravishda ko'chirishni aqliy rivojlanishning asosiy me'zoni deb hisoblaydi.

Hozirgi vaqtgacha ta'lim jarayonida o'quvchilarning aqliy rivojlanishga oid ayrim diagnostik metodlar ishlab chiqilgan. Bu metodlar maktab o'quvchilarining quyidagi parametrlarini o'lchashga qaratilagan: 1) o'quv materialini klassifikastiya qilish; 2) aqliy faoliyat usullari va ularning ko'chirish mumkinligi; 3) mustaqil ravishda bilim egallash; 4) tafakkurning "tejalishi"; 5) xususiydan umumiyga tomon siljish sur'ati (tezligi); 6) harakatlarning ichki rejasi va hokazolarni baholash hamda o'lchash.

Bundan tashqari, fikrlash jarayonini ta'minlovchi alohida ***operastiyalar mavjud:*** analiz, sintez, mavhumlashtirish, taqqoslash, umumlashtirish.

O'quvchilar bilimlarni egallash jarayonida ma'lum bosqichlardan o'tadilar. Pedagoglar o'quvchilarning bilimlarni egallash bosqichlarini yaxshi bilishlari kerak. O'quvchining bilimlarni egallash bosqichlari quyidagilardan iborat:

**Birinchi bosqich** – bu idrok etishdir. Psixologiyadan ma'lumki, idrok etish – maqsadga yo'naltirilgan bilish jarayoni demakdir. O'quvchilar nimani o'rganishi kerakligini bilishlari kerak. O'qituvchi vazifa qo'yishi va uni tushuntirishi shart. Agar o'quvchilar o'quv topshirig'ini anglab etmasalar, o'quv materiali bilan tanishtirishga o'tmaslik kerak.

**Ikkinchi bosqich** – bu o'quv materialini idrok etish bosqichi hisoblanadi. U bilimlarning nazariy tomonini alohida ajratib ko'rsatishdan va tahlil etishdan iboratdir.

**Uchinchi bosqich –** bu yod olish va mustahkamlashdir. Vazifa olingan bilimlarni uzoq vaqt davomida xotirada saqlab qolishdan iboratdir. Bu borada bilish faoliyati asosan, mashqlar, mustaqil ravishda reproduktiv va ijodiy ish qilish tarzida nomoyon bo'ladi.

**To‘rtinchi bosqich** – bilim, malaka va ko‘nikmalarni amaliy faoliyatda sinab ko‘rish.

O‘quvchilarning aqliy taraqqiyotini maksimal darajada rivojlantirish uchun yuqoridagi mezonlarni hisobga olish lozim.

O‘quvchilarning aqly rivojlanishi uchun o‘quvchining o‘zida faoliyatga nisbatan katta xoxish va istak uyg‘ota olish va turli mashqlar orqali mas’uliyat va javobgarlik hissini shakllantirib borish lozim. Masalan, “Bitim” mashqi bunga misol bo‘la oladi.

Pedagog (psixolog) tomonidan o‘quvchi bilan bitim (kontrakt) tuziladi va u quyidagi savollarga javob beradi:

| T/R | Savollar | Javoblar |
|---|---|---|
| 1. | Men o‘qish jarayonlari natijalariga ko‘ra o‘zimdagi qaysi fazilatlarni o‘zgartirishim kerak? | |
| 2. | Buni men qay tarzda bajarmoqchiman? | |
| 3. | Men qachon buni qilaman? | |

Bitimda ayniqsa shuni alohida ajratib ko‘rsatish kerakki, o‘z hatti-harakatining qaysi sohasini qayta qurishga zaruriyat bor? O‘zini kuchli va zaif tomonlari. Endi qunt bilan mustaqil o‘qish zarur. Bundan tashqari qilmoqchi bo‘lgan o‘zgarishlarining o‘qishga, do‘stlariga taalluqli bo‘lganlarni bayon qilib ham yozishi mumkin.

Tayyor bo‘lgan bitimlar konvertga solinadi, bunday kontraktga qo‘l qo‘ygan o‘quvchining aniq pochta manzili yoziladi. Konvertlar rahbarga beriladi, ma’lum vaqtdan so‘ng u konvertlarni egasiga tarqatadi. O‘quvchilar bilan hamkorlikda qanday darajada bajarilganligi va kelgusi rejalar tahlil qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quvchilarning aqliy rivojlanishi uchun avvalo ularning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini oqilona tashkil qilish hamda ularning shaxsi shakllanishi uchun differensial yondashish kelajakda mamlakatimizni jahon andozalari talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlash uchun xizmat qiladi.

# BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARI KASBIY KOMPETENTLIGI

**Ergashova Sadoqat Ismatullo qizi**
Surxondaryo viloyati
Termez shahar 12- umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy kompetentligini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishiga qaratilgan mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro dastur (PISA), PISA, kompetentlik, qobiliyat, kasbiy malaka, o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matematik savodxonligi va tabiiy- ilmiy savodxonlik, ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik

Hozirgi kunda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS nima uchun zarur bo'lib qoldi. Bu savolga javob berish uchun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning asosiy tarkibiy qismlariga e'tibor qaratish lozim. Ya'ni ta'lim tizimi, shaxs, davlat va jamiyat, fan va ishlab chiqarishdan iborat bo'lgan milliy modelning ayrim qismlaridagi ulkan o'zgarishlar, xususan, davlat va jamiyatning tubdan o'zgarishi, hayotimizga kirib kelgan axborotkommunikatsion vositalar, fanning eng so'nggi yutuqlariga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari va oldingi yoshlardan tubdan farq qiluvchi o'zgacha fikrlovchi yoshlarning vujudga kelganliklarini aytish mumkin.

Undan tashqari, butun dunyoda bo'layotgan ta'lim sohasidagi islohotlar ham, xususan Janubiy–sharqiy Osiyo davlatlari, Yevropa va Amerika qit'asidagi 10-15 yildan buyon amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlarni keltirish mumkin. Masalan, har uch yilda maktab o'quvchilarining o'zlashtirishini baholash bo'yicha Xalqaro dastur (PISA) jahon mamlakatlari ta'lim tizimi sifatini o'rganib chiqadi. PISA (Programme for International Student Assessment) dasturining maqsadi 15-16 yoshli o'quvchilarning maktabda berilayotgan ta'limni qay darajada o'zlashtirayotgani va ularni inson faoliyatining turli sohalarida qo'llay bilishini tadqiq etishdan iborat. PISA dasturi bo'yicha mutaxassislar tomonidan 15-16 yoshli o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matematik savodxonligi va tabiiy- ilmiy savodxonligi sinovdan o'tkaziladi.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda.

"Kompetentlik" (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. [1]

Kasbiy kompetentlik–mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rga-nishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

[1] Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Тошкент, 2015. – 120 бет.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari // Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – Toshkent, 2015. – 120 bet.

2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent-2019.

3. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash. (Matematika fani o‘qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent- 2019.

# O`QISH DARSLARIDA VIRTUAL KO'RGAZMALAR TIZIMIDAN FOYDALANISH

**Ibodullayeva Shaxnoza Oktamboyevna**
Xiva shahar 16-umumiy o`rta ta`limmaktabi o`qituvchisi
**Xudayberganov Xusanboy Shonazarovich**
Xiva shahar 16-umumiy o`rta ta`lim maktabi o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi kunda boshlang`ich sinflarda an'anaviy ko'rgazmalar qatoriga virtual ko'rgazmalar slaydlardan foydalanish haqida so`z boradi.
**Kalit so`zlar:** dars, kompyuter, internet tarmog`i, slayd, ko`rgazma.

Pedagogik texnologiyalar–pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan, aniq ishlab chiqilgan va qat'iy ilmiy loyihalashtirilgan, takrorlana oluvchi pedagogik harakatlar tizimidir SHundan kelib chiqqan holda darslarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, ularga qo'yiladigan zamonaviy talablar, darsda o'quvchilar faoliyatini yo'lga qo'yish va uni faollashtirish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darslarning ma'rifiy, tarbiyaviy, estetik jihatlari, o'quvchilarning mustaqil, ijodiy ishlarini tashkil etishning yo'l va usullariga alohida e'tibor qaratish lozim. Darslarni tashkil etishda oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tatbiq etishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimini yuzaga keltirish dars samaradorligini oshirishni kafolatlaydi. Bugungi kunda kompyuter texnologiyalari asri tobora kuchayib bormoqda va, ehtimol, ular o'zlarining dasturlarini topa olmaydigan inson faoliyatining biron bir sohasi yo'q. Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim — inson hayotida egallaydigan bilimlar olamining poydevori bo'lib hisoblanadi, kelajakda o'zlashtirib boradigan fanlarga, umuman o'qishga qiziqishi aynan bolaning ilk o'qituvchisi, boshlang'ich sinflarda egallagan savodxonligiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi davr boshlang'ich sinflar o'qituvchisi o'quvchi-bolalarni zamonaviy axborot jamiyati sharoitlarida o'qitish, ta'lim va tarbiya berish, ularga dastlabki bilimlarni zamon ruhiga muvofiq ravishda, yetkazib bera bilishi zarur. O'qitishning asosiy maqsadi — o'quvchi bolalarning bilimlarni o'zlashtirish hamda ta'lim jarayonida olgan axborotlardan amaliy foydalanish jarayonlarini ham anglab borishga o'rgatishdan iborat. Ma'lumki, kompyuter qurilmasining o'ziyoq bolani o'ziga qiziqtirib jalb etadi, bolani tezroq bilishga undaydi. Kompyuterdan foydalanib, o'tilgan har bir dars o'quvchilarda emotsional ko'tarinkilikka, muvaffaqiyatga erishishga, topshiriqlarni bajarish uchun intilishga majbur etadi. Dars o'tishning bir qator tamoyillari mavjud bo'lib, ko'rgazmalilik yetakchi tamoyillardan hisoblanadi. Deylik, o`qish darsida biron bir ertak o'rganilmoqda. Internet tarmog'idan shu ertakka doir anchagina ma'lumotlar jumladan rasmlar, hattoki video materiallar ham jamlanadi. O`quvchilarda esa vizual eslab qolish o`qib tasavvur qilgandan ko`ra kuchliroq rivojllangan. Ammo bu ertak matnining tahlilini orqa planga surmasligi, aksincha unga yordam berishi kerak. Bugungi kunda ko`pgina ertaklarga multfilmlar ishlangan. Ertak o`rganilganda ertag asosida ishlangan multfilm namoyish qilinadi. Tabiatshunoslik fanidan "O`lkamiz tabiari" mavzusi o`rganilganda O`zbekiston tabiat manzaralaridan lavhalar, O`zbekistonnig hayvonot olamidan namunalar slaydlarda yoki vodeolavhalarda namoyish qilinadi. O`qituvchi oddiy slaydlar yordamida ham ko'rgazmalilikning o'ziga xos shaklini yuzaga keltira oladi. Ko'rish va eshitish bilan bog'liq bo'lgan ko'rgazmalilik ta'lim oluvchidagi ijodiy tasavvurni faollashtirish bilan omuxtalashib sinfdagi ertak tahliliga jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsata oladi. Kompyuter texnologiyasining afzalligi shundaki, u o'zida ko'rgazmalilik tamoyilini uzluksiz tarzda mujassamlashtiradi; har xil kontselyariya materiallariga sarflanadigan xarajatlarni inkor qiladi; bir o'quv materialining qayta-qayta ishlatishiga yo'l ochadi; tavsiya etilayotgan materialning ko'rinishi, shakli, hajmiga istagan tarzdagi o'zgartirishlarni zudlik bilan kiritish imkonini beradi; o'quvchilar bilan individual ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ta'lim oluvchilarda mustaqil va ijodiy ishlashga rag'bat uyg'otadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ziyomuhamedov B. Pedagogika. -Toshkent, 2006.
2. R.Ishmuxamedov, L.Abduqodirov, A.Pardayev. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. — T., 2008.

# BOSHLANG`ICH SINFLARDA O`QISH DARSLARIDA O`QUVCHILARNING BILIMINI OSHIRISH .

**Ibragimova Munojot Davronovna**
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
5-umumiy o`rta ta`lim maktabi
boshlang`ch sinf o`qituvchisi
Telefon : +998(94)254 66 88
shokirova_188 @mail.ru

**Annotasiya**: Ushbu maqola boshlang`ich sinf o`quvchilariga savod o`rgatish jarayonida ularga diktantlar o`rgatish, interaktiv usullar orqali diktantlar o`tkazish borasidagi ma`lumotlar berilgan..

**Kalit so`zlari**: Boshlang`ich ta`lim, o`zbek xalqi, Davlat ta`lim standarti, Xalqaro baholash dasturlari, sifatli ta`lim, texnik elementlar, kasbiy kompetenlik.

Boshlang`ich sinflarning o`qish darslari o`z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko`ra ta`lim tizimida alohida o`rin tutadi. O`quvchi matnni to`g`ri, tez, tushunib o`qish, mazmunini o`zlashtirish bilan ilk bor o`qish darslarida yuzlashadi. O`qish darslari orqali o`quvchilarning Davlat ta`lim standard (DTS) talablari bo`yicha o`zlashtirishlari ko`zda tutilgan o`quv-biluv ko`nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashga yo`l ochiladi.O`qish darslarida insonning, avvalo, o`zligini, qolaversa olamni anglashga bo`lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda „O`qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o`rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma`naviy qadriyatlar, xalqlar do`stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo`yicha atroflicha tushunchalar berishga mo`ljallangan badiiy, axloqiy-ta`limiy, ilmiy- ommabop asarlar kiritiladi.O`qish darslari savod o`rgatish davrida o`quvchilarni bo`g`in, so`z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o`qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o`qish texnikasi egallangandan so`ng o`qish muayyan mavzular bo`yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi. Boshlang`ich sinf „O`qish kitobi" darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o`quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to`g`ri shakllantirishga qaratilishi bilan beigilanadi. Shunga ko`ra, o`qish darslarining yetakchi xususiyati o`quvchilarning savodxonligini ta`minlash bilan birga, o`quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Har qanday sohada rivojlanish jadal sur`atlarda davom etmoqda. Ana shu jarayon bilanh hamohang holatda ta`limda, boshlang`ich sinflar bosqichida ham yangiliklar, o`zgarishlar, sifatli ta`lim jarayonlari muhim, albatta. Bunda asosan pedagogik kadrlarni o`rni katta. Bir necha yillik tajribaga tayangan holda shuni aniq ayta olamanki, boshlang`ich sinf o`quvchilarining ta`limtarbiya sifatini oshirishning birinchi fundamenti bu sinf o`qituvchilarini tayyorlaydigan oliy ta`limdan boshlanadi. Avvalo insonda ustoz bo`laman degan qiziqish, qobilyat va ma`sulyatni his qila oshish hissi bo`lishi kerak. Qolaversa bilim yurtida beriladigan ta`limni tushunarli holda o`z ongiga singdira bilgan talaba keyinchalik amaliyot jarayonida qiynalmaydi. Bilim berish bilan birga amaliyotni ko`paytirish kerak. Chunki kelayotgan amaliyotchi xuddi yangi zamonga tushib qolganday sezmasligi kerak.

Bundan tashqari barcha pedagoglar besh yildan oshmagan holda o`z vaqtida pedagoglarning malakalarini oshirish hududiy markazlarida malaka oshirib zamon talablariga mos holdagi yangi metodlardan va yangiliklardan xabardor bo`lishi zarur.

Boshlang`ich sinf o`qituvchisi berayotgan ta`lim zamon talablariga mos holda bo`lishi uchun texnik elementlarni aniq bilishi hamda ularni ta`limiy tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarda q`llay olishi lozim. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini hududiy qishloq, shahar va yoshini hisobga olgan yondashilsa o`qituvchi hamda o`quvchi uchun ham qulaylik yaratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. Umumiy o`rta` ta`limning davlat ta`lim standari. T:.2005
2. 2-3 sinf "O`qish" darsliklari T.: 2013.

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING O'RNI

**Karimova Dilfuza Tojiyevna**
**Xojiyeva Salomat Kuchkorovna**
Zangiota tumanidagi 42-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchilari

**Аннотация:** Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf, pedagogik texnologiya, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, erkin va ravon nutq.

O'quvchining ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uni pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'llari va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kelgusi faoliyatga tayyorlashda, pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga tayyorlash bugungi ta'limning oldiga qo'yilgan talablardan biridir[1].

Boshlang'ich sinflarda ekspremment tarzda o'quvchilar qo'shimchasiz so'zlar vositasida gaplashadilar. O'qituvchining vazifasi qo'shimchalarsiz ma'no chiqmaydigan gap topishdan iborat. Masalan: "men uy vazifasi bajar keyin singil tekshir" kim- kimni tekshirdi. Bunda qo'shimchalarni qo'shish lozim bo'ldi. Lekin o'quvchilar qo'shimchalarsiz umuman tushunib bo'lmaydigan gap izlashdi, shuning uchun shunday xulosa qilinadi. Ma'no hosil bo'lishi uchun avval harakatlanuvchi shaxsni so'ng bu harakatni belgilovchi so'zlarni joylashtirishi kerak jumladan bu holatda "men dars qilmoq" so'ng "singil tekshirmoq". Shunday qilib o'quvchilar so'z va jumla vazifalarini aniqlaydilar va so'zlarning bir-biriga bog'liqligini tushuna boshlaydilar, keyingi bosqichda imo-ishoralar yordamiga keladi: "ruchkaning yozishni istamayman" ma'nosini ifodalash keyingi holda esa: "ruchka yozishni istamaydi" gap muhokama qilganda afsuski xat orqali bu imo-ishorani ifodalash mumkin emasligini ma'lum boldi. Bunda yagona yo'l so'zlarni o'zgartirish bo'lib qoladi. O'quvchilar o'z-o'zidan yangi uslublar ishlashga kirishadilar istak uyg'otish vazifasi bajarildi. Ba'zi tashabbuskorlar yangi uslub taklif qilmoqdalar yangi boshqa so'zlar tanlab ularning o'rinlari bilan almashtirish uslubidir. Shunda gapning ma'nosi ochilib boradi. Masalan: "men shu ruchka yozishi xohlash" yoki "bu ruchka yozish xohlamaslik" kabi o'qituvchi yoki o'quvchi oldida yangi vazifa vujudga keladi, so'zlarning o'rni o'zgarishi bilan yangi ma'no vujudga kelmaydi. Aniqlanishicha bunday gapda so'zlar almashuvchi asosiy ma'noni keltirib chiqarmaydi. Shuning uchun ham xorijliklarga uzun gap tuzish taklifi beriladi. Shunda ularni tushunishni asoslashadi. Qisqa gaplarda esa vaziyat ancha murakkablashadi. Bolalar tomonidan tuzilgan gaplar orasida quyidagi gap eng nufuzli bo'ladi: "opam yoqadi it dezi" hech kim bu gapning ma'nosini topa olmadi. Kim kimga yoqadi. Shunda barcha o'quvchilar bir ovozdan gramatikani o'rganish kerak degan fikrga keladilar. Bu misol o'quvchilarda taraqqiylashgan uslubda dars berishda istak uyg'otishning ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Dars jarayonida o'tilgan mavzuni so'rash va yangi mavzuni tushuntirishda o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, erkin va ravon nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, do'stona aloqalarni to'g'ri raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning amaliy mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalar, AKT, elektron darsliklar va harakatlanuvchi(animatsion), multimedia vositalaridan foydalanib dars mavzusinini qiziqarli va o'quvchilarga oson yo'l bilan tushuntirish olishi muhimdir. Bu esa o'quvchilarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalash, o'quv faoliyatini tahlil qilish, kelajarda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini oshirib borish bugungi kunning talablaridan biridir.

[1] J.G'.Yo'ldoshev. S.A.Usmonov "Pedagogik texnologiya asoslari". -T.: O'qituvchi, 2004.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish, noan'anaviy usullarni qo'llash bu o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishllash jarayonining o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorligini oshirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir. Zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limni takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir. Mustaqil O'zbekistonimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishni yangi Davlat ta'lim standartlari asosida tashkil etishga qaratilgan. Hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'lim jarayonida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning pedagogik fikrlashida o'rin ola boshlagan pedagogik texnologiyani dars jarayonida qo'llashga oid tavsiyalar o'qituvchilar uchun juda zarur. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan. O'quvchilarni boshqalar fikrini eshitishi, tushunishi, hurmat qilishi, o'zgalar manfaatlari bilan hisoblashishi, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish. Darsda pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchini jamoada ishlash qobiliyatini oshiribgina qolmay uning o'z fikrini to'la qonli bayon eta olish ko'nikmalari shakillanib borishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. T., 2003-yil
2. Abduqodirov A. "Ta'limda innovatsiya" T;. Istedod -2010
3. Yo'ldoshev J.G'., S.A.Usmonov S.F. "Pedagogik texnologiya asoslari". - T.: O'qituvchi, 2004.
4. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tadbiq etish bosqichlari. - «Xalq ta'limi», 1997-yil 4-son.
5. Sayidaxmedov N.S., Ochilov A., Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi.- RTM, 2000-yil

# BOSHLANG`ICH SINFDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI TASHKIL ETISHNING YO`NALISHLARI

**Karimova Gulnoza G'aynazarovna**
Namangan viloyati Chust tumani
10– umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Tel: (93) 267-98-87

**Annotatsiya:** Bu maqolada boshlang`ich sinfda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning yo`nalishlari haqida fikirlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Integratsiya, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, nutq.

Prezidentimiz alohida ta'kidlaganlaridek, «Agar bolalar erkin fikrlashga o`rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo`lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak.

Ammo bilim o`z yo`lida. Mustaqil fikrlash esa katta boylikdir. O`qituvchining bosh vazifasi o`quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko`nikmalarini hosil qilishdan iborat.

"Ta'lim to`g`risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish uchun zamon talablariga javob bera oladigan oliy ma'lumotli o`qituvchilarini malakasini oshirish uzluksiz ta'limning muhim vazifalaridan biri bo`lib qolmoqda. Davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan bilimlar bilan o'quvchilarni qurollantirish ko'p jihatdan ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish, ayniqsa, uni integratsiyalashtirilgan ta'limni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchilarni faollashtirish, o'zi va o'rganuvchilar uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga suyangan holda o'quv jarayoni samaradorligini integratsiyalashtirilgan ta'lim orqali rivojlantiradi.

Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqea hodisalarni bir necha tomondan korishi muhim: mantiqiy va emotsional tomondan badiiy asarda hamda ilmiy-ommabop maqolada biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazaridan va boshqalar.

Fanlararo integratsiya – bir necha o`quv predmetning bir- biriga taalluqli sohalarini ko`rsatish emas, balki integratsiyalab o`qitish orqali o`quvchilarga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir. Olimlarning ta'kidlashicha, integratsiya o`quvchi dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi.

Integratsiyalab o`qitish o`quvchi shaxsida mustaqil ishlash, ijodiy qobilyatlarni shakllantirish, darslarda faol ishtirokning yuzaga kelishi orqali bilim, ko`nikma va malakalarni egallaydi. Integratsiya asosi etib, bir darsning mazmuni va uni o`tkazish strukturasi olinadi, uni boyitish uchun boshqa fanlarni ham jalb qilishimiz mumkin. Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'likligini ko'rsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak.

Odobnoma, musiqa madaniyati, tasviriy san'at, mehnat, jismoniy tarbiya. bu fanlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq va bu fanlarning maqsadi axloqiy, estetik tarbiya berishdir. Nutq o'stirish -harflarii to'g'ri talaffuz etish va yozish, so'zlarni to'g'ri o'qish va yozish; gap ohangiga rioya qilgan holda ravon obrazli o'qish; gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks etishi va yozilishi; fikr bayon qilish uchun zarur bo'lgan ayrim grammatik vositalarni o'z o'rnida qo'llay olish, xalq og'zaki ijodi hamda bolalar adabiyoti namunalaridan olingan parchalarni o'qib tushuna olish kabi talablarni o'z ichiga oladi. Deyarli har bir darsning maqsadi nutq o'stirishga qaratilgandir. Asosan, ona tili va o'qish, sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilar nutq o'stirish bilim, ko'nikma va malakalariga ega bo'lsalar, rus tili, matematika, tabiat, odobnoma, musiqa madaniyati, tasviriy san'at, mehnat, jismoniy tarbiya darslarida uni mustahkamlab, to'ldirib boradilar. Tabiatshunoslik darsida ya'ni 4-sinfning tabiatshunoslik darsligida bir qancha O'zbekistonning geografik o'rni, o'rmonlari, hayvonot olami, yer osti qazilma boyliklari haqida matnlar berilgan bo'lib, bolalar bu matnlarni o'qib, gapirib berish davomida nutq o'stirish jarayoni ro'y beradi: masalan, 3-sinfning odobnoma darsida 4-darsning mavzusi «Qarilik donolik» (1 soatlik) berilgan. Bu darsda o'qituvchi «Qobusnoma» kitobini ko'rsatib, undan qariyalar haqida, «Qari1ik va yigitlik sifati zikrida» bobi

oʻchib beriladi va muhokama etiladi. Xalq maqollaridan misollar keltirib, ahloqiy tarbiya beriladi. Oʻqish darsligining deyarli koʻp mavzulari ahloqiy tarbiyaga qaratilgan. 4 - sinfning oʻqish darsligida «Salomlashish odobi» degan mavzu bor. Bunda: Salom-salomatlik ma'nosini ifodalaydi. Agar sendan necha mavridda salomlashish kerak, deb soʻrasalar, yetti holatda deb javob bergin. Avvalo, yoru doʻstlarni, katta-kichiklarni, aka-ukangni koʻrganda salom berishing lozim deb ko`rsatib o`tilgan. 4-sinf matematika darsligini koʻrib chiqsak, bunda matematik terminlar orqali, oʻlchov birliklari, masalalar, amalni ogʻzaki bajarish orqali nutq oʻstirish jarayoni roʻy beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, demak, fanlararo integratsiya mavjud, ya'ni fanlararo uzviylik bogʻliqlik mavjud. Chunki har bir fanning maqsadi shuki, bolalardagi nutq oʻstirish, axloqiy tarbiya, ekologik tarbiya, estetik tarbiya kabi ijobiy sifatlar barcha fanlarda oʻz aksini topgan.

**Adabiyotlar:**

1. Umarova M, Hamraqulova X, Tojiboyeva R. "Oʻqish" umumiy oʻrta ta'lim maktablarining 4-sinf uchun darslik. –T: Oʻqituvchi, 2019.

2. M.Holiqova, SH.Ergasheva "Odobnoma" umumiy oʻrta ta'lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. –Toshkent: 2019.

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA TEXNOLOGIYA FANINING AHAMIYATI

**Qosimova Dilrabo Qosimovna**
Buxoro viloyati Kogon shahar
1-umumiy o'rta ta'lim maktab
texnologiya fani o'qituvchisi.
Telefon: +998(94)3245055

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda texnologiya faning asosiy maqsadlarini, mehnatga muhabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkinligi va texnologiya fani o'qituvchisi ta'lim berish jarayonida o'quvchilarni to'g'ri kasb tanlashga tayyorlashi haqida fikr yuritilgan

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya,kasb-hunar, xulq-atvor

*Mehnat tagidadir ey oqil, har ganj*
*Ganj topmas kimga, topmas esa ranj.*
*Firdavsiy.*

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergan, chunonchi, ta'lim – so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish - harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb- hunarning chinakam shaydosi bo'lishini aytgan. Bu mulohazalardan anglashilib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo'lib kelgan. Forobiyning fikricha, insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug'ma emasdir, aks holda uning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug'lik bo'lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda podshohlar ham o'zlari ishlab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiy bo'lib qolar edi. Nazariy va buyuk fikriy fazilat ulug' tug'ma fazilat va ulug' (kasb-hunar ) fazilati odat – malaka bo'lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo'ladi, bunday odamlar cheksiz, juda kuchli tabiat va irodaga egadirlar.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya faning asosiy maqsadlaridan biri, o'quvchilarda inson uchun mehnat birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, shuningdek har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Mehnatga muhabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. Shuning uchun ham texnologiya darslarida deyarli 80 foiz vaqt amaliy ishlar uchun ajratilgan.

O'qituvchi o'quvchining alohida xususiyatlarini payqab , unda mavjud iste'dod nishonalarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarini bartaraf etishi mumkin. Bolaning kasbiy muhim xislatlarini oldinroq anglash esa, keyinchlak unga o'z qobiliyati va xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash , uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish , mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini beradi.

Ko'pgina olimlar o'tkazgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang'ich sinflardayoq shakllanar ekan. Bunda texnologiya fanining ahamiyati katta hisoblanadi. Bu fan orqali boladagi qiziqish qobiliyati uning boshlang'ich sinfidan shakllantirib boriladi.

Bolada ijodiy qobiliyatni shakllantirish, dunyo qarashini kengaytirish, uni dunyoning oq va qora jihatlarini tasavvur qila olishga , o'rgatishga aynan texnologiya, tasviriy san'at fanlari orqali amalga oshiriladi.

*Jim kasbini qildi to joni bor,*
*Hunar o'rgandi onga ki imkoni bor.*

X asrda yashab ijod etgan ulug' bobokalonimiz Abu Nasr al- Forobiy ham kishilarni halol mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga chaqiradi. Forobiyning fikricha: «Inson ojiz banda, hech narsaga qodir bo'lmagan mavjudod emas, balki u eng oliy kamolot natijasi bo'lib o'z aql-idrok ziyosiga ega, o'zi ucluin zarur bodgan hamma narsani yaratishga qodir borliqdir». Forobiy mehnat va kasb-hunar ko'nikmalarini, axloqiy fazilatlarni hosil qilish lozimligini ta'kidlab: «Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda, podshohlar ham o'zlari istab va harakat qilib emas, balki

podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muvassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo'lib qolar edi. Kasb- hunar fazilati tug'ma bo'lmas ekan, xalqlar va shahar ahllarida, odob-axloq, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilishi insondan zo'r kuch va qudrat talab qiladi. Bu ikki yod bilan, ya'ni tadim va tarbiya vodi bilan hosil qilinadi. Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharlar o'rtasida nazariy fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir», — degan edi.

Texnologiya fani o'qituvchisi nafaqat o'quvchilarni badiiy- ijodiy qobiliyatini o'stiradi, balki ularni to'g'ri kasb tanlashga tayyorlaydi. Maktablarda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini yo'lga qo'yishda an'anaviy amaliy mashg'ulot olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Bugun zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni, xorijiy tillarni puxta egallab, katta umid va ishonch bilan hayotga qadam qo'yayotgan, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan farzandlarimizning munosib kamol topishida biz o'qituvchilardan kuchli bilim va iste'dodni talab qiladi . Biz shunday yuksak cho'qqilarga albatta erishamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. X.Sanoqulov., D.Xodiyeva., M.Satboyeva . Mehnat va uni o'qitish metodikasi. Toshkent- 2015 y.

2. G.N.Ermatova "Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar".-T.: " Молодой ученый" 2019 y.

# INFORMATIKA FANINI O`QITISHDA TEST TOPSHIRIQLARI TUZISH VA UNING USLUBIY JIHATLARI

**Sattarova Sapura Beknazarovna:**
UrDU akademik litseyi aniq fanlar kafedrasi bosh o'qituvchisi.
Elektron pochta: sapurasattarovaofficial@gmail.com
**Sattarova Surayyo Beknazarovna:**
Urganch shahar 4-son umumta'lim maktabining
informatika fani o'qituvchisi.
Elektron pochta: surayyosattarova20@gmail.com

**Annotatsiya:** Pedagogik texnologiyalarning ajralmas qismi bo`lgan test topshiriqlari barcha o`quv fanlarida bilimlarni tekshirishning asosiy usuli bo`lib qoldi, ayniqsa, XX asrning 90–yillaridan boshlab mamlakatimiz ta'lim tizimiga kirib kela boshladi..Shuning uchun men ushbu maqolada"Informatika fanini o'qitishda test topshiriqlari tuzish va uning uslubiy jihatlari" mavzusini yoritdim.

**Kalit so'zlar:** Testologiya, maqsadga erishuv testlari, ijodiy testlar, mezoniy mo'ljal testlari, shaxsga oid testlar, proyeksiyaviy testlar

Testologiya, ya`ni o`qitish maqsadlarini test topshiriqlarida ifodalash pedagogik texnalogiyalarning oxirgi bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu shundan dalolat beradiki O`zbekistonda yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llash uning oxirgi bosqichidan boshlangan.

**Hozirgi davrda testlar quyidagi turlarga ajratiladi**

- ✓ maqsadga erishuv testlari - bilimlarni o'lchashga qaratilgan;
- ✓ aqliy testlar - zehn, aql-idrok, iste'dodni aniqlashga qaratilgan
- ✓ ijodiyot testlari - ijodkorlik, bunyod etishlik darajalarini tekshiruvchi;
- ✓ mezoniy mo'ljal testlari -o'quv yoki kasbiy bilimlar va topshiriqlarni
- ✓ qaysi ko'nikma, malaka, hatti-harakat tizimi orqali o'lchash mumkinligi;
- ✓ shaxsga oid testlar xususiyat, bezovtalanish, sifat, fazilat, xislatlarni o'lchashga aloqador;
- ✓ proyeksiyaviy testlar -tashqi ta'sirsiz shaxs o'zini o'zi oshkor qilishiga mo'ljallangan va boshqalar.

**Hozirgi paytda jahonda testlarning juda ko`p turlari mavjud, ulardan eng asosiylari quydagilar:**

- ✓ Ko`p javobli testlar;
- ✓ uyg`unlashgan savolli testlar,
- ✓ tushurilib qoldirilgan so`zlarni to`ldirishga mo`ljallangan testlar,
- ✓ rasmli yoki chizmali testlar,
- ✓ murakkab testlar,
- ✓ jadval shakldagi testlar,
- ✓ didaktik testlar yoki ko`p savolli va javobli testlar.

**Test imtihonlari afzalliklari**

Tajribadan shu narsa ma`lum bo`ldiki, testlar asosida talabalar bilimini baholashning bir qator afzalliklari bor. Jumladan, test usuli oddiy va qulay, xolisona va qisqa muddat ichida talaba bilimini namoyon qiladi. Eng muhimi, avvalgi odatiy imtihon olish uslubi paytidagidek, talabalar o`qituvchiga qiyin savol berdingiz, men hammasini gapirdim, menga dastur materiallarida yo`q savolni berdingiz kabi da'volari va baho talashish kabi nomaqul vaziyatlar bo`lmaydi. Avval imtihon oluvchi o`qituvchi javob berayotgan talabaning baholash bilan bir qator auditoriyadagi imtihonga tayyorlanayotgan bolalarni ham nazorat qilib turishga majbur edi. Javob berayotgan talaba tayyorlanayotganlarning xayolini chalg`itar edi.

**Test validligi.**

Test bitta savol va unga bir nechta javob tariqasida tuzildi. Imtihon topshiruvchi dastlab oshiqmasdan diqqat bilan 2-3 marotaba javoblarni o`qib chiqishi zarur. Chunki o`chirib yozish, birini o`chirib boshqasini belgilash qat`iy man qilinadi. Javobi to`g`ri bo`lganini bir martagina aniqlanadi va ko'rsatilgan shaklda belgi qo`yiladi. Testning bosh xususiyati o'rganilayotgan o'quv materialiga validligidir. Validlik ham inlizcha "valid" so'zidan olingan bo'lib "haqiqiy", "yaroqli" degan ma'nolarni anglatadi. Ma'nosidan ko'rinib turganidek validlik o'zgartish darajalariga

daxldor hodisadir. U yoki bu mavzu bo'yicha test topshiriqlari tizimini loyihalashda o'zlashtirish darajalari va ularga oid natijalar shuniningdek testning validligi hisobga olinadi. Testning validligi – testda berilgan topshiriqning mazmuni o'quv materialini o'zlashtirishning 1-darajasi va birinchi darajadagi faoliyat-ko'nikma darajasidagi hatti-harakatlarga, 2-darajasi va 2-darajadagi faoliyat malaka darajasidagi hatti-harakatdir, 3-darajasi uchinchi darajadagi faoliyat - tushuncha darajasidagi hatti-harakatlarga mos bo'lishi lozim. O'zlashtirishning 1- darajasiga mo'ljalab tuzilgan testlar tizimi joriy nazoratni, 2-darajasi uchun tuzilgan testlar tizimi oraliq nazoratni, 3-darajasi uchun tuzilgan testlar tizimi yakuniy nazoratni o'tkazish vositasi bo'ladi. Test nazorati natijalari qabul qilingan etalonga ko'ra qayd qilinadi.

**Test topshiriqlari didaktik materiallar sirasiga mansub bo'lib, u quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:**

✓ Test topshiriqlarining ta'limiy vazifasi. Test topshiriqlari o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalaridagi tipik kamchiliklarni aniqlaydi hamda ularni o'z bilimlarini orttirish maqsadida yangi bilimlarni o'rganishga undaydi.

✓ Test topshiriqlarining ta'limiy vazifasi. Test topshiriqlari o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalaridagi tipik kamchiliklarni aniqlaydi hamda ularni o'z bilimlarini orttirish maqsadida yangi bilimlarni o'rganishga undaydi.

✓ Test topshiriqlarining rivojlantiruvchi vazifasi. Test topshiriqlari o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, rivojlantirish, erishilgan natijalarda o'zining ulushi muhim o'rin tutishini e'tiborga olgan holda shaxs sifatida va kelgusi faoliyatidagi ma'suliyatini anglagan holda o'z-o'zini rivojlantirishga undaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:**

1. Begimkulov U.SH., Djuraev R.X., Isyanov R.G.,SHaripov SH.S., Adashboev SH.M., Tsoy M.N. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot,Toshkent: – 2011.
2. Zakirova F. va boshqalar. Elektron o`quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. -Toshkent: OUMTV. – 2010. – 64 b.

# UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

**Shahobidinova Farida Mamatjanovna**
Angren shahar 13 – umumiy o'rta ta'lim maktabining
I-toifali ingliz tili fani o'qituvchisi
Tel: +998942163375

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar metodlarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy, innovatsiya, boshlang'ich, o'yin, ta'limiy, ta'lim.

Ingliz tili bugungi jamiyatning tili. Uni bilmay turib yaxshi ishga joylasha olish, birorta sayohatga jo'nab ketib, usiz bemalol muloqotda bo'lish amri mahol. Bu til har bir mamlakatda alohida ehtiromga sazovor. Uni yaxshilab o'rganib olib siz o'zingiz uchun yangi texnologik olamni kashf etasiz va shu olamda juda ko'p qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Biroq chet til o'rgatish juda mas'uliyatli kasbdir. O'qituvchilar juda bilimli va shu bilan bir qatorda sabrli bo'lishlari lozim. Chunki bolalar til o'rganish davomida ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishlari tabiiydir. Ma'lumki, ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub. Bu esa til o'rganuvchilariga fonetik, leksik va grammatik qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir.

Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda, quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelmoqda:

***"Quvnoq topishmoqlar"*** (Merry riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish. Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar.

***"Tezkor javob"*** (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi.

***"Chigil yozdi"*** (Warm-up exercises) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish.

***"Pantomima"*** (Pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, o'quvchilar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi.

***"Hikoya zanjiri"*** (A chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini oshirishda va xotirani mustahkamlashda yordam beradi.

***"Rolli o'yinlar"*** (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin

***"Rasmlar so'zlaganda"*** (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, o'quvchilarning o'g'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim.

***"Kviz kartochkalari"*** (Quiz cards) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o'quvchilar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi.

***"Rasmli" o'yin.*** O'quvchilar Present continious tarkibini yaxshiroq o'zlashtirishlari uchun rasmli o'yinni qo'llash mumkin. O'quvchilarga hali ko'rmagan rasmlaridagi personaj nima qilayotganini topish taklif etiladi. Masalan, "P1: Is the girl sitting at the table? P 2 : No, she is not. P1: Is the girl standing? P 2:: Yes, she is". Rasmda ifodalangan harakatni to'g'ri topgan o'quvchi g'olib xisoblanadi. U boshlovchi bo'lib boshqa rasmni oladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, ehtiyojni to'la qondirishga yordam beruvchi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning mustahkam mexanizmini ishlab chiqish muaommoning amaliy yechimini ta'minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Iriskulov A.T Kids' English pupil's book 2-sinf -Toshkent 2014
2. Xoshimov O'. Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. T., - 2003

# BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA ELEKTRON DARSLIKLARDAN FOYDALANISH

**Sobirova Shoxista Foziljon qizi**
Norin tumani 11-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
tel:+998995134612

**ANNOTASIYA:** Mamlakatimiz kelajagi bugun maktablarda ta'lim–tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib yetishishlarida boshlang'ich ta'limning ahamiyati va uni o'qitishda elektron darsliklardan foydalanish usullari haqida fikrlar yuritilgan

**KALIT SO'ZLAR:** boshlang'ich ta'lim, axborot texnologiyalari, elektron darslik

Mamlakatimiz kelajagi bugun maktablarda ta'lim–tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib yetishishlariga bog'liq. Bu ma'suliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'z mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini to'g'ri anglashlari va uni o'z darslarida mohirona foydalanishlarini taqazo etadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axbor ot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan–kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi zamonaviy o'qitish metodlarni va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishni yaxshi bilmog'i lozim. Darslarda multimedia vositalaridan foydalanish ham bir qancha afzalliklarga ega. Multimedia deganda turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Multimedia bir vaqtning o'zida turli ko'inishdagi axborotlardan: matn, grafika, tovush va boshqalardan foydalanishni ko'zda tutgan foydalanuvchi interfeysining konsepsiyasi. Multimedia-bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir. Multimedialardan dars jarayonida foydalanish bir qancha imkoniyatlarni beradi:

-O'quvchilarda fanga qiziqish uyg'otadi. -Mavzuni tez tushunib olish, berilayotgan materialni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish

-Vaqtni tejash va vaqtdan unumli foydalanish - Axborotlarni tezkor olish

-Olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq vaqt saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash -darsni zamonaviy tarzda modellashtirish

-fan bo'yicha qo'shimcha ma'lumot, axborotlarga ega bo'lish kabi bir qancha imkoniyatlarni beradi. Boshlang'ich ta'limda 1-4-sinflar uchun yaratilgan multimedia ilovalar biz pedagoglar uchun juda katta imkoniyat eshiklarini ochdi. Multimedia ilovalarda berilgan animatsiya, multfilm, test topshiriqlari, mantiqiy topshiriqlar, video materiallar, didaktik o'yinlar, lug'at ishi, dam olish daqiqasi uchun mo'ljallangan materiallar, qo'shiqlar o'quvchilarga nafaqat puxta bilim beribgina qolmay, ularda mustaqil fikrlash va mustaqil ishlash malakasini shakllantirishga yordam beradi. Shuninigdek o'quvchilarning ijodiy fikrlash doirasini rivojlantirish, vatanparvarlik va milliy g'ururni shakllantirish, ona vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, tabiatga ongli munosabatni tarkib toptirishga yordam beradi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda elektron darsliklar, multimedia ilovalar o'qituvchiga yaqin ko'makdoshdir. Shu o'rinda buyuk olim Konfutsiyning "Aytib ber-men unitaman, ko'rsattushunaman, bu narsani o'zim bajarishim uchun sharoit yarat va men o'rgan aman" degan ta'limotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'z tajribamdan shunga amin bo'ldimki, o'quvchi eshitsa 60%, eshitsa va ko'rsa 80%, eshitsa, ko'rsa va bajarsa 100% bilimga ega bo'lar ekan. Buning zamirida o'qituvchining mahorati va albatta bilim darajasi alohida o'rin tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'rida"gi Qonuni. Barkamol avlod—O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.Sharq.1997.

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA FANLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION METODIKALARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

**Ubaydullayeva Feruza Habibullayevna**
Norin tumani 11-maktab
boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi
tel: +998996190678
feruzaubaydullayeva@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** ushbu maqola orqali bosjlang'ich ta'lim metodikasini o'qitishda bir qator innovatsion metodikalardan foydalanish yo'llari haqida fikrlar yurililgan.

**KALIT SO'ZLAR:** metodika, Kognitiv metod, Eksperimental metod, Amaliyot orqali o‘qitish

O‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani boshlang‘ich sinflarda amalga oshirish muhim hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik o‘quv predmeti sifatida fanlarni o‘qitish metodikasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan puxta bilmog‘i va tanish bo‘lishlari lozim. O‘qitish metodikasini yaxshi bilish boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisiga bolalarni o‘qitishni to‘g‘ri tashkil qilish imkonini beradi. Metodika o‘qituvchini fanlarni o‘qitish nazariyasi bilan qurollantirib, o‘qitish mahoratini egallab o lishga imkoniyat yaratadi. O‘quv materiallarining mazmunini ochib berishda xilma-xil o‘qitish metodlaridan foydalanishga turlicha yondashish mumkin. Metodni tanlashda shuni nazarda tutish kerakki, bu tanish metodlar rivojlantiruvchi ta'limning vazifalarini ta'minlasin, o‘quvchilarning bilish qobiliyatini faollashtirsin. Ayni bir paytning o‘zida qayta axborot bersin. Ya'ni muvaffaqiyatsizlik sababini aniqlash va o‘z vaqtida yordamga kelish uchun o‘quvchilar tomonidan yangi bilimlarning qanday o‘zlashtirilayo tganligini tez va aniq ko‘rsatib bersin. Shunga ko‘ra darslarda amaliy ishlar, suhbatlar, mustaqil ishlardan ko‘proq foydalanish, bunda tadqiqiy yondashish, murakkab bo‘lmagan tahlil va sintez, taqqoslash xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari va umumlashtirish, hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishlarni aniqlash dars mashg‘uloti samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda barcha fanlarni o‘qitishda quyidagi innovatsion metodikalardan amalda keng foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Kognitiv metod. Bilim va bilish ma'nosini anglatadi. Bu metod o‘quvchilarning jamoa tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan, u yoki bu shakldа jamoa muhokamasini tashkil etadi.
2. Eksperimental metod. Bu metod o‘quvchilarning jonli va shaxsiy tajriba orttirishiga yo‘naltirilgan. Bunda darsda olingan bilim asosida mashq bajarish va misol yechish ko‘nikmasini hosil qiladi.
3. Rolli o‘yinlar, modellashtirish metodi. Bu metod hayotiy vaziyatlarni modellashtirish hamda ma'lum rollarni ijro etish orqali ularni sinab ko‘rishga yo‘naltirilgan. Bu usullar jamoa tafakkuri, muhokama bilan bog‘liq, ammo muhokama rolli o‘yin tahlili asosida olib boriladi.
4. Amaliyot orqali o‘qitish, bevosita faoliyat–o‘quvchilar guruhi ishini tashkil etish, ko‘pincha aniq, real, amaliy bilan bog‘liq: aniq qaror qabul qilish bo‘yicha muhokama, faoliyatning real rejasini ishlab chiqish, real, mojaroli manfaatlarni muvofiqlashtirish.

Kognitiv metod. Bu metodda video orqali, chizma orqali muammolar tahlil qilinadi va yechimi topiladi. Bu metodni boshlang‘ich sinflarda aniq fanlarni o‘qitishda qo‘llash samarali natija beradi. O‘quvchilar yangi bilimni ko‘rish qobiliyati orqali miyaga singdiriladi.

Eksperimental metod. Bu metodni boshlang‘ich sinflarda barcha fanlarni o‘qitishda qo‘llay olish mumkin. Masalan, texnologiya darsini olaylik, o‘qituvchi mavzuni tushuntirishda o‘quvchilar bilan birgalikda bosqichma-bosqich mavzuga oid detalni, buyumni yasaydi, jumladan, o‘quvchilar ham amalda bajarish orqali yangi mavzuni o‘zlashtiradilar. Rolli o‘yinlar, modellashtirish. Bu metoddan boshlang‘ich sinflarda o‘qish, odobnoma darslarida, hamda tarbiyaviy soatlarda ko‘proq qo‘llash maqsadga muvofiq sanaladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. M.I. Nuriddinova. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi. – T: Cho‘lpon nomidagi nashriyot manbaa ijodiy uyi -2005
2. J.G‘. Yo‘ldoshev, S.A. Usmonov. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – Toshkent. Fan va texnologiya nashriyoti -2008

# UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Xayrudinov Abdulaziz Abdurashidovich**
Surxondaryo viloyati Termiz tumani
13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
tasviriy san'at fani o'qituvchisi
normurodov.oibek@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o`quv jarayoniga, xususan dastgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya darslariga innovatsiyalarni tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, texnologiya, ilmiy, ta'lim, o'qitish texnologiyasi, dars, ko'nikma, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o`quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy san'at o`quv jarayonini modernizatsiyalash, rassom-pedagog bo`ladigan mutaxassislar tayorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o`qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko`nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko`nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Bunda badiiy ta'lim bosqichlarining o`zaro mazmunan bog`liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash, tasviriy san'at o`quv jarayonini tashkil etishning ilg`or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o`quv uslubiy majmualar sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda o`qituvchilarning kompyuter va internetdan foydalanish bo`yicha savodxonligini doimiy oshirib borish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot resurs va zamonaviy o`quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo`nalishlarida ilg`or xorijiy tajribalarni o`rganish oliy ta'lim muassasalarida rassom-pedagoglarining faoliyat yo`nalishlari tarkibini belgilaydi. Yuqoridagi fikrlardan ko`rinib turibdiki umumiy o'rta ta'lim maktablar tizimini xususan, tasviriy san'at ta'lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern yangilangan, zamonaviy, tekor o`sish) o`quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Shunday ekan, tasviriy san'at ta'limga innovatsion (inglizcha innovation yangilik kiritish) yondashuv g`oyasi ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo`nalganligi, ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so`nggi yutuqlari, ilg`or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg`unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy yondashuvdan farq qiladi. Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko`zda tutadi. Shu sababli, tasviriy san'at o`quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg`or pedagogik tajribalarni o`rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o`quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo`nalishlardan sanaladi. Bu esa o`z navbatida tasviriy san'at o`quv mashg`ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma'ruza (muammoli ma'ruza, ma'ruza-seminar, virtualtexnologik ma'ruza, vizual ma'ruza, binar ma'ruza, kirish ma'ruzasi, ma'ruza-konferentsiya, axborotli ma'ruza, ma'ruza bahs-munozara, sharhlovchi ma'ruza, on-line ma'ruza) trening, videotrening, vebinarlar, internet konferentsiyalar, innovatsion o`qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o`yinlar, o`quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o`quv jarayoniga, xususan dastgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya darslariga innovatsiyalarni tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati ham o`ziga xos hisoblanadi. Interfaol so`zi inglizcha so`z bo`lib, «inter» o`zaro va «act» harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol ya'ni o`zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi. Bunday o`zaro harakat turlariga " o`qituvchi" va o'quvchining maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o`qitishda o`qituvchi o`quv faoliyatninig faol tashkilotchisi bo`lib, o`quvchi bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo`ladi. Interfaol o`qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo`lib, interfaol o`qitish jarayonida ta'lim oluvchi o`qitishning ob'ektidan o`zaro hamkorlikning sub'ektiga aylanishi, o`quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi. O'qitishning interfaol metodlari

hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o`yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko`rib chiqiladi. Interfaol o`qitish o'quvchilardan axborotlarni o`zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta'lim maqsadlarining to`laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bunda ta'limning quyidagi kontseptsiyalari fundamental asos sifatida hizmat qiladi. O`qituvchining jadal faoliyati o`quv faoliyatining asosiy ko`rinishi sifatida namoyon bo`lib, u mazkur harakatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko`rsatadi, o`quv faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub'ekti o'quvchi hisoblanadi; muvaffaqiyatli o`quv faoliyatining asosiy ko`rsatkichi, uning natijasi o`quvchining fikrlash usullarini o`rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko`nikmalarini shakllantirishdan iborat; o`quv faoliyatning asosiy ko`rsatkichi o`quv topshiriqlari xisoblanadi. Bunda ta'lim jarayonining asosiy sub'ekti bo`lgan o'quvchida fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o`qitish taktikasi muhim o`rin tutadi, o`quv faoliyatini amalga oshirish jarayoni o'quvchidan o`zining shaxsiy bilish mahorati va ko`nikmalarini o`zlashtirib olishi uchun zamin hozirlashdan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. J. O. Tolipova. "Pedagogik kvalimetriya". T.: 2015.
2. M.Mirsolieva., G.Ibragimova . Ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat. T. 2015
3. S.Abdirasilov., N.Tolipov Dasgohli rangtasvir. "Iqtisod-moliya" T.: 2010

# AXBOROT TEXNOLOGIYALARNI O'QITISH DASTURI

**Dildora Xolmatova Alisher qizi**
Namangan viloyati Uychi tumani
35-maktab Informatika fani o'qituvchisi
937104544. Dildoraxolmatova@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu keltirilgan fikr-mulohazalar bugungi o`rganilayotgan ilmlarimizni yanada boyitib borish, yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini keng ko`lamda targ`ib qilish, ularda o`zini o`zi kashf qilish jarayonlarining yuzaga kelishiga ilmiy-amaliy ko`mak berish va bu ko`nikmalarni keng ommaga yoyish shu asnoda yangidan yangi ko`plab ixtidorlarni aniqlashga doir qo`shimcha chora-tadbirlarniamalga oshirishni ko`zda tutadi.

**Kalit so`zlar**: ilmiy-amaliy turtki, ahamiyat, ommaviy madaniyat, mativatsion va innovatsion ruh, virtual axborot, g`oyaviy xuruj, axborot uzatish sohalari.

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan davrda ilm-fan taraqqiyoti sohalarida juda ulkan ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ayniqsa, Axborot asri ya`ni XXI asr axborot globallashuv jarayonlarining yuzaga kelishida bu sohalar birlamchi asos vazifasini bajaryotganligi, ilm-fan yutuqlarining yanada keng tus olishiga zamin yaratib bermoqda. Jumladan, bu sohalarga yetuk va malakali mutaxasislarni aynan pedagogika sohasida yuqori saviyaga ega bo`lgan pedagoglargina yetkazib berishi mumkin. Shu umumiy haqiqatga tayanib ayta olamizki, davlatimizdagi barchasohalarni rivojlantirishda yuqori ko`rsatkichlarga erishish uchun ,avvalo, pedagogika tarmoqlari samaradorligini oshirish va qator innavatsion loyihalarni jalb qilib, ayrim uchrayotgan eskilik sarqitlaridan vos kechib o`qitish jarayonlarini yuqori pozitsiyada o`tishini taminlash hamda shunga doir barcha chora tadbirlarni ko`rish bugungi raqobatli davrning eng ustuvor talablaridan hisoblanadi.

Informatika fanini o'qitish qo'yidagi maqsadni ko'zda tutadi:

- ➢ bo'lajak o'qituvchilarni informatika fanini ijodiy o'qitish va o'zlarining amaliy faoliyatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish;
- ➢ bo'lajak o'qituvchilarni informatika sohasi bo'yicha turli-tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishga tayyorlash;
- ➢ bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim sohasini axborotlashtirishning yo'llari va ulkan istiqbollari haqidagi tasavvurlarini rivojlashtirish hamda chuqurlashtirish.

Bo'lajak informatika o'qituvchisi o'sib kelayotgan avlodning umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'qitiladigan «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari», «Informatika» va «Axborot texnologiyalari» fanlarining ahamiyatini, ularning mazmunini ajratish tamoyillarini, shuningdek, ularning boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushunishi zarur.

«Informatika o'qitish metodikasi» fani bo'yicha talabalar quyidagi bilimlar bilan qurollangan bo'lishi zarur:

- ➢ informatika va axborot texnologiyalari haqida tushunchalar;
- ➢ informatika va axborot texnologiyalarining har bir inson hayotidagi va jamiyatning rivojidagi roli;
- ➢ informatikaning texnik va dasturiy vositalarining mohiyati va didaktik imkoniyatlari;
- ➢ yangi pedagogik va axborot texnologiyalari va ularning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llash.

Bo'lajak informatika o'qituvchisi yangi axborot texnologiyasini, zamonaviy pedagogic dasturiy vositalarni chuqur o'rgangan, shuningdek, jamiyatni, ta'limni axborotlashtirilayotgan sharoitda ishlash uslublarini egallagan bo'lishi lozim.

Informatika o'quv predmyeti sifatida informatika fani va uning rivoji bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun «Informatika va axborot texnologiyalarini oʻqitish nazariyasi va metodikasi» fani birinchi navbatda informatika fanining metodologiyasiga asoslanadi. O'zining xulosalarida u ta'lim va tarbiyaning umumiy tamoyillariga tayanadi. Ma'lumki, ushbu tamoyillar pyedagogika va didaktika tomonidan ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, «Informatika va axborot texnologiyalarini oʻqitish nazariyasi va metodikasi» fani fiziologiya va psixologiya fanlari tomonidan qabul kilingan qonuniyatlardan ham bevosita foydalanadi.

Xulosa qilib aytganda ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri b´lgan informatikaning

fan sifatida o'ziga xosligi, uning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyatidan, hozirgi jamiyat hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holada rivojlanmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "Informatika" o'qitish metodikasi. M. Mamarajobov. NXaytullayeva Toshkent-2017
2. "Informatika va Axborot Texnologiyalari" o'quv qo'llanma.
3. www.ziyonet.com.

# PEDAGOGIK FIKRLARNI TARAQQIY ETISHIDA ILMIY PEDAGOGIK YONDASHUV

**Xurramova Mohidil Baxtiyorovna**
Termiz Davlat universiteti Magistratura bo‘limi
Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-bosqich talabasi.
Tel: 94 511 77 37
email: Xurramovamoxida@ gmail.com

**Annotation:** Mustaqillik e’lon qilingan dastlabki yillardanoq O‘zbekiston hukumati ta’limga ustivor soha sifatida e’tibor berib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasida aniq va ravshan hamda ilmiy asoslangan davlat siyosati mavjud bo‘lib, u insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslanadi hamda har bir fuqaroning bilim olishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qonuniylashtirilgan.

**Key words:** Mustaqil Respublikamizda xalq ta’limi tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida uni yanada rivojlantirish zarur edi. Chunki huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy sohalarda olib borilayotgan islohotlarda asosiy maqsad ham barcha fuqarolarning hayotini ijtimoiy himoyalash, ularning turmush sharoitini yaxshilash, ma’naviy jihatdan yuksaltirish, eng muhimi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iboratdir.

Ana shu maqsadni amalga oshirish borasida Respublikamiz hukumati xalq ta’limi tizimini tubdan isloh qilishni va milliy kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni tobora ortib borayotganligini hisobga olib ta’lim tizimini ham yangilashni taqozo etar edi. Shu maqsadda 1997 yil 29 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1X sessiyasida “Ta’lim to‘g‘risida” Qonun hamda “Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi” keng muhokama qilindi va tasdiqlandi.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ta’lim, tarbiya fuqarolar kasbiy tayyorgarligi va har bir fuqaroning ilm olish konstitutsion huquqini ta’minlash kabi qator dolzarb vazifalarni belgilab berdi.

Respublikamiz bugungi kunda tubdan yangi davlat bo‘lib, unda har bir siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy sohadagi islohotlar ham yangi ta’lim tizimida bosqichma-bosqich olib borishni nazarda tutadi. Zero, ta’lim sohasidagi islohotlar ham yangi bosqichma-bosqich o‘tish tamoyiliga asoslangandir. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ham uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asosi bo‘lib hisoblanadi. Milliy dasturning asosiy maqsadi uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘lib, u ijodiy va mustaqil fikrlovchi, tafakkuri rivojlangan, erkin shaxsni shakllantirish bilan barcha sohalarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni kafolatlash bilan ahamiyatlidir.

Ta’lim sohasida “Ta’lim to‘g‘risida” Qonun qabul qilinganligi, 1996—1997 yildan boshlab birinchi sinflarda o‘qishning lotin yozuviga asoslangan yangi alifboda dastur, qo‘llanma, dasrliklarning yaratilganligi — bu ta’lim sohasida qo‘yilgan dastlabki odimlar edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:

1. Karimov I.A. o‘zbekiston o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. Toshkent,o‘zbekiston. 1992.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.Toshkent, «Sharq» matbaa-nashriyoti konserni, 1997.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi-xal15 e’tiqodi va buyukkelajakka ishonchdir. «Fidokor» gazetasi muxbiri savollarigajavoblar. Toshkent, o‘zbekiston. 2000.

# КИТОБ – БЕЪМИННАТ УСТОЗ.

**Абдурахмонова Феруза Рустамовна**
Хива шахар, 16-мактаб ўқитувчиси
**Абдуллаева Гулноза Илхомовна,**
Хива шахар, 16-мактаб ўқитувчиси

**Аннотация:** Тезисда китобнинг ёшлар маънавиятидаги аҳамияти, уларнинг ёзма ва оғзаки саводхонлигини оширишда диктант, баён ва иншони таҳлил этиш дарслари ўтказиш мақсадга мувофиқлиги ҳақида сўз боради.

**Калит сўзлар:** китоб, иншо, саводхонлик, интернет, изоҳ

Китоб − умр йўлларини ёритувчи сўнмас нур, инсон ҳаётига мазмун бахш этувчи саодат манбаи, унга ҳар қандай вазиятда ҳам ҳамроҳ бўлгувчи содиқ дўст. Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий ҳазратлари ёзганидек, “китоб – беъминнат устоз, билим ва маънавий юксалишга эришишнинг энг асосий манбаи ”. Халқимиз тилида ҳам китоб ўқиб билим ва муносиб таълим-тарбия олиш, илм-фан билан шуғулланиш, касб-ҳунар ўрганишнинг аҳамиятига доир мақоллар жуда кўп. Айникса, ёшларнинг бахту камоли, осойишта ва фаровон ҳаётида китобнинг алоҳида ўрни бор.

Бугунги кунда интернет ҳаётимизнинг бир бўлагига айланиб улгурди.

Одатда, мухлислар бирор сайтда берилган маълумотлар, турли чиқишлар билан танишгач, ўз муносабатини билдириб, изоҳлар ҳам ёзиб қолдиришади. Афсуски, бу изоҳларнинг аксариятида ўзбек адабий тили қоидаларига риоя этилмайди. Уч-тўрт қатор матнда ўнтадан, баъзан ўн бештадан зиёд хатоликлар учрайди. Буни ёзган юртдошимиз мактабда қандай ўқиди ёки ўқияпти экан, умуман, саводи йўқлигини билармикан ўзи, дейсиз беихтиёр.

Фақатгина она тили ва адабиёт фанлари эмас, бошқа фанларга доир китобларни ўқиган кишининг ҳам саводи яхшиланиб боради. Чунки мазкур китобларда мавзулар адабий тилда ёритилади. Демак, икки оғиз гапни эплаб ёзолмайдиган, кўп хатоликка йўл қўювчи ёшлар нафақат она тили ва адабиётга, балки барча фанларга оид китоблардан ўзини йирoқ тутувчи, олтиндан қиммат вақтини билим олмасдан ўтказиб юбораётган ўғил-қизлардир.

Ўйлаб қараганда, изоҳ ёзиш учун ҳам савод керак экан! Шояд, бу фикр ижтимоий тармоқларда воқеликларга бефарқ қарамасдан, ўз муносабатини билдиришга ҳаракат қилаётган ёшларимизда ҳам уйғониб қолса! Илмий йўналишдами, бадиийми, хуллас, ўзбек тилида чоп этилган китоблар ўз ўқувчисига ўзбек адабий тилидан ҳам сабоқ беради, тўғри ёзишни ўргатади. Баҳона излашга ҳожат йўқ, фақат ўқиш-ўрганиш керак. Ахир интернет сайтларида бошқа тилларда ёзилган изоҳлар хатосиз-ку, нега биз тўғри ёза олмаяпмиз? Ижтимоий тармоқ фойдаланувчилари шу саволни ўзига бериб кўрса, китоб, газета-журнал ўқиб турсалар, хатосиз ёзишни ҳам уддасидан чиқишади, албатта.

Кейинги пайтларда умумтаълим мактабларида иншо ёзиш амалиёти кенг қўллана бошлаганлиги айни муддао бўлди. Иншо ўқувчига тўғри ёзиш билан бирга, она тилимизда фикрлашни ҳам ўргатади. Уларнинг ёзма ва оғзаки саводхонлигини оширишда диктант, баён ва иншони таҳлил этиш дарслари, ижодий иншо, расмга қараб иншо ёки баён ёзиш, дарсликдан машқлар кўчириб ёзиш, ёд олинган шеърий мантларни ёддан қайта ёзиш машқлари ҳам ўтказиш мақсадга мувофиқдир. Иншолар ёзиш нафақат мактабда яхши баҳолар олиш, балки шахснинг умумий ижодий ривожланиши учун ҳам муҳим аҳамиятга эга. Иншо ёзиш учун бола, албатта, мутолаа қилиши керак. Хатосиз ёзиш она тилимизга муҳаббат ва ҳурматимизни ифодалайди. Гўзал ва ҳар жиҳатдан бой тилимиз аждодлардан бизгача етиб келган бебаҳо хазинадир. Шу беминнат хазина гавҳарлари билан нутқимизни бойитсак, хатосиз ёзсак, эшитганнинг ҳам, ўқиган кишининг ҳам муаллифга ҳурмати ортади. Демак, тўғри ёзиш билан инсон, аввало, ўзини ҳурмат қилган бўлади.

**Адабиётлар рўйҳати.**

1. Шукрулло. Китобсиз ҳаёт жаҳолатдир //Моҳият.-2003.-21 февр
2. www. ta’lim. uz internet sayti.

# РАБОТА ПО ОБОГАЩЕНИЮ СЛОВАРНО – ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОГО ЗАПАСА УЧАЩИХСЯ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

**Имомова Мухаббат Муротовна,**
Учитель русского языка школы № 21
Навоийская облать Карманинский район

Практическое овладение иностранным языком, в том числе и русским, возможно лишь при условии пользования им в качестве средства обучения, в процессе которого происходит обмен информацией на данном языке. Пословицы и поговорки, фразеологизмы могут служить прекрасным подспорьем в изучении русского языка как родного и как второго. Пословицы – это и кладезь народной мудрости, и яркие, образные устойчивые выражения, обладающие культурологической ценностью, так как они содержат комплекс знаний о культуре, быте, языке, обычаях и традициях народа. Пословицы, поговорки и фразеологизмы занимают в языке особое место и отражают народную мудрость, способствуют лаконизму речи, образности, яркости.

Изучение русских пословиц и фразеологизмов в национальных группах является одним из способов активизации уже имеющийся у учащихся запас образных выражений, пополнить его, развить способности понимать смысл народных изречений, навыки их использования в устной и письменной речи.[1, 115]

Опыт показывает, что учащимся нетрудно объяснить смысл тех русских пословиц и поговорок ,эквиваленты которых имеются в узбекском языке, и охотно их запоминают. Например: Как свои пять пальцев (o`zining besh barmog`idek). Как две капли воды ( ikki tomchi suvdek).

Как известно, пословицы могут служить материалом для обучения речи, развития диалогического мышления, изучения всех уровней языка – от фонетики до синтаксиса. [2,35] При изучении текстов о Родине, дружбе, труде и коллективе на доске записываются пословицы, поговорки и проводится работа над каждой из них. Например:

Родина – мать, умей за неё постоять.

В бою за Родину и смерть красна.

Без муки нет науки.

Друг не испытанный что орех не расколотый.

Для проверки понимания пословиц учащихся объясняют их значение и передают смысл на узбекском языке, а затем называют известные им пословицы и поговорки на родном языке.

Смысл фразеологизмов не вытекает из лексического значения слов, входящих в их состав. Сопоставительная подача фразеологических и афористических единиц, их анализ и толкование повысят интерес узбекских учащихся к овладению материалом. Так как при сопоставлении через призму родного языка и родной культуры учащиеся постигают культуру носителей русского языка. Неодинаковые языковые средства, в частности лексика, в известной мере связаны с национальной культурной спецификой. В зеркале сопоставления могут быть видны сходства и различия русской и узбекской фразеологии и афористики, возможные эквиваленты и анологии двух языков.

# TALIS ТАДҚИҚОТЛАРИДА УМУМТАЪЛИМ МАКТАБ ДИРЕКТОРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ

**Санжар Эшқобилов Қўзибоевич,**
А.Авлоний номидаги илмий-тадқиқот институти
таянч докторанти

**Аннотация:** Ушбу мақолада TALIS тадқиқоти ва умутаълим мактаб директорларининг бошқарув фаолият самрадорлигини таҳлил қилишда TALIS тадқиқотиларидан фойдаланиш ҳақида сўз боради.

**Калит сўзлар:** халқаро тадқиқотлар, бошқарув самарадорлиги, самарадорликнинг муҳим кўрсаткичлари, баҳолаш мезонлари.

Бутун дунё ҳамжамиятида малакали кадрларни тайёрлаш, касбий ривожлантириш ва ишга бўлган мотивациясини оширишга бўлган масалалари долзарб бўлиб қолмоқда. Ўқувчиларнинг ютуқлари таълим муассасасидаги бўлаётган ижобий ўзгаришлар, сифатли таълим, шу билан бирга раҳбар ва педагоглар фаолияти билан чамбарчас боғлиқдир.

Таълим муассасасида ўқув жараёнига инновацион ва замонавий таълим технологияларини жорий этишга шароит яратиш, ўқув жиҳозлари, қурилмалари ва бошқа таълим воситаларининг сақланишини таъминлаш, мактабнинг моддий-техника базасини ривожлантириш ишларини ташкил этиш, мол-мулкдан самарали фойдаланиш ва уларнинг сақланишига жавобгар бўлиш мактаб директорининг лавозим вазифаларидан биридир[1].

Албатта мактаб директори шу йўналишда ўзини-ўзи таҳлил қилиши, педагог ходимлар учун шарт шароитлар яратилганлигини доимий равишда ўрганиб бориши зарур.

Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (OECD) томонидан ҳар 6 йилда Theaching and Learning International Survey (TALIS) ўқитувчилар фаолияти, иш шароити ва мактабдаги таълим муҳитини баҳолаш, таълим олишда ҳамма учун фаровонлик, тенглик ва имкониятни таъминлаш бўйича тадқиқот ишлари амалга оширилади[2].

Тадқиқотнинг мақсади иштирокчи мактабларда самарали ўқитиш ва ўрганиш учун шарт шароитлар яратишга қаратилган таълим сиёсатини ишлаб чиқишда янги устувор йўналишларни кўриб чиқиш ва аниқлаш имконини берадиган ишончли, долзарб ва қиёсий маълумотлар тақдим этишдан иборат.

Тадқиқотда мактаб ўқитувчилари ва директорларига нафақат миллий, балки халқаро даражада ўз фикрини билдириш имконини беради.

Қуйидаги асосий жихатлари бўйича ҳукумат даражасидаги қарорларни қабул қилишда фойдали ва зарур маълумотларни тақдим қилади:

− мактаб бошқарувининг роли ва фаолияти;
− ўқитувчилар фаолияти ва фикр мулоҳазаларини ўрганиш;
− ўқитувчиларни касбий ривожлантириш;
− ўқитувчиларнинг ўқитиш ва педагогик фаолиятига бўлган муносабати ва қарашлари.

Мактаб директорларининг самрадорлигини белгиловчи муҳим кўрсаткичлардан бири “Раҳбар томонидан педагогларнинг самрали меҳнат қилишлари ва ўқувчиларнинг сифатли таълим олишлари учун шарт шароитларнинг яратилганлиги[3]” бўлиб, бу TALIS тадқиқотида ўрганиладиган асосий йўналиш ҳисобланади.

Мактаб директори мактабда таълим сифатига таъсир қилувчи омилларни таҳлил қилиш ва долзар қарорларни қабул қилади. Ҳар бир раҳбар таълим муассасидаги қуйидаги омилларни мавжуд ёки мавжуд эмаслиги, таъсир этиш даражасини ўрганиб, таҳлил қилиши билан иш фаолиятида натижадорликка эришиши мумкин:

– ахборот коммуникация техник воситаларининг етишмаслиги;

[1] Халқ таълими ходимлари асосий лавозимларининг малака тавсифлари, Халқ таълими вазирининг 2019 йил «7» декабрдаги 393-сон буйруғи.

[2] https://www.oecd.org/education/talis/ - Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти.

[3] С.Эшқобилов, Умумтаълим мактаб директорларининг бошқарув фаолияти самарадорлигини оширишда ахборот технологияларининг ўрни, Мактаб ва ҳаёт: Илмий-методик журнал. 2020 № 5.

– мактабни интернет тармоғига уланмаганлиги;

– мактаб инфратузилмасини талабга жавоб бермаслиги (мактабга хизмат кўрсатувчи объектлар. Масалан: ошхона, тиббий хизмат, спорт майдони, фаоллар зали, кутубхона ва ҳ.к.);

– ёрдамчи ходимларнинг етишмаслиги;

– ўқитувчиларнинг етишмаслиги;

– соғлом рақобат муҳитининг шаклланмаганлиги;

– ўқитувчиларнинг касбий билимлари етишмаслиги;

– кутубхона фондида фан дарсликларининг етишмаслиги;

– ўқитувчилар касбий билимларини оширишга ўқув-методик таъминот етишмаслиги;

– ўқувчиларнинг касбий компетенцияларини ривожлантириш материалларини етишмаслиги;

– ўқитувчиларни касбий ривожлантириш учун мактабда устоз-шогирд анъаналарининг шаклланмаганлиги;

– ота-оналарнинг таълимга бўлган муносабати;

– асосий фаолиятдан ташқари ишларга жалб этилиши;

– кадрлар қўнимсизлиги ва бошқалар.

Умумтаълим мактаб директори ўзини-ўзи таҳлил қилиши ва баҳолаши асосида самарадрлик даражасини аниқлайди, шу билан бирга иш фаолиятини фаоллаштиришга мотивация беради.

Ривожланган мамлакатларда умумтаълим мактаб директорларининг бошқарув фаолият самарадорлигини баҳолашда асосан ўзини-ўзи баҳолаш тушунчаси кўпроқ қўлланилади.

Бошқарув фаолияти самарадорлигини раҳбарнинг ўзи томонидан баҳоланиши ва натижалар асосида ўз устида ишлаш, ривожлантириш режаларини тузиш имкониятига эга бўлади.

Ҳар қандай фаолиятни баҳолаш жараёнларини амалга оширишда қуйидаги босқичларда олиб борилади:

− фаолиятни ўрганиш ва таҳлил қилиш;

− самарадорликнинг муҳим кўрсаткичлари ва мезонларини аниқлаш;

− баҳолаш воситалари ва методларини белгилаш;

− баҳолаш жараёнини амалга ошириш;

− натижаларни таҳлил қилиш ва қарорлар қабул қилиш.

Умумтаълим мактаб директорлари ўз фаолиятини ўзи ўрганиши, самарадорлигини баҳолаш орқали қуйидагиларга эришилади:

− мактаб директори ўзини ўзи баҳолаш орқали фаолиятидаги ўзлигини англаб етади;

− таълим муассасасидаги ўқитиш ва ўқиш шароитини ва ҳолатини ўрганади;

− педагог ходимларнинг сифатли таълим беришда мавжуд шарт шароитлар ўрганилади;

− таълим муассасасини ривожлантириш учун истиқболли режалар тузишда далилий маълумотларга эга бўлади;

− мактаб директорлари фаолиятини ўзи томонидан таҳлил қилиши ҳамда аниқланган натижаларга кўра билим, кўникма ва малакаларини ривожлантириши ҳамда шахсий имкониятларини кенгайтириш дастурини мустақил яратиши;

− ўз фаолиятини ўзи ўрганиши ва таҳлили қилиш орали таълим муассасаси имкониятларини эътиборга олган ҳолда мақсадга эришишда тўғри ва истиқболли режалаштириш;

− халқаро тадқиқотларда таълим муассасасининг тайёргарлик даражаси талабларга жавоб берадиган ҳолатда бўлиши ва халқаро даражада ўз фикрини билдириш кўникмаларига эга бўлади.

# TILLARNI O'RGANISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

**Adilova Saodat Abdurahimovna**
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti katta o'qituvchisi

**Annotatsiya**.Mazkur maqolada tillarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

**Kalit so'zlar**: kompyuter, chet tili, texnologiyalar, zamonaviy, o'qituvchi, dars, grafik, Word,Power Point

Davrimizning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan uning imkoniyatlaridan foydalanib, ta'lim jarayonig ayangicha yondashish va uni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. XXI asr — yuksak texnologiyalar asri bo'lib, zamonaviy yoshlarimiz nafaqat davr ruhiga monand, balki elektron olamdagi taraqqiyotga muvofiq qadam tashlamoqdalar. Shu boisdan ham, yosh avlodga ta'lim berish jarayoniga boshqacha yondashishni talab etmoqda.Darslarda o'qituvchining o'rni ham o'zgarib bormoqda. O'qituvchi endilikda asosan yo'naltiruvchi vazifasini o'tamoqda. Zamon bilan hamnafas qadam tashlashni maqsad qilgan o'qituvchilar darsning harqanday qismini AKT orqali jonlantirishga tayyor bo'lishlarini davr talab etmoqda.

Yoshlarga tillarni kompyuter orqali o'rgatish uchun birinchi navbatda o'qituvchining o'zi kompyuter texnologiyalaridan professional darajada foydalana oladigan bo'lishi kerak. Bu darajadagi foydalanishga nafaqat kompyuterning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalana olish, balki u asosida yangi o'quv dasturlarini tashkil eta olish ham kiradi. Bunday darajadagi pedagog bo'lish uchun har bir chet tili o'qituvchisi zamonaviy texnologiyalar sohasi bo'yicha o'z ustida ko'proq ishlashi zarur.Tillarini kompyuter yordamida o'rgatishning an'anaviy o'rgatish usullariga nisbatan bir necha ustunlik jihatlari bor.

Birinchi navbatda, kompyuter asosida chet tilini o'rganayotgan o'quvchida tilning to'rt yo'nalishida (gapirish, tinglab tushunish, yozish va o'qish) o'z ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish imkoni bo'ladi. Hozirgi vaqtda rivojlangan dasturlar yordamida buning imkoni bor. Faqat bu usuldagi ta'limga o'quvchini to'g'ri yo'naltira olish kerak. Bundan tashqari kompyuter yordamida chet tillarini o'qitishda o'rgatilayotgan har bir qoida, har bir so'z, har bir tushuncha birligi o'quvchi xotirasida yaxshiroq saqlanishi isbotlangan. Tabiiyki, kompyuterning boy grafik imkoniyatlari, holatlarga oid ma'lumotlarni ovozli, matnli, tasvirli va video ko'rinishda yetkazib bera olishi kompyuter orqali chet tillarini o'qitishni eng samarali usullardan biriga aylantiradi. Kompyuterda internet tarmog'ining mavjudligi esa ingliz tilini kompyuter yordamida o'rgatishni yanada samaraliroq qiladi. Bunda o'quvchilar nafaqat kompyuterdagi sun'iy aql yordamida til o'rganishi, balki internet orqali jonli muloqot yordamida boshqa til o'rganuvchilar bilan aloqa qilish orqali o'z ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Ushbu yo'nalishga barcha ingliz tili ustozlari, umuman barcha xorijiy tillar o'qituvchilarining jiddiy yondoshishlari bugungi kun talabi, deb hisoblayman.Bundan tashqari kompyuter yordamida chet tillarini o'qitishda o'rgatilayotgan harbir qoida, harbir so'z, har bir tushuncha birligi o'quvchi xotirasida yaxshiroq saqlanishi isbotlangan.Tabiiyki, kompyuterning boy grafik imkoniyatlari, holatlarga oid ma'lumotlarni ovozli, matnli, tasvirli va video ko'rinishda yetkazib bera olishi kompyuter orqali chet tillarini o'qitishni eng samarali usullardan biriga aylantiradi. Asosan, zamon mavzularini tushuntirishda Word va Power Point dasturlaridan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki Word dasturi orqali jadval ko'rinishlaridan foydalanib mavzuyoritib berilsa, o'quvchilar ancha osonroq tushunadi. Power Pointda esa shu mavzularni ovozli, rasmli va video ko'rinishlarida ko'rsatib berish orqali o'quvchilarni mavzuga yanada jalb qilish mumkin.Ta'lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ayniqsa, chet tillarini o'qitish va o'rganishda tobora katta ahamiyatga molik bo'lib bormoqda. Yangi axborot texnologiyalari chet tillarini o'qitishda katta imkoniyatlarni taqdim etadi, fan bo'yicha sifatli bilim olish va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, davr talabiga monand dars o'tishda mazkur fandan o'tiladigan birorta ham mashg'ulot o'qituvchi yoki o'quvchilarning taqdimotisiz o'tmasligi lozim.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi «Chet tillarni oʻrganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi Qarorida «Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda oʻqitishning ilgʻor uslublarini joriy etish yoʻli bilan, oʻsib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga oʻqitish, shu tillarda erkin soʻzlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon taraqqiyoti yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng koʻlamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish» ishlari va buning uchun bir qator muhim vazifalarni amalga oshirish zarurligi koʻrsatilgan.

Mazkur hujjatda 2013–2014 oʻquv yilidan boshlaboq umumiy oʻrta ta’lim maktablarining birinchi sinflaridan chet tillari avval oʻyin tarzida keyinchalik asosiy ta’lim fani sifatida AKT vositalaridan foydalangan holda oʻqitish belgilab berilgan. Ushbu muhim Qarorga muvofiq bugun, ayniqsa, chet tillarini oʻrganish darslariga yanada chuqurroq nazar tashlandi. Jahon maydonida yurt sha’nini munosib himoya qilishi uchun yoshlarimiz, avvalo oʻzining xorijiy tengdoshlari bilan raqobatlasha olishi lozim. Bugun esa raqobat chet tillari, xususan, xalqaro biznes tili boʻlgan ingliz tilida olib borilmoqda.

AKT vositalari — kompyuter texnikasi, magnitofon, kitob, video uskunalari, elektron doska orqali dars vaqtini tejash va yanada koʻproq va samarali ma’lumot olishga imkoniyat demakdir. Bugun yoshlar ham qoʻshimcha ma’lumot olish uchun kitobni izlab va varaqlab vaqt sarflamaydilar, balki uni tejab Internetga murojaat etadilar.

Chet tillarini oʻqitishda kompyuter, Internet hamda uning katta imkoniyatlaridan foydalanishlari natijasida, ta’lim va pedagogik jarayonlariga multimediya texnologiyalarining joriy etilishining istiqbolliligi tobora namoyon boʻlmoqda. Ma’lumki, asosiy kommunikatsiya vositasi sifatida Internet bilan tanishuv toʻrt yoʻnalishda:

- Internet axborot olish vositasi sifatida;
- Internet muloqot vositasi sifatida;
- Internet oʻqitish vositasi sifatida;
- Internet koʻngilochar vosita sifatida amalga oshiriladi.

Bunda tarmoqda axborot izlashda kommunikatsiyaning asosiy vositalari (elektron pochta, chat) bilan ishlashni mashq qilishga katta e’tibor qaratiladi. Boshlangʻich bosqichda axborot almashuv jarayoni faqat yozma matn bilan cheklangan boʻlsa, asta-sekin unga grafik va ovozli hujjatlar kiritiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. «Kompyuterlashtirishni rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish toʻg'risida» 2002 yil 31 maydagi PF-3080-sonli Farmoni.

2. Fanning oʻquv-metodik majmuasi tarkibi. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi hay’atining 2009 yil 10 dekabrdagi 11/6 raqamli «Oliy ta’lim muassasalarida fanlar boʻyicha zamonaviy darslik va oʻquv-uslubiy majmualar tayyorlash toʻg’risida»gi qarori 3-ilova. Тошкент, 2009. –44 b.

3. Алейников В.В. Компьютерные технологии в формировании профессиональных качеств специалиста. // Применение новых технологий в образовании: Материалы X Международной конференции. 30 июня - 3 июля 1999 г., Троицк - Фонд новых технологий в образовании "Байтик", 1999.4. Семочкина О.А., Семочкин А.Н. Реализация методических конструкций в педагогических программных продуктах // Новые информационные технологии и совершенствование учебных планов профессионального образования: Материалы Региональной межвузовской научно-практической конференции. 30-31 мая 2000. -Владивосток, 2000. 144-145 с.5. Филатов О.К. Основные подходы к построению информационной модели процесса обучения // Ж. Информатика и образование. –2007. № 6. - С .3-7

# SOG'LOM AVLOD VA JISMONIY BARKAMOLLIK TUSHUNCHALARINI BOLALARDA AMALIY JIHATDAN SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYA DARSINING AAHAMIYATI

**Alibekova Nodira Odilbekovna**
Xorazm viloyati Urganch shahar 15-son maktabning
Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslari orqali sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, mashqlar, qobiliyat, sog'lom, barkamol avlod, harakat, ta'lim-tarbiya.

Jismoniy tarbiya aholining umumiy tarbiyasini bir qismi bo'lib, bu tarbiya jarayonida aqliy, ahloqiy, estetik hamda mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi. Bu maqsadga erishishda aholining yoshi, jinsi, sog'ligi, jismoniy tayyorgarligi hamda qiziqishlari hisobga olingan holda vazifalar belgilanadi. Bu bilan jismoniy tarbiyaning umumiy vazifalari shakllanadi. Bolalar jismoniy tarbiyasi ularni har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlash va sog'lomlashtirish vazifalarini hal etsa, ayollar jismoniy tarbiyasi ularni kelgusi hayotga tayyorlashdan iborat bo'ladi. O'smirlar va kasb tayyorgarligi talab etuvchi mutaxassislar jismoniy tayyorgarligi jismoniy fazilatlarni rivojlantirish, sportda texnik va taktik tayyorgarlik, umumiy va maxsus tayyorgarliklarni ta'minlash, amaliy jismoniy tayyorgarlik asoslarini o'rganishdan iborat bo'ladi.

Jismoniy tarbiya jarayonida aqliy, ahloqiy va estetik tarbiya vazifalarini hal etish uchun juda katta imkoniyatlar bor. Bu vazifalarni hal etish shaxsni har taraflama kamol toptirish omili sifatida jismoniy tarbiyaning rolini kengaytirib, bevosita jismoniy tarbiyaning o'z muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ma'naviy va jismonan har tomonlama kamol topgan kishilargina takomillashgan jamiyat quruvchilari bo'lishi mumkin. Barkamol insonni tarbiyalash jismoniy tarbiya to'g'ri tashkil etilgan sharoitda amalga oshadi. Har tomonlama rivojlangan shaxs bo'lib, etishish biologik hamda ijtimoiy qonuniyatlar talabidir. Insonning jismoniy barkamolligi uning ruhiy kamoloti bilan uzviy bog'liqdir. Odamning ruhiy dunyosi tashqi ta'sirlar, ijtimoiy muhit hamda insonning atrofidagi sharoitlarni o'zgartirishga qaratilgan harakati tufayli shakllanadi. Jismoniy tarbiya jarayoni shartli reflekslarni shakllanishi va bog'lanishi uchun fiziologik poydevordir. Insonning jismoniy tarbiya va sportdagi yutuqlari, rekordlari, oliy darajadagi harakat va ko'nikmalari shakllanishi sportchining aqliy, axloqiy, ma'naviy estetik va g'oyaviy-siyosiy shakllanishi bilan uzviy bog'liq bo'lganda qadr-qimmatga ega bo'ladi. ijtimoiy faoliyat ixtisoslashgan ko'rinishda bo'lib, ishlab chiqarish va harbiy jismoniy tayyorgarlikka bog'liqdir, ya'ni ixtisoslashuvning muvaffaqiyati ta'lim va jismoniy tayyorgarlik asosida yaratiladi. Har tomonlama umumiy jismoniy tayyorgarlik inson kamolotining asosiy qonuniyatlaridandir. Jismoniy fazilatlarning takomillashuvi oliy darajadagi harakat malaka va ko'nikmalarini shakllanganligi maxsus jismoniy va sport tayyorgarligini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Sportda rekordlar ketidan quvish yoki shuhratparastlik xislati jismoniy tarbiya va sportning shaxsni har tomonlama rivojlantirish tamoyilini buzadi, va natijada jamiyat uchun hos bo'lmagan axloqsiz sportchilar shakllanadi.

2021/2022-oʻquv yilidan boshlab, Oʻzbekistondagi umumta'lim maktablarida umumiy oʻquv soatlari doirasida jismoniy tarbiya fani barcha sinflarda haftada 2 soatdan oʻqitish yoʻlga qoʻyiladi. Bu haqda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Sogʻlom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi farmonida belgilangan. Buning asosiy sababi ham o'sib kelayotgan yosh avlodni yoshligidan jismoniy jihatdan chiniqtirish, sog'lom qilib voyaga yetkazishni ko'zlaydi.

Maktab o'quvchilari bilan jismoniy madaniyat darslarini tashkil etishda jismoniy maqshqlar asosiy o'rinda turadi. Jismoniy mashqlar, tabiatdagi sog'lomlashtiruvchi kuchlar va gigienik omillar jismoniy tarbiya vositalarini tashkil etadi. Jismoniy mashqlar-jismoniy tarbiya qonuniyatlariga muvofiq ravishda foydalaniladigan harakatlarni, insonni jismoniy tarbiyalash vositasidir. Jismoniy mashqlar tarixiy jixatdan tarkib topib, uslubiy jixatdan gimnastika, o'yin, sport va turizm sifatida shakllangandir. Jismoniy tarbiya vositasi sifatida jismoniy mashqlar mashg'ul bo'luvchining aktiv harakat faoliyatini ko'zda tutadi. Jismoniy mashqlarning o'ziga xos xususiyatlari harakatlarni shakllantirish va takomillashtirishga bo'lgan ishtiyoq, harakatlarning maqsadi va unga erishish

vositalari haqidagi tasavvur hamda harakatlarni bajarish niyati va iroda urinishlarida ifodalanadi. Jismoniy mashqlar insonni dunyoqarashini, psixik ruhiy faoliyatini kengaytiradi va takomillashtiradi. His tuyg'ulari va irodasini, harakterini kamol toptiradi. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va ularning kundalik faoliyatlariga singdirish maqsadida jismoniy barkamollik omillarini quyidagicha olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi:

-Jismoniy tarbiya darslarida barcha turdagi o'yin-mashqlarni sifatli va yuqori darajada o'zlashtirishni ta'minlash, bunda barcha o'quvchilarning faol ishtiroki va harakatchanligini oshirish;

-Maktab sharoitida gimnastika, yengil atletika, sport o'yinlari, kurash, badiiy gimnastika turlari bo'yicha to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish va ko'pchilik o'quvchilarni jalb etish;

-Sportga ashaddiy qiziquvchi, qobiliyatli, iqtidorli o'g'il va qiz bolalarni sport maktablariga safarbar qilish;

-Ertalabki sog'lomlashtirish (gimnastika) o'yin-mashqlar bilan doimiy ravishda shug'ullanishga odatlantirish.

**Foydalanilgana adabiyotlar**

1. Mahmudova N.M., Xusanbayev O.K., Kravsov A.I. Sog'lom turmush tarzida jismoniy tarbiyaning ahamiyati. Toshkent, Ibn Sino, 1991.

2. Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sportsog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish, monografiya. Toshkent, O'zDJTI, 2005.

# TA'LIM JARAYONIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION YANGILIKLARNI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

**Allaberganov Ulug'bek Reyimbarganovich**
Xorazm viloyati, Bog'ot tumanidagi
20-sonli maktabning fransuz tili o'qituvchisi
Telefon: +998 (99) 078-66-14
allaberganov20@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim tizimida o'quv samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari, innovatsion yangiliklardan samarali foydalanish, interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarni bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, faol harakatga undash haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, pedagogika, innovatsiya, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar.

Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Tarix shundan dalolat beradiki, inson o'zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o'ylab topishdan, algoritm va nanozarralar, zamonaviy innovatsion kompyuter va boshqa yuqori texnologiyalarni kashf etishgacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi.

Ilm-fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yangi texnika va texnologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, axborot texnologiyasi vositalarining barcha davlat va nodavlat muassasalarida qo'lanilishi o'qituvchilardan uzluksiz bilim olishni talab qilmoqda. O'qituvchilarning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholavchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo'ladi.

Ta'lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta'lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo'shilishini taqozo etmoqda, o'zini yaratish imkoni mavjud innovatsion maydonda ko'rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat.

Bugungi kunda maktab va oliy ta'lim tizimidagi an'anaviy va ommaviy ko'rinishdagi ta'lim va tarbiya jarayonlari o'rniga ta'lim muassasalari rivojida o'ziga xos yangilik bo'lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda. **Innovatsiya** (in-"lik", novus- "yangi") yangilik kiritish, yangi degan ma'noni anglatadi.

Ta'lim sohasi - mamlakatimizda birinchilardan bo'lib faol innovatsion harakatni boshladi. Ma'lum bosqichda XX asr oxirlarida bunday harakatlar yo'lga qo'yilgan edi. Masalan, A.G. Rivin va V.K. Dyachenko tomonidan o'qitishning jamoaviy o'qitish, D.B. Elkonin, V.V. Davidov, L.V. Zankovlar tomonidan ilgari surilgan rivojlantiruvchi innovatsion ta'lim to'g`risidagi qarashlar o'z vaqtida ma'lum ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga boshqa innovatsion ta'lim texnologiyalari: dialektik o'qitish usullari, o'qitishning individual yo'nalishi, everestik o'qitish, dialog madaniyati, o'z-o'zini refleksiya va boshqalarni keltirish mumkin.

Hech kimga sir emaski, ta'lim berishda ilg'or pedagogik texnologiyalarining zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash umumiy o'rta ta'limning asosiy shartlaridan biri sifatida belgilangan. Darhaqiqat, tarqatma materiallar, ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Ta'lim jarayonidagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. O'quvchilarni fikr doirasini, dunyoqarashini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan, erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhim. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog`i lozim. Ana shu vaziyatni uddalashda innovatsiya faoliyati ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang`ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Bugungi yangilanish, ma'naviy yuksalish davrida har tomonlama yetuk, bilimdon, ijodkor yoshlarni tarbiyalash hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir. Bunday mas'uliyatli va sharafli vazifalarni hal etishda boshlang`ich sinf o'qituvchisining o'rni va xizmati kattadir. Maktabda bolalarni o'qishga o'rgatishdan maqsad og`zaki nutq yuzasidan o'quvchilarda mustahkam bilim hosil qilish, ishlab chiqarishning, hayo-

tning hamma sohalarida faol ijodiy faoliyat koʻrsata oladigan savodli va madaniyatli kishilarni tarbiyalab yetishtirishdir.

Jahon tajribasi shuni koʻrsatadiki, har tomonlama rivojlangan innovatsion tizim, ilm-fan imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish, innovatsiya jarayonlarini ta’lim tizimida samarali amalga oshirish - dunyo hamjamiyatiga raqobatbardosh kadrlarni yetkazib bermoqda.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, innovatsion ta’lim texnologiyalarini ilm-fan va ta’lim sohasida muvaffaqiyatli qoʻllash - oʻquvchilarda oʻz oldiga maqsad qoʻyish, erkin va mustaqil fikrlash, oʻz fikr-mulohazalarini bayon etish va uning toʻgʻriligini boshqalarga isbotlay olish, yakka tarzda va juftlikda ishlash, hamkorlikda ishlash, ijodiy fikrlash, ma’lumotni tahlil qilish, xulosalar chiqarish, oʻz iqtidorini namoyon qilish, berilga imkoniyatlardan eng ma’qulini tanlash, bahs-munozaraga kirishish koʻnikmalarni shakllantiradi va rivojlantirib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boshlangʻich ta’lim boʻyicha Yangi tahrirdagi davlat ta’lim standarti.
2. M. E. Musayeva, G. T. Boymurodova, A. K. Otaboyev. D. T. Poʻlatova, M. J. Abdullayeva , “Ta’lim jarayonida qoʻllaniladigan interfaol metodlar”, T. : 2016.
3. R. Yoʻldoshev, R. Xusainova, U. Bobojonov “Ta’limning interfaol metodlari”, Urganch-2011.
4. J.Gʻ. Yoʻldoshev “ta’lim yangilanish yoʻlida”, Toshkent: “Oʻqituvchi”, 2000.

# SHE'R UMRI – SHOIR UMRI

**Z.Allanazarova**
UrDU, "Pedagogika nazariyasi va tarixi"
mutaxasisligi 1-kurs magistranti.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamizda shoir Matnazarfenomin Abdulhakim fenomini, ijod yo'li, odob haqidagi, ko'ngil dardi va nafs haqidagi qarashlari yoritilgan.

**Kalit so'zlari:** futuvvat, fenomen, falsafiy lirika, sonet.

Ma'naviy dunyoqarash, teran nigohlar ila dunyoga razm solish, borliqni faqat go'zalliklar ila qabul qilishda madaniyat namoyandalarining, jumladan so'z sehrini o'z hayot mazmuni deb biluvchi, mohir qalam sohiblari bo'lmish yozuvchilar, shoirlar, adabiyotshunoslarning o'rni beqiyos. Chunki aynan ularning ijod namunalari orqali kitobxonlar, o'quvchi yoshlar qalbida ezgulik urug'i, qalb musaffoligi, Vatanga sadoqat, ota-onaga hurmat, oilaparvarlik tuyg'ulari shakllanadi. Asl she'rning umrboqiyligi shundaki, u shoir o'limidan keyin ham yashayveradi. Uni o'qigan har bir kishi she'rning, demak shoirning ham umriga nafas qo'shadi. Har gal benazir shoir Matnazar Abdulhakim she'rlari o'qiyotganimizda shu fikrlar bizni qamrab oladi.

Matanazar Abdulhakim 1948 yiling 20 fevralida Urganch tumanidagi Qorovul Qishlog'ida tavallud topgan. Rossiya federatsiyasi Taganrog davlat pedagogika institutida tahsil olgan. Harbiy xizmatdan so'ng Urganch tuman ro'znomasida bo'lim mudiri, maktablarda rus tili va adabiyoti muallimi bo'lib ishlagan. Jurnalistika bilan ham shug'ullanganlar.1982-1997 yillarda O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi viloyat bo'limida adabiy maslaxatchi, 1997 yilning umrining oxirigacha Xorazm Ma'mun akademiyasi ilmiy xodimi bo'lib ishlagan.

Matnazar Abdulhakim badiiy tarjima bilan ham shug'ullanib, Shayx Najmiddin Kubro, SHayx Majididdin Bag'dodiy, Pahlavon Maxmud, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi shoirlarning ruboiy va g'azallari, shuningdek, boshva bir qator xalqlar shoirlarining shu'rlarini o'zbekchaga o'girdi. "Kim agar ozoddur!", "Tabarruk tashrif", "Jamoling menga bas" kabi tarjima kitoblari ham uning qalamiga mansub.

Xorazm diyori insoniyatga tuhfa etgan buyuk mutafakkir, shoir, Javonmardiylik (futuvvat) tariqatining yirik namoyandasi Pahlavon Mahmudning "Haq fayzi" ruboiylari majmui Matnazar Abdulhakim tarjimasida 1999 yilda bosilib chiqdi.

Erni birovlarki bisot deb turgay,
O'lcha, ulash, yo ol, yo sot deb turgay.
Oqil biladi qabrdir u ebto'ymas,
Kirmasa tez-tez odam, dod deb turgay.

To'rtlik mazmuniga ahamiyat bering-a, naqadar ma'no-mazmun o'zida mujassam etgan. Kimlar uchundir mol-dunyo bisoti bo'lmish bir qarich er, ona tuproq xazina bisoti ekanligi ko'rsatilyapti. Hozirgi kunimizga qiyos qilganda bu mohiyatni anglash qiyin emas. Haqiqatda er daromad manbayi, bobo dehqonlar uchun hosil maskani. Aslida bu qarash bir taraflama, ya'ni moddiyat yuzasidan. Biroq bu foniy dunyoni biroz chetga surub, teranroq nazar solsak, shu bir qarich zamin har birimizning oxirgi manzilimiz ekanligini ko'ramiz. SHoir o'zining atigi to'rt misrasi bilan foniy va boqiy qarashlarni go'zal tarzda ifodalab bergan.

O'tkinchi bu olamda kishi hurram emas,
Yo'qki birov, ko'ngli uning beg'am emas.
SHod bo'lsa bu olamda biron odam agar,
Bil bu ikov na olam, na odam emas.

Bu to'rtlikka biz "Bir kam dunyo" iborasini solishtirma shaklida qo'llasak ancha mos keladi. Axr bekamu-ko'st xayot, bearmon dunyo faqatgina ertaklargagina xos. Hatto shoxlarning ham yuragiga yashirgan dardi, armoni bor. Kimda kim bu dunyoda armonim yuq, bearmon o'tyapman desa bilingki u kishi yolg'on so'zlayapti.

Hushomadgo'y emas, insonsan,
Vijdon emas, azizim non e.
Oddiygina yashayber har kun,
Unutaber sharaf ne, shon ne.

Odob haqidaki ushbu to'rtlikda insoniylik eng oliy hislat ekanligi, dunyoga keldikmi dunyo

noz-ne'matlariga xirs qo'ymasdan, insoniylik ziynati bo'lmish vijdon deb atalgan gavharini yo'qotib qo'ymaslik, kibrga berilmasdan, kamtar, hokisor yashab, inson ekanligimizni unutib qo'ymasligimiz kerakligi ta'kidlangan.

Yuqoridagi misralar Matnazar Abdulhakimning shoir va tarjimonlik ishlaridan namuna xolos, ustoz ayni paytda solih tadqiqotchi ham edi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Matnazar Abdulhakim bugungi badiiy-falsafiy lirikamiz rivojiga munosib hissa qo'shgan shoirlardan biri. Uning to'rtlik, g'azal, sonet, turkum she'rlari va dostonlaridagi hikmatga yo'g'rilgan qarashlari mazmunan teranligi bois o'quvchilar mehrini qozongan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Muhofaza" gazetasi, 2015 yil 15 aprel, 4-son.
2. "Tamaddun nuri" adabiy-badiiy jurnali, 2020 yil, 5-son.
3. Matnazar Abdulhakim. Tanlangan asarlar 1-jild. Toshkent, "G'.G'ulom", 2017.
4. www.saviya.uz

# TASVIRIY SAN`ATNING TUR VA JANRLARI

**Anorbayeva Ruxsora Raimovna**
Toshkent shahar Chilonzor tuami
114-umumta'lim maktabining
Tasviry san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada muallif san'at tarxi, va uning turlari, haqida fikr yuritadi. Sana'tning o'ziga xos xususiyati haqida , shuningdek tur va janrlariga to'xtaladi.

**Kalit so'zlar:** san'at, janr, tasviriy san`at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik

San`at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo`ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go`zallik hissi ortdi, voqelikdagi go`zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o`zgarishlar sodir bo`ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san`at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san`at va san`atkorlar shu davrda paydo bo`ldi. San`at esa o`zining o`ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ`ib etuvchi kuchli g`oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste`dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go`zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, hulq va odatlari, yutuq va mag`lubiyatlari ularning asarlarida o`z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo`lgan ana shunday san`at hayot go`zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da`vat etdi.

Tasviriy san`at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi.

Portret - rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylaridan bo`lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janrida ishlangan tasviriy san`at asarlari bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi.

Avtoportret - portret janrining ko`rinishlaridan biri bo`lib, musavvir o`zining tashqi qiyofasini o`zi tasvirlaydi.

Manzara - janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko`rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni, tog`u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo`lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda mohirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan O`.Tansiqboyevning "O`zbekistonda mart", "Jonajon o`lka", "Mening qo`shig`im", N.Kashinaning "Tog`da bahor", Z.Inog`omovaning "Arpa o`rimi", "Choyga", R.Temurovning "Bibixonimda bahor", "Ulug`bek madrasasi" asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.

Natyurmort - fransuzcha so`z bo`lib, "jonsiz tabiat" degan ma`noni anglatadi. Bu janrda musavvir asosan insonni o`rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo`llaniladigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi. U o`z asarida tevarak-atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uning xarakterli xususiyatlarini, voqea qaysi davrda ro`y berayotganligini ham ko`rsata oladi. Taniqli ijodkor musavvirlardan R.Axmedov, L.Salimjonova, G`.Abdurahmonov va boshqalar natyurmort janrida barakali ijod qilmoqdalar.

Tarixiy janrda ishlangan suratlar orqali biz uzoq o`tmishda bo`lib o`tgan voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz. Tarixiy janrning ko`rinishlaridan biri jang (botal) manzaralaridir.

Botal janr - "botal" fransuzcha so`z bo`lib, "jang", "urush" ma`nosini bildiradi. U jang manzaralarini o`zida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o`rinni egallaydi. Botalist - rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qahramonligi, mardligi, jasorati hamda o`z ona Vataniga bo`lgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. Leonardo da Vinchi, M.B.Grekov, G.K.Savitskiy, A.A.Deyneka, V.V.Volkov va boshqalar ana shunday musavvirlardandir. Taniqli ijodkor M.Nabiyevning "Spitamen qo`zg`oloni", musavvir R.Rizamuhammedovning "Muqanna qo`zg`oloni", musavvir T.Sodiqovning "To`marisning qasosi" nomli asarlari bunga yorqin misol bo`la oladi.

Animalistik - janr o`zgacha tasviry san`at turidir. U lotincha "anima", "hayvonot olami" degan ma`noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo`r qiziqish, sevgi va mahorat bilan

yondoshadi.

Qadimga Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asosiy hisoblangan. XVI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Leonardo da Vinchi va A.Dyurerlar ishladilar.

Maishiy janr: tasviriy san`atda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni o`zida mujassamlashtiradi. Aksariyat rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari - Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermer kabilar ijodida namoyon bo`ladi. Realist rassomlardan P.Fedotov, V.Perov, V.Maksimov, V.Makovskiy, K.Savitskiy, I.Repin kabilar maishiy janrning taraqqiyotiga katta hissa qo`shdilar. O`zbek rassomlaridan R.Axmedov, M.Saidov, Z.Inog`omov, R.Choriyev, G`.Abdurahmonovlar ham shu janrning yetuk vakillari hisoblanadilar.

**Foydalanilagan adabiyotlar ro’yxati**

1. Abdullaev N. San’at tarixi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1987. -272 b.
2. Ashrafi M.M. Buxarskaya shkola miniatyurnoy jivopisi. –Toshkent., 1974. -28 s.
3. Ashrafi M.M. Bexzad i razvitie buxarskoy shkolы miniatyurnoy jivopisi XVI v. Dushanbe, 1987. – 123 s.
4. WWW.ARXIV.UZ

# BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING O‘RNI

**Ashilova Altinay Duysenovna**
Navoiy viloyati Tomdi tumani
1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlan‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda barkamol avlod tarbiyasida boshlang‘ich ta’limning o‘rni haqida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ilm, intellektual salohiyat, tadbirlar, tadbirkor, milliy qadriyat…

***Faqat ilm va ma’rifat, intellektual salohiyat, har tomonlama bilimli kadrlar hisobidan biz O‘zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz.***
***(Shavkat Mirziyoyev)***



Mamlakatimiz kelajagi bo‘lmish yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ta’lim-tarbiyaning uzluksizligini ta’minlash va uni tizim shaklida tashkil etish asosiy masalalardan biridir. Shuningdek, boshlang‘ich maktablarda tashkil etiladigan darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga e’tiborni kuchaytirish bilan ham ta’lim va tarbiya jarayonining uzluksizligiga salmoqli hissa qo‘shib boriladi. Darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifasi faqat bolalarni band qilish emas, balki ancha murakkab, ya’ni ularning darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizga nisbatan qiziqishini uyg‘otish, qolaversa, ularning hayotini zavq va shavqqa to‘ldirishdir. Xuddi dars jarayonida bo‘lgani kabi tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda ham sinf o‘qituvchisining vazifasi mas’uliyatli va ahamiyatlidir. Bu mas’uliyat ulardan doimiy ravishta o‘z ustida ishlashni, ijodiy mehnatni talab qiladi.



O‘quvchi kundalik ishlarining davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita ishtirok etadi, turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi, qolaversa bular orqali ma’naviy dunyosi boyib boradi. Ayniqsa, ular bugungi kunda o‘quvchilarning milliy merosimizga nisbatan qiziqishlarini o‘stirish maqsadida tashkil qilinadi. Har qanday sinfdan tashqari mashg‘ulot oldiga turli tarbiyaviy vazifalar qo‘yiladi. Ularning har biri o‘zga xos belgilarni, bir-biridan farq qiluvchi shakllarni, vositalarni, ijodiy, mehnatni talab qiladi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘qituvchilarning yillik ish rejalarida aniq ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo‘lishi lozim. Boshlang‘ich sinflarda tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar o‘quvchilar hayoti bilan ya’ni ularning maktab ostonasiga ilk qadam qo‘ygan kunlaridan boshlanadi. Mustaqillik bayrami, 2-sentabr, kuz bayrami, Konstitutsiya kuni, alifbo bayramlari, Yangi yil, harbiylar kuni, mashhur allomalarning tug‘ilgan kunlari, 8-mart, Navro‘z bayrami, gullar bayrami kabilar. Mana shunday tadbirlar bevosita o‘quvchilarda vatanga e’tiqodni tarbiyalash ishlari bilan bog‘liq holda olib boriladi. Bu tadbirlarga material tanlashda eng qimmatli manba bo‘lib milliy qadriyatlar namunalari hisoblanadi.

**Shuningdek, milliy o‘yinlar, turli usullar ham boshlang‘ich ta’limda muhim ahamiyat kasb etadi.**






**Krossvord yechish**

1. Vatan. 2. Yurak. 3.Kerak. (Bunda shakl ham V ko‘rinishini oladi.)



**“Qushlar-bizning do‘stimiz” usuli.** Bunda qushlar nomi topiladi va tabiatga mehr tuhida tarbiyalanadi.Bu usul orqali o‘quvchilar ham qushlar nomini topadi va ular haqidagi bilimlarini ko‘rsatib beradi.



**“Topag‘on” usuli.**

Katakchalarni tepadan pastga qarab Bahor gullarining nomini ayting. to‘g‘ri to‘ldirsangiz “ alla” so‘zi kelib chiqadi.

Xullas, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining faoliyatini tashkil qilishga yo‘naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati - o‘quvchi kundalik hayotining namoyon bo‘lishidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. T.: O‘qituvchi, 2004.119-125-bet.
2. M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent. 2006-y.
3. Internet saytlari.

# SINF RAHBARINING O`QUV FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO`LLARI

**Bekqulova Gulchehra Ne'matovna**
(+998919917717)

**Annotatsiya:** Sinf rahbarining faoliyati ko`p qirrali va sermazmundir. U o`zi rahbarlik qilayotgan sinf o`quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o`quv yili yoki chorak davomida nimalar qilish kerakligini bolalar hayotini nima bilan band qilish va tanlangan ish turini qanday amalga oshirishni bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni yechadi. Bu borada sinf rahbariga turli xil manbalar yordam beradi.

**Kalit so`zlar:** Tarbiya, metod, metodika, tarbiyaviy ishlar, ilmiy-tadqiqot metodlari.

***O`qituvchining butun fikri o`quvchilarida***
***o`zi sochgan urug`larning o`sishidadir.***
***Demetriy Ivan Mendeleyev***

Tarbiyaga kompleks yondashishi biror o`quvchini ham e'tibordan qochirmaslik sinf rahbari uchun alohida masaladir. Tarbiyalash uchun sinf rahbari tarbiya obyekti bo`lgan bolani yaxshi bilish, uni yaxlit idrok etishi kerak. Ko`pchilik sinf rahbarlari bolani darsda o`quvchi musobaqada sportchi sifatida, ya'ni har bir aniq ish sharoitidan kelib chiqib idrok etadi va shunga ko`ra muomala qiladi, bola shaxsining boshqa tomonlari esa hozircha hisobga olinmaydi. Ammo har bir bolaning o'z tajribasi, o'z emotsional madaniyat darajasi, qadrlaydigan narsalar, ehtiyotlari, talablari, umidlari, aloqalari, munosabatlari kabi butun bir dunyosi bor. Tarbiyada ana shular hisobga olinishi kerak. Sinf rahbari o'z o'quvchisining ichki dunyosini, kechinmalarini, hulqida vujudga kelayotgan holatlarning sababini, irodasini yaxshi bilsagina uning qalbiga yo'l topa oladi va bolaga ta'sir etishining to'g'ri yo'lini aniqlaydi. Ana shunday sifatlarga e'tibor bergan sinf rohbari tarbiyada etakchi o'rinni egallaydi.

Shuni ham unitmaslik kerakki, bolaga tarbiyaviy ta'sir etuvchi omillar hozirgi davrda g'oyat darajada ko'paydi: oila, keng jamoatchilik, radio, televideniya kino, teatr, kitob, jurnal, musiqa va boshqalar.

Sinf rahbarining bolaga tarbiyaviy ta'sir etishdagi etakchilik, birdamlik rolni tarbiyaviy ta'sirining bu qadar ko'p tarmoqlari orasida saqlab qolish g'oyat qiyinlashib boryapti. Ba'zan bolaga tarbiyachidan ko'ra o'rtog'i, qo'shnisi, ko'chadagi do'stlari kuchliroq ta'sir etishi hollariga duch kelamiz. Ammo buning aksi bo'lgan taqdirdagina tarbiyada muvaffiqiyatga erishiladi. Bunga esa tarbiyachining nutqi nazari ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. CHunki, har bir bolada ma'lum kurtaklar: yaxshilik va poklik bilan bir qatorda salbiy, aktivlik va passivlik sifatlari mavjud. U munosabatlarga e'tibori jihatidan ham har xil sifatlarga ega. Agar tarbiyachi unga optimistik nuqtai nazardan yondashsa, bola yaxshilikka intilib, uning umidini oklaydi va aksincha bolaga oldindan noshud, yalqov, tartibsiz deb qaralsa hamda, o'jarlik va terslik bolaning sifati hukum chiqarilsa u holda tarbiyalanuvchi o'zining xuddi shunday qilib ko'rsatadi. Natijada u bu borada ham tarbiyachining «umidini oqlaydi».

Xulosa:

Sinf rahbari bolalarni yaxshi bila olishi uchun ularni o'rganish darsda, darsdan tashqari vaqtlarda umuman bolaning hayoti o'tadigan barcha sharoitlarda amalga oshiriladi. Bolani o'rganish bilan sinf rahbari uning individual xususiyatlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Fan" 2008 y.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik Nizomiy nomidagi TDPU Riziografida nashr qilindi. Toshkent, 2014 y

# FUNKSIYA TUSHUNCHASINI KIRITISH VA UNI O‘RGATISH METODIKASI

**Boltayeva Shohida**
Xorazm viloyati Urganch shahar 21-sonli
IDUM ning matematika fani o’qituvchisi
+99893-743-84-85

**Annotatsiya:** ushbu maqolada matematika darslarida funksiya tushunchasini kiritish va uni o’rgatish ,metodikasi bayon etilgan.

**Kalit so’zlar**; matematika, funksiya, metodika, miqdorlar, grafiklar.

Ma’lumki. matematika fani materiyadagi narsalarning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni o‘rgatadi. Ana shu materiyadagi miqdorlarni nisbiy holatda olimlar tomonidan o’zgarmas va o‘zgaruvchi miqdorlarga ajratilgan. O‘zgarmas miqdorlarni *a, b, c,* ..., o’zgaruvchi miqdorlarni esa harflar bilan ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni matematik belgilar orqali ifodalash XVI asrning oxirida matematika fanini turli yo‘nalishlarida shug’ullangan R. Dekart, I. Nyuton (1642-1727), G. Leybnets (1646-1716), P. Ferma (1601-1665), N .I. Lobochevskiy (1792—1856), L. Dirixle (1805—1859) kabi olimlar tomonidan yozilgan asarlarda qo’llanilgan.

Funksiya tushunchasiga birinchi marta L. Eyler tomonidan ta ’rif berilgan, so’ngra N.I. Lobochevskiy va L. Dirixle kabi olimlar tomonidan har tomonlama mukammal bo’lgan hozirda biz ishlatib kelayotgan funksiyaning ta’rifi berilgan. Funksiya degan so‘z lotincha *«functio»* so‘zidan olingan bo’lib, uning lug‘aviy ma’nosi «faoliyat yoki moslik, jo’natish» bo‘lib funksiya so‘zini birinchi bo’lib G.Leybnets 1692-yili o‘z ilmiy ishlarida qo’llagan.

Funksiya tushunchasini maktab matematika kursida kiritishni ikki davrga bo’lish mumkin. Birinchi davri V sinfdan boshlab funksiya va grafiklar degan mavzugacha bo’lgan davr. Bu davr ichida o’qituvchi o’quvchilarga sonning nisbati, to’g ‘ri va teskari proporsional miqdorlar,

Dekart koordinata tekisligi kabi tushunchalarni o’rganish orqali o’quvchilarda funksional bog’liqlik tushunchalari shakllantiriladi. XVIII asrga kelib o’zgaruvchi miqdor va koordinatalar metodi degan tushunchalar R.Dekart tomonidan kiritildi.

**VI sinf.** Sonli ifodalar harfiy ifodalar bilan almashtirish algebra darslarida «To’g’ri va teskari proporsional miqdorlar», «Algebraik ifodaning son qiymatini topish», «Amallarda berilganlar bilan amal natijalari orasidagi bog’lanish», «Temperatura va tekis harakatning grafigi» mavzularini o‘tishda o‘quvchilami funksional bog’lanishlarga tayyorlaydigan tushunchalami rivojlantirib boriladi.

Yuqoridagi mavzularning har birini o’tishda o’quvchilami funksional bog’lanishlarga ko‘pgina ishlar qilish mumkin va lozim. Shuni aytib o‘tish kerakki, funksiyani o’rganishga tayyorgarlik ishlari dastur materiallaridan ajralgan holda emas, balki shu materiallar bilan mustahkam bog’langan holda, bu materiallarni bayon etish jarayonida olib borilishi kerak.

Funksiya tushunchasini quyidagi masala orqali kiritish maqsadga muvofiqdir.

*Ava B* shaharlar orasidagi masofa **180** km. Mashina *A* shahardan *B* shaharga **60** km/soat tezlik bilan jo‘nab ketdi. Avtomobil *x* soatdan keyin *A* shahardan qanday masofada bo‘ladi? Avtomobil *x* soatda *60x* km yo‘l yurgan bo’ladi, u holda *x* soatdan keyin *A* shahardan **180-60.X** masofada bo‘ladi. **180—60*** masofani *y* desaku holda y= **80—60x** tenglik hosil bo‘ladi. Biz y masofa bilan *x* harakat vaqti orasidagi bog’lanishni ochib beradigan formula hosil qildik.

Hosil qilingan formuladagi *x* o‘zgaruvchi 3 dan katta bo’lmagan nomanfiy qiymatlar qabul qila oladi, chunki avtomobil 3 soatdan keyin *B* shaharga keladi. **_y=180—60x** tenglikdagi *x* ning har qanday qiymati uchun *y* ning unga mos qiymatini topish mumkin. Masalan, agar *x* — **1,** bo‘lsa, *y* = **120** agar *x=2* bo‘lsa, **>”=60,** agar *x=3* bo‘lsa, *y* = **0** bo’ladi. Bu degan so‘z *y* ning qiymati *x* ning qiymatiga bog’liq holda o’zgaradi, bunday bog’liqlik fimksional bog‘liqlik yoki funksiya deyiladi.

**Adabiyotlar:**

1. *Kollogarov A. N.* Tahriri ostida. Algebra va analiz asoslari. 10-11 sinflar uchun darslik. -T.: «0‘qituvchi». 1992.

# SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Sohiba Boymirzayeva To'lqinboyeva**
Namangan viloyati Norin tuman
30-maktab Psixologi
998995388983. sohibaboymirzayeva@gmail.com.

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada shaxsning individual psixologik xususiyatari, bolaning qobilyat va iqtidorini o'sib borishi , uning iqtidorini topish insonning o'ziga qolaversa jamiyatga katta manfati orligi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:**Individuallik, qobiliyat, temperament, xarakter, irodaviy sifatlar, emotsiyalar, iqtidor, iste'dod, layoqat, sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik.

Bugungi kun o'qituvchilari jismonan baquvat ruhan yetuk kadrlar tayyorlashda psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi. Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. Qobiliyatning tabiiy sharti, layoqat nerv tizimsining tuzilishi va funksiyalarining xususiyatlari tarkibida ekanligi, bu hodisa barcha morfologik va fiziologik sifatlari singari umumiy genetiga qonunlariga bo'ysunishaniqlangan. Agarda insonning taraqqiyoti ijtimoiy tarixiy qonunlar bilan boshqarilishi tan olinar ekan, qobiliyatining taraqqiyoti biologik irsiyat qonunlariga bo'ysunishi to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslangan holda qobiliyat va layoqatlar muayyan tabiiy zaminga bog'liq bo'lsa-da, lekin ular faqat tabiatning in'omi emas, balki insoniyat tarixiy taraqqiyotining bebaho (qimmatli) mahsulidir. Xuddi shu bois qobiliyatlarning namoyon bo'lishi shaxslar tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish davomida ijtimoiy shartlangan bilimlar va ko'nikmalarni tarkib Ba'zan o'ta iqtidorli va qobiliyatli bola haqida gap ketsa, undagi bu sifat tug'ma ekanligiga ishora qilishadi. Talantli, genial olim, san'atkor yoki mutaxassis haqida gap ketsa ham xuddi shunday. Umuman qobiliyatlarning tug'ma yoki orttirilgan ekanligi masalasi ham olimlar diqqat markazida bo'lgan muammolardan. Psixologiyada tug'malik alomatlari bor individual sifatlar layoqatlar deb yuritildi va uning ikki xili farqlanadi: tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat.Birinchisi odamdagi tug'ma xususiyatlardan - oliy nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari, miyaning yarim sharlarining qanday ishlashi, qo'l-oyoqlarning biologik va fizilogik sifatlari, bilish jarayonlarini ta'minlovchi sezgi organlari- ko'z, quloq, burun, teri kabilarning xususiyatlaridan kelib chiqsa (bular nasliy ota-onadan genetik tarzda o'tadi), ijtimoiy layoqat -bola tug'ilishi bilan uni o'ragan muhit, muloqot uslublari, so'zlashish madaniyati,qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar (ular ota-ona tomonidan yaratiladi)dir.

Qobiliyatsizlik va intellektning pastligi sabablaridan ham biri shuki, ana shu ikki xil layoqat o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Masalan, genial rassom oilasida bola tug'ildi deylik. Unda rassomchilik uchun tug'ma, genetik belgilar otasi tomonidan berilgan deylik. Lekin bolaning onasi farzandining ham rassom bo'lishini xohlamasligi, o'ziga o'hshash qo'shiqchi bo'lishini xohlashi mumkin.

Ayol bolani yoshlikdan faqat musiqa muhitida tarbiyalaydi. Tabiiy layoqatning rivoji uchun ijtimoiy layoqat muhiti yo'q, ijtimoiy layoqat o'sishi uchun esa tabiiy, tug'ma layoqat yo'q bo'lgani sababli, bolada hech qanday talant namoyon bo'lmasligi, u oddiygina musiqachi yoki qo'shiqchi bo'lish bilan cheklanishi mumkin. Intellekt testlari va qobiliyatdagi tug'ma va orttirilgan belgilarni o'rganishning psixologik ahamiyati aynan shunda. Eng talantli, mashhur shaxslarning eng buyuk ishlari, erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarining tagida ham qisman layoqat va asosan tinimsiz mehnat, intilish, ijodkorlik va bilimga chanqoqlik yotgan. Shuni ham unutmaslik kerakki, qobiliyatsiz odam bo'lmaydi. Agar shaxs adashib, o'zidagi haqiqiy iqtidor yoki layoqatni bilmay, kasb tanlagan bo'lsa, tabiiy, u atrofdagilarga layoqatsiz, qobiliyatsiz ko'rinadi. Lekin aslida nimaga uning qobiliyati borligini o'z vaqtida to'g'ri aniqlay olishmagani sabab u bir umr shu toifaga kirib

qoladi. Iqtidor - insonning o'z hattiharakatlari, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan sub'ektiv munosabatidir. Iqtidorli odam genial yoki talantli bo'lmasligi mumkin, lekin u har qanday ishda mardlik, chidamlilik, o'z-o'zini boshqara olish, tashabbuskorlik kabi fazilatlarga ega bo'lib, o'zlari shug'ullanayotgan ishni bajonidil, sitqidildan bajaradi. Ular ana shunday harakatlari bilan ba'zi o'ta iste'dodli, lekin kamharakat kishilardan ko'ra jamiyatga ko'proq foyda keltiradi. Iqtidorli insonda iste'dod sohibi bo'lish imkoniyati bor, zero iste'dod - har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir.

**Foydalanilgan adaiyotlar**

1. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. Toshkent "Yangi asr avlodi"2008yil.
2. Karimova V. Akromova F. Psixologiya. Toshkent-2000 yil .
3. www.ziyonet.uz.

# O'QUVCHILARNI IFODALI O'QISHGA O'RGATISHDA ABDULLA ORIPOV IJODIDAN FOYDALANISH METODIKASI

**Bozorova Malohat Ibodullayevna**
Navoiy viloyat Karmana tumani
12-umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Bugungi kunda maktablarda sinf – dars shaklidagi mashg'ulotlardan foydalanib kelinmoqda va ularga qo'yilgan talablar ham o'zgarib bormoqda. Darslarni qiziqarli uyushtirish uchun o'qituvchilar yangicha dars turlaridan, turli-tuman interfaol usul va vositalardan foydalanishlari mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qish darslarida keltirilgan asarlardan, jumladan, A.Oripov asarlaridan foydalanganda dars loyihasini tuzishda o'quvchining yoshi, individual xususiyati va darsning davomiyligiga alohida e'tibor qaratishi, o'quvchilarning bilimlarini sinash va qiziqishlarini oshirish maqsadida boshqotirma, rebus, o'yin – topishmoq kabi dars samaradorligini oshiruvchi vositalardan foydalanishi lozim.

"Boshqotirma" (krosvord) – o'quvchilar bilimini tekshirib ko'rish, mustahkamlashga imkon yaratadigan didaktik vositadir. Boshqotirmalar o'quvchilar yoshiga mos holda, soda ko'rinishda tuzib olinadi. Masalan A.Oripovning 1- sinf "O'qish" (G'afforova T,Shodmonov E, Ehturdiyeva G. O'qish kitobi. 1- sinf uchun darslik. – T.: Sharq 2010-41 b) kitobida keltirilgan "Qushcha" she'ri uchun quyidagicha boshqotirma tuzish mumkin:

Bolalar, mana bu bo'sh katakchalarga undosh harflarni qo'ysangiz, shoirimiz A.Oripovning sizga tanish bo'lgan she'rining nomi kelib chiqadi: (qushcha) yoki shoirning "Qushcha) she'rida nima ifodalanganligini bilish maqsadida quyidagicha boshqotirma tuzish mumkin. Bu bilan o'quvchi she'rda nima ifodalanganligini xotirasida saqlab qoladi: (Bahor) Boshqotirmalar dastlab o'qituvchining ko'magida yechib boriladi, bolalar ulg'ayib borishi natijasida boshqotirmalar ham murakkablashtiriladi. Ba'zan boshqotirmalarda kalit so'zlar ham mavjud bo'ladi. Unda kalit so'z yozilgan katakchalar qalin chiziq bilan chegaralangan bo'ladi. Kalit so'zni 1-2- sinflarda o'qituvchi yordamida, 3-4- sinflrda o'quvchilarning o'zlari mustaqil holda topa bilishlari kerak.

Darslarda "O'ylab top" tipidagi vositadan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Shuningdek, bu tipdagi topshiriqlardan bo'lim yuzasidan takrorlash darslarida ham foydalanish mumkin. U quyidagi tarzda tashkil etiladi. O'qituvchi biror – bir narsa va predmetni so'z yoki topishmoq yordamida uch marta ta'riflaydi. Ta'riflar brogan sayin soddalashib boraveradi.Soddalashib borishi natijasida o'quvchilarning ballari ham pasayib boraveradi. Ya'ni, birinchi ta'rif e'lon qilingandayoq javob topgan o'quvchilarga 3 ball, 2 – ta'rif o'qilgach, javob bergan o'quvchilarga 2 ball, 3- ta'rif e'lon qilinganidan keyin javob bergan o'quvchilarga 1 ball beriladi. Masalan, 1- sinf o'quvchilariga A.Oripovning "Qushcha" she'ri yuzasidan quyidagicha ta'riflardan foydalanish mumkin.

1. U uchadi.
2. Uning ikkita qanoti bor.
3. U bahor kelganda o'lkamizga qaytib keladi,

Shoxdan shoxga qo'nib, sho'z va quvnoq kuylaydi.(javob: qushcha)

"O'qish" darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga xos ruhiy- ma'naviy holatidan unumli foydalanib, darslarni qiziqarli uyushtirish bilan o'quvchilarda A.Oripovning ijodiga nisbatan qiziqishni shakllantirib borish mumkin.

Bu ruhiy – ma'naviy holat o'quvchilarda darsliklarda aks etgan mavzu yuzasidan o'qituvchi tomonidan tuzilgan hikoya, suhbat yoki ko'rinish tarzida, she'riy asarlarni tinglaganda, ayniqsa, asar qahramonlarining hatti – harakati hikoya qilganda sodir bo'ladi. Ma'lumki, bolalik deb atalmish bu davr o'zining ishonuvchanligi, taqlidchanligi, qiziquvchanligi hamda soddaligi bilan ular hayotida o'chmas iz qoldiradi. Ular yuqoridagi voqealarni tinglaganlarida, o'sha qahramonlarga o'xshagisi keladi, o'zlarining o'yinlarida ularga taqlid qiladilar, o'quvchilar albatta xalq himoyachisi va Vatanga e'tiqodli insonlar bo'lishga harakat qila boshlaydilar. Bu kabi maqsadlarni dars jarayonida amalga oshirishda o'qituvchi asosiy o'rin egallaydi. Jumladan, o'qituvchining nutqi, mimikasi, ishontirish qobiliyatining ta'siri orqali o'quvchilar asar qahramonlarining xislat va xususiyatlarini yaqqol tasavvur qila oladilar.

# CHET TILINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

**Chuliyev Azim**
Navoiy viloyati Nurota tumani
17- umumta'lim maktab
Ingliz tili fani o'qituvchisi

Yurtimizning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni tobora o'sib, xalqaro aloqalar mustahkamlanib borayotgan bir paytda yoshlarga chet tillarini puxta o'rgatish fan o'qituvchilari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Chet tilini mukammal bilish dunyoga chiqish, dunyodagi voqea-hodisalardan, ilm-fan va texnologiya sohasidagi yutuqlardan xabardor bo'lish bilan bir qatorda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan yaratuvchanlik va bunyodkorlik ishlarini, qo'lga kiritilayotgan ijobiy natijalarni jahon ornmasiga tanitish imkoniyatini beradi.

Yurtboshimiz bu borada "Biz ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi кипda dunyoda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroflicha xabardor bo'lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o'rganishlari uchun katta ahamiyat bermoqdamiz" degan edi.

Bugungi kunda yoshlarimiz qaysi kasbni egallashidan qat'iy nazar, xorijiy til va axborot texnologiyalarini puxta bilish lozimligini anglab etgan. Xorijiy til va axborot texnologiyalarini bilish butun jahon axborot tizimiga ulanish, kerakli materiallar olish va ulardan dars jarayonlarida foydalanish imkonini beradi. SHu bois o'quvchilarni ijodkorlikka undash maqsadida o'qitish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan, kompyuter texnikasidan unumli foydalanish va mavjud elektron axborot resurslarini samarali qo'llash talab etiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or texnologiyalarning juda ko'plab turlaridan foydalanib kelinmoqda. Jumladan, ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanilayotgan texnologiyalarga:

- kompyuterli-axborot texnologiyasi;
- mul'timediali texnologiya;
- interfaol usulli texnologiyasi;
- dasturli ta'lim texnologiyasi;
- masofadan o'qitish texnologiyasi va h.k. kiradi.

Ushbu texnologiyalar orqali chet tilidagi o'quv materiallarining o'quvchilar tomonidan yaxshi o'zlashtirilishiga erishish uchun:

- chet tilini o'rganishga o'quvchilarda ishtiyoqning talab darajasida bo'lishi;
- o'qitish jarayonining kommunikativ yo'naltirilgan bo'lishi;

* o'qitish metodlarini tanlashga o'qituvchining ijodiy yondashishi;

- og'zaki mashqlar qilish va chet tilida muloqotga o'rgatish mashg'ulotlari davomida qulay psixologik muhitning yaratilishi;
- chet tilini o'rganishda sinf va sinfdah tashqari ijodiy ishlar hamjihatlikda olib borilishi lozim.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda axborot texnologiyalaridan mohirona foydalanib, o'quvchilarga chuqur bilim berish orqali zamonaviy o'qituvchi o'z maqsadiga erishadi.

Zamonaviy kompyuter, umuman olganda, aqliy mehnat sharoitlarini optimallashtirish borasida samarali vosita hisoblanadi.

Chet tilini o'rganishda axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalari yordamida:

- leksikani o'rgatish;
- talaffuz ustida ishlash;
- dialogik va monologik so'zlashishga o'rgatish;

* yozuvni o'rgatish;
* grammatik hodisalarni qayta ko'rish va tahlil qilish vazifalari amalga oshiriladi.

Ushbu mashg'ulotlar davomida axborot texnologiyalaridan foydalanish bir qator didaktik vazifalarni yechishga yordam beradi, ya'ni o'qish ko'nikmaiari shakllanadi, yozuv malakalari takomillashib boradi, o'quvchilaming lug'at zaxirasi to'ldiriladi, ularda chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish barqarorlashadi.

Chet tili o'qitilishida o'quvchilaming kommunikativ va muloqot dialogida erkin ishtirok eta olishi kabi ta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadlar ustuvorlik qiladi. O'quvchini faqat matnlar bilan muntazam band qilib qo'yish ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ularni og'zaki va yozma savodxonligini oshirish maqsadida ilg'or pedagogik usullar va zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalardan unumli foydalanib, qiziqarli o'quv materiallari, muammoli vaziyat, qiziqarli mashqlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'qituvchi o'quvchilarga chet tilini o'rgatishda, uni tez, oson hamda qulay o'zlashtirish usullarini ishlab chiqishi va amalga oshirishi, chet tilini o'qitishning dolzarb masalalarini o'rganishi va ulami hal qilish yo'llarini tavsiya etishi, ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitishning ilg'or uslublarini qo'llashida, albatta, tajriba almashishi muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, chet tili o'qituvchisi bo'lajak mutaxassisga zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi shunday o'quv-uslubiy muhitni yaratishi kerakki, kelajakda bu muhit o'quvchida chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish orqali o'z kasbiga bo'lgan mehrini ham kuchaytirmog'i zarur.

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH USULLARI

**Djumaniyazova Zamira Marimbayevna**
Xorazm viloyati Urganch shahri
15-son umumiy o’rta ta’lim maktabi
boshlang’ich sinf o’qituvchisi
**Maksutova Zulfiya Lenarovna**
Xorazm viloyati Urganch shahri
15-son umumiy o’rta ta’lim maktabi
boshlang’ich sinf o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos shakllari va usullarini amalda qo‘llashning o‘ziga xos jihatlari haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** ta’lim-tarbiya, o’qitish, pedogogik maxorat, ilm-fan, dars jaaryoni, ta’lim metodlari.

Bugungi kunda dunyo miqiyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta‘lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o‘z ta‘sirini ko‘rsatayotganligi barchamizga ma‘lum. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzluksiz yangilanib turishi tabiiydir. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab mehnat turi sifatida bundan mustasno emas. Pedagoglar o‘z faoliyatlarida kafolatlangan natijalarni qo‘lga kiritishga urinmoqdalar. Bugungi kunda davtimiz rahbari Sh.Mirziyoyev mamlakatimzida uchinchi renessans poydevorini yaratishga alohida e’tibor qaratmoqda. ‘Biz o’z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug’ maqsadni qo’ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug’beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog’lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g’oyamizning asosiy ustunlari bo’lib xizmat qilishi lozim”,-deya ta’kidladi muhatram Prezidentimiz 2020-yilning 29-dekabrida Oliy Majliga yo’llagan murojaatnomasida. Shunday ekan ushbu jarayonlar maktab o’qituvchisidan o’z ustida tinimsiz ishlab, yangi va zamonaviy pedogogik texnologiyalarni puxta egallashni talab etadi.

XXI asrni olimlarimiz tomonidan axborot texnologiyalari asri deb tan olinganligi pedagogik va axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarda rivojlanayotgani, jumladan, ta‘lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an‘anaviy o‘qitish usullaridan ko‘ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga joriy etish, ta‘lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, insoniyat hayotiga turli yangiliklarning kirib kelishi ta‘lim sohasida ham bir qator o’zgarishlar qilinishini taqoza etmoqda. Hozirgi kunda ta’lim sohasida erishilgan yutuqlami saqlagan holda, bir xillikdan, bir qolipga tushib qolishdan saqlanmoq zarur. Ta’limning kishi xotirasini rivojlantirishga asoslangan turidan inson tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, o’quvchilar egallagan bilimlarni amaliyotda qo c llash, ularda amaliy ko’nikma va malakalar hosil etishga qaratilgan turiga o’qitishga harakat qilish shu kunning talabi. Shunga erishilsagina vatanimiz kelajagi bo’lgan yosh avlod tarbiyasi oldiga qo’yilgan vazifa oqilona hal etilishi mumkin.

Ta’lim metodlarini to`g`ri tanlash va ulardan o`rinli foydalanish - ta’lim samarasini ta’minlashga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida asosan she‘rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o‘qib o‘rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o‘ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o‘ziga xos usulda o‘qib o‘rganish taqazo qilinadi. Badiiy asarni izohli o‘qishga yaqin bo‘lgan metodlardan biri ijodiy o‘qishdir. Atoqli metodist olim N. I. Kudryashov ijodiy o‘qish metodi tarkibiga quyidagi ish usullarini kiritadi:

a) o‘qituvchilarning badiiy matnni sharhlab o‘qishi hamda o‘quvchilarning asarni to‘g‘ri va imkon qadar yanada chuqurroq, emotsional idrok etishlarini ta‘minlash maqsadini ko‘zda tutuvchi

so'zi:

b) o'qilgan asardan o'quvchilarning bevosita olgan taassurotlarini chuqurlashtirish maqsadiga ega bo'lgan va ularning diqqatini matnning muhim g'oyaviy va badiiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammoning qo'yilishi;

d) o'qituvchining asar o'qilganidan keyin o'quvchilarning asarni tadqiq etish jarayonida tug'ilgan badiiy kechinmalarini faollashtirish maqsadini ko'zda tutuvchi.

Ta'limda faqat qiziqishga tayanib qolish ham motivatsiyaning asosli samarali bo'la olishini ta'minlamaydi. Bunda eng muhim samarali usul motivatsion-muammoli vaziyatlarni qo'yish yoki o'rganilayotgan predmetning ijtimoiy mohiyatini aks ettiradigan maxsus bilishga oid vazifalarning qo'yilishidir. Masalan, yangi dars boshlanishida yoki o'tgan darsni so'rash va mustahkamlash paytida didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning darsga qiziqishlari oshiriladi. Motiv hosil bo'lgach, dars davomida o'quvchilarning qiziqishlari saqlanib turgan holda o'rganilayotgan mavzuning ijtimoiy ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich sinfda dars jarayonida motivlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini tashkil etishda motivlarga ko'proq e'tibor berishi o'quvchilarning bilim egallash jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Darsda pedagigik texnologiyalarning metodlaridan foydalanish, o'quvchilarni bilimlarini kengaytirish o'qituvchidan katta mahorat talab etadi. U dars ishlanmasida boshqaruv yo'llarini belgilab oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001.

2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T:, 2008-yil.

3. Mallayev O. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. 2000-yil.

# BIRINCHI SINF ONA TILI DARSLARIDA GAP MAVZUSI USTIDA ISHLASH

**Eshpo'latova Sarvinoz Dilshod qizi**
Sirdaryo viloyati Guliston shahar
17- maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** maqolada birinchi sinf ona tili darslarida gap mavzusi ustida ishlash, mashqlar bajarish mavzusi yoritilgan.
**Kalit so'zlar:** birinchi sinflar, ona tili, dars, 1-sinf, gap, nutq, Grammatik, analiz, sintez.

Gap biror voqea- hodisa haqidagi xabarni, so'roqni yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik butunlikdir. Gap oxiriga nuqta, so'roq, undov belgisidan biri qo'yiladi. Gap tarkibidagi so'zlar ham ma'no tomondan, ham grammatik tomondan o'zaro bog'lanadi. Har bir gap biror maqsadni-mazmunini ifodalaydi.

Gap ustida ishlash o`quvchilarning nutqini o`stirishda muhim ahamiyatga ega. Gap ustida ishlashning asosiy vazifasi o`quvchilarni sintaktik jihatdan to`g`ri va aniq gap tuzib , tugallangan fikr bildirishga o`rgatish hisoblanadi. Gap ustida ishlashning boshlang`ich bosqichi savod o`rgatish davriga to`g`ri keladi. Bu davrda o`quvchilar gapning muhim xususiyatlari ya`ni fikr ifodalashi, tugallangan ohang bilan aytilishi haqida tanishadilar.Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib so`zlardan gap tuzib bo`lmaydi. Gap-grammatik jihatdan o`zaro bog`langan, tugallangan mazmun va tugallangan intonatsiyaga ega bo`lgan nutq birligi.

Dasturga ko`ra 1-sinf o`quvchilariga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, gap so`zlardan tashkil topishi , uning oxiriga ma`lum bir tinish belgisining qo`yilishi haqida amaliy ma`lumotlar beriladi.

Analiz yoki sintezning ustunligiga nisbatan gap ustida ishlash mashqlari ikkiga bo`linadi:

-analitek mashqlar , ya`ni tuzilgan tayyor matndan olingan gapni tahlil qilish;

-sintetik mashqlar ,ya`ni mustaqil gap tuzishga qaratilgan mashqlar.

O`quvchilarning mustaqilligi va bilish jarayonining faollik darajasiga ko`ra *gap ustida ishlash mashqlari uchga bo`linadi.*

1.Namuna asosidagi mashqlar.

1-sinf ona tili darslarida *savollar asosida gap tuzish* turidan foydalaniladi. Bunda berilgan savol javob uchun asos bo`ladi va "namuna " vazifasini bajaradi. Savollarda uning asosiy mazmuni emas, balki barcha so`zlar va sintaktik qurilishning chizmasi ham beriladi. Masalan: *Bolalar daraxtdan nimani terdilar?(Bolalar daraxtdan mevani terdilar.)*

2.Konstruktiv mashqlar

Gap tuzish va uni qayta tuzishga qaratilgan mashqlar kiradi.

1-sinf ona tili darslarida "Aralash berilgan so`zlardan gap tuzish yoki tartibsiz berilgan gaplardaan matn tuzish", "Nuqtalar qo`yilmagan gaplarning chegarasini aniqlash" turlaridan foydalansa bo`ladi.

3.Ijodiy mashqlar

Bunday mashqlarda o`quvchilar o`zlari erkin ravishda gap tuzadilar.Boshlang`ich sinfda ijodiy mashqning quyidagi turlaridan foydalanadilar.

Nars rasmi yoki shaxs rasmi beriladi. O`quvchilar rasm asosida bir yoki bir nechta gap tuzadilar. Gap tuzish uchun mavzu beriladi, o`quvchilar shu mavzuga mos gap tuzadilar: "Maktabimiz – bilim bulog'i", "Bahor fasli ", "Bizning oila" kabi.

Ikki-uchta tayanch so`z beriladi, o`quvchilar shu so`zlarni qatnashtirib gap tuzadilar.

Xulosa qilib aytganda, gaplar til birligi sifatida inson his-tuyg'ularini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular, o'z navbatida, nutqni chiroyli, ravon bo'lishini ham ta'minlaydi. O'quvchilarga bunday mashqlarni o'rgatib borish, kelajakda ularning so'z boyligini oshishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. K.Qosimova, S.Fuzailov, A Ne`matova . Ona tili 1-sinf darslik .- T.: "Sharq"2017.

2. U.Masharipova , M.Umarova , D.Baynazarova . Ona tili 1-sinf .O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma.-T.:"Sharq"2014.

# O'QUV MUASSASALARIDA TA`LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

**Fayziyev Akmal Murotovich**
Buxoro viloyati Qorako'l tumani
20-son umumta'lim maktabi
rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'limni tashkil etish shakllari, ularning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari, afzallik va kamchiliklari haqida malumotlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** ta'lim, maktab, o'quvchi, o'qituvchi, individual, sinf-dars, tanlab o'qitish, ta'sir, hamkorlik.

Ta'limni tashkil etish shakli - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasidir. Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksiya-seminar, sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktabdan tashqari. Ular o'quvchilarni qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi: individual; sinf-dars; ma'ruza-seminar.

O'tmishda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli ta'limning individual shakli hisoblanadi. O'qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalaniladi. O'qishni tashkil etishning individual shaklining quyidagicha afzallik va kamchiliklari mavjud:

-o'quv faoliyati mazmuni, metodi va sur'atini to'la individualashtirish imkoniyatining mavjudligi;

-aniq bir masalani hal etishda ta'lim oluvchining har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishi;

-o'qituvchi ta'sirining cheklanganligi (o'qituvchining vazifasi o'quvchiga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat);

-boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi);

-jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.

XVI asrdan boshlab individual o'qitish shaklining ahamiyati pasayib, uning o'rnini ta'limning individual-guruhli shakli egallashiga imkon berdi. Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib quyidagicha afzallik va kamchiliklari mavjud:

-yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim;

-jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati;

-o'qituvchining o'quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsatishi;

-ta'limning emotsionalligi (o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi);

-o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi;

-bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

-tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi;

-bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi;

-o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi;

-katta va kichik yoshli o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida aqliy rivojlanishda farq bo'lgan ta'lim oluvchilarni o'qitishda individuallashtirishga e'tibor qaratish masalasi ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunga mos ravishda ta'limning tanlab o'qitish shakli yuzaga keldi. XX asr boshida Yevropa va AQShda ta'lim oluvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. Ular orasida 1905-yili Massachusets shtatining Dalton shahrida o'qituvchi Yelena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan ta'limning individuallashtirilgan tizimi e'tirof etilgan. Bu tizimning mazmun-mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-o'quv faoliyatining muvaffaqiyati maktabda ishlash sur'atining har bir ta'lim oluvchining imkoniyatlari, ularning qobiliyatlariga moslashtirilishiga bog'liq;

-ta'lim faoliyati uchun ustun turadigan o'qishni an'anaviy tashkil etish ta'lim oluvchining mustaqil o'quv faoliyatining markazi hisoblanishi;

-ta'lim beruvchi o'z vazifasini odob bilan bajarishi;

-sinf laboratoriyalarining ustaxonalar bilan almashtirilishi, o'qituvchining yangi materialni tushuntirmasligi, balki uni ta'lim oluvchining o'zi laboratoriya yoki ustaxonalarda ta'lim beruvchidan olingan topshiriq asosida mustaqil shug'ullanishlari va zarur bo'lgan paytlarda ta'lim beruvchidan yordam so'rashlari asosida o'zlashtirishi va shu kabilar.

Pedagogikada ta'limni tashkil qilish quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim: ta'limning tarbiyaviy maqsadlarga bo'ysundirilganligi, o'quvchini komil shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilganligi, ilmiyligi va izchilligi, tarbiyalanuvchining faolligi va mustaqilligini ta'minlashga qaratilganligi, insonparvarlik yo'nalishiga egaligi, tizimliligi, bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilganligi, amaliy ahamiyatga egaligi bo`ladi.

**Foydalanilagan adabiyotlar**

1. R.Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y.
2. M.E.Axmedova Pedagogika nazariyasi va tarixi" o'quv qo'llanma T:2011 "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti.
3. X. Ibragimov SH. Abdullayeva Pedagogika. Toshkent, 2007
4. B.X.Xodjaev Pedagogika. Nazariyasi va amaliyoti. Toshkent 2017

# MAKTAB O'QUVCHILARIGA GEOMETRIK MASALALAR YECHISHNI O'RGATISH METODIKALARI

**G'ofurov Shuxrat Mubillayevich**
Namangan viloyati Kosonsoy tumani
33-maktab matematika fani o'qituvchisi
Shuxrataka_scholl33@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda biz maktab o'quvchilarini turli qiyinlikdagi geometric masalalarni yechish yo'llari va usullarini o'rgatish metodikalari bilan tanishtirib o'tmoqchimiz. Bu ishni turli yillarda oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarida matematika fanidan tushgan testlarning taxlili orqali bajaramiz.

**Kalit so'zlar:** Masofa, Burchak, kesishuvchi to'g'ri chiziqlar, Uchburchak, uchburchak perimetri, balandlik,

Ba'zan geometriyaga doir masalalarni yechishda masala osonday tuyulsada etibor qismlari mavjud bo'ladi. Bu qismga etibor bermasak masala javobi xato chiqishiga sabab bo'lishi mumkun.

**Masala:** A va B nuqtalar orasidagi masofa 500 m B va C nuqtalar orasidagi masofa esa 300 m A va C nuqtalar orasidagi masofa qanchaga teng?

A)1300 m B) 800 m C) 200 m D) 700 m E) aniqlab bo'lmaydi

**Yechish:** Ko'plab o'quvchilar shoshilgan holatda 800 m javobini belgilashadi aslida esa bizga nuqtalarni joylashish tartibi berilmagan shu sababdan bu yerda ikkita javob bo'lishi ham mumkun ya'ni 200 m va 800 m lekin testda bu ikki javob bir javob shaklida berilmagan demak to'g'ri javob aniqlab bo'lmaydi.

**Masala:**Nir nuqtadan uchta to'g'ri chiziq o'tkazligan Hosil bo'lgan 6 ta burchakni O'zaro vertical bo'lmagan uchtasi *a, b, c* ga teng bo'lsa *a+b+c* ni toping:

Yechish: Qarama-qarshi burchaklar o'zaro tengligi sababli *2a+2b+2c=360* shartni qanoatlantiradi tenglikni har ikkala tomonini 2 ga bo'lib yuborsak *a+b+c* = 180 ekanligi kelib chiqadi.

**Masala:** Uchburchakning tomonlari ortalarini tutashtirib perimetri 65 ga teng bo'lgan uchburchak hosil qilindi. Berilgan uchburchakni perimetrini toping.

Yechish: Uchburchakning o'rta chiziqlari uning tomonlaridan ikki marta kichik bo'lganligi uchun bu uchburchakning o'xshashlik koefitsienti *k=2* bo'ladi. U holda berilgan uchburchakning perimetri 2*P bo'ladi. Bundan 2*65=130 ekanligi kelib chiqadi.

**Masala:** Uchburchakning balandligi 4 ga teng Bu balandlik uchburchakni perimetrlari mos ravishda 16 va 23 ga teng bo'lgan uchburchaklarga ajratdi. Berilgan uchburchakni perimetrini toping.

**Yechish metodi:** bu yerda ko'plab o'quvchilar turli tenglamalari tuzib qiyinchilikka duch kelishadi aslida esa bu tipdagi masalalarni yechish juda oson. Demak biz hosil bo'lgan ikki uchburchakni perimetrlarini qo'shib balandlikni ikkilanganini ayirib qo'ysak bo'ldi. 16+23-2*4=39-8=31

**Masala:**Uchburchakning A, B va C lar ichki burchaklari bo'lsa *sin(A+B)/2* nimaga teng bo'ladi?

**Yechish:** uchburchakning ichki burchaklari yig'indisi 180 gradusga teng bo'ladi. Bundan *sin(A+B)/2=Sin(180-c)/2=sin(90-c/2)* holatga keladi. Keltrish formulalaridan esa bu *cos(c/2)* holatiga keladi.

**Masala:** Uchburchak tomonlari uzunliklari sin30◦ , sin40◦ va sin60◦ ga teng shu uchburchakning turini aniqlang.

**Yechish:** uxgburchak turini aniqlash uchun $a^2 + b^2$ va $c^2$ larni tekshiramiz

$c^2 = 3/4$ $a^2 + b^2 = \frac{1}{4} + sin40$ sin40 qiymati $\sqrt{2}/2$ dan kichikligi ma'lum. Bundan ko'rinib turibdiki $a^2 + b^2$ yig'indi ¾ dan kichik demak bizda quyidagi shart paydo bo'ldi. $a^2 + b^2 < c^2$ bundan uchburchak o'tmas burchakli.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Matematikadan mavzulashtirilgan testlar to'plami 1996-2003 y.y
2. Matematikani o'qitish metodikasi. NamDU 2001 y
3. Matematikadan nostandart testlarni ishlash usullari Farg'ona 2005
4. Axborotnoma 1998-yil sonlari

# NUTQNI O'STIRISHNING BOSHQA O'QUV PREDMETLARI BILAN BOG'LIQLIGI

**Hikmatullayeva Gulzira G'aybullo qizi**
Buxoro viloyati Qorako'l tumani
20-son umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda boshqa predmetlar bilan bog'lashning usullari keltirilgan.
**Kalit so'zlar:** dars, nutq, so'z, matn, talaffuz, hikoya, tasavvur, fan, savol, til.

Boshlang'ich sinf, ona tili darslarida olib boriladigan barcha mashg'ulotlarning yetakchi o'rni nutq o'stirish bo'lib, u savod o'rgatish, chiroyli yozish ko'nikmalarini shakllantirish va fikrlash doirasini kengaytirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Bu darslarda ko'proq amaliy maqsadlarni ko'zlash, til boyliklaridan nutqda foydalanish malakalarini shakllantirish, ijodiy fikrlash, o'quvchilarning til sezgirligini tarbiyalash lozim. Ularning og'zaki nutqini muntazam o'stirib borish bog'anishli nutq, matn tuzishlarda amaliy yordam beradi.

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar, ular kuzatishni, o'ylashni, ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi. O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish vositalaridan biri to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli o'quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim.

Boshlang'ich sinflardagi boshqa darslarda ham o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitiladi. Kuzatish va turli ko'rgazmali qurollar bu darslarda ham bilim olish, tushunchalarini shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Matematika darslarida bolalar yangi tasavvur va tushunchalar, juda ko'p so'z va atamalar bilan o'z nutqlarini boyitadilar, sodda va qo'shma gap tuzishni o'rganadilar. Masala yechish jarayonida esa ular shu vaqtgacha o'z nutqlarida ishlatib kelgan ushbu bo'ladi, qoladi, hosil bo'ladi, teng kabi so'zlarning yangi ma'nosini bilib oladilar; bizga ma'lum, masalada so'ralyapti kabi so'z birikmalarini ishlatishni o'rganadilar. Matematika darslari o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilar tabiatshunoslik darslarida va ekskursiya vaqtida ko'rgan narsalarini o'qituvchi yordamida guruhlaydilar, ularni o'zaro taqqoslab, o'xshash va farqli tomonlarini topib aytadilar. Bular, o'z navbatida, tabiatga oid ayrim tushunchalarni aniq bilib olishga imkon beradi va tafakkurni o'stiradi. Tabiat hodisalari va predmetlarini idrok etish bilan bolalar ongida tabiatshunoslikka oid tushunchalar hosil bo'ladi.

Texnologiya va rasm darslari ham, jismoniy tarbiya va ashula darslari ham, shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirishga alohida ahamiyat qaratish zarur.

O'quvchilar nutqini o'stirishda o'qituvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. O'qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodali, ta'sirli so'zlashi; har doim o'quvchi daftariga, barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan u bolalarni ifodali so'zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o'rgatadi, tilga sezgirlikni uyg'otadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o'qitish metodikasi.
2. U. Masharipova O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma.

# ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHI FAOLLIGINI OSHIRISHGA YO‘NALTIRILGAN METODLAR

**Imomova Dilfuza Abdihakimovna,**
Navoiy viloyat XTB filologiya fanlari
metodisti, d.imomova@umail.uz
+99890-646-24-64

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘quvchi faolligini oshiruvchi metodlar asosida ona tili darslarini tashkil etishning ahamiyati xususida so‘z yuritlgan. Ta’lim oluvchilarning kafolatlangan natijaga erishishlari tanlangan metodlarga bog’liq.

**Kalit so‘zlar:** faollik, tushuntiruvchi, rivojlantiruvchi, muammoli o‘qitish va nazorat metodlari, lug’at ustida ishlash, mustaqil fikrlash

Ona tili fani o‘quvchilarni erkin fikrlash hamda nutqini to‘g’ri ifodalay olishga o‘rgatadi. Binobarin, ona tili fanining bosh maqsadi mustaqil fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodiy va badiiy tafakkurga ega, savodxon shaxsni kamol toptirishdan iboratdir. Shunday ekan, darslarga ilg’or pedagogik texnologiyalarni olib kirish, o‘quvchi darsning tinglovchisigina emas, balki faol ishtirokchisiga aylanishi bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Bunga esa ona tili ta’limida interfaol metodlardan foydalanish orqali erishish mmkin. Faollik tufayli beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar o‘quvchining “shaxsiy mulki” ga ko‘chadi va u bu bilimlarini tanish-notanish vaziyatlarda ishga solish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yangi pedagogik texnologiyaning muhim talabi hisoblangan interfaol metodlarda o‘quv topshiriqlari bilan ishlash yaxshi natija beradi. O‘quv topshirig’i orqali o‘quvchi til hodisalarini kuzatadi, izlanadi, taqqoslaydi, umumiylikni aniqlaydi, farqlarini izohlaydi, guruhlaydi, xulosa va hukm chiqaradi, mustaqil tarzda amaliyotga tatbiq etadi. Masalan, “Tasviriy ifoda” mavzusini o‘rganishda o‘quvchi berilgan topshiriqni tahlil qilib, berilgan tasviriy ifodalarni diqqat bilan o‘rganadi, ular ma’nosiga mos keluvchi so‘zlarni topib yozadi, ularni o‘zaro qiyoslaydi, farqli jihatlarini izohlaydi:

Mo‘yqalam ustasi – rassom
Dala malikasi - makkajo‘xori
Bahor darakchisi - boychechak
Aql gimnastikasi – shaxmat …

O‘quvchilardan tasviriy ifodaga mustaqil ravishda ta’rif berish talab etiladi. Berilgan topshiriqni bajarish natijasida o‘quvchilar quyidagi umumlashmaga keladilar: ma’lum bir so‘zning so‘z birikmalari bilan ifodalangan ma’nodoshlariga tasviriy ifoda deyiladi. Tasviriy ifodalar so‘z ma’nosini oydinlashtirish, matnni badiiylashtirish, takrorning oldini olish uchun qo‘llanadi. Shundan so‘ng o‘quvchi o‘zida hosil bo‘lgan umumlashmani darslikda berilgan ta’rif bilan qiyoslab, tahlil qiladi. Chunki interfaol metod har bir ish turning oxirida muayyan xulosaga - to‘g’ri va samarali yechimga kelishni talab etadi. O‘quvchi o‘z-o‘zidan bunday yechimga kelmaydi, bu murakkab jarayon ta’lim oluvchi tomonidan bosib o‘tiladi.

Hozirgi vaqtda darslarda interfaol metodlarning quyidagi turlari keng qo‘llanilmoqda: 1.Tushuntiruvchi metodlar. 2. Muammoli o‘qitish metodlari. 3.Rivojlantiruvchi metodlar. 4. Nazorat metodlari.

Bu metodlar asosida tashkil etilgan zamonaviy darslarda o‘qituvchi o‘zidagi bor imkoniyatdan o‘quvchi bilimini shakllantirishda, faolligini oshirishda foydalanishi lozim.

Barchamizga ma’lumki, “Ona tili” darsliklarida o‘rganilgan mavzu doirasida berilgan so‘zlar asosida gaplar tuzishga mo‘ljallangan mashqlar ko‘p. Aslida, darslikda ham, o‘quv topshirig’ida ham o‘quvchilardan mazmunli gaplar tuzish talab etilishi, ular oldiga aniq vazifa qo`yilishi shart. Ona tili darslarida bolalarni mazmundor gaplar tuzishga o‘rgatishning qudratli omili - bu tasviriy san’at asarlaridan iborat ko‘rsatmalilikdir. Demak, darslarda tasviriy san’at namunasidan foydalanish:

- ❖ gap tuzish jarayonini estetik jihatdan boyitadi;
- ❖ tuziladigan gaplarning mazmunli va ta’sirchan bo‘lishi lozimligiga ishora qiladi;
- ❖ o‘quvchilarning bir tasviriy san’at asari asosida turli xil mazmundagi gaplarni tuzishga intilishi kichik hajmli matn yaratishda, insho yozishda tayyorgarlik vazifasini bajaradi, natijada

ularni shunday insholarni mazmundorlik va ta'sirchanlik talabi bilan vujudga keltirish malakasi bilan qurollantiradi, eng ahamiyatlisi, ta'limda uzviylikni ta'minlaydi.

Jumladan, ot va sifat so'z turkumlarini o'rganishda naturmort rasmlar qo'l keladi. Suratda musavvir narsa-buyumlarning go'zal tomonlarini bo'rttirib tasvirlaydi, shu sabab o'quvchilar e'tiborini ayni shu jihatga qaratish zarur. Harakat tasvirlangan rasmlarni ko'proq fe'l so'z turkumini o'rgatishda ishlatish muhim. O'rin-joy tasvirlarida ot so'z turkumidan tashqari, yordamchi so'zlardan ko'makchilar ortiqroq qo'llanadi. Ona tili ta'limida tasviriy san'at asari asosida har darsda tuziladigan mazmundor gaplar o'quvchining nutq madaniyatini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilish bilan birga, mashg'ulotlar samaradorligini yanada oshiradi.

O'quvchi-yoshlar savodxonligini yaxshilashda, ularning lug'at boyliklari kengayishida lug'atlar ustida ishlashning ahamiyati juda katta. Ona tili darslarida lug'at ustida ishlash o'quvchilar nutqini o'stirishga, savodxonligini oshirishga, so'z boyligini kengaytirishga qaratiladi. Bugungi kunda ona tili darsliklariga o'quvchilarni lug'at bilan ishlashga o'rgatuvchi leksikografik mashqlar ham kiritilgani quvonarli holdir. Bu mashqlarni bajarish davomida o'quvchi ona tilining lug'at boyligini o'rganadi, lug'at tarkibidagi so'zlarni to'g'ri yozishga intiladi, yangi-yangi so'zlar bilan tanishadi.

Xullas, o'qituvchi har bir darsini o'ziga xos ijod mahsuli sifatida o'quvchiga taqdim etmog'i va ularni shu jarayonning zukko, faol ishtirokchisiga aylantirmog'i lozim. Zero, bu dars orqali bolaga bilim berish bilan birga, uni faollashtirish, ona tilimizga bo'lgan cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalash zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari (I qism) . Toshkent- 2015

2. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev: "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". Toshkent - 2008

3. O'zbek tilining imlo lug'ati. Toshkent- 2020

# ЎҚУВЧИ КОГНИТИВ ЖАРАЁНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КИЧИК ГУРУҲЛАРДА ИШЛАШ АФЗАЛЛИКЛАРИ

**Исаева Лобар Мелихурамовна,**
Навоий вилояти Учқудуқ тумани
10-умутаълим мактаб
Инглиз тили фани ўқитувчиси

Таълим тарбия тизимиинг бугунги кундаги асосий вазифаси ўсиб келаётган ёшларни ватанпарвар, замонавий билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштирган ҳамда жамиятда ўз муносиб ўрнини эгаллашга қодир бўлган - комилликка интиладиган баркамол авлод қилиб тарбиялашдан иборат.

АКТ орқали ўйинли усуллар ўқувчида эркин фикрлаш, мустақил ижодий қобилиятни шакллантиришга хизмат қилади. Масалан, АКТ орқали “Кичик гуруҳларда ишлаш” усулини хорижий тили дарсларида қўллаш самарадорлиги таҳлил қилсак:

**“Кичик гуруҳларда ишлаш” усули.**

Кичик гуруҳларда ишлаш – ўқитувчи томонидан берилган маълум бир топшириқни ёки бериладиган сабоқни ҳамкорликда, ҳамжиҳатликда, уларнинг бир бирига қизиқишларини юқтириш орқали когнитив жараёнларни фаоллаштирувчи усуллардан бири ҳисобланади. Ушбу усул қўлланганда ўқувчилар кичик гуруҳларга бўлиниб, ҳамкорликда, ҳамжиҳатликда ишлаб, машғулот жараёнига фаол тортилади. Бундай фаол ўамжиҳат , биргаликдаги ҳаракат уларни нафақат бир-биридан ўрганишга ва турли нуқтаи-назарларни қадрлаш имконига балки уларни бир бирига яқинлаштиради ва янги сифатий хулқий хислатлага ҳам эга бўлиш имкониятини очади. Ўйин жараёнида овозли мултимедия, мултипликациялар, слайдларнинг бериб борилиши уларнинг билиш жараёнларини фаоллаштириб ривожлантиради. Кичик гуруҳлардаи ишлаш усули қўлланилганда ўқитувчи бошқа ноанъанавий усулларга қараганда вақтни тежаш имкониятига эга бўлади. Чунки ўқитувчи бир вақтнинг ўзида барча ўқувчиларни мавзуга жалб эта олади ва баҳолай олади.

**“Кичик гуруҳларда ишлаш ” усулининг афзаллиги:**

- Машғулот мазмунини яхши ўзлаштиришга олиб келади;
- Мулоқотга киришишнинг ҳар хил кўринишлари дистант, контакт кўникмаларини такомиллашишига олиб келади;
- Вақтни тежаш имконияти очилади;
- Барча ўқувчилар жалб этилади;
- Ҳамкорликда ишлаш билан умумий қарорга келиш;
- Мустақил фикрлаш имкони орқали, мантиқий тафаккурни ривожлантиради;
- Биргаликда ишлаш билан ўқувчилар хулқида сифатий ўзгаришлар содир бўлади;
- Ўз-ўзини ва гуруҳлараро баҳолаш имконияти мавжуд бўлади.
- Амалий такрорлашлар орқали янги ўрганилган сўзларнинг ишлатилиши уни ўзлаштиришни осонлаштиради.
- Ахборотни қабул қилишнинг визуал. аудал ва кинестетик қабул қилиш имконинини яратади.
- Таълим ва тарбия жараёнини технологиялаштириш учун қулай шарт педагогик ва психологик шарт шароти пайдо бўлади.
- Рағбатлантириш самарадорлиги ошиши оқибатида таълимий тарбиявий мотивациялар шаклланади ва улардан кўзланган мақсадлар эришуви осонлашади.

**“Кичик гуруҳларда ишлаш ” усулининг қўллаш босқичлари:**

- Гуруҳ ичида кичик гуруҳлар белгиланади. Ўқувчилар гуруҳларга 3-7 кишидан бўлинишлари мумкин;
- Фаолият йўналиши аниқланади. Муаммодан бир-бирига боғлиқ бўлган масалалар ва топшириқлар белгиланади. Йўриқнома бериш
- Кичик гуруҳлар топшириқни бажаришга киришадилар;
- Ўқитувчи томонидан аниқ кўрсатмалар берилади ва йўналтириб турилади; Қайтар алоқа пайдо қилиш.
- Назорат қилиш.

- Кичик гуруҳлар ва гуруҳла қатнашчилари ўз мустақил фикр мулоҳазаларини эркин баён этадилар ва тақосслаш ва қиёслашлар орқали умумий хулосаларини тавсифлайдилар; Тақдимотга тайёрлаш.
- Бажарилган топшириқлар муҳокама ва таҳлил қилинади; -Кичик гуруҳлар баҳоланади, ва рағбатлантирилади.
- Хулосалаш.

Кичик гуруҳда ишлаётганлар учун вазифани биргаликда ўқиш, мусобоқалашиш эмас, балки ҳамкор бўлиш; биргаликда ишлашга ўрганиш, ўқиш ва ижод қилиш. ҳар доим бир-бирига ёрдам беришга, муваффақият қувончи ёки маваффақиятсизлик сабоғини бирга тотишга тайёр бўлиш асосий қоидалардан саналади. Машғулот янги дарс усуллари билан бойитилиб, аниқ натижаларга эришилади. Бунда ўқитувчи гуруҳларга бўлиш, уларни тўғри жойлаштиришга эътибор қаратиш лозим. Ўқитувчининг кейинги вазифаси гуруҳларга ўқув топшириғини бериш ва топшириқни бажариш бўйича ўқувчиларга махсус йўриқнома асосида кўрсатма беришдан иборатдир. Ўқитишнинг бу шаклида мақсад ва натижа аниқ белгиланган бўлсагина самарали натижага эришиш имконияти яратилади. Навбатдаги босқичда ўқитувчи қайта алоқа ёрдамида гуруҳлардан топширилган вазифани қай даражада тушунганлигини текшириб олади, агарда гуруҳ вазифани тўғри тушунмаган бўлса, топшириқни кутилганидек бажара олмайди. Қайта алоқада “савол-жавоб”, “тезкор сўров”, “аукцион”, “ўйланг, жуфтликда ишланг, фикр алмашинг”, усулларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Гуруҳларда ном танлаш, сардор тайинлаш, мақсадни тўғри қўйиш, топшириққа ўтишни ўқувчиларнинг ўзи бажаради, ўқитувчи уларни кузатиб, назаорат қилиб туради, йўналтиради, зарур ҳолатларда маслаҳат беради. Гуруҳлар ўз ишларини тугатгач, тақдимотга тайёрланадилар. Тақдимот жараёнида гуруҳ аъзолари ўқитувчи назоратида бир-бирларининг фикрларини тўлдирадилар, хато ва камликларини тўғрилайдилар ҳамда ўзларини ва бошқаларни баҳолайдилар. Иш сўнггида ўқитувчи бажарилган ўқув топшириғи бўйича хулосаларини айтиб, ҳамкорликда ишлаш жараёнида ўқувчилар нималарни ўрганганлигини эслатади, топшириқ аввалида қўйилган мақсад ва натижага қай даражада эришилганини баҳолайди, мувофиқ рағбатлантирилади.

Юқоридаги баён этилган фикрларни хулоса қилиб айтганда, ўқувчиларни мустақил, эркин фикрлаши, изланиши, ҳар бир масалага ижодий мустақил ёндошиши, масъулиятни сезиш, таҳлил қилиш, жамоада ишлаш хулқи, ҳамкорликда ишлаш малакаси, энг асосийси хорижий тилни самарали , осон, енгил ўрганиши рўёбга чиқади. Бундай натижага эришиш машғулотларда инновацион ва ахборот технологияларни смарали қўллашни тақозо этади.

# O'QITUVCHILARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

**Ismailova Shoxzoda**
UrDU 2 - bosqich magistranti

**Annatotsiya:** Ushbu maqolada o'qituvchilarning kasbiy kompitentlining metodologik asoslari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, kasbiy kompetentlik, qobiliyat, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z ustida ishlash.

O'zbekiston Respublikani yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy extiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi yo'nalishlar belgilanib, bu borada pedagogik kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, oliy ta'lim tizimiga innovatsion ta'lim texnologiyalarni joriy etish masalalariga katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'limda kompetentlik yondashuvning vujudga kelish tarixiga oid manbalarga e'tibor qilinsa (1960—1970 yillar), bu davrda ilk bor "kompetentlik" so'zi ilmiy adabiyotlarga kirib kela boshladi. D.Xayms tomonidan, "kommunikativ kompetentlik" tushunchasi iste'molga kiritilgan. J.Ravenning 1984 yilda chop etilgan "Zamonaviy jamiyatda kompetentlik" nomli asarida kompetentlikka keng ta'rif beriladi : "u juda ko'p miqdordagi komponentlardan tashkil topgan bo'lib, ulardan ko'pchiligi bir-biriga nisbatan mustaqildir".

O'zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o'ziga xos jihatlari o'ranilgan bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negiziga maxsus kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, autokompetentlik va ekstemal kompetentliklar kiradi.

Kompetentlik - o'qituvchida tarkib topgan shaxsiy sifatlar va berilgan sohadagi faoliyati bo'yicha to'plagan minimal tajribasi hisoblanadi.

Kompetentlik - shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo'lib, ma'lum sohadagi bilim, ko'nikma va tajribani mujassamlashtirish, insonga muayyan masalalarda fikr bildirish, ma'lum qarorlarni ishlab chikishda ishtirok etish yoki o'zi qaror qabul qilish imkonini beradi.

Kompetentlik - ma'lum holat xususida tug'ri mulohaza yuritish imkoniyatini beradigan bilimga ega bo'lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama.

Kompetentlik - o'quvchining shaxsiy sifatlari to'plami (bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, layoqatlar) bo'lib, belgilangan ijtimoiy va shaxsiy sohadagi faoliyatida orttirgan tajribasi bilan belgilanadi.

Kompetentlik - talaba tomonidan alohida bilim va malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Kompetentlik - bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatini amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi.

M.M.Vahobov "Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini amaliyotga joriy etish - o'quvchilarning mediakompetentligini shakllantirishning muhim omili" nomli maqolasida "Hozirgi axborot almashinuvi jadallashgan asrda o'quvchi-yoshlarda mediasavodxonlik, mediamadaniyat va mediakompetentlikni rivojlantirish orqali turli axborot xurujlari, buzg'unchi yot g'oyalardan asrash, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi", - deya ta'kidlab utadi [].

I.Zimnyaya va N.Kuzmina boshka pedagoglar ta'limda kompetentlik bilan yondashishni ommalashtirishning qator shart- sharoitlari hakidagi fiklarni ilgari surishadi.

Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmuidir. U ma'lum sohadagi bilim, ko'nikma va tajribani mujassamlashtirish hisoblanib, insonga muayyan masalalarda fikr bildirish, ma'lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish yoki o'zi qaror qabul qilish imkonini beradi .

Yuqoridagilarni tahlil qilib shuni takidlashimiz mumkinki, ta'limga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va ulardan foydalanishda professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga bir qancha omillar zarurdir.

Globallashuv sharoitida innovatsion ta'lim texnologiyalar kompetentli yondashuv va axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan bog'langan va ularni bilish hamda ulardan foydalanish zamon talabidir.

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi pedagogik jarayonni samarali muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlash, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini yuqori darajada o'quvchilar ongiga shingdirish jarayoni tushinilar ekan, o'qituvchi o'z navbatida o'z – o'zini rivojlantirib, kasbiy bilimlarini boyitib, zamonaviy o'qitish uslublaridan foydalanib bormog'i lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х,., Сайфуров Д.М., Тураев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / - Тошкент, 2015.
2. Муслимов Н.А. Булажак касб таълими укитувчиларини касбий шакллантириш / Монография. - Т.: Фан, 2004.
3. Муслимов Н.А., ва бошкалар. Касб таълими укитувчи- ларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/ Монография. - Т.: "Фан ва технология" нашриети, 2013.

# HOZIRGI ZAMON BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI MA'NAVIYATINI YUSUF HOS HOJIBNING "QUTADG'U BILIG" ASARI ORQALI YUKSALTIRISH

**Istamov Zuxriddin Qaynarovich**
Surxondaryo viloyati, Denov tumani 61-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Телефон:+998(99) 670 61 91
btzuxriddin@umail.uz
**Allaberdiyeva Zarnigor Xolmo'minovna**
Surxondaryo viloyati, Denov tumani 61-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Телефон:+998(99) 670 68 49
zarnigorustoz@umail.uz

**Annotatsiya**: Yusuf Hos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan vosita sifatidagi ahamiyati va har tomonlama ma'naviyatli insonni shakllantiradigan vosita bo'la olishi

**Kalit so'zlar:** hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'quvchilari, Yusuf Hos Hojib, "Qutadg'u bilig", ma'naviyat, tarbiya, yuksaltirish

Yurtimizda jadal olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish yo'lida muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa **t**o'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilganligini alohida takidlash kerak. Chunki yoshlarda bolalik chog'idan kitobga mehr uyg'otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo'llarida mustahkam zamin bo'lishini prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich aytib o'tgan. Mana shunday ma'naviy yuksalishga erishish uchun zamonaviy ta'lim mazmuni milliy merosimizdagi o'lmas qadriyatlarimizni olib kirish, tarbiyaning eng samarali metodi sifatida xalq asarlari namunalaridan foydalanish har qachongidek ham zaruriyat darajasiga etganligi sir emas. Mamlakatimiz turli jabhalarda rivojlanish sari ildam odimlab bormoqda. Ushbu jarayon o'z-o'zidan yosh avlod ongiga, dunyoqarashiga, ayniqsa uning ta'lim-tarbiya jarayoniga o'z ta'sirini sezilarli darajada namoyon etib kelmoqda. Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish borasidagi olib borilayotgan chora-tadbirlarda ham aynan shu jihat talab qilinayotganligi bejiz emas. Chunki har bir millat o'z milliy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan milliy-ma'naviy meroslaridan kelajak avlod ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanmas ekan, bu o'z-o'zidan ma'naviy qashshoqlikka olib keladi.

Har bir jarayonning umrboqiyligi, uning natijasining samarasi albatta jarayonning qanday olib borilayotganligiga bog'liq. Shuning uchun ham biz o'z ilmiy izlanishlarimizni boshlang'ich sinflarning ma'naviyatini yuksaltirish jarayonida milliy-madaniy merosimiz namunalaridan qanday foydalanish imkoniyati mavjudligini o'rganish jarayoni bilan bog'liq holda olib borishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Yusuf Hos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari esa hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasiga va dunyoqarashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan vosita deb aytsak yangilishmagan bo'lamiz. Qutadg'u bilig – baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Ko'rinib turibdiki, asar nomidan ham uning pand-nasihatlar, ta'lim-tarbiyaga oid, har tomonlama ma'naviyatli insonni tarbiyalaydigan buyuk asar ekanligini bilish mumkin. «Qutadg'u bilig»ning tadqiqotchilaridan biri B. To'xliev ta'kidlaganidek, Yusuf Xos Hojib «Komil inson haqida gapirar ekan, kamolotning qator belgilarini ko'rsatib o'tadi. Ularning eng asosiysi alohida shaxsning o'z manfaatlari, shaxsiy istaklari doirasini yorib chiqib, boshqalar g'ami bilan yashashi, ko'pchilik manfaati uchun fidoyi bo'la bilishdir».

Hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini Yusuf Hos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari orqali yuksaltirish vazifalari:

- darslarida Yusuf Xos Hojibning ilmiy merosidan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;
- «Qutadg'u bilig» asaridan darslarda foydalanishning shakl va usullarini ishlab chiqish, amalda qo'llab ko'rish;

- darslarda «Qutadg'u bilig» asaridan foydalanish borasidagi o'quvchi ma'naviyati shakllanishining samaradorligini aniqlash;
- Boshlang'ich sinf ta'lim jarayonida «Qutadg'u bilig» asaridan foydalanish borasidagi ilmiy kuzatishlar olib borish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'naviy ahloqiy qarashlarida sezilarli o'zgarish bo'ladi, agarda:
- «Tarbiya», «O'qish», «Tabiatshunoslik», «Texnologiya» fanlari va boshqa fanlarda «Qutadg'u bilig» asaridan samarali foydalanilsa;
- Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda ham muntazam foydalanib borilsa va boshqalar.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari qahramonlari, ularning o'y-fikrlari, bajarayotgan ishlari, so'zlayotgan so'zlaridan ham darslarda foydalanish o'rinli bo'ladi. Davlatimizning ta'lim sohasidagi ustuvor vazifasi ma'nan yetuk va intelektual salohiyatli avlodni tarbiyalashdir. Bunda «Qutadg'u bilig» asarini ta'lim jarayoniga yuqoridagi ko'rsatmalar orqali bevosita bog'lash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Prezident yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalarni belgilab berdi. Xalq so'zi gazetasi – 2019-yil, 19-mart.
2. B.Tuxliev ―Yusuf Xos Hojibning badiiy mahorati. Toshkent, 2005 yil.
3. Ibragimov X. ―Ma'naviy qadriyatlar asosida ta'limni tashkil etish, Toshkent, 2001 yil
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig («Saodatga boshlovchi bilim»).. Toshkent, «FAN» nashriyoti, T., 1971
5. Internet saytlari: www.ziyonet.uz

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIATSHUNOSLIK FANINING MAZMUNI

**Jaminova Madina Abdujalil qizi**
Namangan viloyati Mingbuloq tumani
6-sonli maktabning boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinflarda o'tiladigan "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" fanlarining o'qitilishi, o'quvchilarni atrof muhitga bo'lgan munosabatini shakllantirishda fanlarning vazifa va maqsadlari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, maqsad, vazifa, inson, tabiat.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik fani 2 qismga bo'lib o'tiladi: "Atrofimizdagi olam", (1-2- sinflarda) va "Tabiatshunoslik" (3-4- sinflarda). Boshlang'ich sinflarning (1-2 -sinflar) o'quv rejasiga "Atrofimizdagi olam" nomli yangi o'quv predmeti kiritilgan, uni o'rganishga haftasiga 1 soat ajratiladi. Atrof olam bilan tanishtirish bo'yicha kursning asosiy vazifalari atrofdagi hayot, tabiatning jism va hodisalari to'g'risida bolalar tasavvurlarini to'plash va muntazamlashtirish, ularning axloqiy-odobiy tajribalarini boyitish, to'g'ri xulq-atvor (oilada, maktabda, ko'chada, jamoat joylarida, tabiatda) ko'nikmalarini, oila a'zolariga muhabbat va ular to'g'risida g'amxo'rlikni shakllantirish, atrofdagi odamlar (tengdoshlar, o'qituvchilar va boshqalar)ga, tabiatga muruvvatli va e'tiborli bo'lishni, inson mehnati bilan bunyod etilgan narsalarni qadrlash, jonajon yurtga - Vatanga muhabbatni tarbiyalashdir. Odamlar mehnati va bolalarning amaliy faoliyati (ijtimoiy foydali mehnat, o'yin faoliyati)ni tashkil qilish bu ikki yo'nalishni bog'lovchi qism hisoblanadi.

Atrofimizdagi olam fani 1-2-sinflarda o'qitiladi. Bu kursning vazifasi bolalarning predmetlar va tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, tizimga solish, ularning axloqiy ko'nikmalarini boyitish, odamlar hayoti va mehnatida qiziqish uyg'otish, oila, maktab, jamoat joylarida o'zini to'g'ri tutish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Kursni o'rgatishda asosiy diqqat o'quvchilarga e'tibor, oila a'zolariga nisbatan muhabbat va g'amxo'rlik, inson mehnati bilan yaratilgan narsalarni avaylab-asrash, mehnatni qadrlash, ona-vatanni sevish, uyda va maktabda ijtimoiy foydali mehnatga qiziqish hislarini tarbiyalashga qaratilgan.

Atrofimizdagi olam fani boshlang'ich sinfning o'quv rejasidagi boshqa predmetlardan farqli bir qator quyidagi vazifalarga ega:

1. Atrofimizdagi hayot hodisalari bilan tanishish jarayonida o'quvchilarning uzluksiz o'rganish qobiliyatini rivojlantirish uchun zaruriy bo'lgan ma'lum ma'naviy-axloqiy ko'nikmalar hosil bo'ladi.
2. O'quvchilar bevosita xalqning tajriba va madaniyatiga, axloqiy munosabatlar tizimiga qo'shiladilar.
3. Maktab sharoitida atrof-muhit bilan tanishtirish o'quvchilarni samarali ta'lim olishlariga imkon beradi, chunki bu yoshda bolalarning yetakchi faoliyati hisobga olingan holda ta'lim beriladi.
4. Fanni o'rganishda ta'lim jarayonini tashkil qilishning mazmuni, shakli, uslublari integratsiyasi ta'minlanadi.

Predmetni o'rganish jarayonida o'qituvchi dunyoni ekologik idrok etish vositasi bo'lgan maktab yer maydonchasi, tabiat burchagidagi hayvonlar va o'simliklarni parvarish qilish ko'nikmalarini, tabiatga muhabbat va tabiat go'zalligini ko'ra bilish qobiliyatini shakllantirishi, tabiiy hodisalarni tushunish kabilarni ishlab chiqishi kerak.

Kursning yana bir sermazmun yo'nalishi - o'quvchilarni joylarda orientatsiya qilishning eng oddiy usullariga o'rgatish; o'z mamlakati, uning poytaxti va boshqa shaharlari, dunyoning turli davlatlari va umuman, sayyoramiz haqidagi ilk geografik tasavvurlarni shakllantirish.

Predmetning ikkinchi sinfga mo'ljallangan maqsadi - atrof olam predmetlari haqidagi tushunchalarni kengaytirish va chuqurlashtirish, olamning umumiy ko'rinishi haqidagi tasavvurni shakllantirish, insonparvar, ijodiy, ijtimoiy faol ekologik fikrlay oladigan, jamiyat va tabiatga mas'uliyat bilan qaraydigan shaxsni tarbiyalashdir.

"Tabiatshunoslik" fani 3-4-sinflarda o'rganiladi. Tabiatshunoslik tabiiy-ilmiy o'quv fanlari sirasiga kiradi. Mazkur fan tabiat, tabiiy boyliklardan foydalanish va ularni asrash, odamlarning mehnati haqidagi sodda bilimlar, shuningdek, o'quvchilarning amaliy, o'quv faoliyati asosida

ularda tabiatni chuqur anglash, o'z yurtiga muhabbat uyg'otishni shakllantirish jarayonini davom ettirishga qaratilgan.

Tabiatshunoslik 1-2- sinflarda o'qitiladigan "Atrofimizdagi olam" kursining davomi hisoblanadi. Tabiatshunoslikda o'quvchilarga tabiat va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik va ziddiyatlar o'rgatiladi.

Tabiatshunoslikni o'qitish bolalarda butun Yer yuzi tabiatini asrab-avaylash hissini shakllantiradi. O'quvchilar tabiatni asrash bo'yicha olib borilayotgan amaliy ishlar yuzasidan alohida ko'nikmaga ega bo'ladilar. Tabiatshunoslik kursini o'qitishning asosiy maqsadi quyidagilar hisoblanadi:

1. O'quvchilarga o'lkamizning tabiat hodisalari va undagi jismlar haqida boshlang'ich bilimlar berish;
2. Sodda misollar bilan tabiat, shuningdek, inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ko'rsatish;
3. Tabiatdan foydalanish va uni asrash bo'yicha inson faoliyati bilan tanishtirish;
4. Tabiatni asrash uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni hosil qilish va shu asosda tabiatga nisbatan maqbul dunyoqarashni shakllantirish;
5. O'quvchilarni Vatan va mehnatga muhabbat, ekologik, etik, estetik ruhda tarbiyalash.

Bolalarni o'quv dasturi bo'limlariga muvofiq yangi bilimlar bilan qurollantirishgina emas, balki 1-va 2-sinflarda olgan tabiat haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish tabiatshunoslik kursining vazifasi hisoblanadi. Tabiat va jamiyat hayotini ko'p yoqlama bilish qator aloqalarni tushunish va atrof-muhitga shaxsiy munosabatni shakllantirishga imkon beradi. Ekologik ta'lim maqsadlaridan kelib chiqib, tabiatshunoslik insonni tabiatga ta'sir bilan tanishtirishni o'z oldiga muhim vazifa qilib qo'yadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi fanidan ma'ruza matni. Tuzuvchi: G.Husanova
2. Boshlang'ich sinflarning Atrofimizdagi olam va Tabiatshunoslik darsliklari.

# MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI TARBIYALANUVCHILARIDA INGLIZ TILIDAN BOSHLANG'ICH TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRUVCHI ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI YARATISH

**Jumayeva Dildora Gafurovna,**
Navoiy shahar 16-AFCHO'IM
ingliz tili fani o'qituvchisi

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash jarayonida chet tilini o'rganishga qiziqishini oshirish muhim ahamiyatga ega. Respublikamizdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ingliz tili to'garaklari tashkil etish bo'yicha ish olib borilmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish" to'g'risidagi qaroriga asosan, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun ingliz tili to'garaklari tashkil etildi. Bu to'garaklarda mashg'ulot olib borish uchun maktabgacha ta'lim muassalarida malakali mutaxassis kadrlar bilan shartnomalar imzolandi. Bundan tashqari bolajonlarga ingliz tilini tez va oson o'rgatish maqsadida AKT va dasturlardan foydalanish ham samarali yechim hisoblanadi.

AUTOPLAY dasturida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida ingliz tilidan boshlang'ich tushunchalarni shakllantiruvchi elektron ta'lim resurslarini yaratildi. Elektron ta'lim resursining asosiy oynasiquyidagi ko'rinishda:




**1-rasm**. Unda 5ta bo'lim mavjud bo'lib: 1. Videos-videolar.2. Pictures-rasmlar. 3. Songs-musiqalar. 4. Fairy-tale- ertaklar. 5. Questions-savollar.

"English kids" elektron ta'lim resursining quyidagi imkoniyatlari mavjud: **Pictures** bo'limida rasmlar asosida ularning inglizchaga tarjimasi yozuv va ovozli shaklda keltirilgan (2-rasm).




**2-rasm. Pictures** bo'limining **Animals** (hayvonlar) bandi orqali turli xildagi hayvonlarningrasmlari, inglizcha tarjima va o'qilish talaffuzi ham keltirib o'tilgan(3-rasm).




**3-rasm.** Maktabgacha yoshdagi bolajonlarga ingliz tilini o‘rgatishda nafaqat rasm va musiqalar, balki ularga ertak va multfilmlar namoyish etish samarali usullardan biri hisoblanadi. Shuningdek, ushbu dasturda bolajonlarning ertak va multfilmlarga qiziqishlarini inobatga olib, **Fairy-tale,**ya’ni “Ertaklar olamiga sayohat” bo‘limi ham yaratildi. Bu orqali bolajonlar ingilizcha so‘zlashish uchun zaruriy so‘zlar jamlanmasiga ega bo‘ladilar (4, 5-rasmlar).




**4-rasm.Fairy-tale bo‘limining ko‘rinishi.**




**5-rasm.Multfilmning boshlanish qismi.**

Kichik yoshdagi bolalarga chet tili qanchalik erta o‘rgatilsa, uning eslab qolish qobiliyati va og‘zaki nutqi shunchalik yaxshi rivojlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Lutfullayev M.X. Pedagogik dasturiy vositalar va ulardan multimediyali elektron darsliklar yaratishda foydalanish. // Xalq ta’limi. T., 2002. -№ 6. -b. 99-101.

# MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILI DIDAKTIKASI

**Gulbahor Madrahimova Zayniddinova**
Namangan viloyati Uychi tuman
35-maktab Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi
930520875. gulbahorzayniddinovna@gmail.com.

**Anottatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda na yili o'qitishni didaktikasi va mazmuni, mundarijasi, yo'nalishlari, tamoyillari, vositalari, tashkiliy shakllari haqida yoilgan.

**Kalit so'zlar:O**na tili didaktikasi, pedagogika, o'qitish muammolari, fikr lash, lingvistik, fonetika, mazmuni,

O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Fan yutuqlari, urf-odat, an 'analar davlat tili vositasida e'zozlanadi, asraladi, avloddan-avlodga meros qilib qoldiriladi. Hayotning barcha sohasida to'plangan ijtim oiy tajrib a ona tili orqali o'zlashtiriladi, ona tili vositasida o'rgatiladi. Shu tufayli ona tili birinchi muallim sanaladi. Maktabda ona tilini o'quv predmeti sifatida o'qitish uning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi.

—maktablarda ona tili o'qitish tajribasini pedagogik, psixologik umumlashmalar darajasiga ко 'tarish;

— til o'qitish tajribasining pragmatik yo'nalishini

—amaliy muammolarni tanlash va bajarish jarayonida o'quvchining o 'z intilishlari, xatti-harakatlari ustuvorligini ta 'minlash;

—bolalaming o'quv-biluv faoliyatini ta 'lim jarayoni subyekti sifatida sharhlash; Bola o'zining ilk tasawurlarini, ichki kechinmalarini til vositasida yuzaga chiqaradi. U o'zini va o 'zgalarni, atrofdagi narsa-hodisalarni til yordamida taniydi, bilib oladi. Maktabda til o'qitish — uni o'zlashtirishning tabiiy davomi bo'lib, u bolalarning maktabga kelguncha hosil qilgan nutq tajribasi asosida tashkil etiladi. Ona tili predmeti o'quvchilarning jiddiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning fikrini yuzaga chiqarish shakllari (og'zaki va yozma nutq), vositalari (tovush, harf, so'z, gap, matn), usullarini (aytish va eshitish, gapirish va tinglash, o'qish va yozish) egallashlari bilan qo'shib olib borishning yetakchi omilidir. Ona tili didaktikasining maqsadi o'quvchilarda flkrlash mahsulini adabiy til me'yorlari hamda nutq maqsadiga muvofiq, og'zaki va yozma shaklda ongli, to'g'ri, ravon, ta'sirchan bayon qilish qobiliyatlarini rivojlantirish qonuniyatlari, tamoyillari, vositalarini tadqiq qilishdan iborat. Ona tili didaktikasining vazifalari. Ona tili didaktikasi pedagogik fanlar sirasiga kirib, m aktabda ona tili o'qitishning mazmuni, mundarijasi, yo'nalishlari, tamoyillari, vositalari, tashkiliy shakllarini o'rganadi. U maktabda ona tili O'qitish muammolarini tadqiq qilar ekan, qator savollarga javob izlaydi. Nima uchun o'qitiladi? Shu savol asosida maktabda ona tili o'qitishning maqsadi qayd etiladi. Maktabda ona tili ta'limining asosiy maqsadi bolalarda nutq madaniyatini tarbiyalashdir. Nutq madaniyati tarkiban bilim, ko'nikmamalaka, ijodiy faoliyat tajribasi va tilga oid munosabatlartizimidan iborat. Qonuniyatlar ona tili materiallarini o'zlashtirish jarayonida takrorlanib turadigan universal bog'lanishlardir. Bunday qonuniyatlar jumlasiga shakl va mazmun, og'zaki va yozma nutq, til va nutq, nazariya va am aliyotning o'zaro aloqadorligi kiradi.Qonuniyatlarga ko'ra, til O'qitish prinsiplari me'yoriy talablar shaklida ishlab chiqiladi. Ma'lum ot va ta'lim mazmunida tilning fonetikasi, leksikasi va grammatikasiga oid nazariy bilimlar hamda shu bilimlarga mos orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion, prosodik malakalar ko'zda tutiladi.

— grekcha «prosodia» so'zidan olingan bo'lib, nutqning tembri, kuchi, ovoz balandligi, ton, urg'u, urg'u tushgan bo'g'inlarni baland ovoz bilan aytishni anglatadi.Ona tili didaktikasi shu savol bo'yicha ta'limning tashkiliy shakllari (dars, uy ishi), turlarini (izohlik o 'rgazm ali, differensial, m uam m oli va sh.k.) yakka (individual), guruh, jamoa asosida tashkil etish muammolarini tahlil etadi. Yuqoridagi savollardan ko'rinadiki, ona tili didaktikasi didaktika o 'rganadigan m uam m olarning barchasiga xususiylik nuqtai nazaridan yondashadi. Tadqiq qilinadigan muammolarga ko'ra, ona tili didaktikasi keng qamrovli fan bo'lib, u maktabda tilning fonetik, leksik, grammatik tomonlari bo'yicha nazariy m a'lum otlarni o 'zlashtirish, nazariy bilim lar asosida bolalarda nutq malakalarini shakllantirish masalalari bilan shug'ullanadi. Ona tili metodikasining hozirgi taraqqiyot darajasida quyidagi muammolarni nazariya darajasiga ko'tarish imkoniyatlari mavjud:

—maktabda ona tilini oʻzlashtirish qonuniyatlari, prinsiplari;
—ma’lumot va ta’lim mazmuni hamda ulami moddiylashtirish masalalari;
—ona tili mashgʻulotlarida lingvistik tushunchalar ustida ishlash muammolari;
—ona tilidagi ta’lim metodlari va lingvistik mashqlar, ularning qurilishi, tiplari;
—ona tilidagi dars tipologiyasi, tiplari hamda ularni tashkil etish texnologiyasi;
— ona tilidan nutq oʻstirish tizimi.

**Foydalanilgaadabiyotlar:**


1. Ona tili o’qitish metodikasi. Mamatov. G.A. Boqiyeva.X.S. Masharipov.U Toshkent-2014
2. Ona tili o’qitish metodikasi . Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G’ulomova, Sharofat Yo’ldasheva Sharofjon Sariyeva. Toshkent-2009
3. Ona tili o’qitish metodikasi. ZiyoNET.
4. Www.ziyonet.uz.

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASINING DIDAKTIK TAMOYILLARI

**Madriyantseva Alla Baxtiyarovna**
Xorazm viloyati Urganch shahar
15-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
**Kalandarova Sayyora Kurbandurdiyevna**
Xorazm viloyati Urganch shahar
15-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotasiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining didaktik tamoyillari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** dars jarayoni, didaktika, takrorlash, mashqlar, materiallar, dars mazmuni.

Har bir darsdan turli xil didaktik maqsadlar ko'zlanadi. Ular orasida bittasi bosh maqsad bo'lib hisoblanadi va uni darsning asosiy didaktik maqsadi deyiladi. Har bir alohida darsning maqsadi darslar tizimining maqsadini aniqlab, uning yordamida o'qitilayotgan mavzuning mazmunini o'quvchilarga ochib beradi. Bu holda yangi tushunchalar bilan o'quvchilarni tanishtirish bo'lsa, ikkinchi holda tanishtirilgan tushunchani kengaytirish va chuqurlashtirish, uchinchisida, biror malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, to'rtinchisida, bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish va h.k. bajariladi. Har bir darsda yuqorida aytilganlarning bir nechtasi yoritilishi mumkin.O'tilganlarni takrorlash oldin o'tilgan darslarni yangi tizimga solish, shu bilan bilimlarni tekshirishni o'z ichiga oladi. Yangi materialni bayon qilish har doim mashqlar bajarish bilan davom ettiriladi.

Maktablar tajribasi darsning ma'lum tizimini yaratdiki, ko'pchilik o'qituvchilar bu tizimga rioya qilib, ma'lum yaxshi natijalarga erishmoqda. Odatda darsning boshida uy vazifasi tekshiriladi yoki o'tgan mavzu takrorlanadi, so'ngra o'tgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. Shundan keyin yangi material bayon etiladi va uni mustahkamlash uchun o'quvchilarga misol va masalalar yechdiriladi yoki nazorat savollari beriladi. Dars oxirida uyga vazifa va unga ko'rgazmalar beriladi.

Ba'zan, bu maqsadlardan bittasiga bag'ishlanishi mumkin. Ana shu bitta maqsadni darsning asosiy didaktik maqsadi deyiladi va boshqalar unga bo'ysinadi.

Boshlang'ich sinflarda matematikadan quyidagi dars turlarini ko'rsatish mumkin:

1) O'quvchilarni yangi tushunchalar bilan tanishtirish, yangi bilim va ko'nikmalarni hosil qilish darslari

2) turli xil mashqlar yordamida yangi bilim, malaka, ko'nikmalarni mustahkamlash darslari;

3) o'tilganlarni takrorlash, umumlashtirish darslari;

4) keyingi bosqichda xatolarning oldini olish maqsadida bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish darslari.

Darsning asosiy qismlarini turli xilda va turli metodlar bilan birga qo'shib olib borish mumkin.

O'qituvchi dars rejasini tuzishda quyidagilarni e'tiborga olishi kerak. Shu dars qanday qismlardan iborat bo'lishi, ularni qanday ketma-ketlikda joylashtirish, ular o'rtasida o'quv materialini qanday taqsimlash, bu qismlar bir-biriga qanday bog'lanishda, ular darsning asosiy didaktik maqsadini amalga oshirishda yetarli miqdorda yordam berishini hisobga olishi kerak.

Darsni maqsadga muvofiq shunday boshlash kerakki, barcha o'quvchilarni o'quv vazifalarini faol bajarishga darhol tortadigan bo'lsin. Shu maqsadda uncha katta bo'lmagan mustaqil ishlarni kartochkalarga yozib borish kerak, bu esa o'quvchilardan masala shartini yozmasdan hisoblash natijalarinigina yozishni talab qiladi. Bunday mustaqil ishlar o'quvchilarni yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlaydi.

Darsning birinchi qismida agar uy vazifasi mazmun jihatdan yangi materialga bog'liq bo'lsa, uni tekshirish ham mumkin. Agar uy vazifasi yangi mavzuga bog'liq bo'lmasa, yangi mavzuni o'tishda o'quvchilar uni qo'llamasa, u holda yangi bilimlarni bayon qilish darsida uy vazifasini tekshirish shart emas. Shunday qilib darsning birinchi qismi o'quvchilarning faolligini va diqqatini yo'naltirishga qaratilmog'i lozim, bu bosqichga uncha ko'p vaqt sarf qilmaslik kerak.

O'quvchilar diqqatini yo'naltirish usullaridan yana biri darsning mavzusi va maqsadini aniq tushunarli e'lon qilishdir. Bunda albatta o'quvchilarning qiziqishini orttirish va muammoli vaziyat

yaratish zarur. Masalan: O'quvchilar faqat hisoblashning og'zaki usuli bilan tanish bo'lsalar, ularga ikkita uch xonali sonlarni qo'shish tavsiya qilinsa, bunday holatda o'quvchilar o'zlarining ortiqcha bilim va malakalarini qo'llaydilar. O'quvchilar ma'lum qiyinchiliklardan o'tadilar.Shunday qilib, oldindan o'rganilgan hisoblash jarayonlari bilan bu misolni bajarish qiyin emasligiga ishonch hosil qiladi. Yangi og'zaki usulni o'zlashtirish kerak. Dars ana shu usulga bag'ishlangan bo'ladi.

Ikkinchi holda darsda o'quvchilar bilan qisqacha suhbat bilan olib borilishi mumkin. Bunday darsdan bir xonali sonlarni ko'paytirishni tushuntirishda foydalanish mumkin.

Yangi o'quv materialini o'zlashtirishga o'quvchilarning faol tayyorlash maqsadida oldin o'zlashtirilgan materiallar takrorlanadi, takrorlash xarakteridagi materiallar ko'pincha og'zaki hisoblash orqali bajariladi. Shuningdek, yangi materialni o'zlashtirishga qaratilgan misol va masalalarni mustaqil yechish ham mumkin.

Darsning ikkinchi qismida yangi matematik tushuncha beriladi yoki arifmetik misollarning yangi turi yechiladi. Bu o'quvchilarning bayoni yoki suhbati orqali olib boriladi. Bazan o'quvchiga buni mustaqil tanlab olish ham tavsiya qiladi. Masalan, oldin o'tilgan mavzuga bog'liq holda masala yoki misol yechish maqsad qilib olingan bo'lsa, u holda o'quvchilar bu misollarni mustahkamlash, mustaqil yechish orqali o'zlarining bilim va malakalarini oshirishlari mumkin.

Yangi materialni mustahkamlash___bosqichda o'quvchilarga keltirib chiqarilgan, xulosa, muhokamalarni esga olish, undan keyin mustahkamlash xarakteridagi vazifa berilishi kerak. Bu vazifani bajarish yordamida o'tilgan yangi bilim mustahkamlanadi va birinchi bor amaliyotga tatbiq qilinadi. Birinchi vazifalar odatda jamoa bo'lib bajariladi. Ba'zan esa misol-masalalar mustaqil bajarilgandan keyin, o'quvchilardan birortasi doskaga chiqib shu qoidaning to'g'riligini misol, masala yechish orqali ko'rsatib beradi. O'quv materialining murakkabligiga qarab har qaysi bosqichda rasional bo'lgan yo'l topiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ziyomuhammadov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya. T:, 2009-yil.
2. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003-yil.

# O'QITUVCHI VA O'QUVCHILAR O'RTASIDA MULOQOT JARAYONINI TASHKILLASHTIRISH MASALALARI

**Mahmudova Nargiza, Majidova Zamira, Nuriddinova Iroda**
Namangan viloyati Norin tuman XTB ga qarashli
42 – son umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi muloqot jarayonini tashkil etish, pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari, munosabatlarni boshqarish uslublari haqida malumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'quvchi, o'qituvchi, muloqot, muomala, dars, uslub, talab, usul.

Pedagogning o'z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahorati o'quvchilar bilan muomala qilish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'quvchilar bilan muomala madaniyati, so'zlashishni bilish katta ahamiyat kasb etadi. U so'zlashish, muloqot olib borishni doimo o'rganib borishi lozim. O'qituvchi darsni samarali olib borishi, suhbat, leksiya, hikoya qilish kabi usullaridan foydalanishi, umuman butun ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan muloqotni yo'lga qo'ya olishi lozim.

Muloqot - (yunoncha so'z, so'zlashuv, suxbatlashuv, shaxslararo suhbat va fikr almashinuv), og'zaki nutq shakli, ikki yoki undan ortiq shaxslarning so'zlashuvidir. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muloqot bo'lishi uchun o'qituvchi yetarli darajada qobiliyatga ega bo'lishi kerak, hamda o'z-o'ziga doimo quyidagi savollarni berishi va unga javob berishga harakat qilishi kerak: **Nimani o'rgatish? Kimga o'rgatish? Qanday o'rgatish?**

**Nimani o'rgatish:** a) ilm-fandagi yangiliklarni anglash, yangi fan terminlarini tushunish, o'quv predmetini to'liq o'zlashtirish; b) malaka, ko'nikma va qobiliyatni shakllantirish; v) o'quv predmetlari o'rtasidagi bog'liqlikni amalga oshirish; g)o'quv mazmunini tushunarli tizim asosida ko'rish.

**Kimga o'rgatish**? a)o'quvchilarning ba'zi psixik xususiyatlarini (eslab qolish, nutq, fikrlash) hamda ularni qay darajada o'qimishli, tarbiyali ekanliklarini aniqlash; b)o'quvchilarning bir darajadan ikkinchisiga o'tishidagi qiyinchiliklarni oldindan aniqlash; v) o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda bolalarning dalillari, fikrlarini hisobga olish; g)o'quvchilardagi turli psixik o'zgarishlar va rivojlanishni hisobga olib o'z pedagogik mehnatini tashkil etish; d)iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, yakka holdagi ishni tashkil etish.

**Qanday o'rgatish**: a) ish jarayonida ishlatiladigan kuch va ketadigan vaqtni hisobga olgan holda o'qitish va tarbiyalashning turli usullari majmuini ishlatish.

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari - bu talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri.

**Talab** - tajribada juda keng tarqalgan usul bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga shaxsiy munosabatining namoyon bo'lish yo'li bilan yoki bu xatti-harakatlarning rag'batlantirilishi yoki to'xtatilishini ta'minlaydi. U pedagogik ta'sir ko'rsatishning boshlang'ich usuli bo'lib, tarbiyalanuvchilarda o'ziga nisbatan mas'uliyat va talabchanlikni rivojlantirishda alohida vazifani bajaradi.

**Istiqbol** - ta'sir ko'rsatishning juda ta'sirchan usuli bo'lib, u bolalarning xatti-harakatlarini, ular oldiga qo'yilgan maqsadlar, ularning shaxsiy intilishlari, qiziqishlariga aytiladi.

**Rag'batlantirish va jazolash** o'quvchilar xulq-atvoriga tuzatish kiritishni, ya'ni foydali xatti-harakatlarni qo'shimcha rag'batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning noma'qul xatti-harakatlarini to'xtatishni ta'minlaydi.

**Jamoatchilik fikri** - tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam rag'batlantirib borshini ta'minlaydi.

O'zaro fikr almashish bilan ta'sir ko'rsatish vositalari: ishontirish, ta'sir qilish, o'zaro fikr almashish bilan ta'sir ko'rsatish.

Ishontirish pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli sifatida darslarda o'quv axboroti, ijodiy suhbatlar, munozaralar, siyosiy axborotlar shaklida qo'llaniladi.

Ta'sir qilish kishi psixikasiga nazoratsiz kirib, uning faoliyatida xatti-harakatlar, sabablar, intilishlar bilan amalga oshiriladi. Ta'sir qilish shunday bir psixik ta'sir ko'rsatishki, kishi uni ongining yetarli nazoratisiz idrok etadi.

O'qituvchi o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotida quyidagi malakalarni egallagan bo'lishi lozim: tashqi qiyofani nazorat qilish, nutqni egallash, pedagogik munosabat madaniyatini egallash, tashkilotchilik mahorati, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish uslublarini egallash.

Munosabatlarni boshqarish uslublari quyidagicha bo'ladi: 1. Avtoritar uslub. 2. Demokratik uslub. 3. Liberal uslub.

**1.Avtoritar uslub:** o'zi yakka holda guruh faoliyatini yo'nalishini belgilaydi; o'zi ko'rsatma-buyruq beradi; javobgarlikni o'z bo'yniga oladi; so'zsiz bo'ysuninshni da'vo etadi; qattiq intizomni talab etadi; aytilgan narsani to'liq bajarilishini talab etadi; gap qaytarganni, gap o'rgatganni yoqtirmaydi. Aytgan tashakkuri ham buyruqdek chiqadi. So'zlari qattiq va qo'pol. Biron bir masalani tushuntirmaydi, lekin talab etadi; muloqotga kirishishning asosiy shakllari: buyruq, ko'rsatma berish, qo'llanma bilan ishlash, xayfsan e'lon qilish; muomalada qo'pol, dag'al, do'q-po'pisali majbur etish, qo'rqitish, cho'chitish orqali kirishadi; avtoritar uslubning ijobiy tomoni favqulodda vaziyatlar ishlatilishi (yong'inda, suv toshqinda). Munosabatning bu uslubda boshqarilishi atrofdagilar uchun qiyin yoki og'ir ahvol.

**2. Demokratik uslub:** jamoa fikriga tayanib ish olib boradi; jamoa fikrini, tashabbusini ma'qullaydi, rivojlantiradi, boshqalar fikriga hurmat bilan qaraydi; boshqalar fikrini o'ziniki qilib oladi. Muloqotga kirishishning asosiy shakllari: iltimos maslahat berish, samimiy muomala.

**3.Liberal uslub:** tashabbussiz, jamoa ishiga aralashmaydi; hamma masalalarni yuzaki qarab chiqadi. O'zining fikri yo'q, javobgarlikdan o'zini chetlatadi. Ish natijasi bilan qiziqmaydi; bolalarga e'tiborsiz, beg'am qaraydi; o'z ishiga sovuqqon.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. E.G'oziyev Muomala psixologiyasi.
2. M.Maxsudova Muloqot psixologiyasi.
3. I.N.Ilin "Muomala san'ati".
4. Internet malumotlari.

# TIL O'RGATISHDA MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH VA UNDA YUZAGA KELADIGAN INTERFAOLLIK MNAMMOSI

**Mamajonova Nozima Abdusattorovna**
Toshkent shahar Chilonzor tuami
114-umumta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitish texnologiyasi va undan samarali foydalanish, dars berish jarayonida uni qo'llash mehanizmlari haqida tadqiq etiladi.
**Kalit so'zlar:** xorijiy tillar, ta'lim texnologiyasi , axborot kommunikatsiya,

Bugungi kunda xorijiy tilni bilish o'ta muhim ahamiyat kasb etganligi bois chet tili o'qitish tizimini ham isloh etish, dars jarayonlariga zamonaviy pedagogik va axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or usullarini qo'llash ta'limdagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Davrimizning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan uning imkoniyatlaridan foydalanib, ta'lim jarayoniga yangicha yondashish va uni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. XXI asr - yuksak texnologiyalar asri bo'lib, zamonaviy yoshlarimiz nafaqat davr ruhiga monand, balki elektron olamdagi taraqqiyotga muofiq qadam tashlamoqdalar. Shu boisdan ham, yosh avlodga ta'lim berishjarayoniga boshqacha yondashishni talab etmoqda. Darslarda o'qituvchining o'mi ham o'zgarib bormoqda.

O'qituvchi endilikda asosan yo'naltiruvchi vazifani o'tamoqda. Zamon bilan hamnafas qadam tashlashni maqsad qilgan o'qituvchilar darsning har qanday qismini axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali jonlantirishga tayyor bo'lishlarini davr talab etmoqda.

Ta'lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ayniqsa, chet tillarini o'qitish va o'rganishda tobora katta ahamiyatga molik bo'lib bormoqda. Yangi axborot texnologiyalari chet tillarini o' qitishda katta imkoniyatlar taqdim etadi, fan bo'yieha sifatli bilim olish va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi[1]. Ma'lumki davr talabiga monand dars o'tishda mazkur fandan o'tilayotgan birortayam mashg'ulot o'qituvchi yoki o'quvchilaming taqdimotisiz o'tmasligi lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 – yil 6 – may kuni, Prezident rahbarligida chet tillarini o'qitishni takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor o'tkazildi. " "Chet tillarini o'qitishga urg'uni boshqacha qo'yish kerak. Katta korxonalar qurilyapti, texnologiyalar o'rnatilyapti. Xorijiy tilni mukammal bilish zarurati yuzaga kelyapti. Barcha hududlar rahbarlari, ta'limga aloqador tashkilotlar o'zbek tiliga bo'lgan e'tiborimizni chetda qoldirmay, chet tillarini o'rgatish bo'yicha jiddiy shug'ullanishi kerak. Maktab, litsey, kollej va oliygoh bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart" - deydi Prezident."

Darxaqiqat bugun dunyo yuzi bilan yuzlashishni xoxlagan xarqanday davlatda avvalo ta'limga e'tobor yuksak darajada, chunki ta'lim har doim islohotni talab qiladigan ijtimoiy soha xisoblnadi. Bugungi kunda ta'lim tizimimiz yuksalib ,yanada rivoj topishi uchun bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda.Xalqimizda bir maqol bor "Til bilgan -el biladi". Bu xikmat zaminida olam –olam ma'no mujassam. Siz bugun xorijiy tillarni mukammal bilsangiz.Siz uchun dunyo davlatlari eshiklari ochik ."Zamonaviy pedagogik va axborot - kommunikatsiyasi texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarinijoriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxasislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda uning negizida, ulaming jahon taraqqiyoti yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqatni rivojlantirishlariuchun shart sharoit va imkoniyatlar yaratish " ishlari va buninguchun bir qator muhim vazifalami amalga oshirish zarurligi ko'rsatilgan. Mazkur hujjatda 2013- 2014-o'quv yilidan boshlaboq umumiy o'rta ta'lim maktablarining birinchi sinflaridan chet tillari avval o'yin tarzida keyinchalik asosiy ta'lim sifatida axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o'qitish belgilab berilgan. Ushbu muhim qarorga muofiq bugun, ayniqsa chet tillarini o'rganish darslariga yanada chuqurroq nazar tashlandi. Jahon maydonida yurt sha'nini munosib himoya qilishiuchun yoshlarimiz, avvalo o'zining xorijiy tengdoshlari bilan raqobatlasha

[1] Ishmuhhamedov R.J. Innovatsiya texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.T.: TDPU, 2004. B-47.

olishi lozim. Bugun esa raqobat chet tillari, xususan, xalqaro biznes tili bo'lgan ingliz tilida olib borilmoqda.

Xulosa qilib shuni etish kerakki, Agar siz dunyoda yetakchi olim, mutaxassis bo'lishni istasangiz albatta til bilmog'ingiz darkor Masofaviy ta'limda, shuningdek, chet tillarini masofaviy o'qitishda interfaol usullardan foydalanish ijobiy natijalami ta'minlovchi muhim omillardan sanaladi. Ta'limjarayonida interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarga dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit yaratadi. O'quvchilaming o'zaro fikr almashishlariga imkon beriladi. O'zaro axborot olish va berishuchun sharoit tug'diriladi. Yechimini kutayotgan masalalami hamjihatlikda muhokama etadilar, yechadilar. Vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir - birlariga namoyish etadilar. Bir - birlaridan ilhomlanib, ruhiy qoniqish hosil qiladilar. Bir - birlarini tushunib, balki qiziqish paydo bo'lib, vaqt o'tganini bilamay qoladilar. Ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga erishadilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Hayitov A. Boymurodov N. Ta'limdagi noan'anaviy darslar ya interfaol usullardan foydalanish. - T.: Yangi asr avlodi. 2006.
2. Ishmuhamedov R,J. Innovatsiya texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: TDPU. 2004.
3. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. - T.: O'qituvchi. 1996.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2000.
5. Og'ayev S. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. «Xalq ta'limi» jumali.200 1.
6. Roziqov O., Og'ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta'lim texnologiyasi. - T.: 2005.
8. www.arxiv.uz

# BOSHLANG`ICH TA`LIMDA NUTQ FAOLIYATINI OSHIRISH OMILLARI

**Matnazarova Gavharjon Nazarovna**
Xorazm viloyati Bog`ot tumanidagi 14-son umumiy o`rta
ta`lim maktabining boshlang`ich ta`lim o`qituvchisi
Tel:+998973636912 matnazarovagavhar@gmail.com

**Annotatsiya**:Ushbu maqolada boshlang`ish ta`limda o`quvchilarning o`qish malakalarini takomillashtirish, bolalarni o`qigan asarlarini idrok eta bilishlari,ularda aks etgan voqea-hodisalar mazmunini tushuna olishlari va xulosalar chiqarishga tayyorlash, o`quvchilarni matn ustida ishlashga o`rgatish, o`quvchilarning atrof-muhit haqida bilimlarini boyitish kabi vazifalar va ularni amalga oshirish yo`llari haqida to`xtalib o`tilgan.

**Kalit so`zlar**: Nutq faoliyati, matn, hikoya, xulosalash, bo`g`in, ko`nikma, bog`lanish, tahlil,savol,javob,badiiy asar.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot asrida bolani har tomonlama rivojlanishiga kichik yoshidayoq e`tibor qaratish davr talabidir. Albatta, bular orasida o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini oshirish ham alohida ahamiyatga ega.

Boshlang`ich sinf ona tili darslarida olib boriladigan barcha mashg`ulotlarning yetakchi o`rni nutq o`stirish bo`lib, u savod o`rgatish, chiroyli yozish ko`nikmalarini shakllantirish va fikrlash doirasini kengaytirish vazifalarini o`z ichiga oladi. Bu darslarda ko`proq amaliy maqsadlarni ko`zlash, til boyliklaridan nutqda foydalanish malakalarini shakllantirish, ijodiy fikrlash, o`quvchilarning til sezgirligini tarbiyalash lozim. Ularning og`zaki nutqini muntazam o`stirib boorish bog`lanishli nutq, matn tuzishlarda amaliy yordam beradi.

Shu jumladan,o`qish- bolalarning nutq faoliyatini oshirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, mustaqil fikrlashga o`rgatishning muhim omilidir.Shuning uchun ham boshlang`ich ta`lim tizimida muhim o`quv predmeti ta`lim berish, kamol toptirish va tarbiyalash vositasi hisoblanadi. Shulardan kelib chiqib, aytish lozimki, o`quvchilarni o`qishga o`rgatishning asosiy vazifalari quyidagilardir:

-boshlangi`ch o`qish malakalari (to`g`ri, tez, ongli va ifodali o`qish) ni takomillashtirish;

-bolalarni o`qigan asarlarini idrok eta bilishlari, ularda aks etgan voqea-hodisalar mazmunini tushuna olishlari va xulosalar chiqarishga tayyorlash;

-o`quvchilarni matn ustida ishlashga o`rgatish;

-o`quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish.

Bu vazifalarning hammasi, albatta, dasturda berilgan badiiy ilmiy-ommabop asarlar, xalq og`zaki ijodi namunalari asosida amalga oshadi.

O`qish mashg`ulotlarini o`tkazish jarayonida matn ustida ishlash o`quvchilarning bog`lanishli nutqini o`stirish, nutq madaniyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ma`lumki, to`g`ri o`qish bilan ongli o`qish orasida farqlar mavjud.Birinchidan, o`qishda juda ko`p xato qiladigan va qiynalib o`qiydigan bolalar o`qiganlarini tushunmaydilar. Ayniqsa, 1-2-sinf o`quvchilarida ko`pincha ana shunday holatni kuzatish mumkin. 3-4-sinflarda esa o`quvchilarning o`qiganlarini tushunishlari ancha oson bo`ladi.1-2-sinflarda o`quvchilar taxminiy o`qish natijasida xatoga yo`l qo`yadilar. Lekin o`qiganlari mazmunini umumiy holatda tushunadilar.Bu, albatta, o`qishning ongliligiga ta`sir qiladi. O`qilgan asar mazmunini tushunish ovoz chiqarib to`g`ri o`qishga ham bog`liq. Ikkinchidan, ayrim so`zlar ma`nosini tushunmaslik ham xato o`qishga sabab bo`ladi. Ayniqsa,o`quvchilar murakkab so`zlarni,ko`proq undoshlardan iborat bo`lgan so`zlarni, so`z birikmalarini, turli qo`shimchalar bilan kelgan bir xil so`zlarni o`qishda xato qiladilar.

To`g`ri o`qish uchun gapdagi so`zlarning tushunarli bo`lishi muhim ahamiyatga ega. O`quvchi ma`nosiga tushungan so`zlarni to`g`ri o`qiydi. Tushunadigan so`zi boshqa so`z bilan bog`lanib kelganda esa u so`z birikmasini xato o`qiydi. Bundan tashqari, so`zning uzunligi, bo`g`in tuzilishidagi murakkablik, so`zning notanish bo`lishi va gapda so`zlar bog`lanishini eslay olmaslik ham xato o`qishga sabab bo`ladi.

Kuzatishlardan ma`lum bo`lishicha, 1-2-sinf o`quvchilari o`qiganlaridan keyin “Kim haqida o`qidingiz?” degan savolga javob qaytarishga qiynaladilar.O`qiganlari tahlil qilinganidan keyin bu savolga to`g`ri javob qaytara oladilar. 3-4-sinf o`quvchilari esa kim haqida o`qiganlarini qiyinchiliksiz ayta oladilar.

O`quvchilar hikoyada ayrim personajlar faoliyatini tushunishda o`quvchilar qiynaladilar. Har qanday maqola, badiiy asar mazmunini tushunish uchun voqea qachon va qayerda sodir bo`lganini, voqealarning bir-biriga bog`liqligini ko`rsatish oson bo`lsa-da, ayrim hollarda u bog`liqlikni o`qilgan asardan toppish qiyin. Ayniqsa, 1-2-sinf o`quvchilari voqealarning bir-biriga aloqadorligini tushunishda qiynaladilar. Hayotiy tajribalarga oid asar o`qilsa, uning mazmunini tushunishga qiynalmaydilar.

Umuman, o`qish sifatini yaxshilash, ayniqsa, ongli o`qishga erishish uchun quyidagilarga e`tibor berish lozim:

-o`quvchilarga o`qitishdan oldin ularga yangi so`zlar tushunchalarini o`rgatish;

-tushuncha beriladigan narsaning o`zini ko`rsatish, sayohatni tashkil etish, kinofilm va taqdimotlar namoyish qilish, o`quvchilarning o`z o`yinlari va mehnatlari davomida ko`rganlarini eslatish;

O`qilgan asarlarni tahlil qilishda o`qituvchining yo`llovchi savollari, o`quvchilarning shaxsiy faoliyatlari va kuzatishlarini eslatish asar mazmunini tushunishga yordam beradi. O`qiganlari yuzasidan berilgan savolga xato javob qaytargan o`quvchiga qo`shimcha savollar berilsa, ular o`z xatolarini tushunib,to`grilashlari mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Boshlang`ich sinflar uchun amaldagi maktab darsliklari.
2. Maktab va hayot.Ilmiy-metodik jurnal sonlari.
3. Boshlang`ich ta`lim.Ilmiy-metodik,axloqiy-ta`limiy ommabop jurnal.2011-yil aprel soni
4. Abdullayeva K va boshqalar.Savod o`rgatish darslari.T.,"O`qituvchi".1996-yil
5. Elektron ta`lim resurslari:
www.ziyonet.uz
www.pedagog.uz

# O'QISH DARSLARINING MAQSAD VA VAZIFALARI, TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI

**Matyoqubova Zumrad Amanovna**
Xorazm viloyati Urganch shahri
26-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish darslari, uning maqsad va vazifalari, savod o'rgatish, matnni o'qish va tushunish haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qish darsi, savod o'rgatish, matn, o'qish kitobi, DTS, maqsad.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zamirida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning davlat ta'lim standartlari (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda «O'qish kitobi» darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish,rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS va «Ona tili» o'quv dasturida o'qish ta'limi oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o'qishni to'g'ri tashkil qilish, o'qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Ma'lumki, sinfda o'qish asosida badiiy va ilmiy-ommabop matnlar turadi.

O'quvchilarni matn bilan tanishtirish o'qishga tayyorgarlik bosqichidan boshlanadi. Tayyorgarlik bosqichi yozuvchilar haqida ma'lumot berish, o'quvchilarni asarda tasvirlanadigan voqea-hodisalarni idrok qilish, notanish va ko'p ma'noli so'zlar, murakkabroq tarzdagi obrazli ifodalarni izohlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Agar asar yil fasllari haqida bo'lsa, tabiat qo'yniga sayohat uyushtirish ham sinfda o'qish muvaffaqiyatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Matn bilan dastlabki tanishuvdan so'ng quyidagicha savollar bilan murojaat qilish darsda o'quvchilarning faolligini oshiradi:

1. Hikoyadagi qaysi epizodni qiziqarli deb o'ylaysiz?
2. Hikoya qahramonlaridan qaysi birining xatti-harakatini ma'qullaysiz? Qaysi birining fe'l-atvori, o'zini tutishi sizga yoqmadi?
3. Hayotda shunday kishilarni uchratganmisiz?

Sinfda o'qishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillardan yana biri tanlab o'qishdir. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy - estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi. Shunga ko'ra o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

O'qish ta'limi bo'yicha o'quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga

javob berib bo'lmaydi. Negaki matn tagzaminidagi tarbiyaviy g'oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda , har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab yetilganda o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi. Asar tahlili jarayonida o'qituvchi savollariga o'quvchilarning o'z so'zlari bilan javob berishi ham matnda tasvirlangan voqea-hodisalar yuzasidan mantiqiy fikrlashga, qahramonlarning xatti-harakatlarini to'g'ri baholashga yaqindan yordam beradi. Savollar uzuq-yuluq va mantiqsiz bo'lmasdan, qat'iy maqsad asosida izchil berilishi o'quvchilarning o'qilgan matn mohiyatini chuqur anglab yetishlariga imkon yaratadi. Negaki har qanday javob mustaqillikni taqozo etadi.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularini uyg'otishdir.

Tabiatga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Ular o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi. «O'qish kitobi» darsliklaridagi materiallar sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan. Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rangbarangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti.
2. Abdullaeva K. Nazarov K. Yo`ldosheva Sh. Savod o'rgatish darslari
3. Gaffarova T. va boshqalar . O'qish kitobi . 1-sinf uchun

# O'QUVCHILARIDA TABIATSHUNOSLIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

**Mirzayeva Xilola Rajabboyevna**
Hazorasp tumani 12-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (93) 757 45 05
xr_mirzayeva4505@mail.ru
**Nurmetova Lobar Erkinboyevna**
Shovot tumani 6-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (91) 998 77 93
nurmetova.lobar_9027@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tabiatshunoslik tushunchalarining klassifikatsiyasi, tushunchalarini shakllantirish bosqichlari, umumiy, geografik va biologik tushunchalar hamda tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish usullari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tabiatshunoslik tushunchalar, klassifikatsiya, umumiy tushunchalar, geografik tushunchalar, biologik tushunchalar, ekskursiya, sintez, tahlil, taqqoslash, mavxumlashtirish, konktetlashtirish, umumlashtirish yakka tushinchalar.

Tabiat to'g'risidagi bilimlar tarkibiga jonsiz tabiat jismlari va hodisalari, o'simlik va hayvonlar, odam tanasining tuzilishi va salomatlikni muxofaza qilish, yilning fasllarida qishloq xo'jalik mehnati to'g'risida tasavvur va tushunchalar, oddiy jo'g'rofik tasavvur hamda tushunchalar kiradi.

Atrofiolam bilan dastlabki tanishish ularning sezgi organlarining qabul qilishiga asoslanadi. Olamni bilib olishning birinchi bisqichi-bolalarning barcha yangilarni qarab chiqishga iloji bo'lsa ushlab ko'rishga qaratilgan tug'ma intilishdir. Shunga ko'ra dastlabki tasavvurlar va tushunchalarni shakllantirishga o'quvchiga o'rganish ob'yekti bilan bevosita muloqotda bo'lish imkoniyatini berishi kerak.

Ekskursiyalarda, kuzatishlar vaqtida o'quvchilar kundalik xayotning narsalarini qabul qilib, ulargi o'xshashlik va tafovut belgilarini topadilar. Ularda oddiy tushunchalar shakllanadi. Fikrlash jarayonida bolalarda aniq fikrlar vujudga keladi. Fikr bevosita qabul qilish va tasavvurlar asosida shakllanadi. Fikrlash faoliyati jarayonida bolalarda atrof olam to'g'risida tushunchalar shakllanadi. Tushuncha ochib beriladigan fikrlar yig'indisi uning mazmunini tashkil qiladi. Tabiat jismlari yoki ob'yektlarining birortasi to'g'risida bolalar qanchalik ko'proq fikr aytsalar, tushunchalar mazmun jihatdan chuqurroq bo'ladi. Tabiatshunoslikni o'rganishda bolalar oladigan tushunchalar jo'g'rofiy (umumiy, aloxida va yig'ma) va biologik (tur va avlod) tushunchalariga bo'linadi.

Tabiatshunoslik tushunchalari-bu umumiy muhim belgilari bilan birlashtirilgan ob'yektlar, hodisalar, jismlarining butun guruhi to'g'risidagi umumlashtirilgan bilimlardir.

Tushunchalar tasavvurlardan farqlidir. Tasavvur- sezgi organlar faoliyatining, hotiraning yoki tasavvur qilish mahsulidir. Tushuncha – tafakkur mahsuloti hisoblanadi. Tushunchalar qabul qilinadigan va tasavvur etiladigan narsalar ustida fikr yuritish natijasida vujudga keladi.n Tushuncha butun narsalar sinfiga taaluqli umumlashgan mazmunni aks ettiradi. Tasavvurlar tushunchalarning sezgili asosi hisoblanadi, biroq tasavvurlar bilan tushunchalar o'rtasida keskin chegara yo'q. Tasavvurlar mazmunning boyib borishi, ularda narsalarning muhim xossalarini tobora ko'proq aks ettirib borishi bilan umumlashadi va tushunchalarga aylanadi.

Tabiatshunoslikni o'rganishda bolalar Toshkent, Sirdaryo, Tyan-Shan tog'lari kabi yagona tushunchalar; tog'lar, daryolar, shaharlar kabi umumiy tushunchalar; archa, qarag'ay, terak, namatak, jasmin, oq quyon, kulrang quyon kabi tur tushunchalari; daraxt, buta, quyonlar va boshqa avlod tushunchalari bilan uchrashadilar. Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida jo'g'rofiy tushunchalarini biologik tushunchalar bilan bog'lanishiga e'tibor bermoq zarur.

Maktabda o'qishning birinchi yilida bolalar atrof olam bilan tanishish o'quv kitobidan ertak va xikoyalarni o'qish, tabiatdagi kuzatishlar asosida o'simlik va hayvon organizmlari to'g'risida umumiy oddiy tabiatshunoslik tushunchalarini oladilar. Kelgusi sinflarda ular tajribalar o'tkazishda, kuzatishlar, ekskursiyalar, amaliy ishlar vaqtida tabiat to'g'risidagi konkret tushunchalarga ega bo'ladilar.

Umumiy tushunchalarni shakllantirishda o'qituvchi: ob'yektlarni maqsadga yo'nalgan holda

qabul qilib olishlinishni tashkil qilishi;tabiat jismlari va hodisalari to'g'risida har bir yangi tushunchani tahlil qilishi va barcha narsalarda, ilgari o'zlashtirilganlarda takrorlanadigan muhim belgilarni ajratishi; ikkinchi darajali uncha muhim bo'lmagan barcha belgilarni mavhumlashtirish, buning uchun uncha muhim bo'lmagan turlanadigan belgili, lekin muhim belgilarini saqlagan (lola va binafsha, boychechak va lola) narsalardan foydalanish lozim.

Tabiatshunoslik tushunchalarni shakllantirishda har xil operatsiyalar: sintez, tahlil, taqqoslash, mavxumlashtirish, konktetlashtirish, umumlashtirishdan foydalanishga alohida ahamiyat berilish kerak.

Yakka tushunchalar – bu yoki boshqa narsalarga, hodisalariga xos bo'lgan yakka belgilardir. Agar umumiy tushunchalar atamalar bilan mustaxkamlansa, yakka tushuncha nomlar yoki shaxsiy ism bilan ifodalanadi, chunki uning nomida boshqa ob'yekt bo'lmaydi. Yakka tushunchalarini shakllantira borib, umumiy tushunchani ochishga alohida e'tibor berish lozim.

Tabiatshunoslik darslarida yakka tushunchalardan tashqari yig'ma tushunchalar ham shakllanadi. Ular umumiy belgilarga ega bo'lgan yakka tushunchalardat tarkib topadi. Yig'ma tushunchalarga kiradigan har bir yakka tushuncha o'zining individual hususiyatini saqlaydi. Tabiatshunoslik tushunchalari bevosita qabul qilish- kuzatishlarga asoslanib, o'rganilayotgan narsa yoki hodisa to'g'risida aniq va ravshan tasavvur hosil qilingan sharoitda to'g'ri bo'lishi mumkin. Tushunchani birlamchi tarzda hosil bo'lishida ob'yektlar va kurgazma materialning har xil turlari katta ahamiyatga egadir.

O'quvchilar tafakkurini rivojlantirmasdan, ularni fikrlash ishiga jalb qilmasdan turib tushunchalarning o'zlashtirilishiga erishish mumkin emas. Tabiatshunoslik tushunchalarni o'zlashtirishda predmetlararo bog'lanishlar (musiqa, o'qish, matematika, ona tili, mehnat, rasm) katta ahamiyatga ega.

Predmetlararo aloqalardan muntazam ravishda foydalanish bolalarning ilgari olingan bilimlarni qo'llanishiga, o'quv faoliyatning barcha turlaridan mantiqiy bog'lanish o'rnatishga o'rgatadi.

O'qituvchi tushunchalar tarkibini bilib, ularni tashkil qiluvchi elementlari bo'yicha o'quvchilar bilimini ob'yektiv baholashi mumkin. Tushunchalarni o'zlashtirishning qadrini bilish o'qituvchiga o'qitishning borishini fahmlashga, bilimni o'zlashtirish jarayoniga to'g'ri rahbarlik qilishga yordam beradi. Tushunchalarni ajratib o'qituvchi tegishli metodik uslublarni tanlaydi va qo'llanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. I.Nuritddinova "Tabiatshunoslikni o`qitish metodikasi" T., 2005 yil.

2. V.M. Pakulova, V.I.Kuznetsova. "Tabiatshunoslikni o`qitish metodikasi". – M., Prosvеще-nie, 1990.

3. Petrosova R.A., Golov V.P., Sivoglazov V.I.Metodika obucheniya yestestvoznaniyu i ekologicheskoe vospitanie v nachalnoy shkole. – M., 1999.

# ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ЎҚУВЧИЛАР КОМПИТЕНЦИЯСИНИ ОШИРИШДА ТАЪЛИМГА ИННАВАЦИОН ЁНДАШУВ

**Муродова Гулрух Бобораимовна,**
Навоий вилоят Навбахор тумани 7-умутаълим мактаб
инглиз тили фани ўқитувчиси

Ёшларнинг таьлим –тарбияси бугунги кунгача ва бундан кейин ҳам энг муҳим масаладир. Энг асосийси, умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандартларида белгилаб қўйилган, ўқувчиларнинг билим кўникма ва малакаларига қўйилган мажбурий мнимал талабларни ўқувчиларимиз томонидан тўлиқ ўзлаштириб олишларига эришиш, педагогларга катта маъсулият юклайди. Чунки Давлат талабларини бажаришимиз шарт эканлигини унутмаслигимиз лозим.

Лекин баъзан, бўш ўзлаштирувчи ўқувчилар ҳам учрайди.

Бўш ўзлаштирувчи ўқувчиларга нисбатан ҳеч қачон бефарқ бўлмаслгимиз лозим. Психологик жиҳатдан инсоннинг ҳақиқий қобилияти баъзан кечроқ, баъзан эртароқ номоён бўлади. Баъзан вундеркентларда ёрқин истедод кўринсада афсус, негадир у тезда сўнади. Бундан кейин, бўш ўзлаштирувчи ўқувчиларга нисбатан фикримиз ўзгариши аниқ. Ҳеч қачон иқтидорли ёки иқтидорсиз ўқувчи бўлмайди. Таълимда юқори самарадорликка эришиш ўқитувчидан жуда катта ижодий меҳнат талаб қилади..

Баьзида, топшириқларни ўзгртирган ҳолда, олдиндан турлича ёрдам кўрсатиб, ўқувчиларни, ўзига ишонч ва ҳиссий фаолликка ундаш учун ўқишда ва меҳнатда муваффақиятли вазиятларини яратиш лозим.

Жавобгарлик ва тартиб интизом эвазига ўқувчиларнинг ўзлаштириши яхшиланаётганлигини доимо таькидлаб туриш мақсадга мувофиқ. Бўш ўзлаштирувчи ўқувчилар, тарбияси қийин ўқувчилар билан ишлашда баьзи ҳолларда мажбурлаш ва сўзсиз бўйсиниш чораларини ҳам қўллаш мумкин, лекин улардан фойдаланиш вақти-вақти билан бўлиб, тарбиявий таьсирнинг бошқа усуллари билан биргаликда олиб борилади. Талабчанлик -адолатли, тўғри ва меьёрида бўлмоғи лозим.

Умумтаълим мактабларида табиий фанларни ўқитишда, ўқувчиларнинг бўш ўзлаштирадиган, қийналадиган мавзуларини аниқлаш ва уларнинг келиб чиқиш сабабларини билиш ҳамда уларни тузатиш учун аниқ вазифаларни белгилаб олиш ўқитувчи учун муҳим рол ўйнайди. Бу муаммони ҳал қилмай туриб ўқитишда самарадорликга эришиш қийин масаладир. Ваҳоланки, умумий ўрта таълим мактаблари иш фаолиятининг асосий йўналиши, қандай фан бўлмасин, таълимнинг сифат ва самарадорлигига эришга қаратилмоғи лозим.

Мавзу ўқувчилар томонидан нима учун бўш ўзлаштиралади?

Бунга асосий сабаблар деб,- қуйидагиларни кўрсатиш мумкин:

- ўқувчиларнинг дарсда ўтилган мавзуларни охиригача тушунмаслиги;
- айрим сабабларга кўра дарсларни қолдириши;
- ўқитувчининг иш тажрибасидаги камчиликлар;
- мактаб жамоасида синфдан ва мактабдан ташқари тарбиявий ишлар, ўқувчиларнинг қизиқиши, истаклари, ҳоҳиш ва эҳтиёжларига суянган ҳолда, уларнинг дарсдан бўш вақтларида ўқув - тарбия жараёнини тўғри ташкил этилмаслиги;
- ижодий қобилиятлар ривожини самарали амалга ошириш учун ўқувчилар истеъдодини аниқ таҳлил этиш, болаларнинг ўзига хос психологик хусисиятларини ҳисобга олиш, турли ёшдаги иқтидорли ўқувчиларнинг истеъдодларини намоён этишидаги педагогик жамоа, руҳий-диагностик тажрибалардан унумли фойдаланишлари зарур.

Бўш ўзлаштирувчи ўқувчилар билан ишлашда, уларнинг билимини назорат қилиш таълимга иннавацион ёндашувни тақозо этади.

Назорат ишлари орқали ўтилган мавзуларнинг ўқувчилар томонидан ўзлаштириш даражаси аникланади. Лекин мактаб амалиётида ўқувчилар билимини текшириш ва баҳолашда, бу масалага эътиборсизлик билан қараш натижасида ўқувчи баъзан, бир мавзудан қониқарсиз баҳоланиб, бошқа мавзу бўйича берган жавоби ҳисобига унинг хатоси тузатилади. Натижада табиий фанлардаги мавзуларнинг узвий боғлиқлиги, фаннинг мантиқий тузилиши туфайли бир қанча мавзулар яхши ўзлаштирилмай, ўқувчиларнинг билим, кўникма малакаларини ўзлаштиришида узилишлар ва бўшлиқлар ҳосил бўлади. Шунинг учун табиий фанидан

ўқитувчилари, ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларини текшириш ва баҳолашда ҳар бир мавзунинг пухта ўзлаштирилишига алоҳида эътибор бериш лозим.

Маълумки, ўқувчилар билимини назорат қилишнинг етарлича кўп усуллари мавжуд. Шу жумладан ёзма иш ва унинг таҳлили, ўқувчиларнинг ўтилган мавзу бўйича олган билим, кўникма ва малакаларини текширишнинг якунловчи босқичидир. Ўтказилаётган ёзма ишдан кутилаётган натижанинг самарадорлигини ошириш мақсадида, ўтказилган ёзма ишлар жараёнида ўтилган мавзуларнинг ўзига хос томонларини қай даражада ўзлаштирилганлигини домий равишда қайд қилиб бориш мақсадга мувофиқ бўлар эди. Ёзма иш вариантлари ўтилган мавзуларнинг мазмунини тўла қамраб олмоги лозим. Ёзма ишдаги ҳар бир топшириқнинг тўғри ечимлари олдиндан тайёрлаб келинган дидактик материаллар асосида синф тахтасида намойиш этилгандан сўнг, яхши ўзлаштирилмаган топшириқлар юзасидан мустақил иш ўтказилади. Мустақил ишнинг натижасига қараб, ўқувчиларга ўз устида ишлаш учун қўшимча вазифалар берилади. Зарурат туғилганда дарсдан ташқари консультациялар уюштирилади. Ўқувчилар ҳар бир мавзу бўйича пухта ўзлаштиришга эришганларидан сўнггина якуний синов топширадилар. Уларнинг барча текширишлардаги ўзлаштириш даражаси синов варақасида доимий қайд этиб борилади.

Ташкил этилган назорат варақаси туфайли, ўқитувчи ҳар бир ўқувчининг ўтилган мавзуларни қай даражада ўзлаштираётганлиги ҳақида аниқ маълумотга эга бўлади.

Ўқитувчининг шу йўсинда олиб борган иш фаолияти, ўқувчиларнинг ўзлаштиришини бундай назорат қилиш ва баҳолаш, ўқувчиларга “қониқарсиз” баҳога нисбатан салбий психологик таъсирнинг камайишига, уларда фанни ўзлаштиришга бўлган қизиқишга ҳамда мустақил ишлашга иштиёқ уйғотади.

# XALQARO TADQIQOTLARNING TA'LIMDAGI AHAMIYATI

**Naimova Aziza Isomovna**
Buxoro viloyati Vobkent tumani
12-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
**Ma'rupova Muhabbat Maxmudboyevna**
Buxoro viloyati Vobkent tumani
12-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
biologiya fan o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada xalqaro tadqiqotlarning mamlakatimiz ta'lim tizimidagi ahamiyati va bu bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** PISA, ta'lim, xalqaro tadqiqot, xalqaro baholash dasturi, test, bilim.

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan zamonda ta'lim sifati har bir mamlakatning ertangi kunini belgilab beradi. Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, bevosita ta'lim sifatini oshirishda katta rol o'ynaydi. *"Umumiy o'rta ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish kerak. Har bir sinfda bolalarning nimalarni bilishi zarurligidan kelib chiqib, davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarini qayta ko'rib chiqish lozim. Darsliklarni eng zamonaviy metodikalar asosida yaratish va chop etish, maktablarda texnologiya, muhandislik fanlari, matematika, san'at, chet tillari yo'nalishlarini kuchaytirish, bu boradagi laboratoriyalarni qayta jihozlash talab etiladi*" deb takidlaydi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

2019 -yil aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2030-yilga qadar Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqladi. Ta'lim infratuzilmasini yaxshilash va kengaytirishdan tashqari, konsepsiyada o'quvchilar o'zlashtirishini xalqaro tadqiqot – PISA reytingiga ko'ra aniqlash rejalashtirilgan. Bunda O'zbekiston 2030-yilga qadar jahonning 30 ta yetakchi mamlakatlari qatoriga kirishi maqsad qilib qo'yilgan. Davlatimiz rahbari tomonidan ta'lim tizimini isloh qilish, uni takomillashtirish va sifat darajasini oshirish yo'lida ustuvor vazifa sifatida, dunyodagi ilg'or mamlakatlar bilan tajriba almashib global ta'lim jarayonlarida faol ishtirok etish belgilab qo'yilgan. Zero yopiq sharoitlarda ta'limni rivojlantirib bo'lmasligi ko'plab mamlakatlarning tajribasidan ma'lum.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkilotining o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotida ishtirok etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8-dekabrdagi 997 - sonli qarori qabul qilindi.

**Xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati nimada?** So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi, barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishini talab etadi.

Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

**Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi?** Bu dasturdan qatnashishdan maqsad testlarni o'tkazish yoki o'quvchilarni testga tayyorlash emas, o'quvchilarimizda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish raqobatbordosh kadrlarni yaratish uchun mustahkam zamin yaratish hisoblanadi. Ta'lim sifatini baholash, xalqaro tadqiqotlarida ishtirok, tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarini hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi. Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va yana xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish

madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi. Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

PISA bo'yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning 1% ga o'sishini taminlaydi.

Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida Davlat va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida ta'lim sifatini oshirishga, 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko'rish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Xalqaro tadqiqotlar bo'yicha xorijiy davlatlarda Inspeksiya va xalq ta'limi tizimining 30 nafar xodimlari malaka oshirdi. Respublikamizning barcha viloyatlarida xorijiy ekspertlar ishtirokida seminarlar tashkil etilib, umumta'lim muassasalarining 2800 nafarga yaqin jamoalari qamrab olindi, 260 nafar trener tayyorlandi.

PISA VA PIRLS doirasida tajriba-sinov o'tkazish uchun 200 dan ortiq ortiq topshiriqlar tarjima qilinib, xalqaro lingvistika markazlari tasdig'idan o'tkazildi. O'qituvchilar va o'quvchilarning PISA va PIRLS tadqiqotlari haqidagi tasavvurlarini boyitish, xalqaro tadqiqotlar haqidagi tasavvurlarini boyitish, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik darajasini oshirish, o'quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, shu orqali ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tuman va shahar XTBlarida mutaxassislar bilan hamkorlikda yil davomida qator ishlar, seminarlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda ta'lim sifatini ta'minlashda bugungi globalizatsiya jarayonlariga qo'shilish, jahon hamjamiyatiga integratsiya qilish mamlakatimiz uchun muhim sanaladi. Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish-ta'lim sifatining muhim omili ekanligi ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Prezident va Vazirlar Mahkamasi qarorlari.

2. A. Ismailov va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLAR ASOSIDA DARSDAGI FAOLLIGINI OSHIRISH

**Nazarov Olimjon Ubaydullayevich**
Kosonsoy tuman 17- maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.
Telefon: +998 (99) 7663245

**ANNOTATSIYA**: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi, muhim ijobiy sifat va fazilatlarni tarkib toptirishi: hamjihatlik, intizomlilik, o'zini tuta bilishi, sabr toqatlilik, irodaviylik, uyushqoqlik haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** interfaol, metod, boshlang'ich, bilim, ko'nikma, malaka, sinf.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamasdan qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdir.Qisqa vaqt oralig'ida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish , shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim ko'nikma hamda malaka darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab qiladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar-interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Tajribalar shuni ko'rsatadiki zamonaviy interfaol metodlardan foydalanib o'tilgan darslarni o'quvchilar samarali o'zlashtiradi. Chunki bugun sinflarni to'ldirib o'tirgan o'quvchilar sho'x, beg'ubor bolalik gashtini surayotgan, ba'zan xayolparast bolalardir. Ular orasida hatto 45 daqiqalik dars jarayonining nihoyasini intiqlik bilan kutib, ta'limga yuzaki qaraydigan o'quvchilar ham yo'q emas.

Interfaol metodlardan foydalanib o'tilgan darslarda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlik tufayli dars samaradorligi oshadi, yangi darsni o'quvchi mustaqil harakat, mulohaza, bahs-munozara orqali o'rganadi. Qo'yilgan maqsadga o'quvchi o'zi mustaqil darsda faol qatnashgan holda kichik guruhlarda javob topishga harakat qiladi, ya'ni ham fikrlaydi, ham baholaydi, ham yozadi, ham gapiradi, ham tinglaydi, eng keragi o'zi faol ishtirok etadi. Interfaol usullarning negizida topshiriq mazmunini anglab yetgan o'quvchilar ta'lim jarayoniga o'zlari bilmagan holda qiziqib kirishib ketadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga dastlabki matematik tushunchalarni o'rgatish uchun o'qituvchi ta'limning eng qulay usullaridan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati juda katta. Shuning uchun o'quvchilarga berilayotgan bilimlar ularning yosh xususiyatlariga muvofiq o'yin tariqasida uyushtiriladi. Bunday o'yinlar jarayonida o'quvchilar matematika fanidan darslikda berilgan o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan materiallarni oson o'zlashtiradilar va shu bilan birga atrof muhitni, voqealarni kuzatishga, solishtirib ko'rish, ular to'g'risida fikrlash, ulardan to'g'ri xulosa chiqarish va xulosalarni asoslashga o'rganadilar.

O'quvchilarni matematika faniga qiziqtirish va bilim, ko'nikma, malakalarni to'g'ri egallashlariga erishishni interfaol metodlar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar og'zaki hisoblash bilimini shakllantirish hozirgi zamon o'qitish metodikasida yangi tehnologiyani joriy etishni asosiy masala qilib qo'ymoqda. Darsliklarimizda , ayniqsa , o'n ichida , yuz ichida, ming ichida arifmetik amallar bajarish jarayoni o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stiradigan, ijodiy qobiliyatini aniqlaydigan holatdir. O'qituvchi darslikdagi materiallar bilan cheklanib qolmasdan, balki ijodiy fikrlashga undaydigan materiallar bilan darsni boyitishi maqsadga mufofiqdir. Endi bir necha interfaol metodlarni 4-sinf matematika darslarida qo'llashni ko'rib chiqamiz:

**«Adashgan zanjirlar»** metodi.

Boshlang'ich sinflarda biror-bir ketma-ketlikni tiklash uchun qo'llaniladi. Bunda o'qituvchi biror mavzu, tushuncha algoritmiga oid ketma-ketlikni alohida-alohida va tartibsiz qo'yadi. O'quvchilar tartibsiz joylashgan so'zlarga mantiqiy bog'langan zanjirni tuzishlari kerak. Bu metodni 4-6 kishilik guruhlarda qo'llash ham, butun sinf bilan ham qo'llash mumkin. Masalan 4-sinf darsligidan «Noma'lum qo'shiluvchini topish» qoidasi : Noma'lum qo'shiluvchini topish

uchun yig'indidan ma'lum qo'shiluvchini ayirish kerak, u taxminan shunday o'zgartiriladi: qo'shiluvchini ayirish topish noma'lum uchun yig'indidan ma'lum kerak qo'shiluvchini so'zlari tartibsiz qilib (alohida qog'ozlarda) doskaga joylashtiriladi. O'quvchilar tartibni tiklaydilar, yoki guruhlarga so'zlar to'plami beriladi guruhlar tartibni tiklaydilar.

**Bahs-munozara** metodi.

Bu metodda o'quvchilar bilan biror muammoni yechish yo'lini qidirishda foydalaniladi, masalan: masalani yechish, o'lchash ishlarini bajarish, yechimning qulay usulini topish va hokazo. Sinfni to'rtliklarga bo'lish va guruhda ishlash mumkin. Masalan 4-sinf darsligidagi «Traktor bakida 60 litr yonilg'i bor edi. Traktor 1 soatda 6 litr yonilg'i sarflaydi. Agar traktorda 24 litr yonilg'i qolgan bo'lsa, traktor necha soat ishlagan?» masalasi. Bu masalani o'qituvchi o'quvchilarga tushunarli qilib yechib ko'rsatadi. Shu masalaga teskari masala tuzishni o'quvchilarga muammo sifatida beradi va o'quvchilar bu masalani bahs- munozara orqali tuzishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. I.A.Karimov Buyuk kelajak sari. Toshkent. 1998 yil.
2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: "O'zbekiston", 2000 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta`lim to'g'risida"gi Qonuni. T. 2020 23 sentabr.

**INTERNET SAYTLARI:**

1. http: www.ziyo.net.uz.
2. http: www.pedagog.uz.

# INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN SECONDARY SCHOOLS

**Nurmatova Gavhar Mahmudovna,**
English teacher of the secondary school № 20, Namangan

Language education may take place as a general school subject or in a specialized language school. There are many methods of teaching languages. Some have fallen into relative obscurity and others are widely used; still others have a small following, but offer useful insights.

To the list of least efficient can turn a classical approach to the study of a foreign language. At the heart of the classical approach is the understanding of language as a real and proper means of communication, which means that all components of language - spoken and written language, listening, etc. - student need to develop systematically and harmoniously. Communicative approach, as follows already from the title, is directed to the possibility of communication.

The communicative character of language is characterized by its functionality, that is, the specific uses made of it in the dimension of social and human interaction, so it is necessary to develop communication skills in the classroom, by focusing on the students' needs and creating activities to promote the use of language in real communication scenarios.

Classroom activities used in communicative language teaching include the following:

Role-play Interviews information gap

Games

Language exchanges

Surveys

Pair-work

Learning by teaching

In the classroom CLT often takes the form of pair and group work requiring fluency-based activities that encourage learners confidence, role-plays in which students practice and develop language functions, as well as judicious use of grammar and pronunciation focused activities.

An important element of communication in teaching is the use of teaching aids. We have all heard the saying: 'What I hear, I forget; what I see, I remember; what I do, I know'. Pictures, written posters and practical demonstrations improve communication and we should use them as much as possible. Most of us have access to paper, posters, a chalkboard, or an overhead projector. We can use these to prepare aids for our lessons: summaries of important facts, or pictures and diagrams. The overhead projector is particularly useful, because it allows us to face our students while using it.

How can. - I know whether I am communicating well as a teacher? Communication is a skill - and we improve our skills by getting feedback on the way we perform them. We can get such feedback by asking an experienced colleague to sit in on our teaching, and to give us feedback. We can also ask someone to record us on a videotape as we teach, which we then inspect critically afterwards. In either case the feedback will be better if we use a checklist to judge our performance.

Teachers communicate by speaking, but also by writing. We have seen how we can improve the overhead projector transparencies we use, if we write them carefully. The same is true of the **handouts** that almost all teachers prepare for their students.

What is a handout? It is not a photocopy of a journal article, or of some pages out of a textbook. Rather, it is a document which the teacher writes him/ herself. It may be a summary of important points to be least; or a guide to students on work they have to do, or references they have to look up. Teachers may use handouts for students to refer to during a lesson, and students will definitely use them in their self-study time. Because handouts are such an important way of communicating with students, they must communicate effectively. These days many teaching institutions have websites where teachers put their handouts for the students to find. It doesn't matter whether the handout is on paper or on a website - it still needs to be well written.

New technologies' massive impact on society has various consequences also for the Uzbek educational system. For one thing, most pupils are high frequency users of new technologies. They are familiar with browsing the Internet, playing games and participating in social networks. More importantly, they have access to a wealth of information regarding all curriculum subjects. Furthermore, pupils and teachers are expected to be using ICTs in class on a regular basis as

reflected in national plans and official documents. In the latest national curriculum "the ability to use digital tools" is defined as a basic skill along with numeracy, the ability to express oneself orally, to read and write.

Teachers are once more acknowledged not for their adaptability, but for their mastery of a field of study. The trend points to a renewed emphasis on subject specific didactics in research and in the formulation of educational policy. Future ICT integration initiatives must be based on the understanding that the use of ICT must be intimately linked to the achievement of central subject specific objectives.

Thus, designing an intervention programmer in receptive and productive linguistic skills for students is the way to improve their different linguistic skills (listening, speaking, reading and writing) and audiovisual competence at the same time**.**

The web-site should also include sections directed to the main education agents: students, teachers and families due to the importance of a joint effort for the suitable schoolchildren's communicative development. Such kind of site will be helpful for those who are enable more selfdirected learning.

Students have access to different activities, distributed by thematic areas and skills, including levels of difficulty. These activities also lead participants to various resources that students may consult for this purpose or simply to gather information about different content-related issues.

Teachers can also access the student activities, but, exclusively for them, its teaching guide will be added for guidance.

Families also have the opportunity to check the exercises and activities designed for their children, accessing two specific sections of the website: a bank of resources and a diary, where simple activities about communicative skills related to each level's thematic area can be found on a daily basis through the whole academic year.

At least, in the domestic market there are methods for every taste, and can only be defined in purpose, facilities, and most importantly - the methods. Then the choice of courses and training programs will not be so difficult.

**References**

1. Crystal, D. (2001). Language and the Internet. Cambridge: Cambridge University Press.

2. Lund, A. (2003a). The Teacher as Interface. Teachers of EFL in ICT-Rich Environments: Beliefs, Practices, Appropriation. Unpublished Doctoral dissertation, University of Oslo. w'

3 McCormick R. &Scrimshaw, P. (2001). Information and Communications Technology, Knowledge and Pedagogy. Education, Communication and Informational(l), 37-57.

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI HUSNIXATGA O'RGATISHNING METODIK SHARTLARI

**Nurmetova Muyassar Sadullayevna**
Xorazm viloyati Shovot tumani
12-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998997307661

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada husnixatga o'rgatish ehtiyoji va boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatishning metodik shartlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** husnixat, nutq, yozuv, metodik shartlar, kamchilik, xato, harf.

Inson o'z fikrini boshqa kishilarga og'zaki va yozma shaklda yetkazishi mumkin. Nutqning bu ikki shaklining o'xshash va farqli tomonlari mavjud bo'lib, ular o'z o'rnida afzalliklarga ega. Og'zaki nutq tovush chiqarib aytiladi va eshitilish uchun mo'ljallanadi. U kishilarning nutq jarayoni vaqtidagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog'och, teri, metall, qog'oz kabilarga ko'rish asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo'yiladi. Yozuv kishilarning o'zaro fikr almashishi va bilimlarni egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlarni bir-biriga bog'laydi, uzoq davrlar mobaynida saqlanadi. Yozuv tufayli kishilar fikri, insoniyat qo'lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixatga o'rgatish ehtiyoji yuqoridagi talablar asosida yuzaga keladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixat bilan yozishga o'rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Biz quyida boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatishning bir nechta metodik shartlari bilan tanishib chiqamiz.

**1.O'qituvchining namunaviy yozuvi** - bolalarda to'g'ri yozuvni shakllantirishning asosiy usuli hisoblanadi. Yozishga o'rgatish ko'pincha taqlid qilish orqali amalga oshadi. O'qituvchining birinchi o'quv yilida sinf taxtasi yoki o'quvchi daftariga yozganlari asl nusxa sifatida ko'riladi, chunki o'quvchilar undan o'z daftariga ko'chirib oladilar. Shuning uchun o'qituvchining husnixati to'g'ri va chiroyli bo'lishi lozim. Sinf taxtasiga yozilgan yozuvi esa o'quvchining daftaridagi harflarning joylashishiga mos xolda bo'lishi kerak. Amaliyotning ko'satishicha, agar o'qituvchi qatorning oxirigacha yozmasa (to'ldirmasa), bolalar ham undan namuna olib qatorning oxirigacha yozishmaydi, qog'ozni bekorga sarf etishadi va so'zlarni keyingi qatorga to'g'ri ko'chirish yo'llarini o'rgana olmaydilar, shubhali hollarda qator oxirigacha ko'chirmaydigan bo'lishadi.

O'qituvchi o'z yozuvini yanada chiroyli va mukammal bo'lishi uchun uzluksiz shug'ullanib borishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi shart. Shunday fikrlar bor, agar muntazam yozib borilsa, yozuv yaxshilanib boradi. Lekin buning aksi ham bo'lishi mumkin: inson qanchalik ko'p yozsa, uning yozuvi shunchalik tushunarsiz bo'lib borar ekan. O'qituvchi to'g'ri husnixatda yozishni o'rganib olishi lozim. O'qituvchi faqat nazariy jihatdangina emas, balki har bir harf uchun yo'lga qo'yilgan amaliy proporsional bog'liqlikni ham bilishi darkor. Shu bilan bir vaqtda lozim bo'lgan mashqlar orqali qo'lning kaftini va barmoqlar harakatini yengillatish va rivojlantirish kerak bo'ladi.

O'qituvchi sinf taxtasida yozish usullarini ham egallab olishi lozim. Sinf taxtasida yozish jarayonida xatolarga yo'l qo'ymasligi kerak. Masalan, harflarni grafik yozish, uning uzoqdan qanday ko'rinishini hisobga olmasdan yozish, barcha asosiy va birlashtiruvchi unsurlarni bir hil qolipda yozish kabi. Faqatgina yaxshi yozuvga ega bo'lgan holdagina o'qituvchi bolalarga namuna bo'la oladi va ulardan yaxshi natijalar olishi mumkin. O'quvchilar harflarning tuzilishini, uni chizishdagi ketma ketligini yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun o'qituvchi bularning hammasini sinf taxtasida ko'rgazmali tarzda ko'rsatishi lozim.

**2. Yozuvdagi kamchiliklarni tuzatish**. O'qituvchi bolalarning daftaridagi xato-kamchiliklarni o'z o'rnida aniq ko'rsatmasligi natijasida bolaning yozishiga nisbatan e'tiborsizlik yuzaga keladi.

**3. Husnixatga doimiy e'tibor**. Aniq va to'g'ri husnixatda yozishga nafaqat husnixat darsida, balki barcha dars turlarida va sinfdan tashqari yozuv ishlarida, yozma ariza, ular tomonidan tayyorlanadigan ko'rgazmalar (devoriy gazetalar, jadvallar, shiorlar va h.k.) amal qilish kerak. Orfografik - to'g'ri, aniq va tushunarli qilib yozishni talab etish jarayonida o'qituvchi o'quvchining pala-partish yozuvini va ikki varaq qog'ozga yozgan yozma ishini ham nazorat qilib borishi lozim. Har bir o'quvchining daftari tartibli bo'lishiga erishish kerak.

Harflarning yozilishi sodda va to'g'ri bo'lishi kerak. Pedagogik amaliyotda, boshlang'ich 1-2- sinflarda o'rganiladigan shriftlarning namunasi ishlab chiqilgan. 3-va 4- sinflar amaliyotida qo'llanadigan tez yozuv malakasining boshlang'ich sinflardagi yozuvdan anchagina farq qiladi. Xarakterli jihatlaridan biri shundaki, tez yoziladigan yozuvda ayrim so'zlar qog'ozdan qo'l uzmasdan yoziladi.

**4. Husnixatga o'rgatish izchil va ketma-ketlik xarakteriga ega bo'lishi** lozim. O'rgatish jarayonida o'qituvchining dastur materialini, o'quvchini soddaroq shakliy ko'rinishga ega bo'lgan harflardan, murakkabroq ko'rinishga ega harflarga o'tkazishga va yirik hamda sekin yozuvdan, mayda va tez yozuvga o'tkazishda e'tibor beriladi. Husnixat mashqlari o'zaro bog'liqlikda muntazam uyushtiriladi.

Shuni yodda tutishi kerakki, bolani sekin yozuvda harfni to'g'ri yozishni o'rganib olmaguncha tez yozuvga o'tkazish mumkin emas. Shuning uchun ham dasturda tez yozish ko'nikmalari 3-4-sinflarda shakllantiriladi.

**5. Individual yordam**. Ayrim o'quvchilarning yozuvidagi individual farqlikni kuzatib borish mumkin. Bu farq o'ta qiya yozilishda va h.k.larda kuzatiladi. Dastlabki yozuvga o'rgatish paytida individuallik ko'p ko'zga tashlanmaydi, bu hol ko'proq yuqori sinflarda tez yozuvga o'tgan paytda kuzatiladi. Yozuvdagi individuallik o'ziga xoslikni 4- sinflarda o'tkaziladigan mashg'ulotlar jarayonida aniqlash mumkin, chunki bu davrda o'quvchilar mustaqil ravishda bir chiziqli daftarga yozishga o'tgani bo'ladi. O'quvchida aniq va ravon yozuv hosil bo'lishi uchun o'qituvchi o'quvchining butun diqqatini harfning grafik shakliga, boshqa harf bilan qo'shilib ketmasligiga e'tiborini qaratishi lozim.

**6. O'quvchilarning husnixat bilan to'g'ri yozish ko'nikmalarini rivojlantirib borish**, husnixatga o'rgatish ishlarini sistematik tarzda olib borish talab etiladi. Bunda yozuv materiallarini asta-sekin ko'paytirish va murakkablashtirib borish nazarda tutiladi. Buning uchun ham o'quvchilar to'g'ri yozuvning har kungi ko'nikmasi bilan cheklanib qolmay, uzluksiz ravishda nazorat tekshiruv ishlarini yoki yozuvning sifatini ko'rish ishlarini olib borishlari zarur bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. X.G'ulomova va boshqalar. Husnixat va uni o'qitish metodikasi.
2. M.G'ulomov Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish.
3. Shaxsiy ish tajribamdan.

# O‘ZBEK TILI DARSLARIDA ILG‘OR TA’LIM VOSITALARI

**Ostonova Yulduz Baxtiyarovna**
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tili darsida o‘zbek tili darslarida ilg‘or ta’lim vositalari yoritilgan.
**Kalit so‘zlar:** mutolaa zavqi, kundalik, muammoli savol-javob, jadvalli labirint…

Bugungi kunda O‘zbekistonning jahon miqyosida munosib o‘rin egallashi uchun ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy yo‘nalishlarda g‘oyat muhim va murakkab ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun biz tarixiy bir davrda -xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalombor o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqorolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

**O‘zbek tili darslarini tashkil etishda quyidagi vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.**

**“Kundalik” texnologiyasi.** Bunda o‘quvchilar 2 guruhga bo‘lib olinadi. Birinchi guruh jadvalni birinchi qismiga sodda gaplardan yozadilar. Ikkinchi guruh shu gaplarning ma’nosini davom etib keluvchi qo‘shma gapning qismlarini yozadilar. Natija 1-guruh sodda gaplarni imlo qoidalari asosida yozganiga qarab baholansa, 2-guruh shu gapni qo‘shma gapga to‘g‘ri aylantirganiga qarab baholanadi.

| I qism | II qism |
|---|---|
| **To‘satdan eshik sharaqlab ochildi** | **va ostonada Eltoyev paydo bo‘ldi** |
| **Gulchehra piq etib kuldi-da** | **cho‘zilib tugunni oldi** |
| **Hujrasiga qaytdi-yu** | **o‘ylay boshladi** |
| **Shu onda chiroq o‘chdi** | **Birdaniga o‘q uzildi** |




**“MUTOLAA ZAVQI” innovatsion usuli.** Bu orqali o‘quvchilar o‘qigan badiiy asarlari yuzasidan mustaqil, ijodiy fikrlarini, taassurotlarini maxsus ko‘rgazmadagi ijod barglariga yozadilar. Har oy yakunida fikrlar kutubxona mudirasi va o‘qituvchilar tomonidan o‘qiladi. Eng ta’sirchan fikr muallifi badiiy asar bilan taqdirlanadi.

**“MUAMMOlI SAVOL-JAVOB” USULI.** Bunda o‘quvchilarga ma’lum bir mavzu bo‘yicha savol beriladi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon etadilar.

**O‘quvchi nutqiga qanday talablar qo‘yiladi?**

-O‘quvchi nutqini yaxshilash, boyitish uchun nimalarga e’tibor kuchaytirilishi kerak?

-Qanday nutqni yaxshi nutq deyish mumkin?

**Tasavvur qiling, bugungi insonlar taqdiri haqida kelajakda qanday mavzularda asarlar yoziladi deb o‘ylaysiz?**

-Hozirgi o‘qigan asar qahramonini siz qanday ta’riflar edingiz?

-Hayotingizda asardagi kabi ziddiyatlarni kuzatganmisiz?

**“Jadvalli labirint”** o‘yini. Bunda o‘quvchilar

4 ustundagi so‘zlar qaysi so‘zning antonimi ekanligini topish va raqamlar orqali belgilashi kerak bo‘ladi.

| T/ r | So‘z | Javob | Zid ma’nosi |
|---|---|---|---|
| 1. | Yaxshi | 5 | Achchiq |
| 2. | Oq | 7 | Yaqin |
| 3. | Shirin | 1 | Xunuk |
| 4. | Chiroyli | | Semiz |
| 5. | Uzoq | | Yomon |
| 6. | Og‘ir | | Qisqa |
| 7. | Baland | | Qora |
| 8. | Keng | | Tor |

**“Kim zukko” usuli.** Bunda o‘quvchilarga darsdagi bosh mavzu beriladi. O‘quvchilar mavzuga ta’rif berishi kerak bo‘ladi.







Biz o‘z taqdirimizni o‘z qo‘limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda mana shunday intilishlar bilan yashayotganimiz, ilm-fan, texnika, san’at, adabiyot sohasida erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgan-bunday imkoniyatlarni barchasini aynan mustaqillik berganini hammamiz chuqur anglaymiz.

Shuni unutmagan holda har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash biz ustozlardan izlanishni talab etadi. O‘quvchilarni darsga qiziqtirish uchun bor kuch va imkoniyatlardan oqilona foydalansak, albatta o‘z maqsadimizga yetamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G’oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. - T.: O’zMU, 2003. 156-b

2. Yusupova F. I. O’quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. “Xalq ta’limi” jurnali. 2005. №5. 90-93-b.. 3.Internet saytlari

# MAKTABLARDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

**Ortikova Maxfuza Kuvvat qizi**
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
32-maktab Tarbiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ta'lim muassasalarida uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish masalalari va yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarni egallagan barkamol, tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo'lish uchun ta'lim-tarbiya dargohlaridagi sharoitlarni tubdan o'zgartirish, hozirgi davr talabi darajasiga ko'tarish to'g'risidagi masalalar borasida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, axloq, madaniyat, ta'lim, vatanparvarlik.

Keyingi yillarda yurtimizda yoshlarning tarbiyasiga, ularning ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday unsurdan ehtiyot bo'lish, ularga yo'l bermaslik haqida ko'p bora ta'kidlanmoqda. Jumladan, yosh avlodni zararli oqimlar ta'siridan himoyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki ommaviy madaniyatga, u bilan yopirilib kelayotgan ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlariga milliy madaniyatni, milliy tarbiyani, milliy ma'naviyatni, ota-bobolarimiz e'tiqod qilib kelgan islomiy qadriyatlar bilan qarshi tura olamiz.

Buni o'z vaqtida anglagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan mamlakatning tarixiy rivojlanish davrida madaniyat millatning ma'naviy tajribasini saqlab, to'plab va avlodlarga etkazib kelganligi, xalqimizning birdamligini, vatanparvarlik va milliy g'urur hissini tarbiyalaganligini e'tirof etgan holda, madaniyatning ustuvorligiga urg'u berish, jamiyat hayoti sifatining yanada yuqori darajasini ta'minlash, unda fuqarolarning hamjihat bo'lishiga erishish, ma'naviyatli, mas'uliyatli, mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni shakllantirish maqsadida 2018-yil 28-noyabrda-"O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son qarori qabul qilindi. Har tomonlama barkamollik faqat maxsus bilimlarni egallashnigina emas, balki shu bilan birga shaxsning g'oyaviy-axloqiy shakllanishini, insonning faqat mehnatkash xodim sifatida emas, balki muayyan jamoat vakili va hatto arbobi sifatida ham kamol topishini taqozo qiladi. Inson u yoki bu sohada har qancha ko'p bilim, ko'nikma va malakalarni egallasa ham agar ijtimoiy mehnatdan, topshiriqlardan chetda tursa, u har tomonlama barkamol inson bo'lib etishmaydi. Aynan ta'lim muassasalari yosh avlodning mafkuraviy immunitetini shakllantiruvchi, ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalovchi, yuksak bilimli, intellektual rivojlangan kadrlarni etkazib beruvchi markazlar hisoblanadi. Bu jihatdan ta'lim muassasalarini globallashuvning salbiy tahdidlariga qarshi turuvchi ichki himoya tizimi, deb ta'riflashimiz mumkin bo'ladi. Har bir davlat kelajagi fuqarolarning intellektual salohiyatiga, madaniyati, bunyodkorligiga tayanadi.

Zero, eski ta'lim-tarbiya asosida yangi jamiyatni qurib bo'lmaydi. Shu jihatdan mamlakatimiz kelajagi, shubhasiz kadrlar tayyorlash masalasiga bevosita bog'liq. Yangicha fkrlaydigan, zamonaviy bilimlarni egallagan barkamol, tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo'lish uchun ta'lim-tarbiya dargohlaridagi sharoitlarni tubdan o'zgartirish, hozirgi davr talabi darajasiga ko'tarish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buborada O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng barcha sohalar kabi, ta'lim tizimi ham tubdan isloh qilinmoqda. O'zbekistonda ta'lim tizimida olib borilayotgan sa'y-harakatlar, erishilayotgan natijalar xalqaro hamjamiyat tomonidan alohida e'tirof etilayotgani diqqatga sazovordir. Yosh avlodga xalqaro talablar darajasida zamonaviy bilimlarni berish, yetakchi va ilg'or o'qitish uslublaridan foydalanish, uzluksiz ta'lim jarayonining barcha sohalarida ushbu islohotlarni birdek amalga oshirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ta'lim sohasida o'tkazilayotgan islohotlarning natijasi sifatida nafaqat ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan kishilar, balki xalqimiz ongida ham ta'lim-tarbiya tizimiga nisbatan katta o'zgarishlar paydo bo'ldi, yoshlarimiz o'rtasida esa bilim olishga bo'lgan intilish va qiziqish kuchaydi. Ta'limning rivoji va barkamol avlod tarbiyasi uchun asosiy sharoit yaratib beradigan omil sifatida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan bo'lib kelmoqda. Zamonaviy dunyoda yangicha texnologiyalar bilan uyg'unlashgan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Ishlab chiqarish rivojlanar ekan malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj ham kundan-kunga ortib bormoqda. Biroq hozirda sohalar yuzasidan har yili yangiliklar bo'lib turgani uchun ham

eski avlod vakillari yangicha bilimlarni o'zlashtirishga ulgurolmay qolishyapti. Bu muammoni bartaraf etishning yagona yo'li bu uzluksiz ta'lim jarayonini tizimli ravishda bosqichma-bosqich isloh qilib borishdir. Uzluksiz ta'lim – o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan, hamda sod-dadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi. Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyati davlat ta'lim standartlariga asoslanadi. Uzluksiz ta'lim tizimi har taraflama mukammal va davlatimiz taraqqiyoti uchun xizmat qil-ishga layoqatli malakali kadrlar tayyorlash uchun zaruriy muhitni yaratib beradi. 2018-yilning 5-sentabr kuni PQ-3931-sonli qaror asosida 2018-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi qabul qilindi. Ushbu dasturning ikkinchi bo'limi ―Ta'lim sifatini yaxshilash va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish deb nomlanib, unda uzluksiz ta'lim tizimida yangicha o'quv dasturlari va darsliklarni, hamda STEAM ta'limini xalq ta'limi tizimida bosqichma-bosqich joriy qilish va takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Unda uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan har bir bo'g'in rivojlangan xorij tajribalarini joriy qilgan holda rivojlanishlarining nazariy asoslari belgilab berilgan. Yoshlarga bilim berishda ular olgan bilimlarini hayotda qo'llash ko'nik-masi kompetensiyaga asoslangan holda berilishi, har bir o'quv topshiriqlarini chuqur mantiqiy fikrlaydigan va qiziqarli tarzda berilishi ta'limga bo'lgan qiziqishning yanada ortib borishiga olib keladi.

Xulosa qilib shuni e'tirof etish kerakki, mamlakatimizda qabul qilingan barcha ijtimoiy dasturlar, qonun va qarorlar vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo'ldoshev J. ―Ta'limimiz istiqloli yo'lida‖ – Toshkent:Sharq.1996.

2. Sobirov B. ―Ta'lim tizimi takomillashmoqda‖ G'G' O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. Toshkent, 2008.N6son. –B.41-43.

# BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MUAMMOLI METODDAN FOYDALANISH

**Pirmanova Aziza Xolmurot qizi,**
Navoiy viloyat Karmana tumani 1-umumta'lim maktab
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda milliy umuminsoniy qadriyatlar Respublikamizda umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e‘tiborga olib ta‘lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunga xalq og‘zaki ijodi, pedogogikasi, mutafakkir, ma‘rifatparvar pedagog va olimlarning tarbiyaga axloq-odobga doir g‘oyalarini o‘rgatib komil insonni ishlari amalga oshmoqda. “Kelajak bugundan boshlanadi”-deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko‘rsatuvchi ruhiy va ma‘naviy jarayonning mezonini belgilaydi. Bu borada ta‘limtarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish ta‘limni ilg‘or tajribalar asosida boyitib borish, yangi pedagogik tajribalar asosida olib borish ayniqsa muhimdir.

Ma‘lumki, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning keng miqyosda mulohaza yuritish va mustaqil fikrlab qarorlar qabul qilish ko‘nikmasi shakllanib ulgurmagan bo‘ladi.Shu bois boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarda, asosan, matn ustida ishlash ko‘nikmasi shakllantiriladi. Achinarlisi shundaki, shakllanib kelayotgan shaxsni komillik sari yo‘naltirishning dastlabki bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilar o‘rniga ko‘proq o‘qituvchi o‘ylaydi, u bolalar o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan bilimlarni tayyor holda beradi, o‘zi savollar qo‘yadi, javob variantlarini ham taklif qiladi, ba‘zan savol va topshiriqlarning yechimini topish yo‘llarini ham o‘zi ko‘rsatadi.Dars o‘tishning bunday shaklida o‘quvchilar o‘qituvchining yordamiga o‘rganib, moslashib qoladi. Bu kabi vaziyatlarda o‘quvchilar o‘rganilayotgan o‘quv materialini faqat eslab qolishga harakat qilishadi, uyda takrorlashadi, mustahkamlashadi.Natijada, bunday ta‘lim o‘quvchidan mustaqil fikrlashni talab qilmaydi.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, o‘qish darslari maqsad va vazifalari hamda mohiyatiga ko‘ra boshlang‘ich ta‘lim tizimida alohida o‘rin tutadi.Bundan tashqari, barcha o‘quv fanlarini o‘zlashtirishni ham o‘qish faoliyatisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.Chunki matnni tushunib, bir maromda to‘gri va ifodali o‘qishni o‘rgatishga, asosan, o‘qish darslari mas‘uldir.O‘qish darslari orqali o‘quvchilarning DTS talablari bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlariga yo‘l ochiladi.Aynan o‘qish darslarida insonning, avvalo o‘zligini, qolaversa, butun olamni anglashga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga imkon yaratiladi.Shu boisdan “O‘qish kitobi” darsligiga ona tabiat, atrofimizni o‘rab turgan olam, vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayotidan lavhalar, mehnat, istiqlol, do‘stlik, tinchlik, qadriyatlarimiz bilan bog‘liq bir qator mavzular kiritilgan. Boshlang‘ich ta‘lim o‘qish darslarini tashkil qilishda bolani o‘zgaruvchan va murakkab hayotga tayyorlash, ularni hayotiy bilimlar bilan qurollantirishga alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi.Shunday holatlarda “muammoli ta‘lim texnologiyalari” ga tayanib ish olib borish maqsadga muvofiqdir.

Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi imkon qadar kengroq, chuqurroq bilim berishga harakat qilganligi tufayli o‘quvchilarda unga savol berish ehtiyoji ham kamaya boradi. O‘qituvchi tomonidan beriladigan bilim va ma‘lumotlar bola uchun yangi, albatta.Qolaversa, o‘qituvchining mazmunni bayon qilishda yangilik, ilmiy asos va isbotlarga tayanishi o‘quvchi tomonidan beriladigan savollarning yo‘lini to‘sib qoyadi.O‘quvchilarga bunday shaklda singdirilgan bilim va ko‘nikmalar hamda ma‘naviy jihatlar bola shaxsini tayyor iste‘molchiga aylantirib qo‘yadi. Natijada u har qanday aqliy faoliyatda ortiqcha zo‘riqishdan o‘zini tortib, bunday topshiriqlarni o‘qituvchi, ota-ona yoki boshqa faolroq o‘rtoqlari zimmasiga yuklay boshlaydi.

O‘quvchilar bu muammoli savolning yechimini topish uchun insonga his bo‘lgan fazilatlarni taftish qila boshlashadi. O‘quvchi o‘ylashga, izlanishga undaydigan va hayotiy zarur bilimlarni egallashga chaqiriq bo‘la oladigan bu kabi muammoli savollar ta‘lim jarayonining sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Shu ma‘noda muammoli ta‘lim mustaqil, mantiqiy, ilmiy, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, bu yo‘lda uchragan to‘siqlarni mustaqil ravishda, unga ijodiy yondashgan holda bartaraf etish garovidir. U o‘quv materiali o‘zlashtirilganligining isbotini ta‘minlaydi, uni mustahkamlaydi, bilimlarni qat‘iylashtiradi.O‘quvchilar o‘qishga ijobiy munosabat o‘rnatadi, bilim olishga ichki ehtiyojni paydo qiladi. Bunday ta‘limda bugungi tarbiyashunoslikning asosiy vazifasi – o‘quvchida shaxsiy

sifatlarining shakllanishi va rivojlanishi muvaffaqiyatli amalga oshadi.

Xulosa qilib aytganda, muammoli savol, muammoli masala, muammoli vaziyatlarga tayangan holda darslarni tahlil qilish o‘quvchilarni o‘z fikrini aniq dalillar bilan asoslashga o‘rgatadi. Natijada bolaning bilimi ham orta boradi, javoblarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri jihatlarini o‘zi anglab yetadi.Bu jarayonda o‘quvchi narsa va hodisalarning paydo bo‘lish sabablarini aniqlashda muammoli masala va savol ham qo‘yishdan tashqari, ularni yechishga ham odatlanadilar.

# SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Qalandarova Shoira Ibragimovna**
Urganch tuman 9-son maktab amaliyotchi psixologi
Telefon: +998 (97) 790 76 75
sh_qalandarova7675@inbox.uz
**Begliyev Sanjar Reymbergenovich**
Xorazm viloyati XTXQTMOHM katta o'qituvchisi
Telefon: +998 (97) 452 09 03
sanjarbegliyev21@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxsning individual psixologik xususiyatlari ya'ni sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur, hissiyot, temperament va ularning turlari haqida ilmiy ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Psixika, sezgi, idrok, tafakkur, hissiyot, iroda, xotira, diqqat, nutq, faoliyat, emotsiya, iroda, temperament, sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik

Psixologiya-lotincha «psyuxe» - ruh, jon, «logos» - fan, ta`limot degan so`zlardan olingan bo`lib, ruh, jon haqidagi fan degan ma`noni anglatadi. Psixologiya faniga beriladigan ta`riflar ham juda xilma-xil bo`lib, shulardan ayrimlarini ko`rib chiqadigan bo`lsak faktlar, ularning qonuniyatlari va psixika mexanizmlari haqidagi fandir. Ko`rinib turiptiki, barcha ta`riflarda ham psixika haqida so`z bormoqda. Xo`sh, psixika nima?

Psixika lotincha psyuxe so`zidan kelib chiqqan bo`lib, ruh, jon degan ma`noni bildiradi. Psixika sezgi, idrok, tafakkur, hissiyot, iroda, xotira va boshqa shu kabi tushunchalar bilan guruhlarga ajratilib, hammasi birgalikda kishining psixikasi, kishining ichki dunyosi, uning ruhiy hayoti va hokazolar deb ham ataladigan tushunchalarni hosil qiladi. Bundan tashqari biz amaliyotda psixik hodisalar, ruhiy hodisalar degan iboralarga ham juda ko`p duch kelamiz.

Shaxs psixik jarayonlari: Bilish sohasi: diqqat, nutq, faoliyat;

Bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur;

Emotsional-irodaviy sohasi: emotsiya, iroda;

Individual-psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobilyat.

Bilish sohasi

Diqqat - idrokning u yoki bu ob`ektga ixtiyoriy yo`naltirilishi.

Nutq - bu muayan qoidalar asosida yaratilgan til organi orqali insoniy muloqotni tarixiy shakllangan formasi. Nutq jarayoni bir tomondan fikrlarni lingvistik vositalar bilan shakllantirilishi, ikkinchi tomondan esa tilshunoslik konstruksiyalari va ularning tushunchalarini idrok etishni nazarda tutadi.

Faoliyat - bu sub`ektning (tirik mavjudotning) ob`ekt bilan (atrofdagi borliq) faol hamkorlik jarayonidir. Voqelikka nisbatan faol munosabat bildirishning shunday bir shaqlidirki, u orqali kishi bilan uni qurshab turgan olam o`rtasida real bog`lanish hosil qilinadi. Bilish jarayonlari:

Sezgi - odamning real yoki abstrakt ob`ektlarga sub`ektiv munosabatini ifodalovchi hissiy jarayoni. Sezgi deb sezgi a`zolarimizga bevosita ta`sir etib turgan narsa yoki hodisalarning ayrim sifat va xossalarining ongimizda aks ettirilishiga aytamiz.

Idrok - Sezgi a`zolariga bevosita ta`sir etib turgan narsa va hodisalarning kishi ongida butunligicha aks ettirilishi idrok deyiladi. Idrokning sezgidan farqi, narsalarni umumlashgan holda, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettirilishidir.

Xotira - Individning o`z tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi.

Tasavvur (grek. φαντασία - «tasavvur») - individ yoki guruh jamoasi tomonidan realikka to`g`ri kelmaydigan, lekin ularning orzu istaklarini bildiradigan jarayon.

Tafakkur - Tafakkur voqelikni umumlashtirilgan holda, qonuniy bog`lanishlarni so`z va tajriba vositasida aks ettirishdir. Narsa va hodisalar rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash bilan odam, tabiat va kishilik jamiyati taraqqiyotini boshqarish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Shaxsning hissiy irodaviy sohasi:

Hissiyot ( lot. emoveo - hayajonlantiraman) -ob`ektiv dunyodagi mavjud yoki noma`lum bo`lgan vaziyatlarga sub`ektiv baholovchi munosabatni ifoda etadi. Iroda -insonning fikrlash jarayonlari

orqali qaror qabul qilishi, hamda qabul qilingan qaror asosida o`z xarakatlarini yo`naltirish. Shaxsning individual xususiyatlari deganda shaxsning bir biridan farq qilishiga imkon beradigan quyidagi xususiyatlari tushuniladi: temperament, xarakter, qobiliyat.

Temperament lotincha temperamentum - narsalarning tegishli nisbati degan so`zdan olingan. Temperament haqida dastlab eramizdan oldingi V asrda yashagan vrach Gippokrat, eramizdan oldingi II asrda yashagan Galen, X asrda yashagan Ibn Sino va boshqalar o`z qarashlarini bildirganlar. Galen birinchi bo`lib temperamentning kengaytirilgan tasnifini berib, uning 13 turini sanab o`tgan. Keyinroq vatandoshimiz Ibn Sino temperamentni mizoj deb atab, uning issiq va sovuq turini, bu odamning rangi, qonining miqdori, quyuq yoki suyuqligiga bog`liqligini aytgan. Hozirgi kunda temperament oliy nerv tizimi va uning xillari bilan bog`liqligi asos qilib olinib, 4 tipi borligi qabul qilingan. Bu holda temperamentning antik davr klassifikatsiyasiga nomi bilan o`xshash bo`lishi qabul qilingan.

Sangvinik - qon so`zi bilan bog`liq bo`lib, serharakat, kuchli ta`sirlanish, muvozanatsiz bo`lish nazarda tutiladi. harakatchan, muvozanatli tip. Yangi shart sharoitga tez moslashadi, tez ishga kirishib tez soviydi, o`z o`rnini, rolini tez almashtiradi,beg`araz, kek saqlamaydigan tip. («Bir qop yong`oq»).

Xolerik - sariq o`t organizmda ustun miqdorda bo`lishi asos qilib olinib, ta`surotni tez qabul qilib olish, kuchli qo`zg`olish, terisiga sig`maydigan shoshkaloq odam xususiyati hisoblanadi. «Jangovar, jo`shqin, oson va tez ta`sirlanadigan tip». (I. P. Pavlov). Chaqqon, tez harakat qiladi, qattiq va tez gapiradi, o`zini tutib turishi qiyin, bazan xato javob qaytaradi.

Flegmatik - organizmda shilimshiq modda flegma miqdori ko`pligi bilan ifodalanadi. Bu tipdagi odam ta`surotni bir muncha sekin qabul qiladi, ishga shoshilmay kirishadi, lekin ishni puxta, oxiriga yetkazib bajarishga layoqatli tip. Hissiyotlari sekin paydo bo`ladi, ammo barqaror va davomli bo`ladi. U vazmin va yuvosh, uning jahlini chiqarish qiyin, lekin jahli chiqsa to`xtatish ham qiyin, qasoskor, ginachi.

Melanxolik - qora o`t miqdori bilan bog`liq deb hisoblanadi. Bu tipdagi odam «og`ir karvon», «tepsa tebranmas», atrofida sodir bo`layotgan hodisalarga va odamlarga loqayd, «dunyoni suv bossa, tupig`iga chiqmaydigan» tip. Antik davr psixologiyasidagi bu turlar keyin yana ko`p marta tadbiq qilinib, yana shu to`rt tip nomi saqlanib qolgan. Reaksiyalari ko`pincha qo`zg`ovchining kuchiga to`g`ri kelmaydi, loqayd, lanj, o`zini tez yo`qotib qo`yadi, biror ishda tashabbuskorlik ko`rsatmaydi. Hissiyotlari juda sekin paydo bo`ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostiasi T.: TDPU 2017 – 264 b.
2. G`oziyev E. Ontogenez psixologiyasi Nazariy- eksperimental tahlil T.: Noshir 2010. – 356 b.
3. Do`stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T.va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar 2013 – 343 b.
4. Shapovalenko I.V. Vozrastnaya psixologiya (Psixologiya razvitiya i vozrastnaya psixologiya): uchebnik dlya studentov vuzov. – M.: Gardariki, 2007. – 349 s.

# NEMIS TILI DARSLARIDA INTERFAOL USULLARINI QO'LLASHDA O'QUVCHILARNING HAMKORLIK MUNOSABATLARI

**Qayumova Gulnoza Abdumo'minova**
Namangan viloyati Namangan shahar
Davlatobod tumanidagi 53-sonli umumiy
o'rta ta'lim maktabining nemis tili fani o'qituvchisi

**Annotatsiya**: ushbu maqolada nemis tili darslarida interfaol usullarni qo'llashda o'quvchilarning hamkorlik munosabatlari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar**: nemis tili,interfaol usul, metod, ta'lim, jarayon.

Interfaol metodlar ta'lim jarayoni ishtirokchilarining birgalikda,ya'ni o'zaro hamkorlikdagi faoliyat yuritishiga asoslanadi.Bunda o'quvchilar va talabalar an'anaviy ta'limdagi kabi faqat tayyor bilimlarni eshitib qabul qiluvchi passiv obyektdan ta'lim jarayonida bevosita ishtirok etuvchi, mustaqil fikrlovchi faol subyektga aylanadilar. Ma'lumki,ta'lim jarayoni ikki tomonlama harakterga ega bo'lib,o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Hozigi davr talabi o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlik munosabatini yo'lga qo'yish orqali o'quvchi-talabalarning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va ularni faollashtirishdir.Interfaol ta'lim jarayonini quyidagi ikki qismga bo'lish mumkin:

-o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligi;

-o'quvchilarning o'zaro bir-birlari bilan hamkorligi.

O'qituvchi bilan o'quvchilarning hamkorligi o'qituvchining o'quvchilarga ko'rsatadigan yordamidan boshlandi.U asta-sekin faollashib,o'qituvchi bilan o‘‘quvchilarning o‘‘zaro hamkorlik pozitsiyasiga o‘‘sib o‘‘tadi.Ta‘‘lim jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorlik qilishi katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning fanga qay darajada ixlos qo'yishi o'qituvchinig mana shu hamkorlik jarayonini yo'lga qo'yish mahoratiga,ya'ni pedagogik ijodkorligiga bog'liq.

Jumladan,nemis tili darslarida interfaol usullar ko'pincha o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga qaratiladi. Bunda kichik guruhlarga bo'lingan holda o'quvchilar hamkorligining yo‘‘lga qo'yilishi hatto bilimi bo'sh,nutqi sayoz o'quvchilarni ham o'rtoqlari ko'magida nimanidir gapirib berishga intilishiga,o'quvchini o'zi oldida turgan "tushunchama,ammo gapira olmayman" degan nutqiy to'siqni yengib o'tishiga va o'zidagi ichki imkoniyatni yuzaga chiqara olishiga yordam beradi.

O'quvchilarning juftliklarga bo'linib ishlashlari jarayonida (savol-javoblar,dialogik suhbatlar,rolli o'yinlarni tashkil etishda)faol o'quvchi bilan nofaol o'quvchining doimiy hamkorligini ta'minlashga,hatto uyga berilgan topshiriqlarni bajarishda ham ham faol o'quvchiga homiylik vazifasini yuklash orqali ularning muntazam hamkorlikda ishlashini tashkil etish orqali faol o‘‘quvchilarni o'qituvchining yordamchisiga aylantirishga erishish mumkin. Hozirda darslarda eng ko'p qo‘‘llaniladigan o'qitishning interfaol usullari quyidagicha:

**1.Topshiriq, mashqni bajarishga doir metodlar:** Nemis tili grammatikasiga oid biror-biror qoidani o'qituvchi o'quvchilarga tanishtirib bo'lganidan keyin,uni mustahkamlash maqsadida turli xil topshiriqlar beradi. Ular yozma yoki og‘‘zaki shaklda bo'lishi mumkin.

**Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar**. Og'zaki: Savollarga to'g'ri javobni tanlang. Darak gapni so'roq gap bilan o'zgartiring.Mantiqsiz gapni tuzating va to'g'ri` javobni ayting.Yozma:Berilgan so'zlar ishtirokida grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzing. Berilgan gapni to‘‘ldirish'uchun grammatik jihatdan mos keluvchi so'zni tanlang.

**Adabiyotlar:**

1. Eshmuhammedov R.J. "Innavatsion texnalogiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari" Toshkent 2004 y.
2. Yo'ldoshev J. "Yangi pedagogik texnologiyalar yo'nalishlari muammolari, yechimlari". "Xalq ta'limi" 1999 y.

# UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYA TADBIRLARINI TASHKIL ETISH USLUBLARI VA TAMOYILLARI

**Romonov Xurshid Atabekovich**
Xorazm viloyati Urganch shahar
19-sonli ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim
maktabi jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktabi o'quvchilari bilan jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, topshiriqlar, sport kiyimi, dars mashg'ulotlari, o'quv jarayonlari.

O'quvchilarning jismoniy tarbiyalash va jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish borasida maktabda dars shakli, darsdan va maktabdan tashqari shakllari bilan bir qatorda oilada jismoniy tarbiyadan uy mashg'ulotlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Jismoniy tarbiya o'qtuvchisi xar-bir darsda o'qituvchilarni jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug'ullanish uchun chiniqtirish hamda harakatga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish zarur.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarni yanada mustahkamlash, o'quv mezonlari, Alpomish va Barchinoy maxsus testlarini topshirishiga tayyorlaydi. Eng muhimi "Sog'lom avlodni" tarbiyalash vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Ertalabki badan tarbiya mashg'uloti 5-10 daqiqa davom etib, xar oyda yangi mashg'ulot turi tanlanadi, mashg'ulotlar bilan reja asosida ovqatlangan holda ochiq havoda, yengil sport kiyimida shug'ullanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarni harakat ehtiyojlarini to'la taminlay olmaydi. Shuning uchun bolalarni harakatga bo'lgan tabiiy ehtiyojini taminlash uchun hafta davomidagi harakat faolligi 12-15 soat bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya o'quv darslari va o'yin faoliyatlari o'quvchilarning funksional va yosh xususiyatlariga to'la mos kelishi zarur, aqliy va statik nagruzkalar hajmining olishi bilan yuzaga keladigan charchoq, harakat faolligini yetishmovchiligini bolalarning ish qobiliyatining va jismoniy rivojlanishi susayishiga olib keladi hamda bolani kasallanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun berilayotgan yuklama me'yorida bo'lishi zarurdir. Harakat faoliyatini me'yorida ta'minlash sog'lom turmush tarzi asosidir. Bunday vazifalarni amalga oshirishda jismoniy tarbiya tadbirlarini ahamiyati kattadir. Umumta'lim maktablarida o'quvchilar kun tartibidagi jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishda jismoniy tarbiya o'qituvchisi iqlim, maktab sharoiti va o'quv dasturi materiallariga asoslanib tuzilgan dars rejalaridan foydalanilgan holda jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etib boradi. Jimoniy tarbiya tadbirlari o'quvchilarni o'qishlari davomida jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida tashkil etiladi.

Jismoniy tarbiya dasrlarida o'quvchilar sport o'yinlaridan futbol, basketbol, voleybol, gandbol o'yinlarining texnikasi shakllantiriladi. Shuningdek, yengil atletika, gimnastika, kurash va suzish sportining maxsus harakat texnika va taktikalari o'rgatiladi. Sport to'garaklari mashg'ulotlari o'quvchilariga sport turlari harakat va mashqlarini egallashga hamda jismonan barkamol, soqlom xar taraflama yetuk bo'lishiga yordam beradi. O'quvchilar bilan jismoniy tarbiya va sport sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etishda tibbiy nazoratning ahamiyati katta bo'ladi. Sog'lom guruhlarga 5 kiritilgan o'quvchilarning barchasi sport sog'lomlashtirish tadbirlariga jalb etiladi. O'quvchilar jismoniy tarbiya tadbirlari bilan birga sog'lomlashtirish va chiniqish vositasi sifatida hamda sayyohlik yurishlari mashg'ulotlari tashkil etiladi. Bu mashg'ulotlar davomida o'quvchilar organizmining tabiat omillari yordamida chiniqib, tog' sharoitida toza xavodan navas oladilar, kasalliklariga chidamlilik darajasi ortadi. Tana a'zolari faoliyati yaxshilanadi.

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya jarayonlari, jismoniy tarbiya tadbirlari o'quvchilarini jismoniy rivojlantirish, sog'lomlashtirish va hayot faoliyatiga tayyorlashdan iborat bo'ladi. Jismoniy tarbiya jarayonlari o'quvchilarni barcha sinf bosqichlarida tashkil etiladi. Jismoniy tarbiyani tashkil etishda ta'lim muassasaning pedagogik jamoasi jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport murabbiylarning roli katta. Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya tadbirlari ertalabki badantarbiya, jismoniy tarbiya darslari sport to'garaklaridagi mashg'ulotlar, sport musobaqalari va bayramlar hamda dam olish kunlari va ta'tillarda olib boriladigan turizm mashg'ulotlari hisoblanadi. Jismoniy tarbiya tadbirlarida o'quvchilar hayotiy zarur harakatlar yurish, yugurish hamda sakrash va uloqtirish, tirmashib chiqish mashqlarni bajarib harakat malaka va ko'nikmalari

shakllantiriladi. Jismoniy tarbiya vositalari bo‘lib hisoblangan jismoniy mashqlar va tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari hamda gigienik vositalar yordamida ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi va organizm sog‘lomlashadi.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni jismoniy tarbiya tadbirlarida jismoniy rivojlantirish jarayonlari jismoniy harakatlar va jismoniy mashqlar bajarish yordamida tashkil etiladi. Jismoniy rivojlanish darajalari bolalarning tana tuzilishidagi ijobiy o‘zgarishlar bo‘y o‘sishi, vazn ortishi, o‘pkaning tiriklik sig‘imi kengayi hisobiga ko‘krak qafasini aylanasini ortishi, muskul kuchini ortishi munosabati bilan tana qismlari muskullarnii shaklini o‘zgarishi, yurak qon-tomir tizimi va boshqa organlarning jismoniy yuklamalarga chidamliligi ortishida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarni jismoniy rivojlanishini tashqi kuzatuvda aniqlanadigan natijalar tana tuzilishini ijobiy o‘zgarishida deb belgilash mumkin. Shuningdek o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi jismoniy fazilatlar kuch, chidamlilik, tezkorlik, chaqqonlik va egiluvchanlik sifatlarini rivojlanganligi bilan baholanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Salomov R.S. Kerimov F.A. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. 2002.

2. Usmonxodjayev T. S. va boshqa. Bolalar va o‘smirlar sporti mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyatlari. 2005 y. Toshkent.

# BOSHLANG'ICH SINFLARGA ZAMONAVIY METODLARNI QO'LLASH USULLARI.

**Sa'dullayeva Gulshod Yodgorovna**
Samarqand viloyati Oqdaryo tumani
XTBga qarashli 7-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Bugungi kun oʻqituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas'uliyatli vazifa yuklangan bo'lib, ta'lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish, zamon bilan hamnafas boʻlib, ta'limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda oʻquvchilarda oʻz faniga qiziqish uyg'otishlari, hurmat-ehtirom tuygʻularini shakllantirib borishlari talab etiladi.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim, tarbiyaviy ishlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»,kompyuter texnologiyalari.

Ta'limda ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta oʻrgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur koʻlamini kengaytirish, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta'lim-tarbiya jarayoniga koʻplab oʻzgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondoshuvlar tadbiq etilmoqda. Shulardan birisi, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dars oʻtishda mashgʻulotlar samaradorligini oshirishga erishish hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim muassasalarining moddiy texnik va axborot bazasini mustahkamlash, oʻquv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli oʻquv adabiyotlari va ilgʻor pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish masalasi alohida qayd etilgan. Bundan kelib chiqqan holda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish davr talabi hisoblanadi. Oʻquvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning aqliy va ijodiy tafakkurini, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, fanlararo bogʻliqlikni ta'minlash, bugungi pedagogikaning muhim vazifalaridan.

"Alifbo saboqlari" - 1-sinf oʻquvchilari uchun moʻljallangan boʻlib, Alifbeni oʻrgatuvchi dastur hisoblanadi. Dasturning afzallik tomoni shundaki, oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini oʻstirish (harfni talaffuz qilish va yozish, oʻsha harf bilan boshlanuvchi narsalarning nomlarini oʻrganish)ga yordam beradi. Shuningdek, harflar oʻrganilgandan soʻng, mustahkamlash maqsadida rasm beriladi. Berilgan katakchaga rasmdagi narsaning nomini to'ib yozish to'shiriladi. Shu yerda oʻquvchining kompyuter orqali yozuv malakalari shakllantirilib boriladi, test bilan ishlashga ham oʻrgatiladi. "Aljabr" - 1-sinf matematika darslarida foydalanish uchun moʻljallangan dastur hisoblanadi. Dastur orqali oʻquvchilar 10 ichida raqamlashni, tartiblashni, qoʻshish va ayirish amallarini bajarishni, taqqoslashni oʻrganadilar. Dastur oʻquvchiga ogʻzaki misol yechishning avtomatik darajada oʻzlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, mustaqil ishlash koʻnikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. "5x5" - 2-sinf matematika darslarida foydalanish uchun moʻljallangan boʻlib, karrali jadvalni oʻrgatuvchi dastur hisoblanadi. Dasturning takrorlash qismida kompyuterning oʻzi tartib bilan 2 dan boshlab 9 gacha karrali jadvalni oʻrgatadi. Imtihon qismida esa oʻquvchi mustaqil ravishda jadvalni ishlab chiqadi. Shunisi e'tiborliki, bir xonani bajarmasdan turib, ikkinchisiga oʻtmasligi oʻquvchini oʻz ustida ishlashiga majbur etadi. Dasturni oʻqituvchi uchun haqiqiy yordamchi desak boʻladi. Chunki, sinfning 30-40% oʻquvchisi karrali jadvalni oʻrganishida qiyinchilikka duch keladi. Dastur oʻsha oʻquvchilarga karrali jadvalning avtomatik darajada oʻrganishlarini kafolatlaydi. Bugungi kun oʻqituvchisiga qoʻyilayotgan talab, dars jarayonida axborot texnologiyalarni qoʻllay olishi, oʻquvchilarni komyuterdan erkin foydalanishga, zamonaviy bilimlarni puxta egallashga, ma'nan yetuk shaxs boʻlib yetishiga oʻrgatishdan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnolofiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.
2. Bo'ri Ziyamuhammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnoloya- zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.
3. www.ziyouz.com

# IX-XII ASRLARDA ILM-FAN TARAQQIYOTIGA HISSA QO'SHGAN O'RTA OSIYOLIK OLIMLAR

**Safarova Niyazjon Ibragimovna**
Xorazm viloyati Urganch shahar
15-son umumta'lim maktabining
Tarix fani o'qituvchisi
**Udalsova Rozaliya Vladimirovna**
Xorazm viloyati Urganch shahar
15 son umumtalim maktabining
boshlang'ich fanlari o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada IX-XII asrlarda yashab ijod etgan Abu rayhon Beruniy hamda Al-Xorazmiyning ilmiy merosi ahqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ilm-fan, renessans, islom dini, O'rta Osiyo, savdo, Xorazm, taraqqiyot.

Ma'lumki, IX-XIII asr boshlari Sharq xalqlari tarixida Sharq uyg'onish davri yoki "Islom Renessansi" nomi bilan mashxurdir. IX asrga kelib, poytaxt Bog'dodda tabiiy va gumanitar fanlar bilan shug'ullangan sharqning bir guruh mashxur olimlari, mutafakkirlari va tarjimonlari faoliyat ko'rsatib, ular o'zlarini bebaho asarlari bilan dunyo taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shdilar. IX-X asrlarda davlat hokimiyatining markazlashuvi, mamlakatda siyosiy vaziyatning nisbatan barqarorlashuvi, savdo va hunarmandchilikni rivoj topishi va boshqa ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ijobiy o'zgarishlar Xorazmda ilm-fan va madaniyatning ham barqaror rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatib, IX-XII asrlarda butun Sharqda bo'lganidek, Xorazmning madaniy hayotida ham haqiqiy uyg'onish davri bo'ldi. Uning ildizlari qadim O'rta Osiyo, ayniqsa, Xorazmning qadim madaniyatiga borib taqaladi.

1004 yildan boshlab Gurganjda "Dorul hikma va maorif" nomini olgan ilmiy muassasa shakllangan. Bu ilmiy muassasada huddi Afinadagi «Platon», Bag'doddagi «Bayt ul-hikma» akademiyasi faoliyatiga o'xshab ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan, juda ko'p manbalar to'plangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan; hind, yunon, arab olimlarining ishlari o'rganilgan. Xorazm Ma'mun akademiyasi 15 yil faoliyat ko'rsatdi. Lekin shunga qaramay, ilm-fan va madaniyat xazinasini qimmatbaho asarlar bilan boyitdi, jahon sivilizatsiyasini jadal rivojlanishiga katta hissa qo'shdi, ko'plab buyuk siymolarni tarbiyaladi.

Ana shunday davrning ilm-fan olamida Xorazm diyorida tug'ilgan Abu Rayhon Beruniy alohida o'rin egallaydi. Ulug' qomusiy allomaning ilmiy dahosi bilan yaratilgan mislsiz kashfiyotlarga to'liq baxo berishning o'zi qiyin. Beruniyning 150 dan ortiq ilmiy ishlaridan bizgacha faqat 31 tasi yetib kelganiga qaramasdan, alloma qo'lyozmalarining qo'limizdagi ana shu to'liq bo'lmagan namunalari ham uning naqadar serqirra meros qoldirganidan dalolat beradi.[1] Abu Rayhon Beruniy faoliyatini o'rganish jarayonida shu narsa ayon bo'ldiki, bu allomaning ilmiy merosini bir soxa doirasida o'rganishning iloji yo'q. Chunki bu inson geografiya, astronomiya, tarix, geologiya, farmakologiya, kimyo, botanika, mineralogiya va boshqa sohalarda birdek barakali ijod qilgan. Qomusiy bilim sohibi Ma'mun akademiyasining yetakchi olimi, tashkilotchisi va rahbari bo'lgan al-Beruniy 973 yilning 4 sentyabrida Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahrida tug'ilgan. Abu Rayhon Beruniyning hayoti va ijodi uning faoliyatiga oid XX asrdagi amalga oshirilgan tadqiqotlarni kuzatar ekanmiz, Beruniyning faoliyatini o'rganish asnosida X–XI asrlardagi Xorazm tarixiga oid tadqiqotlar ham yuzaga kelganligiga guvoh bo'lamiz. Mazkur tadqiqotlar alloma faoliyat ko'rsatgan ijodiy muhitni yaqindan o'rganishga yordam beradi.

Beruniyga katta shuhrat keltirgan asari "Osor al-boqiya" (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) hisoblanadi. Ushbu asar Beruniyni fanning hamma sohasiga qiziquvchi buyuk olim ekanini ko'rsatdi. "Bu kitobda men mo'ljallagan maqsad eng to'g'ri va eng ravshan yo'l bilan turli tarixlar muddatini aniqlashdir" deb yozadi Beruniy o'z asari haqida. Asarda vaqt tushunchasiga alohida e'tibor qaratilib, turli xalqlarning bu boradagi qarashlari bayon qilinadi. Shuning uchun

[1] Karimov.I.- "O'rta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati"mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi./ Xalq so'zi: 16 may 2014 y.

ham ushbu asarni xronologiya fani bo'yicha muxim manbalardan biri sifatida e'tirof qilish mumkin. Shu sababli xronologiya fani sharqda "osor al-Boqiya" nomi bilan ma'lum degan xulosalar xam olimlar tomonidan e'tirof qilinadi. Bundan tashqari Beruniy asarda Payg'ambarlar tarixi, soxta payg'ambarlar masalasiga ham alohida to'xtalib o'tadi. Shuningdek, Beruniy ushbu asarida musulmonlar orasidan birinchi bo'lib qadimgi yahudiylar kalendari hususida qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tgan.

IX-XII asrlarda O'rta Osiyodan yetishib chiqqan olimlardan yana biri Abu Abdullo Muhammad Ibn Muso al–Xorazmiy hisoblanadi. Buyuk mutafakkir va olim al-Xorazmiyning arifmetika va algebraga doir «Kitob al-jabr val mukobala» (To'ldirish va qarama-qarshi qo'yish haqida kitob) asari matematika fanida yangi davrni boshlab beribgina qolmay, balki uning keyingi asrlardagi taraqqiyotiga ham katta asos bo'ldi. «Hind arifmetikasi haqida kitob» asari tufayli avval Sharq xalqlari, so'ngra esa Yevropa xalqlari ham qadimiy Hindistonning katta yutug'i-o'nli pozitsiyasi hisoblash sistemasi bilan tanishdilar. Al-Xorazmiyning «Kitob surat al-arz» asari geografiyaga, «Astronomik jadvallari» astronomiyaga oid bo'lib, ular muallifning nomini jahonga yoydi. Shuningdek, «Quyosh soatlari to'g'risida risola», «Tarix risolasi», «Usturlab haqida risola», «Musiqa risolasi» singari ajoyib asarlari olimga katta shuxrat keltirdi, uning nomini abadiylashtirdi. Al-Xorazmiyning «Al-jabr val muqobala» asari keyinchalik Yevropada «Algebra» deb yuritila boshlandi. Uning astronomiyaga oid asari esa faqat Sharqda emas, balki G'arbda ham asronomiya fani rivojida katta rol o'ynadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov.I.- "O'rta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati"mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi./ Xalq so'zi: 16 may 2014 y.

2. Xasanov H. Sayyox olimlar.-Toshkent. O'zbekiston. 2012.

3. Karimov.I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch-Toshkent: Ma'naviyat, 2009 yil.

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MIQDORLAR TUSHUNCHASINI O‘RGATISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

**Shakarbayeva Ra'no Erjigitovna**
Nizomiy nomidagi TDPU
1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Umumiy o‘rta-ta‘lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish uchun, jumladan miqdorlarni o‘rgatishda uzluksiz matematik ta‘lim tizimi jarayonida pedagogik tajribani o‘rganish, zamonaviy talablar asosida miqdorlarni o‘rgatishda kompetensiyaviy yondashuv zarurdir. Maqolada boshlang'ich sinflarda miqdorlar tushunchasini o'rgatishda kompetensiyaviy yondashuv haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, boshlang'ich ta'lim, matematika, miqdorlar, kompetensiya.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Fanda texnika va ilg‘or texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishning maqsad, mazmun, uslub va vositalarini ilmiy jihatdan ta'minlash dolzarb muammolarning biri hisoblangan.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohatlar Respublikaning ravnaqini ta'minlaydigan istiqboldagi rejalarini amalga oshirishjda muhim o'rin topadi. 2017 yilga kelib davlatimizning barcha sohalarida yangi davr boshlandi, shu qatori ta'lim sohasida ham yangi islohatlar kiritildi. Bugungi kunda ta'lim ma'zmunini yangilash, takomillashtirish o'qitish samaradorligini va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ilg'or pedagogik tajribalarni keng ommalashtirish boyisha ham ancha ishlar amalga oshirilmoqda. 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 140-sonli qaror, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-sonli qarori bilan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan umumta'lim fanlari boyicha "Davlat ta'lim standarti" tasdiqlandi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'limi standarti kuchga kirib, ta'lim muassasalarida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib boromoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anvaiy ta'limda o'qtuvchi – o'quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, musatqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Yosh avlodning har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma‘naviyatli, barkamol, vatanparvar shaxslar bo‘lib yetishishini ta‘minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining eng asosiy bo‘g‘ini sifatida pedagogik xodimlarning yuqori ilmiy, metodik bilimlarga hamda amaliy ishlash bo‘yicha yuksak mahoratga ega bo‘lishlarini ta‘minlash yuzasidan zarur chora–tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarning dasturida matematik material bilan uzviy bog‘liqlikda turli miqdorlarni ham o‘rganish nazarda tutilgan.

**Kompetensiya** — mavjud bilim, ko‘nikma, malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati.

**Kompetensiya** –fan bo‘yicha egallagan nazariy bilim ko‘nikmalarni , amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olishdir.Kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta'lim–o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta'limdir.Shu sababli, informatika fanidan DTSlarini yangilash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish- informatika faniga oid kompetentlilikni kiritish zaruriyati tug`ilgan.

**Kompetentlilik** – *(lotincha: competens – layoqatli, qobiliyati bor)* Ko‘zlangan natijalarga erishish uchun bilim,ko‘nikma va malakalarni notanish vaziyatda qo‘llay olish qobiliyatini

namoyish eta olishni bildiradi.Kompetentlilik tarkibiga sof kasbiy bilim, koʻnikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi. Ta'limiy kompetensiyalar ikki guruhdan iborat: **tayanch** (umumiy) va **maxsus** (fanga oid). Inson oʻz hayotida shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda oʻz oʻrnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi oʻz sohasi, kasbi boʻyicha raqobatbardosh boʻlishi uchun zarur boʻlgan tayanch kompetensiyalarga ega boʻlishi lozim. Lekin shu bilan birga, ta'limda har bir oʻquv fanini oʻzlashtirish jarayonida oʻquvchilarda, shu fanning oʻziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli fanga oid kompetensiyalar ham shakllantirilishi belgilandi. Informatika va axborot texnologiyalari fanining mazmunidan kelib chiqqan holda oʻquvchilarda tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarning elementlari (A1**(A1+);** A2**(A2+)**); B1(+B1) bosqichma - bosqich shakllantiriladi.

**I. TK-tayanchkompetensiya**

1. TK1-kommunikativ kompetensiya
2. TK2-axborot bilanishlashkompetensiyasi
3. TK3-oʻzini-oʻzi rivojlantirishkompetensiyasi
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
5. TK5-milliy va umummadaniy kompetensiya
6. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Boshlang'ich sinflarda miqdorlar tushunchasini o'rgatishda aynan yuqoridagi kompetensiyalarning ahamiyatini hisobga olish o'rinlidir,

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jumayev M.E. Bolalarda matematika tushunchalarni shakllantirish nazariyasi. -T.: Ilm-Ziyo, 2005.
2. F.Anapiyayev "Kompetensiyaviy yondashuv: muammo va yechimlar". Ilmiy maqola 2017
3. www.ziyonet.uz
4. www.pedagog.uz

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQIY SAVODXONLIGINI O‘STIRISHNING AHAMIYATI

**Sheraliyeva Ra’no Onarboyevna**
Norin tumani 20-maktab
boshlang’ich ta’lim fani o’qituvchisi
barno.sheraliyeva@mail.ru

**ANNOTATSIYA**: Ushbu maqolada ta’lim sifatini oshirish va davr talabi bo’lgan muammolardan biri boshlang’ich sinf o’quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirishning ahamiyati to’g’risida fikrlar keltirilgan

**KALIT SO’ZLAR:** savodxonlik, nutq, ta’lim sifati, aqliy hujum, debat, munozara, kichik guruhlarda ishlash, o’z o’rningni top.

Bugungi zamon talabi o‘z fikrini ravon va lo‘nda, go‘zal va ifodali bayon qiluvchi nutqiy savodxonligi yuqori bo‘lgan o‘quvchini shakllantirishdan iboratdir. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi berilayotgan ta’lim sifatining samaradorligining yuqori bo‘lishini ta’minlaydi, binobarin, erkin fikrlash barkamol shaxs sifatining bir ko‘rinishi hisoblanadi. Bu borada o‘quvchilarning nutqi ravon hamda tiniq fikrga ega bo‘lishlarida ona tili fanining o‘rni beqiyos. Endilikda bu masalaning yechimi sifatida darslarda o‘quvchining passiv tinglovchi bo‘lib qolmay bevosita dars jarayonida faol ishtiroki ta’minlanishi, o‘qituvchi esa ma’ruzachi emas, dars jarayoni va o‘quvchilar faoliyatini boshqaruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga alohida e’tibor qaratilmog‘i kerak.O‘quvchilar nutqining ravonligini ta’minlashda ona tili darslarida grammatika uchun emas, grammatika amaliyot uchun tamoyiliga asoslanyapti. Dars jarayonlarini olib borishda har bir pedagog o‘quvchilar faolligini ta’minlashda va ularning nutqini erkin bayon qila olishlari uchun turli grammatik o‘yinlar, muhokamali topshiriqlar, testlar, rasmli topshiriqlar, rebuslar va shu kabilardan samarali foydanmog‘i lozim. O‘quvchilarni yanada darsga qiziqishini oshirish, ularning nutq boyligini o‘stirishda imkon darajasida videodarslar, audiodars hamda kompyuter texnikasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Yangi pedagogik texnologiya bo‘yicha o‘qituvchi ta’limni tashkil etadi, nazorat qiladi. Bu borada buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning quyidagi so‘zlari fikrimizning dalili bo‘la oladi: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p za monlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan muqaddas bir vazifadur”.Bizning ta’lim tizimimizda ham yetakchilik qilayotgan chet el didaktikasining interfaol metodlari - Aqliy hujum, Munozara, Debat, O‘z o‘rningni top, Kichik guruhlarda ishlash, Tanqidiy fikrlash kabilarda bilish bilan birgalikda mustaqil o‘z fikrini bayon qila olish ko‘nikmalariga ahamiyat beriladi.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim jarayonida texnika taraqqiyoti mahsuli bo‘lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi -kompyuter xizmatidan foydalanish elektron darslik va qo‘llanmalardan, internet materiallaridan hamda masofadan o‘qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr taqozosi bo‘lib qolmoqda. Masofaviy o‘qitish-davr ehtiyojidir Bu tizimni rivojlantirishning asosiy yo‘llaridan biri, eng yangi dasturiy-texnik vositalarni ta’lim jarayoniga jalb qilishdir. Bunday tizimlar o‘z tarkibiga kerakli iqtisodiy-nazariy materiallarni, uy vazifalarini, testlarni va yakuniy imtihonlarni qamrab oladi.Maktab ona tili ta’limining bosh maqsadlaridan biri o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirib borishdir.

“Rasmlar so‘zlaganda” video lug‘at-diktanti. O‘qituvchi slaydga yozilishi va aytilishi qiyin bo‘lgan narsa-buyumlarning rasmlarini joylaydi va ijtimoiy tarmoq orqali o‘quvchilarning telegramdagi guruhiga jo‘natadi. O‘quvchilar ularning nomlarini to‘g‘ri yozishga harakat qiladilar. Rasmlarga qarab o‘quvchilar barcha so‘zlarni yozib bo‘lgach, o‘qituvchi so‘zlar yozilgan lug‘atni jo‘natadi va o‘quvchilar o‘zlari yozgan so‘zl arni tekshirib oladilar hamda zarur holda xatolarini tekshiradilar. Bu usulni barcha so‘z turkumlariga moslashtirgan holda o‘tkazish mumkin. “So‘zsiz suratni izohlash” metodi. O‘quvchilarga faqatgina rasmlargina mavjud bo‘lgan izohlarsiz suratlar jo‘natiladi. Ular har bir rasmlarni kuzatib, gap tuzadilar va yozadilar. Tuzgan matnlarida xalq maqollari, hikmatli so‘zlar va she’riy parchalardan foydanishlari mumkinligi ta’kidlanadi. Bu orqali ularning tasavvurlari kengayadi, ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Ona tili va o‘qish fanlaridan olgan nazariy bilimlarini amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko‘nikmalari hosil bo‘ladi. “Yosh dasturchi” metodi. Bu usulda uyga berilgan topshiriqlar bo‘yicha o‘quvchilar o‘zlari mustaqil holda slayd yoki videolavha tayyorlashi kerak bo‘ladi. Bu metodni qo‘llashdan

maqsad, oʻtilgan mavzularni puxta oʻzlashtirishga erishish, oʻquvchilarning mustaqil ijodkorlik qobiliyatini namoyon qilish, boʻsh vaqtlarini mazmunli oʻtkazish, kompyuter va internetdan maqsadli foydalanishga oʻrgatish va mantiqiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishdan iborat.

“Raqamlar soʻzlaganda” metodi. Bu usuldan son soʻz turkumi mavzusi oʻtilayotganda yoki soʻz turkumlari yuzasidan mustahkamlash mavzularida foydalanish mumkin. Bunda oʻzbek xalq maqollarini raqamlar orqali ifodalash lozim boʻladi. Bu usul oʻquvchilarni topqirlik va zukkoliklari hamda ogʻzaki nutqini rivojlantirish va tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi. Masalan, Yetti oʻlchab bir kes, Yigit kishiga qirq hunar oz, Bir bolaga yetti mahalla ota-ona, Bir kun burun eksang, hafta burun oʻrasan, Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi kabi maqollarni raqamlar va shakllardan foydalangan holda slayd koʻrinishida oʻquvchilarga joʻnatadi, eng tez va toʻgʻri topgan oʻquvchi ragʻbatlantiriladi. Abu Rayhon Beruniy oʻz asarlarida taʼkidlashicha, ilm izchil, koʻrgazmali, maqsadga qaratilgan boʻlishi lozim va muayyan tizim boʻyicha olib borilishi kerak. Uning fikricha, koʻrgazmalilik taʼlimni ancha qulay, aniq va qiziqarli qiladi. Kuzatuvchanlik va fikrlashni rivojlantiradi. Darhaqiqat, ushbu fikrlar bugungi kunda ham eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Binobarin, oʻquvchilarga yuqoridagi kabi masofadan taʼlim berish jarayonida qiziqarli, koʻrgazmali, zamonaviy texnik vositalardan foydalanish bilan birga, albatta, ona tilimizning oʻziga xos xususiyatlari, tarixi, boy imkoniyatlarini puxta oʻrgatish bilan birga, ularni Vatanga muhabbat, istiqlol gʻoyalariga sadoqat, oilasi va yaqinlariga oʻzaro hurmat ruhida tarbiyalashga, yoshlikdan bolani mehrli, rostgoʻy, qatʼiyatli inson qilib tarbiyalashga alohida eʼtibor qaratish darkor.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Abdullayeva SH.A. Pedagogika darslik.-T.: Fan va texnologiyalar, 2016.-378 b.
2. Boshlangʻich taʼlim jurnali, T., “Avto-Nashr” MCHJ . 2011. 4-son.- 12 b.
3. Yangiklardan bohabar qiluvchi Lex.uz sayti https://lex.uz/

# INFORMATIKADAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Shukurlayeva Zuxra Ismoilovna**
Xorazm viloyati Gurlan tumani
15-umumiy o'rta ta'lim maktabi
informatika fani o'qituvchisi
+998942333172

**Annotatsiya**: ushbu maqolada informatikadan dars samaradorligini oshirish yo'llari va darsda qo'llaniladigan metodlar tahlil etilgan.
**Kalit so'zlar**: informatika, dars, samaradorlik, innovatsion usul, texnika.

Informatikadan dars samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan innovatsion usullar kerakli bilimlar va yetarli ko`nikma hosil qilishlarida o`quv laboratoriyalar ishini rivojlantirish, ularni yangi, eng zamonaviy qurilmalari bilan ta`minlash, virtual kompyuter texnologiyalarini keng qo`llash lozim. Virtual stendlar tajriba qurilmalari va o`quv laboratoriyalarining imkoniyatlarini oshiradi. Bu stendlarning an`anaviylaridan asosiy farqi sifatida quyidagilarni ko`rsatish mumkin: jarayonlarni tubdan kuzatish imkoniyati-bunda jarayonlarni real sharoitda kuzatishlarga ega bo`lish; o`qitishning ommaviyligi-masofaviy o`qitish texnologiyalaridan keng va samarala foydalanish; ta`lim muassasalarini tadqiqot-tajriba qurilmalari bilan jihozlashda talab etiladigan moliyaviy xarajatlarning kamligi. Ta`lim muassasalarida axborot texnologiyalari va masofaviy o`qitish markazlarini tashkil etish, malakali dasturchilar, dizaynerlar va tajribali pedagoglardan ishchi guruhlar tuzish, virtual laboratoriyalarning turi va tizimini belgilash, xorijiy va rivojlangan ta`lim muassasalaridan kerakli vositalar va dasturiy ta`minotlarni olish – virtual stendlarni keng tatbiq etishning asosiy omilidir.

Informatikadan dars maradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish o`qituvchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion metodlar orqali tushunchalarni shakllantirish muhim ilmiy, pedagogik muammo hisoblanadi. Buning uchun, yangi o`qitish metodlari, jumladan innovatsion metodlardan foydalanish zarur. Pedagogikada o`qitish metodlarini tasniflashga yagona yondashuv mavjud emas. O`qitish metodlarini bilish manbalari bo`yicha tasniflash ancha oddiy bo`lib, ular amaliyotda keng tarqalgan. Bu belgi bo`yicha metodlar qo`yidagi uch guruhga bo`linadi: og`zaki, ko`rsatmali va amaliy metodlar. Bu metodlar o`zaro bog`liq bo`lganligi sababli ularni doim ham aniq chegaralab bo`lmaydi. Informatikan dars samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish faoliyatining xarakteri tavsiya etilgan metodning samaradorligini belgilaydi. Pedagogning roli o`qituvchilarning o`qishiga mohirona rahbarlik qilishdan iborat bo`ladi. Informatikadan dars samaradorligini oshirishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish o`qituvchilarga axborot uzatishning eng samarali usul va vositalari hisoblangan virtual ma`ruza, tajriba stendlarini yaratish hamda ulardan dars mashg`ulotlarida foydalanishni ta`minlash lozim. Bu yangi bilimlarga ega bo`lish va turli xil masalalarni hal etishga imkon beradi. Shu bilan birga bakalavr o`qituvchilarning tayyorgarlik darajasini baholaydi, o`quv maqsadiga ko`ra muammolarni tanlaydi, uni hal etishda axborot va dasturiy jihatdan qo`llab-quvvatlashni amalga oshiradi, ularning javobini qabul qiladi, tahlil etadi, baholaydi.

Innovatsion ta`lim texnologiyalarining bu tamoyilida o`qituvchilar bilish faoliyatini boshqaruvchi qurilmalar ketma-ketligi yaratiladi. Pedagog mavzuni o`zlashtirishga oid dastlabki yo`llanmalar yaratadi va zarur bo`lgan murakkab holatlarda ularga individual tartibda yordam ko`rsatib, metodistmutaxassis bilan hamkorlikda mavzuni kompyuter yordamida o`zlashtirish dasturini tuzadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari o`qituvchilarga axborotning noan`anaviy manbalariga kirib borishning cheksiz imkoniyatlarini ochib beradi, mustaqil ishlashning samaradorligini oshiradi, ijod qilish, yaratish va turli kasb malakalarini mustahkamlash uchun mutlaqo yangi imkonoyatlar beradi, voqealar hamda jarayonlarning kontseptual va matematik modellarini tuzish vositalarini qo`llagan holda o`qitishning yangi shakllari va usullarini amalga oshirish imkonini beradi.

**Adabiyotlar:**

1. Isamitdinov S. Ta`lim va innovatsion usullar. Uslubiy tavsiyanoma va Toshkent: RTM, 2005.

# BOSHLANG'ICH SINFGA QABIL – MUHIM IJTIMOIY- FIZOLOGOGIK, RUHIY TAYYORGARLIK MASALALARI

**To'liyeva Gulruh**
Ravshanova Lobar
Navoiy viloyati Karmana tumani
12-umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Uzluksiz ta'limning boshlang'ich bosq'ichida o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Bugungi ta'lim va tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq har tomonlama yetuk, ijodkor o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalashda ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish hamda bola rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. O'quvchilarni shaxs sifatida shakllanishida, barcha bilish jarayonlari va psixologik xususiyatlari rivojlanib tarkib topayotgan davri boshlang'ich sinf hisoblanadi.Shuning uchun boshlang'ich sinfda bolaning ham jismoniy, ham aqliy ham ruhiy, xususiyatlarini rivojlanishiga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Buning uchun esa bolani maktabga qabul q'ilishda umumyetuklik darajasini tashxis qilish hamda ularni o'qishga moslashtirish ishlarini to'g'ri yo'lga q'o'yish kerak.

Kuzatishlardan ma'lumki, ko'p bolalar ota-onasining xohishi va bu jarayonga tegishli kishilarning mas'uliyatsizligi tufayli hali o'qishga tayyor bo'lmay turib, maktab ostonasiga qadam qo'yishadi. Afsuski, o'qish davomida aqliy-ruhiy zo'riqish olish oqibatida turli kasalliklarga chalinib, jismoniy va psixik rivojlanishida nuqsonlar paydo bo'ladi. Bunday bolalarda eng avvalo miya strukturasining va nerv-psixik jarayonlarining maktabda o'qish uchun to'liq etilmaganligi, ko'ruv-harakat koordinatsiyasi va kichik motorikaning rivojlanmaganligi, mantiqli fikr mahsuldorligining pastligi kuzatiladi. Undan tashqari motivatsiya, irodaviy jihatlarining shakllanmaganligi, ayniqsa ixtiyoriy diqqat va xotira, hatti-harakatni ixtiyoriy boshqariluvidagi muammolar maktabda o'qishga tayyor bo'lmagan bolalarning muvaffaqiyatli o'zlashtirib ketishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

L.A.Vengerning fikricha maktabgacha ta'lim yoshidagi bolada maktabda o'qishga xos xususiyatlar hali shakllanishi mumkin emas, chunki bu xususiyatlar faqat o'q'ish jarayonida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, maktabga psixologik tayyorlik bolada o'qish ko'nikma va malakalarining shakllanganligi bilan emas, balki o'qiy olishga tayyorlik imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Bolani maktabda o'qishga tayyorlash kerak, lekin bolaning bilish jarayonlarining rivojlanishiga kichik yoshidanoq o'qishni, sanashni, yozishni o'rgatish bilangina erishib bo'lmaydi. Agar biz bolaga u o'qishga aqliy, ma'naviy-ruhiy jihatdan tayyor bo'lmay turib harf va raqamlarni yozish, o'qishni o'rgatsak, bolaning psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lamiz. Chunki, neyrofiziologik jihatdan ixtiyoriy diqqat va o'qish uchun zarur bo'lgan ko'plab miyada kechadigan jarayonlar asosan 7-8 yoshda (aqliy yoshi o'zib ketgan bolalarda 6 yoshda ham) shakllanadi. Ya'ni, shu yoshda miya 45 minutlik aqliy mehnatga tayyor bo'ladi.

Ko'pgina tadq'iq'otchilarning (E.G'oziev, L.D.Stolyarenko, M.Rasulova va b.) ta'kidlashlaricha, olti yoshli bolaning muhim xususiyatlaridan biri unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyati bilan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga, tevarak-atrofdagi voqealikni o'zlashtirishga emas, ko'proq «o'quvchi bo'lish» istagini aks ettiradi. Shu ehtiyojlar zamirida o'z sumkasiga, dars tayyorlash burchagiga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish istagi, kattalardek har kuni maktabga qatnash tuyg'usi yotadi, xolos. Umuman olganda, bu yoshda bola hali o'qishning tub mohiyati va vazifasini to'liq anglamaydi. Maktabga borgandan so'ng uning o'quvchilik safiga qabul qilinishi, kattalarning unga samimiy tilaklari, sinfdoshlari bilan saf tortib yurishlar, tanaffus vaqtidagi o'yinlar «rom» etadi. Ko'p vaqt o'tmay bular asta-sekin uning uchun o'z ahamiyatini yo'q'ota boshlaydi. Bola endi o'qishni aqliy mehnat ekanligini, diqqatini, irodasini ishga solishi kerakligini, ayrim hollarda yoq tirmagan ishi bilan ham shug'ullanishi kerakligini, bundan tashqari, o'z xulqini idora etishi, hatti-harakati uchun javob berishi lozimligini anglay boshlaydi. Shu holatda aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmagan bolaning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi paydo bo'ladi, natijada bola maktabda o'q'uv faoliyatiga to'liq' moslasha olmay q'oladi. Sog'lom bo'lmagan bolaga

o‘quv yuklamalari ko‘plik qilib, uning aqliy yoki jismoniy zo‘riqishiga sabab bo‘ladi. Bunday zo‘riqishlar oqibatida bolalar turli kasalliklarga chalinib, jismoniy va psixik rivojlanishida nuqsonlar paydo bo‘ladi.

Xuddi shunday, hududiy tashxis Markazlari mutaxassislari, tibbiy xodimlar, maktablarda tashkil etilgan psixologik-pedagogik tashxis komissiyalari a’zolari, o‘qituvchilar va maktab ma’muriyati ham maktabga jismonan, aqlan, ma’nan va psixologik jihatdan mutloq, har tomonlama tayyor bo‘lgan bolalarni tanlab jalb etish hamda ularni o‘quv faoliyatiga moslashtirish ishlariga yanada mas’uliyatliroq yondashishlari lozim. Zero, bolaning maktabda muvaffaqiyat bilan o‘qib ketishi kattalarning xohish-istagi bilan emas, balki uning o‘zining o‘qishga tayyorgarlik darajasi, imkoniyat va qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olib berilgan topshiriqlar, qo‘yilgan talablarning normada bo‘lishi, pedagogik psixologik jarayonlarning to‘g‘ri tashkil etilishi ularning aqliy faoliyatini to‘g‘ri ishlata olishga, ruhiy holatlarini o‘ziga xos boshqara olishga o‘rgatadi, bu esa o‘quvchini uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘zining ichki imkoniyat va qobiliyatlarini ko‘rsata olish va muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish yo‘llarini ochib komillikka etaklaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Usanov A., Eshniyozov O., Xusanov M. Oilada o‘quvchilar iqtisodiy tafakkurini ustirishning xususiyatlari /Ta’lim va texnologiya (Ilmiy uslubiy maqolalar to’plami 1-qism) –Toshkent, 2013. -B. 20-23.

2. K.Obloberdiyeva, G.Egamnazarova, D.Dehqonova. Yoshlarni tarbiyalashda sog’lom turmush tarzining ahamiyati //Ta’lim va texnologiya (Ilmiy uslubiy maqolalar to’plami 2-qism) –Toshkent, 2013. -B.18-20.

3. A.Usanov, O.Eshniyozov, M.Xusanov. Oilada o‘quvchilar iqtisodiy tafakkurini o’stirishning xususiyatlari //Ta’lim va texnologiya (Ilmiy uslubiy maqolalar to’plami 2-qism) –Toshkent, 2013. -B.20-23.

# INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA MAKTAB VA OTM O'RTASIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR (MASOFAVIY TA'LIM) YORDAMIDA OSHIRISH

**To'liyev Sobirjon Mavlonberganovich**
Xorazm viloyati Gurlan tumani 32-umumiy o'rta ta'lim maktabi "Informatika" fani o'qituvchisi
**Saparniyazov Azamat Xasanovich**
Xorazm viloyati Gurlan tumani 19-umumiy o'rta ta'lim maktabi "Informatika" fani o'qituvchisi
**Xaytmetov Umidjon Soatboyevich**
Xorazm viloyati Gurlan tumani 20-umumiy o'rta ta'lim maktabi "Informatika" fani o'qituvchisi

**Annotatsiya**: Zamonaviy ta'limning mohiyatini ochib berish, pedagoglar faoliyatini keng qamrovli yoritish. O'quvchilarning kelgusida oliy o'quv yurti (TATU Urganch filiali misolida) shart sharoitlari bilan yaqindan tanishtirib borish va darsga ijodiy yondoshishlari uchun noananaviy masofaviy dars berish usullarini qo'llash.

**Kalit so'zlar:** Masofaviy ta'lim, Innovatsiya, Texnologiya, ta'lim samaradorligi, OTM muhiti, Maktab va OTM.

**Masofaviy ta'lim**

Masofaviy ta'limda (MT) turli ta'lim modellari qo'llaniladi, biroq ularning barchasiga xos bir xususiyat mavjud, bu ham bo'lsa, unda barcha o'quvchi va o'qituvchilar masofa jihatidan ajratilishidir.

Barcha ta'lim turlari kabi MTning ham har xil modellari mavjud. Bu ta'lim jarayonining quyidagi asosiy tarkibiy qismlari: fan mazmunining bayoni; o'qituvchilar bilan o'zaro bevosita va bilvosita muloqot; amaliy topshiriqlarning bajarilishi; talaba yoki o'quvchi bilimini nazorat qilish va baholashdan iborat bo'ladi.

**Masofaviy usulda ta'lim berishning modeli**

Hozirgi davrda dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ta'lim muassasalarida masofaviy usulda ta'lim berishning ana shu oltita modeli qo'llanib kelinmoqda:

1.Bir nechta oliy ta'lim muassasalarining hamkorligiga asoslangan MT modeli. Bir necha ta'lim muassasasi hamkorligida yaratilgan elektron kitoblar va qo'llanmalar birinchidan, ilmiy jihatdan mukammal va sifatliroq bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularga iqtisodiy jihatdan bir muncha kam xarajat qilinadi. Bunday shakldagi MTni

Yevropa qit'asidagi ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar, Buyuk Britaniya hamkorligida «Ta'limda hamkorlik» (Commonweailth of Education – 1997-yil) dasturi bo'yicha ishlab chiqildi. Buning natijasida, Yevropadagi inglizcha so'zlashuvchi mamlakatlar fuqarolari o'z uylarida turib, maxsus tashkil etilgan MT telekommunikatsiya tizimi orqali shu mamlakatlarning universitet va kollejlarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Yurtimizda 2018-2019 o'quv yilidan ko'plab oliy o'quv yurtlarida masofaviy ta'lim joriy qilinganligini hisobga olgan holda men ham maktab va OTM hamkorligi (masofaviy ta'lim berish) bo'yicha loyihani ilgari surish lozim. Masalan TATU Urganch filialidagi "Kompyuter ingenering" , "Informatika va AT" ta'lim yo'nalishlarida eng so'ngi "Obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillari"dan Delphi dasturlash tili fan sifatida o'tiladi, maktabda esa 10-sinf "Informatika va Axborot Texnologiyalari" fani darsligining III-BOB faqat (Delphi) dasturlash tili haqida ma'lumot berilgan. Imkon (shart sharoit yaratib va ta'lim tizimlarida kelishuviga erishiladigan) bo'lsa 10-sinflar uchun maktabda 3 va 4-choraklarda TATU Urganch Filiali malakali o'qituvchi(ustoz)laridan oyiga yoki yiliga 1 yoki 2 marta masofaviy darslar tashkil etilsa maqsadga muofiq bo'ladi

Ta'limning an'anaviy turi va MT ning turli modellarini kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini belgilash maqsadida 20 ta ekspertni jalb qilgan holda anketa so'rovnomasi o'tkazildi. Ekspertlardan to'rtta mezon, ya'ni ta'lim modellarining istiqbolda tutadigan o'rni bo'yicha tartiblash so'raldi. Eng keng tarqaladigan ta'lim turiga 1-rang va ta'lim turi ko'lamining kamayishiga qarab uning rangi ham 4 gacha pasayib boradi. So'rovnoma natijalaridan (1-jadval) ko'rinib turibdiki, masofaviy o'qitishning mustaqil ta'lim olish modelini kelgusida eng keng ko'lamda tarqalishini

bashorat qilib 20 ta ekspertdan 14 tasi ovoz berganlar. Masofaviy o'qitishning ochiq ta'lim va sinf modellariga asoslangan kombinatsiyalashgan modeli esa 3-rangga (ekspertlarning 9ta ovozi) ega bo'ldi. 2-rang – ta'limning an'anaviy modeliga (ekspertlarning 10 ta ovozi), 4-rang – masofaviy o'qitishning taqsimlangan sinf modeliga (ekspertlarning 17 ta ovozi) berildi.

***(1-jadval)***

| Ekspertlar tartib raqami | 1-Ta'limning an'anaviy modeli | 2-Taqsimlangan auditoriya modeli | 3-Mustaqil ta'lim olish modeli | 4-Ochiq ta'lim va sinf modeliga asoslangan modeli |
|---|---|---|---|---|
| (i) | 1-mezon | 2-mezon | 3-mezon | 4-mezon |
| 1 | 2 | 4 | 1 | 3 |
| 2 | 3 | 4 | 2 | 1 |
| 3 | 2 | 4 | 1 | 3 |
| 4 | 2 | 4 | 1 | 3 |
| 5 | 2 | 4 | 3 | 1 |
| 6 | 3 | 4 | 1 | 2 |
| 7 | 4 | 3 | 1 | 2 |
| 8 | 3 | 4 | 2 | 1 |
| 9 | 1 | 4 | 1 | 3 |
| 10 | 3 | 4 | 2 | 1 |
| 11 | 3 | 4 | 1 | 2 |
| 12 | 1 | 4 | 2 | 3 |
| 13 | 2 | 4 | 1 | 3 |
| 14 | 2 | 4 | 1 | 3 |
| 15 | 3 | 4 | 2 | 1 |
| 16 | 2 | 4 | 1 | 3 |
| 17 | 2 | 3 | 1 | 4 |
| 18 | 3 | 4 | 1 | 2 |
| 19 | 2 | 4 | 1 | 3 |
| 20 | 2 | 3 | 1 | 4 |
| Jami | 47 | 77 | 27 | 48 |

**Masofaviy ta'lim jarayoni**

- Qo'llanma (umumiy kurs);
- Audio va video malumotlar;
- Elektron va multimedia qo'llanmalari;
- Elektron plakatlar;
- On-layn kurslari.



**MT jarayonini**



- İnternetning WWW , Elektron pochta va boshqa xizmatlari orqali;
- Video konferentsiyalar ko'rinishida;
- Maxsus kabel studiyalari orqali, tashkil etish mumkin.

Bunda ***İnternet orqali*** ixtiyoriy foydalanuvchi, boshqa mamlakatlardagi Virtual Universitetlar talabasi bo'lib ta'lim olishi, ushbu Universitetlarning diplomiga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek İnternet orqali ixtiyoriy turdagi, ixtiyoriy hajmdagi malumotlar olishi, o'rganishi, murojaat qilishi mumkin.

***Video konferentsiyalar*** ham kompyuter, telefon aloqasi orqali amalga oshiriladi. Bunda bir shahardagi talaba boshqa bir shahardagi o'qituvchi yoki talaba bilan jonli muloqat qilishi mumkin. Albatta buning uchun maxsus video va multimedia qurilmalari bilan birga, ularning kompyuterda maxsus programma taminoti ham zarur bo'ladi

***Maxsus kabel studiyalari orqali*** talim olish jarayoni, xuddi kabel televideniyasi kabi tashkil etilgan bwladi. O'qituvchi biror joyda turib televizor orqali boshqa joydagi talabaga bilim berishi, o'rgatishi mumkin.

**Malakali ustozlar tomonidan tashkil qilingan masofaviy dars jarayoni.**



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati*:***

1. Masofaviy ta'lim texnologiyalari fan dasturi, Toshkent 2012,
2. www.google.com,
3. uz.wikipedia.org

# O‘QUVCHILARNI O‘ZBEK TILIGA QIZIQISHINI OSHIRUVCHI USULLARNING AHAMIYATI

**To‘rateva Mashhura Ravshanovna**
Navoiy viloyati, Zarafshon shahar
10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
o‘zbek tili o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tili darsida o‘quvchilarni fanga qiziqtirishning ahamiyati yoritilgan.
**Kalit so‘zlar:** Pinbord, klaster, nutq, Brifing, taqdimot, interfaol, texnologiya.

Har qaysi xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o‘zligining madaniy-ma’rifiy olami, milliy g‘oyasining asosi hisoblanadi. Hozirgi tez o‘zgarayotgan globallashuv davrida o‘zbek tilining o‘ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog‘lik masalalarni chuqur o‘rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish, ta’lim-tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlarida o‘zbek tili fanini o‘qitishning hamda ushbu soha bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish davr talabidir. Bugungi kunda o‘zbek tilimiz rivoji, uning o‘qitilishi bilan bog‘liq vazifalar quyidagilardan iborat:

-Davlat (o‘zbek) tili fani, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash;

-ilmiy, badiiy va boshqa sohalardagi adabiyotlarni o‘zbek tilidan ingliz va boshqa xorijiy tillarga, shuningdek, jahon tillaridan o‘zbek tilimizga yuksak sifat va mahorat bilan tarjima qiladigan tarjimonlar tayyorlash;

- o‘quvchi yoshlarni, o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda, Vatanga muhabbat va sadoqat, umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan va mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashni tadbiq etish lozim.

O‘zbek tili darslarida “Ketma-ket”, “Reklama”, “Tanla va javob ber”, “G‘oyalar hujumi”, “Detektiv”, “Topqirlar”, “Sharqona odob”, “Oltin toj”, “Begonani top”, “Pinvord”, “Sharada-she’riy jumboq”, “Navbatchi harf”, “To‘xtab o‘qish” va boshqa usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalari, elektron darslik, elektron qo‘llanma va multimedia ilovalaridan foydalanish metodikasi ham samara beradi. Internet tarmog‘idan davlat (o‘zbek) tili faniga oid ta’lim saytlari, portallari va o‘quv resurslaridan foydalanish, elektron darslikning qulayliklaridan foydalanish, kompyuter amaliy dasturlari yordamida dars taqdimotlari va ko‘rgazmali o‘quv resurslarini yaratish, elektron qo‘llanmalardan foydalanish, O‘quv jarayonini zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalari, uskunalari (interfaol displey, doska, proyektor va boshqalar) hamda vositalari yordamida samarali tashkil etish, zamonaviy AKT yordamida dars o‘tishning yangicha shakllari, vositalari va metod, usullardan foydalanish maqsadida quyidagi usullarni qo‘llash mumkin:

**“Klaster” usuli.** Bu usul hammamizga tanish va eng ko‘p qo‘llaydigan usullardan biri bo‘lib hisoblanadi.



**“Pinbord” usuli.** (inglizchadan “pin” mustahkamlash, “boord”- taxta)

**O‘tkazish tartibi.** Doskaga jadval osiladi. O‘qituvchi stoli ustiga so‘zlar yozilgan qog‘ozchalar teskari holatda qo‘yilgan bo‘ladi. Har bir guruhdan bittadan tinglovchi chiqib shu qog‘ozchalardan birini tanlaydi. Tanlagan so‘zi mos kelsa, jadvaldagi yozuvga mos kelgan katakka yopishtirib qo‘yiladi va shu so‘zni o‘qib ma’nosini izohlab beradi.

**Afzalliklari:** O‘quvchilarni mustaqil, mantiqiy, tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi. O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning bilim orttirish harakatlarini rag‘batlantiradi.

**Qiyinchiliklari:** O‘quv mavzusi b‘'yicha mazkur mashqdan foydalanishda kuchsiz o‘quvchilarga yordam kerak bo‘lishi mumkin.

So‘zlar quyidagicha bo‘lishi mumkin: divan, stol, stul, kompyuter, orom kursi va hokazo.

**“Brifing”-** (ing. briefing-qisqa) biror-bir masala yoki savolning muhokamasiga bag‘ishlangan qisqa press-konferentsiya.

**Taqdimot qismi.** Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, amaliy o‘yinlarning bir shakli sifatida o‘quvchilar bilan birga dolzarb mavzu yoki muammo muhokamasiga bag‘ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo‘ladi. O‘quvchilar tomonidan yaratilgan mobil ilovalarning taqdimotini o‘tkazishda ham foydalanish mumkin.




**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Ta’lim taraqqiyoti”jurnali.T,-“Sharq”,1999-y, 250-bet.
2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: Nihol, 2013, 2016-y.
3. Internet saytlari.

# O‘ZBEK TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRUVCHI USUL VA O‘YINLAR

**Turtikova Lola Shokir qizi**
Zarafshon shahar
10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
o‘zbek tili o‘qituvchisi
94-693-93-97

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stiruvchi usul va o‘yinlar haqida yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** Yarimta harf, kompetensiya, texnologiya, sayohat, ummon

Barchamizga ma’lumki, keyingi yillarda islohotlarning natijasi tufayli ta’lim–tarbiya sohasida ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, milliyligimiz tiklanib, moddiy va ma’naviy qadriyatlarimizning yangi sahifalari ochildi. Shuningdek, mustaqillikdan keyingi qisqa davr ichida yoshlar uchun mukammal sharoitlar yaratildiki, bunga yurtimizda qad ko‘tarayotgan zamonaviy maktablar, sport majmualari, kollejlar hamda ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanishini misol qilib keltirish mumkin. Shu bilan birga o‘tmish madaniy merosimizni o‘rganish jamiyat va fan taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan dolzarb masalalardan biri ekanligini anglagan hukumatimiz va xalqimiz milliy qadriyatlarning zamonlar sinovidan o‘tgan, insoniyat uchun foydali tomonlarini tiklashga kirishdi. Shulardan ajdodlarimiz qoldirgan madaniy meros va o‘zbek xalq pedagogikasida barcha davrlar uchun kerak bo'ladigan ajoyib, ilg‘or fikrlar borki,

bu fikrlar bugungi taraqqiyotimiz uchun qimmatli qadriyat ekanligi hech birimizga sir emas. Ayniqsa, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Ulug‘bek, Ali Qushchi, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat kabilarning millatimiz, yurtimiz taraqqiyotiga qo‘shgan xizmatlari katta ekanligini ta’kidlab o‘tmoq joiz. O‘quvchilarni ma’naviy, milliy qadriyatlari va ularning afzalliklarini o‘rganib chiqish davr talab etadigan asosiy masalalardan biriga aylandi. Rivojlanish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatimiz taraqqiyoti yo‘lida xizmat qilish uchun albatta mustahkam e’tiqodga ega bo‘lgan, milliy qadriyatlarimizni qadriga yeta oladigan, milliy g‘urur va iftixorga ega bo‘lgan, vatanga sadoqatli yoshlarni tarbiyalash bugun zaruratga aylandi hamda davlatimiz diqqat markazida turgan masalalardandir. Xususan, bu masala pedagoglar zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi.




DTS talablariga ko‘ra nutqiy kompetensiya tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish, ya’ni, muloqot malakasini oshirish lozim. Bunda bizga interfaol usul va o‘yinlardan unumli foydalanish yordam beradi. Quyida bir qancha usul va o‘yinlarni tavsiya etmoqchiman.

**“Savol berish orqali o‘qitish” usuli.** O‘qituvchi o‘quvchilar oldiga savollarni ko‘ndalang qilib qo‘yadi va bu bilan ularni berilgan ma’lumotni yana takrorlashga undaydi. Shu tariqa ularni o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan og‘zaki va boshqa aloqa uslublarini tushunib yetganliklari aniqlanadi.

“**Muhokama" usuli.** O‘quvchilarga suhbatlashish, masalalarga oydinlik kiritish, savollar berish, shuningdek ma’lumotni o‘zaro va o‘qituvchi bilan muhokama yo‘li bilan tahlil qilish taklifi

kiritiladi.

**“Sayohat”usuli.** Bunda o‘quvchilar bilan turli orollar, ummon, ertaklar olamiga sayohatlar uyushtirilib, dars bosqichlari ketma-ketlikda tushuntirilib boriladi.

Masalan: o‘quvchilarga 5-sinfda kelishiklar mavzusini tushuntirishda ushbu usuldan foydalanish samara beradi.




**“Yarimta harf” o‘yini.** Bir o‘quvchi doskaga biror harfning boshlanish qismini yozib qo‘yadi, harfning qolgan yarim qismi aytilmaydi ham, yozilmaydi ham. Ikkinchi o‘quvchi shu harfning nomini aytib, yozuvni oxiriga yetkazishi kerak. O‘rganilgan bir nechta harflarni ham shu taxlit yozish mumkin. Shu o‘rinda yozish usuli chiziqlar bilan ko`rsatilishi mumkin. Bu qo‘l harakatining to‘g‘ri yo‘nalishini ta’minlaydi

**“To‘g‘risini topib yoz” o‘yini.** Bitta harf doskaga 3 – 4 xilda yozib qo‘yiladi Shulardsan biri husnixat qoidalari asosida yoziladi. Diskadagi o‘quvchi to‘g‘ri yozilgan harfni topib, qayta yozib ko‘rsatishi lozim.

**“Harflar adashib qoldi” o‘yini.** Doskaga bosma harflardan iborat so‘z yoziladi. Undagi biror harfning o‘rni almashtirib qo‘yilgan bo‘ladi. Yozuv yoniga shu narsaning rasmini ilib qo‘yish mumkin. O‘quvchiga narsaning nomini bir necha marta talaffuz qilish, bo‘g‘inlab aytish tavsiya qilinadi. Shundan so‘ng doskadagi so‘zning adashib qolgan harflari o‘z o‘rniga qo‘yiladi va so‘z yozma harflarda yozdiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Yo'ldoshev R.A. O'zbek tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini ularni ko'p gapirtirish orqali o'stirish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 212 b.14.

2.Til ta‘limining xalqaro kompetensiyaviy talablarini o‘zbek tiliga joriy etishga doir mulohazalar 10- son. – T., 2015. - 15-16- b.

3. 5-sinf . O’zbek tili darsligi.

# O‘ZBEK TILI DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV USULLARI

**Userova Beksulu Nurlibayevna**
Navoiy viloyati Konimex tumani
13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tili darsida kompetensiyaviy yondashuv usullari yoritilgan.
**Kalit so‘z:** kompetensiya, texnologiya, ta’lim, sindikat, texnika, DTS, yondashuv..

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta’lim maktablarining rus, qozoq va boshqa guruhlarida o‘zbek tili kommunikativ-nutqiy tamoyilda ikkinchi til sifatida o‘qitiladi. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘zbek tili fanidan 2-11-sinflar o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standartining talablari asosida tuzilgan. Biz o‘zbek tili darslarini ana shu DTSga tayangan holda tashkil etamiz va bevosita darslarga kompetensiyaviy yondashamiz. Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Xo‘sh kompetensiya va kompetensiyaviy yondashuv nima?

Kompetentsiya — mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib, bunda o‘quvchilar mavzuni ko‘rish, eshitish va gapirib berish orqali egallaydilar.

Kompetentsiyaviy yondashuv esa, o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

**DTS talabiga ko‘ra, o‘zbek tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi- ikki kompetensiyada mujassamlashdi**

**1.Nutqiy kompetensiya** - tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish ya’ni muloqot malakasini egallash.

**2.Lingvistik kompetensiya**- til materialini (fonetika, leksika, grammatika) va vositalarini nutqda qo‘llay bilish uchun yetarli bilimlarni o‘zlashtirish uchun, bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, o‘qish, gapirish, yozish) egallashni nazarda tutadi.

Bugungi kunda quyidagi usullardan foydalanish o‘z tajribamda samara berdi. Sizlarga shu usullardan bir nechasini tavsiya etmoqchiman.

## «BIRGALIKDA O‘QIYMIZ» BIRGALIKDA O‘QISH TEXNIKASI

**Birgalikda o‘qish:** o‘quv guruhi kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir kichik guruh o‘rganilayotgan mavzuning ma’lum bir sohasida ekspert bo‘ladi va boshqalarni o‘rgatadi. Har bir guruhning maqsadi barcha boshqa guruhlar ishtirokchilari mavzu savollarini to‘la hajmda egallab olishidan iborat.

**«Birgalikda o‘qiymiz» texnikasidan foydalangan** holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi

1. Bilim darajasiga qarab 3-5 kishidan iborat bo`lgan har xil turdagi guruhlar tuziladi.

↓

2. Har bir guruhga bitta topshiriq beriladi –umumiy mavzuning bir qismi, uning ustida butun o‘quv guruhi ish olib boradi hamda tayanchlar – ekspert varaqlari – taqdim etiladi.

↓

3. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.

↓

4. Hamma yakka tartibdagi topshiriqni bajaradi.

↓

-Guruhning yakuniy bahosi ma’ruza uchun umumiy ballni va mustaqil ish uchun individual ballarni o‘z ichiga oladi. Ekspert varag‘i

-Matnni o‘qishda asoslanish zarur bo‘ladigan savollardan iborat varaq. Savollar o‘quv materiali ustidan olib boriladigan mustaqil faoliyatni yo‘naltiradi.

-Odatda ekspert varag‘i 3 ta savoldan iborat. Birinchi ikkita savol javoblari butun o‘quv matni bo‘yicha oz-ozdan yig‘iladi. Uchinchi savol javoblarini tayyorlash birinchi va ikkinchi savol javoblari uchun yig‘ilgan material asosida amalga oshiriladi.

“SINDIKAT” usuli. 11-sinfda O‘ZBEK TILI DARSIDA “Vatanga sadoqat” mavzusida matnda ota-bola dialogi keltirilgan. O‘qituvchi nafaqat darslikdagi matn, balki o‘quvchilarning Vatani oldidagi burchlari yuzasidan ham diolog tashkil etishlari mumkin.

O‘quvchilar uchta kichik guruhlarga bo‘linadi. Bunda taklif etilayotgan topshiriq uch xil nuqtai nazardan hal etilishi zarur. Masalan, **uch vaziyatda “Vatan, vatansizlik, vatandosh** so‘zlariga o‘z fikr-mulohazalaringizni bildiring” topshirig‘i berilgan bo‘lsin, barcha guruh a’zolari o‘zlarining dunyoqarashlari orqali turli vositalardan foydalanib topshiriqni bajaradilar. So‘ngra yechimlar birgalikda muhokama etilib, umumlashtiriladi. O‘qituvchi tomonidan eng yaxshi fikr-mulohazalar e’lon qilinadi va guruhlar faoliyati baholanadi

“Rasmli jumboq” usuli. O‘quvchilarga rasm tasviri ko‘rsatiladi. Rasmda nimalar tasvirlangani so‘raladi. O‘quvchilar fikri eshitiladi. Shu orqali o‘quvchilarning diqqati darsga qaratiladi.



Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili darslarida bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun turli fanlar bilan bog‘lab o‘tish, interfaol usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. X.Teshaboyev. “Interfaol usullari”. T.2009-yil
2. Metodik qo‘llanmalar.
3. Internet saytlari.

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA MANTIQIY VA TANQIDIY FIKRLASHNI O'RGATSH

**Malika Usmanova Muhammaduroyimovna**
Namangan viloyati Uychi tuman
35-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
943004937. malikausmonova@gmail.com.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali o'qituvchilarni boshlang'ich sinflarda mantiqiy masalalar va tanqidiy fikrlashga doir masalalar yechishi va ular orqali o'quvchilarni matematika faniga bo'lgan qiziqishlarini o'stiradi va testlar asosida tushunchalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim-tarbiya, interfaol metodlar, o'quvchilar va o'qituvchilar, mantiqiy masalalar, tanqidiy fikrlash, nazariy bilimlar, amalda sinash, test, natija.

Barchaga ma'lumki zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlami o'quvchilarga yetkazib berish asosida ma'lum faoliyat ko'nikma va malakalami shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilaming o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini mantiqiy masalalar yechish va interfaol metodlar tashkil etmoqda. Bu kabi metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g'oyalami yanada boyitish bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi (pedagog)lar tomonidan interfaol metodlaming o'rinli, maqsadli, samarali qo'llanilishi o'quvchiga muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi. Misol uchun quyidagi mantiqiy masalalar va tanqidiy fikrlash bo'yicha misollar ko'rib chiqamiz.

-Maktabimiz o'quvchilari suhbatda mashhur taqiqotchi: «Yoshlar sarguzashtsevar bo'lishi kerak Bu ularning o'zlari uchun foydali» - dedi.

A) Ba'zi yoshlar boshqalardan jasur bo'lishadi

B) Hayotda hech qachon tavakkal qilmagan inson xavfli vaziyatlarda qanday harakat qilishni bilmaydilar.

C) Kerak bo'lmagan vaziyatlarda ham tavakkal qiladigan odamlar o'zlarini ham o'zgalarni ham xavfga duchor qiladi

D) Sayohat sevar degani har doim ha xavfli tavakkal qilish kerak degani emas

-Samandar va Inoyat bir binoda yashashadi. Samandar Inoyatdan 12 qavat yuqorida yashaydi. Bir kuni Inoyat Samandarni ko'rish uchun yuqoriga chiqdi. Yo'lning yarmiga kelganida 8-qavatda ekani ma'lum bo'ldi. Inoyat nechanchi qavatda yashaydi.

A. 1 B. 4 C. 3 D. 2

-Ulug'bekda 9 ta muzqaymoq bor. Aziz o'zidagi qanchasini bersa, ulardagi muzqaymoqlar soni teng bo'ladi?

A. 8 B.3 C.4 D. 5

-Abdulloh uyidan maktabga yo'lga chiqi. Yarim yo'lda yetganda qarasa 15 daqiqa vaqt sarflabdi. Shu tezlikda davom etsa maktabga borib uyga qaytish uchun jami qancha vaqt sarflagan bo'ladi?

A. 30 daqiqa B.45 daqiqa C.75 daqiqa D. 60 daqiqa

Xulosa qilib aytganda mantiqiy, tanqidiy fikrlash va ular asosida masalalar yechish bugungi

kun o'quvchilarini dunyo qarashini va arimetik amallar ustida mohirona ishlashga olib keladi shuning uchun ham president maktablarining asosiy test topshiriqlaridan biri bu mantiqiy amallar asosida testlar ishlashdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Matematika o'qitish metodikasi. S.Alixonov.cho'lpon nomidagi nashriyoti ijodiy uyi Toshkent- 2011
2. @bazarbaevs. Telegram kanal. olimpiyada materiallari 1-2 sinflarga mo'ljallangan mantiqiy testlar to'plami 15.05. 2020
3. Internet resours.

# BOSHLANG'ICH TA'LIM-BILIMNING ASOSIY POYDEVORI

**Xalilova Dildora Mehriddinovna**
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
4-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim-bilimning asosiy poydevori ekanligi, shu sababli yosh avlodni tarbiyalashda boshlang'ich ta'limga e'tibor muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, poydevor, dolzarb, texnologiya, grammatika, estetika…

Jahon ta'lim tizimida o'quvchi shaxsini san'at asarlari vositasida shakllantirish va rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish, go'zallik va yaxshilikni qadrlashda estetik did va ijodiy faollikni rag'batlantiruvchi pedagogik texnologiyalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, dunyoda boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalashda badiiy ijodning musiqa va tasviriy san'at turlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish, musiqiy pedagogika va psixologiya vositasida ta'lim oluvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy matnlar bilan ishlashga o'rgatish orqali estetik ongi va dunyoqarashini tarkib toptirish , bolalarning estetik sifatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, badiiy ijod namunalari asosida estetik tarbiya jarayonlariga psixologik yondashuvni tatbiq etishning pedagogik tizimini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etadi. Respublikamizda yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar, jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish, go'zallik tuyg'usini, estetik ehtiyoj va didni rivojlantirish maqsadida ta'lim va madaniyat muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida "O'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, muqobil yondashuvlarni o'rganishga va ilmiy asoslashga yo'naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish" kabi muhim vazifalar belgilangan.

Bu borada darslarni tashkil etishda usul va o'yinlardan foydalanish lozim.

**"Teleko'rsatuv" usuli.** Bunday shaklda dars rejasini teleko'rsatuvlar (masalan, "TV-Mehmon", "Ko'rsatuvlar tartibi", "Dil nomalari", "Mumtoz musiqa", "O'yla! Izla! Top!") nomi ko'rsatuvlar asosida tashkil etilishi mumkin.

**"Rekord" usuli.** Bu usulni qo'llash orqali dars jarayonida o'tilayotgan, mavzu bo'yicha rekord darajadagi noyob ma'lumotlarni juda ko'p miqdorda berish nazarda tutiladi. Bunda qaysi o'quvchi mavzu bo'yicha ko'p ma'lumotga ega bo'lsa, shu o'quvchi rekord natijaga erishadi.

**"Mening o'rnim qayerda" usuli.** Bunda biror maqol, yoki hikmatli so'z aralash holda beriladi. O'quvchilar so'zlarni o'z o'rniga qo'yishlari kerak bo'ladi.



“**O‘z-o‘ziga rejissor” usuli.** Bu usul bir muncha murakkab usul bo‘lib, unda mavzuga oid yoki mavzudan tashqari tasvirlar ovozsiz suratga olinadi. O‘quvchilar tasvirda ko‘rgan voqeani izohlashi, yoki bir so’z bilan izohlab berishlari kerak.

**“Yordam bering” o‘yini.**

Dilnoza dugonasinikiga borsa, eshikda qog‘ozchada shunday yozuv bor ekan. Uni o‘qishda yordam bera olasizmi?

Midtuk gnidamlek, agtolug’sham midtek. (Kutdim kelmading, mashg‘ulotga ketdim.)

**“Tez aytishni tez-tez ayt”.** Qishda qatiq qattiq qotib qoldi…..






**“Rasm asosida matn yarat” o‘yini.** Bunda o‘quvchilarga mavzuga oid rasmlar beriladi, ular o‘z fikrlarini erkin bayon etishlari kerak bo‘ladi.

Xullas, maktab shaxsning barkamol kamol topishga, o‘sib kelayotgan avlodning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga, shuningdek, ularning bo‘sh vaqtidan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan. Chunki, maktab uzluksiz ta’lim tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy vazifasi o‘quvchi yoshlarga ta’lim va tarbiya berish bilan birga ularning maktab va sinfdan tashqari bo‘sh vaqtini sermazmun o‘tkazish, yoshlarning ongiga milliy g‘oya va vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirishdan iboratdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Umumta`lim fanlar metodikasi” jurnali 2016- yil ,1-son
2. Drasliklar. 1-4 sinf ona tili, o‘qish darsliklari
3. Internet saytlari: -ZiyoNet .uz, - kitob.uz, -bolajon.uz, - multimediya .uz

# SHAXS - PSIXOLOGIK BILISH PREDMETI SIFATIDA

**Xayitova Shohida Rajabovna**
Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi 7-sonli
ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi psixologi

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada shaxs psixologiyasiga oid tadqiqotlar, shaxs psixologiyasining predmeti, shaxs faoliyati va shakllanish jarayonlari haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar**: shaxs, psixologiya, psixik tizim, individual faoliyat, motiv, funksiya, inson, fenomen.

Tadqiqot ob'ekti sifatida shaxs o'ziga xos murakkab va ko'p qirralidir. U o'zida konkret insonning borlig'ining o'zaro bog'langan jismoniy va ma'naviy mazmunini aks ettiradi. SHaxs insonning kechinma va xulq-atvorida namoyon bo'ladigan, boshqalar qanday idrok qilsa shunday ko'rinishlarning birligi va uzluksizligini ifodalovchi turli psixik tizimlardan iborat deb qaraladi. Ko'p hollarda shaxs ijtimoiy rivojlanish jarayonida o'zlashtirib borilgan ijtimoiy va hayotiy muhim sifatlar yig'indisi sifatida ta'riflanadi.

Shaxs psixologiyasi kishining alohida psixik funksiyalar (motivatsiya, hissiyot, xotira, iroda, qobiliyatlar va boshqalar)ini emas, balki uni bir butun holda ko'p qirrali psixik funksiyalarni qamrab olgan holda o'rganishi kerak. SHuning uchun ham aytish mumkinki, shaxs psixologiyasining ob'ekti yaxlit bir butun odamdir. Biroq shaxs psixologiyasining predmetini aniqlash biroz mushkul. Buning sababi shaxs fenomeni jula ko'p qirralidir. U inson hayotini jamiyat taraqqiyoti va shaxsiy hayotida naqadar ko'p qirrali ekanligini aks ettiradi. SHuning uchun ham shaxsni o'rganishning empirik sohasi har qanday bilishning dastlabki masalasi sifatida murakkab va munozaralidir.

Shaxs psixologiyasiga oid tadqiqotlarda shaxsning namoyon bo'lishiga aloqador ko'plab sohalar: faoliyat motivlari, individual bioximik xossalar, ijtimoiy rollar, tashqi ko'rinishi, qobiliyatlar, ma'naviy qiyofasi, o'zini-o'zi anglashi, ehtiyojlar, mayllar, xarakter xislatlari, kayfiyat, his-tuyg'u, muloqot uslubi, qadriyatli orientatsiyalar, iqtidor, intellekt, hatti-harakatlar, iroda va boshqalar o'rganiladi.

Shunday qilib, shaxs turli fenomenlarning mozaikasidan iborat ekanligi uchun ham murakkabdir. Bu fenomenlarning har biri alohida ajratilgan kishiga nisbatan tadbiq etilganda shaxs deb kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi. SHu sababdan ham shaxs psixologiyasi alohida motivatsiya, hissiyotlar, iroda, individual tafovutlar psixologiyalariga bo'linadi.

Shaxs psixologiyasining predmeti – individual faoliyat olib borish va individual tafovutlarning o'zaro muvofiqligini tadqiq etishdir. Dodonovning ko'rsatishicha, shaxs psixologiyasi aniq vaziyatlarda inson individualligining qanday shakllanishi, bu vaziyatlarda bolaning ma'naviy hayoti yetuk kishining ma'naviy hayotiga qanday aylanishi, kishining jamiyatdagi o'zgarishi va ijtimoiy amaliyot bilan bog'liq holda keyingi rivojlanishini o'rganadi.

Psixologiya fanida inson faoliyat sub'ekti, o'z shaxsining shakllanishida muhim rol o'ynovchi sifatida qaraladi. SHundan shaxs o'zini o'zi rivojlantirish va takomillashtirishga, qobiliyatli, o'zini-o'zi boshqaruvchi tuzilma sifatida qaraladi.

SHaxs psixik tuzilma va jarayonlarning murakkab tizimi bo'lib, u ko'plab osttuzilmalarning o'zaro ta'siri natijasidir. Tug'ma neyrofiziologik mexanizmalari genetik jihatdan ta'minlangandir. Biroq asab tizimining ontogenezda qanday rivojlanishi nafaqat genetik dasturlarga, balki organizmga boshqa omillarning ta'siriga ham bog'liqdir. Rivojlanish organizm va muhitning o'zaro ta'siridir. Faoliyat sub'ekti va murakkab konstruktsiya sifatida shaxs muhit bilan muntazam ta'sir jarayonida rivojlanadi va vazifalarni bajaradi.

Ijtimoiy borliq bilan o'zaro ta'sir - faoliyat sub'ekti sifatida shaxsning shakllanishi uchun zamin yaratadi. Agar shaxsni bir butun yaxlit tuzilma sifatida qabul qilinsa va butun hayotini tahlil qilish orqali tushunilsagina o'zaro muvofiqlikka ega va uzluksiz deb tavsiflash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Shaxs psixologiyasi. Maxsus psixologiya. Iqtidorli bolalar psixologiyasi" fanidan ma`ruza matni. Tuzuvchi: D.Oribboyeva
2. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova Umumiy psixologiya.

# TA'LIMGA TEXNOLOGIK, AN'ANAVIY VA TADQIQIY-IJODIY YONDASHUV

**Xukumatova Lobarxon Akramaliyevna**
Namangan viloyati Pop tumani
23-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lim tizimining rivojlanish masalalari, ta'lim tizimiga o'zgacha yondashuvlar, ta'limda o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari haqida malumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, texnologik yondashuv, an'anaviy yondashuv, tadqiqiy-ijodiy yondashuv, o'quvchi, o'qituvchi,

Vatanimiz taraqqiyotining muvaffaqiyatlarini belgilab beruvchi tub vazifalarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish hisoblanadi. Hozirgi vaqtda barcha ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa ta'lim va tarbiya jarayoniga texnologik yondashuvni talab qiladi.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayoniga an'anaviy yondashuv, tizimli yondashuv, texnologik yondashuv, tadqiqiy yondashuv, funksional yondashuv, kompleks yondashuv, faoliyatli yondashuv, aksiomatik yondashuv, muammoli-modulli yondashuvlar mavjud bo'lib, amalda qo'llanilib kelinmoqda.

XXI asr aql-zakovat va texnik tarqqiyot asri bo'ladi. Shunga asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha, texnologik yondashish ehtiyojining tug'ilishi tabiiy holdir. Amaliyotga keng qo'llanilayotgan yondashuvlarda ta'lim turlaridan foydalanish, ularni amalda qo'llash o'z navbatida o'qituvchidan yuksak professionalizmni, ijodkorlikni talab etadi. Ammo, texnologik yondashuv o'qituvchidan ijodkorlikni, mustaqil o'qish, mustaqil tahlil qilish, xulosa chiqarish imkoniyatini beradi. Natijada fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlangan bir davrida axborotlarning keskin ko'payishi va ularni mustaqil o'zlashtirish imkonini beradigan yondashuv bu texnologik yondashuvdir.

Ta'limga an'anaviy yondashuv - buyuk chex pedagogi Kamenskiy davridan qo'llanilib kelmoqda va o'tgan davrlar ichida ta'limning samarali turlaridan biri bo'lib kelgan va bo'lib qolmoqda. Bu ta'lim turini tushuntiruvchi ko'rsatmali ta'lim deb ham ataydilar. Bunda o'qituvchi tomonidan bilimlar bayon qilingan ma'lumotlar xotirada saqlanadi va mustahkamlanadi. Demak, ta'limga an'anaviy yondashuv o'qituvchi - o'quvchi zanjirida amalga oshadi. O'qituvchi kerakli ma'lumotlarni so'zlab beradi, tushuntiradi, ko'rsatadi, namuna beradi, isbotlaydi, talab qiladi, natija oladi, o'quvchi esa tayyor ma'lumotlarni, ya'ni o'qituvchidan eshitganlarni idrok qiladi, xotirasida saqlaydi va aytib beradi hamda o'zlashtirilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi, kerak bo'lgan vaqtdagina undan foydalanadi.

Bunday ta'limning markazida albatta o'qituvchi turadi.

An'anaviy ta'limning qator afzalliklari bilan birga kamchiliklari ham mavjuddir. Ta'limda texnologik yondashuvda takrorlanadigan, qayta tiklanadigan jarayonni tarkib toptirish, mazkur yondashuvning birinchi sharti hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya ishlarida qayta tiklanadigan, takrorlanadigan tuzilmani yaratish biroz murakkabroq, bunga o'quv-tarbiya ishtirokchilarining qobiliyati, o'quv ma'lumotlarini bayon qiluvchilarning texnologik-uslubiy saviyasining turli xilligi, ta'lim mazmuni, o'quv materiali turlarining xilma-xilligi, o'quvchi-talabalarning faoliyatining bir xilda namoyon bo'lmasligi va boshqa sabablar to'sqinlik qiladi. Ammo, bu bajarilishi mumkin bo'lgan holdir.

Ta'limda tadqiqiy-ijodiy yondashuvda - o'quvchilarda mustaqil o'qish-o'rganishni tarkib toptirish, muammolarni ochish qobiliyatini o'stirish, yangi bilim va tajribalarni tadqiqiy nuqtai nazarda o'zlashtirish, ularni o'rganish yo'llarini izlab topish, malakalarini o'stirish asosida maqsad qilib qo'yiladi.

Tadqiqiy ijodiy ta'limda faoliyatga mustaqillik beriladi, o'quvchi ijodiy, faol ish ko'radi. Ma'lumotlar mazmunidan zarur, talab etilayotgan muammoni o'zi izlab topishga harakat qiladi. Bu harakatlar, izlanishlar, albatta pedagog tomonidan boshqariladi, yo'naltiriladi va rag'batlantiriladi. O'quvchining mustaqilligi, tashabbuskorligi, izlanuvchanligi pedagog tomonidan qo'llab-quvvatlansa, bolaning qiziqishlari, fikrlari rag'batlantirib borilsa, tadqiqiy-ijodiy ta'lim texnologiyasi o'z muddaosiga yetadi. Bunday yondashuv hozirgi ilmiy pedagogika nazariyasi va amaliyotida mah-

suldor pedagogik texnologiya varianti hisoblanadi.

Tadqiqiy-ijodiy ta'lim tajribalarning ko'rsatishicha, o'qitish ishlarining teatrlashtirilgan rolli o'yinlar, muammoli ma'ruza, bahs-munozara kabi shakllari va aqliy hujum, tanqidiy fikrlash, kichik guruhlarda ishlash, munozara kabi ta'lim metodlarini qo'llash yordamida o'tkazilsa maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik texnologiya tizimida tadqiqiy ijodiy yondashuv katta ahamiyat kasb etadi. U katta kuch, mablag' va texnika vositalarini talab etmaydi. Shuning uchun maktabbop va o'qituvchilarga qulay. Ammo, shu o'rinda shuni ham e'tirof etish joizki ta'limga yondashuvning har birining tadbiq etish sohasi mavjud. Shunga asosan, ta'lim-tarbiya jarayonini qayd etilgan yondashuvlar bo'yicha tashkil etishda ularning bir-birini to'ldiruvchi tomonlaridan optimal foydalanilsa maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yo'ldoshev. J.G'. Usmonov.S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.
2. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar
3. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat.
4. Internet saytlari.

# XALQARO TADQIQOTLARGA TAYYORGARLIK KO'RISHDA ADABIYOT FANINING ROLI

**Yaqubova Gulbahor Komulovna**
Xorazm viloyati Shovot tumani
3 - maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiyot fani bo'yicha o'quv mashg'ulotlarida interaktiv usullardan foydalanish, dars samaradorligining qay darajada oshishi muammoligi ko'rsatilgan. Shuningdek, muallif o'quvchining diqqatini jamlashda, topqirlik, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda noan'anaviy metodlardan foydalanish haqida tavsiyalar berib o'tgan.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro baholash dasturlari, pedagogik texnologiya, interaktiv metod, qobiliyat, uslub, topqirlik, ijodkorlik, noan'anaviy metodlar.

**PISA (Inglizcha –Programme for International Student Assessment)**-turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish,matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobilyatini baholovchi dastur.

- 1.PIRLS –boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash.
- 2. TIMSS-4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.
- 3. PISA-15 yoshli o'quvchilarni o'qish,matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan davodxonlik darajasini baholash.
- 4. TALIS-umumiy o'rta ta'lim maktablari direktori va o'qituvchilri bilan so'rovnoma o'tkazish orqali maktabda o'qitish va ta'lim olish jarayonlari samaradorligini baholash.

**M**a`lumki, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy o'quvchilarga chuqur bilim berish o'qituvchining asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirildi. Yangi pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotga qo'llashga o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi esa, o'quvchilarga aniq yo'nalish berish, to'g'ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to'g'ri xulosani aytadi, natijada o'quvchi o'z xatosini tushunib, fikrlashdan to'xtamaydi va ular o'rtasidagi doimiy faollik ta'minlanadi. O'quvchilar diqqatini jamlashda qiziqarli interaktiv metodlarning ahamiyati katta. O'quvchilarga rasmli topshiriqlarni bajartirish, ularni fikrlashga, topqirlikka, ijodkorlikka undaydi hamda yozma va og'zaki nutqini o'stirib, lug'at boyligini oshiradi. Xalqaro baholash dasturlarini maqsadi ham shunda. O'qituvchi darslarda juda ham chaqqonlik bilan xalqaro baholash dasturlaridan darslarda foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. "Kungaboqar" metodi. Kungaboqar rasmi o'rtasida xalq og'zaki ijodi yozilgan bo'ladi, uning atrofida esa, ertak va dostonlar nomi yozilgan bo'ladi. O'quvchilar xalq og'zaki ijodi namunalarini juftlab yozishadi. O'yin davomida o'rtadagi so'zni almashtirish ham mumkin. O'quvchilar mustaqil ravishda daftarlariga tuzgan so'zlarini yozadilar. Bu jarayonda hamma o'quvchilar baravar ishtirok etishadi. O'qituvchi esa mashg'ulot davomida eng faol qatnashganlarni rag'batlantirib, baholab boradi. Bu bilan o'quvchi asarlarni, dostonlarni, ertaklarning janrlarni qanday ekanligini farqlashi va bu bilan bolada kreativ fikrlashning shakllantirish mumkin. Mavzular sekin-asta murakkablashib boradi. Bu holat muayyan qiyinchilik tug'dirib, biroz bo'lsa-da o'quvchilarning darsdan zerikishiga sabab bo'ladi. Shunday holatlarda interaktiv metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Yuqorida ko'rsatilgan kungaboqar metodimiz ham bunga yaqqol misol bo'ladi. Bu metod orqali o'quvchilarning xalqaro baholash dasturlariga tayyorlab borishimiz mumkin. Ushbu metod orqali darsni mustahkamlash mumkin. Bu usul adabiyot darslarini qiziqarli tashkil etish, darslarda o'quvchilarning toliqib qolishlarining oldini olish va qisqa vaqt davomida ko'proq o'quvchilarni baholashga xizmat qiladi.

"Sinkveyn" metodi. Sinkveyn so'zining ma'nosi "beshlik" bo'lib, "Qofiyalanmagan besh

qatorlik she'r" degan ma'noni anglatadi. Oʻquvchilar "Sinkveyn" metodidan foydalanib, qofiyalanmagan besh qatordan iborat she'r yozadilar. Bunga koʻra birinchi qator bitta soʻzdan iborat boʻlishi va bu o'zi sevgan qahramon haqida bo'lishi, ikkinchi qator ikkita soʻzdan iborat boʻlishi va bu sifatga oid yani tar'if boʻlishi, uchinchi qator uchta soʻzdan iborat boʻlishi va bu fe'l soʻz turkumiga oid ijobiy haratlari boʻlishi, toʻrtinchi qatorda toʻliq bir ta'rif keltirilishi va beshinchi qatorda birinchi qatordagi soʻzga sinonim boʻlgan bir soʻz qoʻyilishi mumkin. Ushbu metoddan 5-, 6-sinflarga oʻtgandan keyin oʻquvchilar xalq og'zaki ijodi haqida tushunchalarga ega boʻlganlaridan soʻng foydalanishi mumkin. Darslarda interaktiv usullar qoʻllashni shunday tashkil etish kerakki, bunda sinfdagi barcha oʻquvchilar faollashishi zarur, ya'ni dars oʻtish jarayonida oʻquv materiallarining ma'lum bir qismi oʻquvchilar tomonidan mustaqil oʻrganiladi. Oʻqituvchi oʻquv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir.

Xulosa qilib aytganda, oʻqituvchi bunday texnologiyani, xalqaro baholash dasturlarini yaxshi puxta bilishi, hamda uni amaliyotda oʻrganiladigan adabiy til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni toʻgʻri qoʻllay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik koʻp qoʻllansa, oʻquvchilarning adabiyot faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori boʻladi.

**Adabiyot:**

1. Gʻafforova T., Shodmonova E., Eshturdiyeva T. Ona tili. 1-sinf uchun darslik.
2. Qosimova K, Fuzailov S, Ne'matova A. Ona tili.

# INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH

**Yunusova Nasiba Zarifjanovna**
Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani
3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
Informatika fani o'qituvchisi

**Mavzuning dolzarbligi**. Informatikadan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularni iqtidorini rivojlantirishning metodik asoslari hozirgi kunning eng dolzarb va qiziq muammolardan biridir.

**Maqsad:** Umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilarining informatikadan iqtidorini aniqlash va akademik litsey, oliy o'quv yurtlarida uni rivojlantirishning ilmiy - pedagogik asoslarini o'rganish.

Informatikadan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularni iqtidorini rivojlantirishning metodikasi va shu sohadagi ilmiy adabiyotlar bilan tanishib chiqish.

Iqtidorli yoshlar O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini hamda uni jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlovchi omil va millatimiz ziynati hisoblanadi. Shuning uchun ham umumiy o'rta ta'lim maktablarining bitiruvchilari orasidan iqtidorli, xususan informatikadan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularni akademik litsey xamda oliy o'quv yurtlarida o'qitish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish kabi jarayonlarning ilmiy asoslarini ishlab chiqish pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

Iqtidor tushunchasi va uning asosiy belgilari. Iqtidor inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi. Psixologik lug'atda – iqtidor tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi:

1) iqtidor bu – faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unlashuvidir;
2) iqtidor bu – insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o'ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;
3) iqtidor bu – aqliy potentsial, ta'lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual xarakteristikasi;
4) iqtidor bu – tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, qobiliyatlar tabiiy asoslarining o'ziga xosligi va ularning namoyon bo'lishi darajalari;
5) iqtidor bu – iste'dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi.

Ushbu tavsiflardan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, biror bir faoliyatda (masalan, ta'lim, ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi.

Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha iqtidorli o'quvchilarni aniqlash davomiy jarayon bo'lib, shaxsning rivojlanishini chuqur tahlil qilish bilan bog'liq.

Olim, pedagog, amaliyotchilar kuchi birlashganida iste'dodli bolalarning to'la rivojlanishi uchun sharoit yaratish mumkin. Iqtidorning namoyon bo'lishi uchun bolani yoki uning tirishqoqligi, maqsadga intiluvchanligi, iroda sifatlarini rag'batlantirish lozim. Aynan rag'bat va qunt bilan mehnatning iqtidor bilan uyg'unlashuvi uning qobiliyatlari haqida gapirish imkonini beradi. Iqtidorli bolalar bilan ishlashning so'nggi yillardagi tajribasi ko'rsatishicha, maktab ta'limi va tarbiyasiga an'anaviy qabul ulg'ayotgan shaxs ijodiy salohiyatini rivojlantirish vazifasidan yiroq. Oddiy kuzatuvlar butun ta'lim tizimini birdaniga qayta qurishning, o'qituvchilarning maktabga goho ko'plab qiyinchiliklar olib keladigan «nostandart» bolalarga munosabatini o'zgartirishning naqadar murakkab va mushkulligini yaqqol ko'rsatadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida informatikani o'qitish o'z oldiga hozirgi jamiyatimiz talablariga javob beradigan va har bir maktab bitiruvchisiga mustaqil ravishda informatika fani bo'yicha keyingi hayotining unumli faoliyatida amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradigan kafolatli tayyorgarligini va bu sohada iqtidorini rivojlantirishni ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan. Informatikani o'rganish o'quvchilarni amaliy faoliyatda qo'llash o'zaro bog'liq fanlarni o'rganish,

ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan informatikaga oid aniq bilimlar bilan qurollantiradi. U o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi. O'quvchilarning informatika bo'yicha tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar: umumiy qrta ta'lim maktablarida informatika kursining asosiy vazifasi – o'quvchilarni kelajak amaliy faoliyatida kompьyuterlardan foydalana olishga tayyorlash va salohiyatini oshirishdan iborat.

Informatikani o'rganish, informatika haqida haqiqatni bilishni tavsiflash shakli va bilish metodi sifatida tasavvur qilib insonning madaniyati va iqtidorining shakllanishiga zamin yaratadi. Ta'lim tarbiyaning umumiy maqsadlaridan informatikaning fan sifatida o'ziga xosligi uning zamonaviy fanlar timida tutgan o'rni va rolidan hozirgi axborotlashtirilgan jamiyat hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda ss 34 informatikani o'qitish va o'quvchilarda iqtidorni shakllantirishning maqsadlarini quyidagicha belgilash mumkin: o'quvchilarda kompьyuter savodxonligini shakllantirish; o'quvchilarda axboroga ishlov berish, uzatish va undan foydalanish jarayonlari hakidagi bilimlar asoslarini mustahkam va ongli ravishda o'zlashtirib olishlarini ta'minlash; o'quvchilarga dunyoning zamonaviy ilmiy ko'rinishini shakllantirishda axborot jarayonlarining ahamiyatini, jamiyatning rivojida axborot va kommunikatsion texnologiyalarning rolini ochib berish; texnika asrida kompьyuterlardan ongli va ratsional foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish. Informatika predmetining pedagogik funktsiyalari insonning umumiy ta'lim olishidagi asosiy vazifalarini hal etishda qo'shadigan o'ziga xos xissasi bilan aniqlanadi:

1. O'quvchilar tomonidan informatika asoslarini egallash va ularning tafakkuri, iqtidorini rivojlantirish. Bu vazifa informatika o'qituvchisi oldida turgan birinchi vazifadir.

2. Ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish. Bu muhim vazifani hal etishda butun pedagogik jamoa barcha o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida ishtirok etadi.

3. Milliy mafkura ruhida tarbiyalash.

4. O'quvchini iqtidorini mashg'ulot davomida ilg'ash va uni to'g'ri yo'naltirish. Bu vazifa informatika o'qituvchisining asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Axborot texnologiyalardan foydalangan holda darslarni to'g'ri tashkil qilish yukori natijaga olib keldi va o'quvchilar uchun ham bugungi kun texnologiyasidan foydalanib dars o'tish qiziqarli va tushunarli olib borildi. Axborot texnologiyasi vositalari bilan jixozlangan xonada bir vaqtning o'zida ekran vositalari va tovushni eshittirish vositalaridan foydalangan holda o'qitish jarayoni tashkil etilsa, shubxasiz, o'quvchilar axborotni qiziqish bilan qabul qiladilar va uning ko'p qismini eslab qoladilar. Bu vositalardan foydalangan holda o'tilgan darslar o'quvchilar uchun juda qiziqarli va tushunarli bo'ladi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning katta qismi bu darslardan yaxshi bilim va malakaga ega bo'ldilar. Uning afzallik tomoni shundaki, o'quvchilar kitoblardan, adabiyotlardan yaxshi tushuna olmagan mavzularni ko'rgazmali darslarda yaxshi tushunarli bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. U.Yu.Yuldashev, F.M.Zokirova ―Informatika o'qitish metodikasi‖.
2. Internet saytlari
3. www.ziyonet.uz
4. www.rtm.uz

# O’ZBEK TILSHUNOSLIGIGA O’ZLASHMA SO’ZLARNING KIRIB KELISHI

**Yunusova Shaxnoza Muxamedumarovna**
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti katta o’qituvchisi
shakhnozayunusova@mail.ru

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada o’zbek tilshunosligiga kirib kelgan o’zlashma so’zlar va ularning kirib kelish sabablari haqida qisqacha ma’lumot berilgan.
**Kalit so’zlar:** Neologizmlar, fors-tojik tili, ingliz tili, yangi so’zlarning ommalashuvi.

Tilning rivojlanishi va muttasil taraqqiy topa borishi jarayonida o’zlashma so’zlarning o’rni beqiyosdir. Dunyoda hech bir til yo’qki o’z so’z boyligi zaxirasini boyitish uchun boshqa tillardan so’z olmagan bo’lsa. Bizga yaxshi ma’lumki, olinma so’zlar tilning kundan-kunga rivojlanishini ko’rsatuvchi asosiy omillardan biri. Shunga qaramay, o’z tilimizda chet tilidan olinayotgan so’zga teng keladigan atama bo’laturib, ulardan foydalanmaslik ona tilimizga bo’lgan hurmatsizlikdir.

Biz 130 yil davomida Sovet Rossiyasi tajovuzi ostida davlatimizni boshqardik, shu sababli tilimizga ko’plab rus tilidagi istilohlar shu qadar o’rnashganki, ularning o’zbekcha muqobil variantini topib aytolmaslik holatlari ham uchrashi achinarli hol, albatta. Buning yorqin misoli qilib “obed” so’zini olaylik. Bu so’z o’zbek tilida tushlik deb ataladi, ammo xalqimiz orasida bu so’zdan foydalanadiganlar deyarli yo’q.

Lekin hozir biz foydalanayotgan tildagi barcha so’zlar ham sof o’zbekcha so’zlar emas. Ularning kattagina qismi tilimizga fors-tojik va arab tillaridan o’tgan. Bu tillardan ko’p so’zlar o’tganligining sababi o’zaro madaniy aloqalarning mavjudligi, tildagi mushtaraklik bo’lsa, qisman ularning yurtimiz hududini ko’p yillar istilo qilganliklari bilan ham bog’liqdir. Qadimda yurtimizga bostirib kirgan va hukmronligini o’rnatgan boshqa millat vakillaridan beixtiyor ayrim so’zlar tilimizga o’rnashib qolavergan. Shu sababli o’zbek tili lug’ati fors-tojik, arab, mo’g’ul, rus tilidan kirib kelgan so’zlar bilan boyigan. Biz ko’p qo’llaydigan kitob, san’at, maktab, abadiy, ammo, lekin, milliy kabi so’zlar bizga arab tilidan, barg, anor, dastro’mol, go’sht, nodon so’zlari esa fors-tojik tilidan kirib kelgan.

Haqiqiy o’zbekcha so’zlar, asosan, fe’llar va bir bo’g’inli so’zlardir. Kelmoq, ketmoq, bormoq, yurmoq, ona, ota kabilar sof o’zbekcha so’zlarga misol bo’la oladi. Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning so’z boyligi yigirma olti mingdan ziyod bo’lsa, ularning ko’p qismi fors-tojik tilidagi kalimalardir. Fors-tojik va arab tillaridagi so’zlar o’zbek tiliga o’xshash jihatlari borligi sababli ommalashgan bo’lsa, bu o’rinda o’zbek tiliga mutlaqo yaqin bo’lmagan tillardan ham so’zlarning kirib kelishi oqimi kuchayganligini ko’rishimiz mumkin. Bu esa bizning xalqaro hamjamiyat tomon intilayotganimizdir. O’zbek tiliga rus, ingliz, nemis tillaridan kirib kelgan so’zlar ham mavjud bo’lib, tilimizda boshqa til atamalariga muqobili bo’lmagani sababli ularni shundayligicha yoki ayrim o’zgarishlar bilan tilimizga qabul qilganmiz. Bu tillar orasida ayniqsa ingliz tili yetakchi o’rinni egallaydi.

Ingliz tilidan o’zlashgan terminlarga hayotimizning har bir jabhasida duch kelamiz. Iqtisodiy, madaniy- ma’rifiy va sport sohasining ko’plab atamalari tilimizga ingliz tilidan o’tgan. Ommaviy axborot vositalari yangi so’zlarning targ’ib qilishda yetakchi mavqega egadirlar. Televideniya yoki gazeta va jurnallar orqali yangi so’zlar xalqqa tez yetib boradi va iste’mol doirasiga kiritiladi.

Oziq- ovqat mahsulotlari nomi: bishfteks, gamburger, yogurt, ketchup, jem; ichimlik nomlari: kokteyl, viski, koka-kola; kiyim-kechak nomlari: jemper, jinsi, pidjak, sviter; uy-ro’zg’or buyumlari nomi: mikser, pech, pleyer; o’rin-joy tushunchasini ifodalovchi: vokzal, klub, kottej, supermarket, tunnel, kollej, universtitet, bar; transport vositalari nomlari: tramvay, trolleybus, avtobus, taksi; texnikaga oid bo’lgan nomlar: kompyuter, skaner, printer, disk kabi so’zlar hozirda tilimizda faol qo’llanilayotgan o’zlashma so’zlardir.

Bu so’zlar tilimizda shu qadar o’rnashdiki, ulardan o’z so’z yasovchi qo’shimchalarimiz orqali yangi atamalar ham hosil qila boshladik. Masalan, kompyuter so’ziga kasb-hunar ifodalash uchun ishlatiladigan - chi qo’shimchasini qo’shib kompyuterchi so’zini hosil qildik va bu so’z hozirda xalqimiz orasida keng qo’llanilmoqda. Bundan tashqari, o’zbek leksikasidan o’rin olgan inglizcha o’zlashgan so’zlar ham anchagina o’zgarishlarga uchrab, o’zining polisemantik (ko’p ma’nolilik) xususiyatiga ega bo’lishdan tashqari, so’zlardagi ma’noning kengayishi va ta’kidlaganimizdek

o'zbekcha so'zlar yasalishida ham faolligini namoyon qilmoqda. Tilga so'zlarning kirib kelishi bir necha bosqichli bo'lishi mumkin. Masalan, asli inglizcha bo'lgan so'zlar tilimizga rus tili orqali o'zlashib, ma'lum o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Shunga muvofiq, rus tili orqali o'zlashgan "xokkey" so'zi ham asli ingliz tilida "hockey" deb ataladi. Rus tilida h fonemasi mavjud bo'lmagani sababli tilimizga rus tilida qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilingan. Yoki aksincha o'zbek tilidagi terminlar ingliz tiliga rus tili orqali o'tganligi sababli o'zgarishlariga uchragan. Bizning milliy taomimiz hisoblangan palov leksemasi rus tilida "plov" ko'rinishida bo'lgani sababli ingliz tiliga ham rus tili orqali o'tib "plov" deb aytiladi.

Ingliz tilida fe'llarning gerundiy (gerund) shakli mavjud bo'lib, bu fe'l asoslariga -ing qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi va o'zbek tilidagi harakat nomi (fe'lning otga xoslangan shakli)ga yaqin turadi. Leksikamizdagi brifing, marketing, trening kabi so'zlar ham aynan shu shaklda kirib kelgan va bu o'rindagi gerundiy shaklini biz ot yasovchi qo'shimchaga teng deb ham olishimiz mumkin. Ingliz tilidan kirib kelgan so'zlarni biz , asosan, etimologik jihatdan -er, -ing, -ment, -siya, -men, taym qismli o'zlashmalarga qarab ajratib olishimiz mumkin.

Neologizmlar (yangi so'zlar) doim ham jamiyat tomonidan ma'qullanib, iste'molga yaroqli deb tan olinmaydi. Xalq orasida qo'llanila boshlangan olinma so'zlargina tilning lug'at tarkibidan joy oladi. Tilda yangi so'zlarning bo'lishi uni zamonaviyligini oshiradi, ammo ba'zi holatlarda bu tushunmovchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Ko'proq rasmiy doiralardagina qo'llaniluvchi ko'p so'zlar xalq orasida mavhumligicha qoladi. Bu borada so'zlarning o'z ishlatilish doirasi borligini ham unutmaslik lozim.

Tilimizning taraqqiyoti uning kelajak avlodlarga qay ko'rinishda yetib borishi butun o'zbek xalqi uchun daxldor masaladir. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur.

O'zbek tilshunosligini tadqiq etar ekan ekanmiz, tilimizning naqadar boy va rang-barang ekanligini ko'ramiz va unda o'rganilmagan, bizga mavhum bo'lgan jihatlarning ko'pligi bizni beixtiyor izlanishga chorlaydi. Shunday ekan o'z tilimizni saqlab qolish, uni uzoq yillar xalqimiz uchun xizmat qilishini ta'minlash, xalqaro hamjamiyatga tilimizning imkoniyatlarini ko'rsatish, uni xalqaro miqyosga olib chiqish uchun biz, yoshlar chin yurakdan bel bog'lamog'imiz lozim. Zero, Vatan kelajagi yoshlar qo'lida.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sodiqov A. v.b . Tilshunoslikka kirish.- Toshkent: O'qituvchi, 1981.
2. O'lmas Sharipova, Ibrohim Yo'ldoshev.Tilshunoslik asoslari.- Toshkent, 2006.

# BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISH VA SAVODXONLIK KOMPETENSIYALARINI O'RGANILISHI

**Yusufjonova Navbahor**
Farg'ona shahar, 30- o'rta ta'lim maktabi
biologiya fani metodist o'qituvchisi
**Viloyat Sobirova**
Farg'ona shahar, 30- o'rta ta'lim
maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
**Maqsudaxon Siddiqova**
Farg'ona shahar, 30- o'rta ta'lim maktabi
texnologiya fani o'qituvchisi yusupjonova80@mail.ru
(916622571)

**Mavzuning annotatsiyasi:** Mamlakatimiz innovasion rivojlanish yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni, ularning bilim va ko'nikmalarini xorijiy ta'lim standartlari asosida shakllantirish, zamonaviy mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

**Kalit so'zlar: PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS** dasturlari, Tabiiy fanlardan savodxonlik, tayanch kompetensiya, ilmiy-tadqiqot.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni qiyosiy va har tomonlama tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

O'quvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi ta'lim sifati darajasini belgilaydi. Respublikamizning o'sib kelayotgan yosh avlod va ularning kelajakda qanday kasbkor egallashlariga qarab, vatanimiz kelajagini tasavvur qilsa bo'ladi. Bizning kelajagimiz bo'lmish yoshlar faoliyati farovon hayotimiz mezonidir. Yoshlar ta'lim tarbiyasi har bir ota-onaning, pedagogning Vatan oldidagi muqaddas burchidir.

Xalqimizning buyuk mutafakkirlari bo'lmish Imom- al-Buxoriy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur, Maxmudxuja Bexbudiy va boshqa shu kabi ko'plab buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviyat sarchashmalari o'zining tarbiyaviy ahamiyatga, ma'rifatni targ'ib etish xususiyatlariga ega ekanligi tufayli xozirgi kunga qadar o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan va qalblarda mangu yashamoqda.

Tarbiyaning samaradorligi hamda o'qituvchining ijobiy tuyg'ularga asoslangan o'zaro munosabatlarni mukammal tashkil qilish qobiliyatini bera oladi. Tarbiyaviy jarayonda o'qituvchi tashqi hodisalar ta'sirida salbiy hissiy holatlar girdobiga ham tushib qolishi mumkin, lekin bu ta'sir etishning oxirgi maqsadi sifatida emas, balki ijobiy hissiy samaradorlikka erishish uchun bartaraf qilinadigan ziddiyatli vaziyat vositasi sifatida paydo bo'lishi mumkin. Odobli bo'lish – har bir insonga, ayniqsa, rivojlanayotgan barkamol shaxs bilan muloqotda bo'ladigan o'qituvchiga xos bo'lgan axloqiy talabdir. Pedagogik takt – o'qituvchi kasbiy fazilati va kasbiy mahoratining muhim qismidir. Pedagogik takt inson fazilatiga xos bo'lgan u nafaqat o'qituvchining shaxsiy xususiyatlarini, balki o'quvchilarga nisbatan axloq-odob doirasida insonparvarlarcha yondashish ko'nikmasi hamdir, ya'ni bu o'quvchilarga sezilarli darajada insoniy fazilatlarini boyituvchi tarbiyaviy ta'sir qilish vositasidir.

Har bir fan o'qituvchisining ta'lim-tarbiya borasidagi faoliyatlari va to'plagan tajribalaridan o'rinli foydalanishlari pedagogika fanining vujudga kelishiga olib keldi.

Har bir o'quvchi, o'qituvchi ona yurti tarixini bilishi, vatanparvar bo'lishi lozim. Ta'lim-tarbiya tarixi pedagogika tarixi fanidan xabardor bo'lishi, o'qituvchi - pedagog o'z oldiga qo'yilgan murakkab, mas'uliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish uchun hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarni shakllantirishi uchun quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak;

Zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning mohiyatini chuqur tushuna bilishi kerak. Axborot ta'lim texnologiyalarini va o'qitish vositalarini ta'lim berishda tadbiq eta olishi lozim. Internet tarmog'I to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi va undan o'z bilimini oshirishda foydalana olishi

muhim hisoblanadi.

Pedagogik mehnatining samaradorligini tahlil etish yo'llarini bilishi va o'ziga o'zi baxo bera olishi kerak. Dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish yo'llarini bilishi lozim.

PISA tadqiqotlarida o'quvchilarning alohida fanlardan bilimi tekshirilmaydi, balki hayotda zarur bo'ladigan bilim va malakalarining holati o'rganiladi, shuningdek, o'quvchilarning fanlararo kompetentligi baholanadi.

Fanlarga asoslangan bilim hamda ko'nikmalar har bir shaxsning shaxsiy, kasbiy faoliyatida katta ahamiyatga ega, ilm-fan va unga asoslangan texnologiyalarni tushunish esa "yoshlarni hayotga tayyorlash"da asosiy o'rinni egallaydi.

Bu jarayonda ilg'or o'qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o'qituvchi o'rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o'z faoliyatini ilgor tajribalar bilan boyitishi zarur. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi yoki o'quvchilar o'rtasida o'zaro jonli til muloqoti, fikr almashuv munosabatlari, samimiy hurmat va asosiy maqsadga erishishda yaqin hamkorlik lozim.

**O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish barkamol shaxsni kamolga yetkazish borasida olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning asosiy tarkibiy qismi ekanligini nazarda tutish zarur.**

O'quvchilarning dars jarayonida o'zlashtirishiga erishish maqsadlarini ko'zlab, yangi mavzu bilan aloqador bo'lgan har xil manbalar ma'naviy daqiqada ertak yoki matallarni keltirish o'z ustida ishlashga vaqt ajratish zarur. O'quvchilarning kitob bilan mustaqil ishlashi, o'rganilgan bilimlarni xulosalash, o'z-o'zini nazorat qilish malakasini oshirish ham bu fan vazifasiga kiradi.O'quvchilar, unutmaslik kerakki, eng qiziquvchan, dunyoni anglashning eng qizg'in nuqtasidagi yoshdadirlar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 8 dekabrdagi 997-son Qarori.

2. Ermakov A. S., Yermakov D. S. Osobennosti prepodavaniya biologi Velikobritanii // Biologiya v shkole. – 2011. – №1. – S. 38 –43.

3. Nosirov A. "O'quvchilar bilimi va kompetentsiyasi xalqaro mezonlar asosida baholanadi"/ uzedu.uz.

4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.

5. Ijtimoiy axborot ta'lim portali: www. Ziyonet. uz.

6. http://www.school.edu.ru - Umumta'lim portali (rus tilida),

7. Безруких М.М., Болотов В.А., Глебова Л.С. и др. Педагогический энциклопедический словарь / гл. ред. Б. М.Бим-Бад; ред. кол.: – М., 2002.

8. Страхов И. В. Психология педагогического такта. "Саратов", 1996.

# PAST O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI VA KASBIY KOMPETENSIYASI

**Qalandarova Shoira Ibragimovna**
Urganch tuman 9-son maktab amaliyotchi psixologi
Telefon: +998 (97) 790 76 75
sh_qalandarova7675@inbox.uz
**Yusupov Ikrom Erkinovich**
Shovot tumani 6-son maktab oʻqituvchisi
Telefon: +998 (91) 995 80 60
ikromerkinovich_6@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bilim, ko'nikma va malakalarida bo'shliqlari bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyasi bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** bilim, ko'nikma, malaka, pedagogik mahorati, pedagogik faoliyat, kasbiy kompetensiya, boshqaruv, oshkora axborot almashish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi zamonaviy pedagog javob berishi kerak bo'lgan talablar kompleksini belgilaydi. Quyidagilar mutaxassisning pedagogik ishga tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta'minlaydigan asosiy talablar hisoblanadi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta'limga qaratilayotgan e'tibor barcha o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ta'lim sohasiga yosh mutaxassislarning kelib qo'shilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o'z navbatida ta'lim muassasasi rahbarlari oldiga yanada yangi vazifalar qo'yadi. Ma'lumki, inson har doim o'sish va rivojlanishdadir. Shunday ekan, inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarnig ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoa rahbarlari to'g'ri tushunishlari lozim. Har bir o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatini turli xil sharoitlarda va jamoalarda insonlar ta'sirida amalga oshiradi.

O'qituvchining faoliyatiga ta'lim muassasidagi bugungi sharoithamda jamiyat uchun foydali va zarur maqsadlarli amalga oshirishda shaxs rivojiga va shakllanishiga kuchli tasir qiladigan odamlar guruhi bo'lgan pedagogik jamodagi shakllangan ta'limiy muhit o'z hukmini o'tkazadi. Jamoa jamiyatning bir bo'lagi sifatida uning barcha xususiyatlarini qamrab oladi. Foyaviy, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy-ma'naviy va boshka jabhalar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda ixtiyoriy pedagogik jamoani tayinlangan rahbar boshqaradi. Rahbarlik - odamlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ularning xulqini tartibga solish bilan bog'lik bo'lgan boshqaruvning tarkibiy qismidir. Shunday qilib, «boshqaruv» tushunchasi, «rahbarlik» tushunchasiga qaraganda ancha keng tushunchadir. Rahbar boshqaruv faoliyatidaqator funksiyalarni bajaradi: pedagogik jamoaning ilmiy- pedagogik faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, shu faoliyatni rejalashtiradi, rag'batlantirish vositalari va usullarini belgilaydi, uninazorat qilishni amalga oshiradi va xokazo.

Shuning uchun ham rahbar yosh o'qituvchining o'zi tanlagan kasbga mehr qo'yishi, o'qituvchilik kasbining sirlarini mukammal o'rganishi va unda o'z kelajagiga nisbatan ishonch tuyg'ulari rivojlanishiga ko'p qirrali ta'sir qiladi. O'z navbatida rahbar jamoada o'z o'rniga ega bo'lib, u bilimi, muomalasi, ilmiy dunyoqarashi, o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatda, maqsadga intilishda, ijtimoiy xulq va boshqalarda namuna bo'lishi zarur, bundan jamoaning xar bir a'zosi o'ziga xos ta'sirlanadi. Rahbar boshqaruv faoliyatida o'zaro ta'sirning ikki yo'nalishini, o'qituvchining jamoaga va jamoaning o'qituvchiga ta'sirini va bu o'zaro ta'sir ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkinligini hisobga olishi zarur.

O'qituvchining jamoaga ta'siri uning obro'si, bilimi, dunyokarashi, o'zi tanlagan kasbga qiziqishi va qobiliyati, o'z fanini puxta bilishi, o'quvchilar bilan munosabati, o'z ustida ishlashi, tashkilotchilik qobiliyati, peshqadamlik qilishi, faolligi va tashabbuskorligi singari ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Uning obro'si deganda o'qituvchining mutaxassis sifatida jamoa tomonidan tan olinishi, sub'ektiv sifatlarining jamoa faoliyatining ob'ektiv talablariga mos kelishi tushuniladi. Bunda o'qituvchining bilimi, ko'nikma va malakasi, tajribasi, kasb mahorati, uddaburonligi, tadbirkorligi va ijodkorligi uning boshqalardan ko'ra ko'proq ko'zga tashlanishiga va obro'

orttirishiga sabab bo'ladi. Obro'ga ega bo'lgan o'qituvchi shaxslararo munosabatlarda yuqori mavqega ega bo'ladi, jamoada uning fikr-muloxazalariga quloq soladilar, undan maslahat so'raydilar, uning nuqtai nazari bilan hisoblashadilar. Ammo obro' orttirishda shaxsiy sifatlarning o'zigina yetarli bo'lmay, u yoki bu o'qituvchi haqidagi jamoatchilik fikri ham sabab bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchining jamoatchilik fikri bilan hisoblashmay iloji yo'k, bu esa jamoaning o'qituvchiga bo'lgan ta'siridir. Ya'ni, jamoa o'qituvchining ayrim sa'yharakatlarini rad etishi, qabul qilmasligi, aksincha bundan saqlanishga intilishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, jamoa bilan o'qituvchining o'zaro ta'siri ikki xil, ya'ni ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin, bunda rahbarning roli yaqqol namoyon bo'ladi. Ijobiy ta'sirni vujudga keltirishda rahbar pedagogik jamoa va ta'lim muassasasining manfaatlari bir-biriga mos kelishini istagan holda, o'qituvchilarning muvaffaqiyati hamda kayfiyatlari bilan qiziqishi, tabassum bilan muomala qilishi, o'qituvchining ismini hurmat bilan aytib murojaat qilishi (har kimga o'z ismini boshliqdan eshitish yoqimli bo'lishini esda tutishi) zarur. O'qituvchiga nisbatan diqqat-e'tiborli bo'lish, suhbatdoshini o'zi haqida gapirishga ruhlantirish, oshkora axborot almashishdan cho'chimaslik, o'qituvchiga uning jamoa uchun kerakli ekanligini sezdirish, har bir o'qituvchining kamchiliklarini qayd qilganda, albatta, uning muvaffaqiyatlarini ham e'tirof etish kabi rahbarlikning eng maqbul uslublarini o'z faoliyatiga tatbiq etishi zarur.

Talim muassasasida turli dunyoqarash va madaniyatga ega, fe'l-atvori, aqlu zakovati turlicha bo'lgan, ishga layoqati alohida namoyon bo'ladigan o'qituvchilar mehnat qiladi. Bu hol ularning mehnati va funksional vazifasiga bo'lgan munosabatida ham ifodalanadi. Ta'lim muassasasiga yangi kelgan yosh o'qituvchilar jamoadagi tajribali o'qituvchilarning faoliyatini, ularning o'z funksional vazifasiga bo'lgan munosabatini va u yerdagi shart-sharoitlarni to'la o'rgangunga qadar turlicha tasavvurga ega bo'ladilar. «Qush uyasida ko'rganini qiladi» deganlaridek, yosh o'qituvchining ta'lim muassasasidagi shart-sharoitlarni, mazkur ta'lim muassasasida o'qituvchiga qo'yilayotgan talablarni hamda yuklatilayotganvazifalarni bajarish uchun qay darajada bilim, ko'nikma va malakalar zarurligini, kadrlar salohiyatini va ularning o'z ishlariga bo'lgan munosabatlarini, rahbarlarning mavqei hamda qo'l ostidagilar bilan munosabatlarini o'rganib, tahlil qilib, ijobiy xulosa chiqargan holda o'z ustida ishlashi, izlanishi, tajriba opttirib borishi uchun mazkur ta'lim muassasasida qulay ta'limiy muhit hukmdor bo'lishi zarur, aksincha yosh o'qituvchilar loqayd bo'lib qolishi mumkin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'pgina yosh o'qituvchilar ancha vaqtgacha ta'lim muassasasidagi mavjud shart-sharoitlarga psixologik jihatdan moslashishga qiynalmoqdalar, ayrim moslasha olmaganlari qobiliyatli bo'lishlariga qaramay pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishdan voz kechib, boshqa turli sohalarda faoliyat ko'rsatishmoqda. Buning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Ayrim ta'lim muassasalarida jamoaning yosh o'qituvchilar bilan o'zaro ta'siri (salbiy hususiyatlarga ega bo'lib, rahbar va uning qo'l ostidagi xodimlar yosh o'qituvchiga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lmasligida namoyon bo'ladi. Yosh o'qituvchining izlanishi, bilimi, o'z faniga bo'lgan qiziqishi tufayli pedagogik jamoa va o'quvchilar o'rtasida tez obro'topayotganidan xursand bo'lish hamda uni rag'batlantirish o'rniga uning yoshligini ro'kach qilib, turli xil arzimas sabablarni bahona qilib yig'ilishlarda uyaltirish, obro'sini tushirish uchun qilingan xatti-harakatlar ta'lim muassasasidan bezib ketib qolishlarga sabab bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Iqtisodiy Xamkorlik va Rivojlantirish Tashkiloti (OECD) (2016): PISA 2015 natijalari: Muvaffaqiyatga erishish uchun maktablar uchun strategiya va amaliyotlar (II Bob).
2. J. Shustereder (2014): Yevropa Ittifoqida va Markaziy Osiyoda O'qituvchilar Siyosati.
3. Ulrich, D., Zenger, J. and Smallwood, N. (1999): Results-Based Leadership.

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH

**Yusupova Gulbahor Sadullayevna**
Gurlan tumanidagi 8-umumiy oʻrta taʼlim
maktabining boshlangʻich sinf oʻqituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish darslarini tashkil etish va undagi pedogog mahorati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** o'qish darslari, o'quvchi, dars jarayoni, nutq, mashg'ulot, tajriba, mahorat.

Boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan o'qish darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o'qish va nutq o'stirish bo'limida o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuniga, o'quvchilarni to'g'ri, ravon, ma'lum darajadagi tezlik bilan ifodali o'qishga o'rgatish, bolaning ona-Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g'oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi. O'qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog'lab o'tishi uning ta'sirchanligi ongli idrok etishlarini ta'minlaydi. O'qish va nutq o'stirishning ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo'yicha o'qish mazmunini o'qish ko'nikmalarining og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o'qish mashg'ulotlarining yozma nutq bilan bog'lanish kabi masalalar aniq kiritilgan.

O'qish darslar davomida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslari yuqori sinflardagi o'zbek adabiyoti, tarix, geografiya, biologiya va boshqa fanlarni o'zlashtirish uchun dastlabki asosni yaratadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflardagi o'qish darslariga jiddiy e'tibor talab qilinadi. O'qish darslarini talabdagidek olib borish uchun o'qituvchi asosan quyidagilarga e'tibor berishi lozim. 6-10 yoshdagi bolalar bir soatga mo'ljallangan saboqni sabr toqat bilan tinglay olmaydilar. Ularning ruhiy tuzulishi qoyil harakatda, xayoli o'yinda bo'ladi. 10-15 minutdan ortiq davom etadigan gaplarni tinglayolmaydilat. Shu tugayli bu sinflarda ta'lim-tarbiya vazifalari, asosan o'yin, ashula, qisqa muddatli qiziqarli suhbat, hikoyalash va ifodali o'qish orqali amalga oshiriladi.

Ifodali o'qish turli badiiy va amaliy matnlarni puxta o'zlashtirishning muhim metodlaridan biri sifatida o'qituvchi uchun kalit rolini bajaradi. Ifodali o'qish darslarda o'quvchilarning zerikishiga yo'l qo'ymaydi, aksincha, faollashtiradi, badiiy asarlarga qiziqishini kuchaytiradi, adabiyotga havas uyg'otadi.

O'qish vaqtida badiiy asar namunasida ifoda etilgan his tuyg'uni, yozuvchi yoki qahramonning ichki kechinmalarini asarning mazmunini yecha olishga erishish o'qishdagi normal tezlik o'qilganning ma'nosini to'liq anglab olishga yordam beradi. Normal tezlikda o'qish orqali bola gapdagi asosiy mazmunni anglaydi. Aksincha, ortiq darajada o'qish orqali mazmunini tushunishga to'sqinlik qiladi. O'qish tezligini rivojlantiruvchi asosiy shartlardan biri to'g'ri o'qishdir. O'qish tezligini oshirish uchun bola ravon o'qiydigan bo'lishi kerak. 1-sinfda o'quvchilar o'qish tezligi davlat talablariga nisbatan 25-30 so'zdan iborat bo'lishi kerak. 2-sinfda esa 40-50 so'z, 3-sinfda 60-70, 4-sinfda 80-90 so'zdan iborat bo'lishi kerak. O'qish tezligi o'qilayotganning ma'nosini tushunish va qabul qilishga bog'liq. Juda sekin o'qish ham ongli bo'lishga halaqit beradi. O'qituvchining o'qish tezligi yuzasidan ko'rsatilgan namunasi uning normal holatda so'zlashish tempiga teng kelishi kerak.

Maktab o'quvchilari bilan dars jarayonlarini tashkil etishda pedogogik mahorat ham muhim rol o'ynaydi. O'quv jarayonida ishlaydigan o'qituvchilarning pedagogik tafakkurida boshlangan pedagogik texnologiya darslari protsesslarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar o'qituvchilar uchun juda zarurdir. Bu hamkorlik asosida o`quvchilarning faolligini oshirish uchun maxsus ishlab chiqilgan o'quvchilarga boshqalarning fikrlarini eshitish, tushunish, hurmat qilish, boshqalarning manfaatlarini hisobga olish, ularni o'rgatish, ularga ta'sir qila olish kabi jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tushunish, idrok etish, o'zini o'zi boshqarish, fikrni aniq, aniq va batafsil tushuntirish qobiliyatiga, interfaol o'qitish usullari, o'z-o'zini va boshqalardan foydalanish "Men" tezda rivojlanadi va ijobiy samara beradi. O'qitishda interfaol metodlardan foydalangan holda O`quvchilar o'rtasida raqobat muhiti yaratildi, bu O`quvchilarning oldinga siljishiga imkon berdi,

natijada O`quvchilar birgalikda o'rganishni boshladilar. Har qanday interfaol usul O`quvchilarni to'g'ri va maqsadli ishlatganda mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnolofiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.
2. Bo'ri Ziyamuhammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnoloya- zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.

# СОВРЕМЕННЫЙ РЕБЕНОК – СОВРЕМЕННЫЙ ПЕДАГОГ

**Алимова Алфия Сапарбаевна**
учитель начальных классов школы №18, г.Навои

В глубокой древности, когда еще не было разделения труда, все члены общины или племени – взрослые и дети – участвовали на равных добываниях пищи. Передача накопленного опыта детям в дородовой общине не была «вплетена» в трудовую деятельность. При усложнении процессов изготовления орудий труда появилась необходимость специальной передачи трудовых умений и навыков, старейшины рода – самые уважаемые и умудренные опытом – образовали, в современном понимании, первую социальную группу людей – воспитателей, прямой и единственной обязанностью которых стала передача опыта, забота о духовном росте подрастающего поколения, его нравственности, подготовка к жизни. Так воспитание стало сферой деятельности и сознании человека.

Возникновение педагогических профессии имеет объективные основания. Общество не могло бы существовать и развиваться, если бы молодое поколение, приходящее на смену старшему, вынуждено было начинать все сначала, без творческого освоения и использования того опыта, который оно получило в наследство.

История слова ***педагог***, ***педагогика*** уходит в античную Грецию. За детьми свободных граждан присматривал специальный раб – педагог (от пайда – дитя, гогос – веду – буквально – поводырь). Отсюда и буквальное значение слово ***педагогика – детовождение.*** История понятия-термина оказывается более молодой, чем история явления, им обозначенного. Ученые считают, что воспитание обучение относится к древнейшим видам социокультурной деятельности человека.

Согласно древним источникам в Центральной Азии в Бактрии, Согде и Хорезма (конец II тыс. до н.э. – первая половина I тыс. до н.э.) было достаточное количество образованных людей, которые знали календари поливов и посевов, знали технику строительства каналов и проводили их на научной основе. В VII-VI вв. до н.э. священная книга зороастризма «Авеста» была учебным пособием для учащихся. Из «Авесты» мы узнали, что воспитание и обучение детей и молодежи включало в себя: 1- религиозное и нравственное воспитание; 2 – физическое воспитание; 3 – обучение чтению, письму и счету. В Бактре, Согде и Хорезме возникает ***феномен учительства – ученичества*** (устоз – шогирд). Появляются люди (земледельцы, ткачи, оружейники, кузнецы, гончары, ювелиры и др.), которые знают свое дело лучших других – мастера своего дела, знающие его тайны, секреты, основы. Их знания и умения в своей области превосходят знания и умения других людей. Именно поэтому возникают роли учителя и ученика (устоз – шогирд), особые взаимоотношения, благодаря которым опыт, знания, мудрость учителя как бы «перетекают» в ученика. В средние века в Мавераннахре педагогами была мулла (учитель религиозного мактаба) при мечетях, хотя в городских мактабах, медресе (мусульманский университет) ими все чаще становились люди, получившие специальное образование. С момента возникновения педагогической профессии за учителямизакрепилась прежде всего воспитательная, единая и неделимая функция. [1]

Пусть я буду повторяться, но последняя фраза, которую я подчеркнула из учебника истории педагогики будет ключевым моментом моей статьи. Учитель, педагог, прежде всего воспитатель. Самым положительным является то, что современные сады, школы, ВУЗы, негосударственные учебные заведения, в большинстве поменяли методику обучения, преподавания, образования, шагая в ногу со временем, применяя современные методы обучения с использованием новейших компьютерных технологий и новейших методов преподавания. Ярким примером является недавно, буквально взорвавший интернет видеоролик. Как чудесно и удивительно, встречает своих учеников перед уроками, учитель математики в Турции. Учитель — это не профессия. Это призвание. «Сначала танцы, а потом знания» – приблизительно такой девиз можно было бы повесить на двери кабинета математики, в котором преподаёт турецкий педагог, взявший за правило начинать свой урок с танцевальной разминки. Самое ценное в этом педагогическом приёме – индивидуальный танцевальный подход, который применяется к каждому из учеников. Ни с кем из школьников учитель не повторил движения. Дружеские объятия с таким учителем тоже умеют дарить

позитив. [2]

Но, в современном мире электроники и глобализации многое в функциях учителей и педагогов изменилось, что самое досадное, восприятие педагогов учащимися приняло не самый благоприятный облик. «Не рубим ли мы сук, на котором сидим»? Правильно ли мы воспитываем свое будущее поколение, которое будет ответственно за будущее Земли. Идя на встречу ребенку, учим его только его правам, забывая об обязанностях. Хорошо, современный ребенок, современные методы преподавания, но почему мы забываем, это касается всего общества, мы забываем, что прежде всего ребенок должен уважать своего педагога и учителя.

Я глубокий противник старых методов преподавания, против рукоприкладства в школе, и в любом образовательном учреждении, где идет подавление личности ребенка, но ведь великий Навои сказал: «Жалей дитя, оберегай от бед, но в нежности чрезмерной — явный вред. Святое уважение к своим Родителям пускай владеет им. И далее: «Главу свою перед отцом склоняй, а сердце матери своей отдай. Пускай отец – луна и солнце – мать Тебе дорогу будут озарять. Блюди всегда предсказанья их, не переступай предначертанья их, перед ними ты свой стан согни и знай: твои хранители они.» [3]

Узбекский народ из поколения в поколение передает одно из мудрых высказываний, что учитель велик так же, как и отец (Устоз отангдай – улуг). Я призываю к тому, чтобы мы внушали ученикам, что, только уважая учителя, преподавателя и наставника можно перенять у него все знания и опыт. Это должно воспитываться с дошкольного возраста на уровне общественного сознания.

# ОБУЧЕНИЕ РУССКОМУ ЯЗЫКУ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЭЛЕМЕНТОВ СИТУАТИВНОЙ НАГЛЯДНОСТИ

**Арифова Гульнар Османовна,**
учитель русского языка и литературы
средней общеобразовательной школы № 217
Чиланзарский района
Ташкентской области.

**Аннотация**: Статья рассматривает обучение языку с использованием элементов ситуативной наглядности.

**Ключевые слова:** творческий подход, наглядно-ситуативный метод, коллективная работа, индивидуальная работа, объём словарного запаса.

Основная цель учителей-русистов, работающих в узбекских классах, -обеспечить практическое овладение учащимися русским языком. Достичь этой цели можно при условии творческого подхода к организации учебного процесса с использованием различных методов, путей обогащения словарного запаса, развития устной и письменной речи узбекских школьников.

Особенно большие требования предъявляются в этом отношении к учителям сельских школ, расположенных в районах, где отсутствует русское языковое окружение. Создать подобие обстановки общения позволяет так называемый наглядно-ситуативный метод, предполагающий, в частности, применение на уроках различных предметов, несложных сюжетных картин, рисунков и т.п. Содержание наглядных пособий должно соответствовать объёму словарного запаса учащихся, иначе трудно будет организовать диалог на основе отраженной на рисунке ситуации.

Расскажем, как нами применялся в 6 классе на уроках литературного чтения и русского языка иллюстративный материал и некоторые предметы с целью создания простейших жизненных ситуаций, стимулирующих речевую деятельность учащихся.

На уроке повторения и закрепления текста «Садовод дедушка Ибрагим» из рассказа Э.Джаббарова «Голодная степь» по картине «В саду» дети выполняли несколько ситуативных упражнений.

Сначала учащиеся поочередно читали текст, затем придумывали по его содержанию вопросы, записывали их на доске:

1. Кто пришёл в Голодную степь? 2. Что он принёс в мешке?
3. Где жил дедушка? 4. Что он вырастил?
5. Какой это был сад? 6. Какие деревья в саду?

Затем 2-3 ученика составляли связный рассказ по вопросам. Кроме того, со словами пожилой, важный, знаменитый, разные конструировали предложения ( например: В саду растут разные деревья. Мне дали важное задание. И т.д.).

Учитель: Добрые люди превратили Голодную степь в цветущий сад. Дедушка Ибрагим своим трудом приносит людям радость. Он вырастил огромный фруктовый сад и обучает молодых садоводов. Каждый из вас после окончания средней школы может выращивать сады и виноградники. А сейчас мы будем вести разговор по картине «В саду». ( Показывает картинку, на которой изображен фруктовый сад. На яблонях красные яблоки. Около деревьев стоят ящики и корзины, рядом – пожилой человек. Это садовод. В сад пришли ученики помогать в уборке урожая).

По содержанию картинки проводится беседа на основе записанных на переносной доске вопросов:

1. Где находится сад? Кому он принадлежит? Какие деревья растут в саду? Сколько мальчиков и девочек пришли в сад? Что они хотят делать? Какой разговор ведут ребята с садоводом?

Затем один из учеников рассказывает содержание картинки. Это автор. Среди группы учащихся, вызванных к доске, распределяются роли дедушки-садовода, старшеклассника, учеников, пришедших помочь убрать урожай фруктов. Учащиеся называли по-русски фрукты, их цвет, форму, вкус и т.д.

Разговор по содержанию картинки продолжается 7-8 минут.

Элементы ситуативной наглядности мы используем и на уроках русского языка. Так, при закреплении темы «Правописание –т, -ть, -тся, -ться в глаголах» раздаём учащимся картинки, кратко комментируем их и предлагаем задания.

Картинка « В магазине».

На полках лежит много разного товара. На одной полке – посуда, на другой – одежда и обувь. За прилавком стоит продавец. Представь, что ты вошёл в магазин. Что скажешь продавцу? Какие предметы купишь? Какой разговор будешь вести?

Картинка «На кухне».

Девочка моет посуду, а мать стоит у газовой плиты и готовит обед. На кухне много посуды и продуктов. На плите стоит кастрюля. Представь себе (обращаемся к двум ученицам), что одна из вас – мать, а другая – дочь. Ученица, исполняющая роль дочери, расскажет о кухне, а «мать» - о том, какие продукты она купила. Затем между вами должен произойти небольшой разговор.

1-я ученица. У нас дома большая кухня. Там много разной посуды. На столе стоят тарелки, пиалы, кастрюли, миски. На кухне есть газовая плита. Я помогаю маме готовить обед.

2-я ученица. Сегодня я купила картошку, мясо, капусту.

1-я ученица. Мама, что ты будешь варить?

2-я ученица. Я буду варить вкусный борщ.

1-я ученица. Что ты положишь в кастрюлю?

2-я ученица. Я должна положить в кастрюлю мясо, налить воды, потом положить картошку, капусту, лук, соль.

В процессе коллективной и индивидуальной работы по этим и другим картинам внимание учащихся обращается на тот материал, который соответствует закрепляемой теме. Кроме того, прежде чем предложить письменно выполнить упражнения, которые устно разбираются на уроке.

# БЎШ ЎЗЛАШТИРУВЧИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ОТА-ОНАЛАРИ БИЛАН ЎҚИТУВЧИЛАР ЎРТАСИДА ҲАМКОРЛИКНИ ЙЎЛГА ҚЎЙИШ УСУЛЛАРИ

**Ахметова Нигорахон Мухитдиновна,**
Навоий вилоят Канимех тумани
2-умутаълим мактаб бошланғич синф ўқитувчиси

Ўқитувчи ўқувчиларга таълим-тарбия бериш билан бирга уларда ахборот саводхонлиги, юқори меҳнат самарадорлиги , тадқиқотчилик ва аналитик фикрлаш, танқидий фикрлаш, медиасаводхонлик, ахборотларни тезкор топиш ва қайта ишлаш, самарали мулоқот қилиш, ўз ишига ижодий ёндашув, лойиҳалар устида ишлаш, муаммоларни ҳал қила олиш,“Ахборот асри”да жамиятимизнинг ҳар бир аъзосидан умуминсоний қадриятларга амал қилиш , жамоада ҳамкорлик қилиш, тақдимот қилиш, ижтимоий фойдали меҳнат билан шуғулланиш , ўз шахсини такомиллаштириб бориш, мустақил ишлаш ва фикрлаш, масъулиятни ўз зиммасига олиш , узлуксиз ўрганиш каби компетентликка эга бўлиш талаб этилмоқда.

Нима учун юқори синфда аъло баҳоларга ўзлаштирадиган болалар сони камайиб бормоқда? Мактабни битта ёки иккита ўқувчи олтин медаль билан битиришини сабабини қандай тушуниш мумкин? Истеъдодли , қобилиятли болалар йўқми ёки ўқитиш жараёни самарасиз бўлиб қолганми? Бунинг бир неча сабаби бор.Ҳар қандай ҳолда ҳам ўқувчилардаги билимларни шакллантиришда ва уларнинг қобилиятларини аниқлашда асосий рол ўйнаётган бошланғич мактаб тегишли ишларни амалга оширяптими? Нима учун синфда бўш ўзлаштираётган ўқувчилар сони тобора ошмоқда?

Биринчидан, бошланғич синфлар ўқитувчисининг болалар билан индивидуал иш олиб бориш имконияти чекланган.

Иккинчидан, мазкур ўқитувчиларнинг методик савияси етарли эмас.Синфдаги умумий ишлар жараёнида қобилиятли болаларнинг ижодий имкониятлари чекланиб бормоқда. Ўқитувчининг бутун кучи , эътибори синфга қаратилиб , қобилиятли болаларни саралаш ва уларга алоҳида эътибор қаратиш бирмунча пасайган.Ўқитишга бошқача ёндашиш ва уларнинг ижодий қобилиятларини рўёбга чиқариш лозим.

Бошланғич мактаб бола шахсининг илк шаклланишини таъминлаши, унинг қобилиятларини аниқлаш, ўқувчиларда билим олиш кўникмаси ва истагини таркиб топтириши керак.Бундай мактабда ўқув фаолиятининг зарур кўникма ва малакаларини эгаллайдилар, ўқиш, ёзиш, ҳисоблашни ўрганадилар , ижодий фикрлаш элементларини , маданий нутқ ва хулқни , шахсий гигиена ҳамда соғлом турмуш асосларини ўрганадилар. Таълим жараёнида бўш ўзлаштирувчиларнинг мавжудлиги таълим сифатининг пасайишига сабаб бўлади.

Юқори синф ўқувчилари учун эса ижодий тафаккурни ривожлантириш дастурини ишлаб чиқиш ва уни ота-оналар билан амалга ошириш мақсадга мувофиқдир.Ўқитувчи ота-оналар билан биргаликда қуйидагиларни амалга оширмоғи лозим бўлади:

-системали ва мантиқий тафаккурни ривожлантириш;

-конструкция, пиктограмма тили бўйича машқлар орқали образли тафаккурни ривожлантириш, табиий объектларнинг ўхшашлиги бўйича ишлаш;

-танқидий тафаккурни шакллантириш;

-табиатдаги ҳодисаларни бевосита кузатиш асосида болаларнинг диққатини табиат гўзалликларига жалб қилиш;

-эртакларнинг сюжетлари билан ишлаш, турли эртакларни таҳлил қилиш, табиатдаги ўхшашликларини боғлаш асосида фикрлаш;

-бола фаоллигини ошириш;

-ўқувчини мустақил фикрлашга ўргатиш;

-ўқувчининг ижодий фикрлашини ташкил этиш;

- ўқувчининг мустақиллиги, эркинлигини таъмин этиш;

-ўқувчиларнинг қизиқишлари асосида иш юритиш(мотивация);

-ўқувчининг имкониятларини ишга солиш;

-ўз қизиқишлари орқали қўшимча таълим олишга йўллаш, мактабдан ташқари таълим олишга йўллаш;

-ўз-ўзини ривожлантириш;

-йўл харитаси бўйича бажарилаётган барча маънавий-маърифий ишларда вояга етмаганларни 100% қамраб олиш;

-дарсдан кейин мавжуд тўгаракларга жалб этиш;

-маҳалладаги ҳунармандлар билан боғлаш;

-дарсдан сўнг ва кечки пуллик тўгаракларга тортиш;

-соат 18-00 дан кейин бўш ўзлаштирувчи ўқувчиларни бўш вақтларини ҳисобга олиш ва назорат қилиш;

-бўш ўзлаштирувчиларнинг PISA, TIMSS, PIRLS , STEAM халқаро баҳолаш дастурлари бўйича билим сифатларини юқори кўтариш мақсадида алоҳида режа ва дастур тузиш ва уни амалда қўллаш;

- бўш ўзлаштирувчилар билан давра суҳбатлари уюштириш;

- маънавий - маърифий ишлар бўйича тарбияси оғир, муаммоли оила фарзанди ва низоли вазиятларни келтириб чиқарувчи ҳамда бўш ўзлаштирувчи ўқувчиларни мактаб тадбирларига масъулиятли шахс сифатида ассисент тарзида жавобгар этиб белгилаш ;

- бўш ўзлаштирувчиларни мактаб ёшлар иттифоқи етакчисига боғлаш;

- мактаб психологлари улар билан алоҳида режа асосида иш олиб боришини таъминлаш;

- фан ўқитувчиси махсус режа билан иш ташкиллаши;

- синф раҳбари ва ота- оналарнинг ҳамкорликдаги назоратида бўлиши;

- мактабларда кўчма тиббий кўриклар ташкил этиш ва бўш ўзлаштирувчиларнинг соғлиқларини тиббий кўрикдан ўтказиш;

- мактабда бўш ўзлаштирувчиларнинг ижодий фаолиятини ривожлантиришга қаратилган методик қўлланмалар , ёш ўқитувчиларга “Ёш ўқитувчига ёрдам”, “Ота-оналарга ёрдам” каби тавсиялар яратиш;

- мактаб кутубхоналарини шу каби тестлар,ўқитувчилар ва ота-оналарга шуғулланиш учун махсус қўлланмалар, тавсиялар билан бойитиш; - ота-оналарга фарзанди олдида “сизлар” сўзи ўрнига ҳамиша “бизлар” сўзини ишлатишни тавсия этиш;

- ота-оналарга ўз фикрини “энг тўғри ҳақиқат” деб таъкидлаш ҳуқуқини чеклаш , бола шахсини ҳурматлаш, ижтимоий ҳуқуқини чекламасликни тавсия этиш лозим.

Юқорида келтирилган индивидуал хусусиятларни ривожлантириш асосида ўқувчининг мустақил билим олиши, кўникма ва малакаси ҳосил қилинади. Таълим жараёнида бўш ўзлаштирувчиларнинг мавжудлиги таълим сифатининг пасайишига сабаб бўлади.Шу сабаб ўқитувчи ва ота-оналар ҳамжиҳатликда бола шахсига тўғри ёндашган ҳолда бўшлиқларни тўлдиришга қадамма-қадам ҳаракат қилмоқлари лозим.Бунда , албатта, кетма-кетлик ва босқичма-босқич ривожланиш , билимнинг ошиб бориши , сифат ва самарадорликни ўсиши назарда тутилади.

Таълим- тарбия ишларининг самарали бўлишида жамоадаги муҳитнинг ҳам аҳамияти катта. Жамоа ва ота-оналар бирлашиб , сифат , адолат ва шаффофлик тамойилига амал қилган ҳолда ишламоғи, изланмоғи лозим.Бўш ўзлаштирувчиларнинг фанларнинг давлат таълим стандартлари даражасида ўзлаштириши, олган билим ва малакаларини кундалик ҳаётга татбиқ этиш кўникмаларини шакллантиришга эришиш асосий вазифамиздир.

# БОШЛАНҒИЧ МАКТАБДА ФАОЛ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ

**Болтаева Вазира Зарибовна**
Урганч тумани 32-сон мактабнинг
бошланғич таълим ўқитувчиси

**Аннотация.** Мақолада дарсда бундай муҳитни яратиш учун мен фаол ўқув усулларидан фойдаланиш мумкин эканлигини кўрсатиб ўтдим. Ва босқичма-босқич билимларга асосланган кўникмаларни шакллантириш ва ижодий қобилиятларни ривожлантириш айтиб ўтилган.

**Калит сўзлар**: Муаммо, муваффақиятли таълим, хиссий даража, таълим ва тарбия, инновация, технология, ёндашув

Ўқитувчиларни қизиқтирган муаммолардан бири бу болага, билим ва уларнинг мустақил ўқув жараёнида билимларни қандай фаоллаштириш масаласи ҳисобланади. Агар бола учун одатий ва керакли фаолият шакли ўйиндир, сўнгра ўйин ва ўқув жараёнини аниқлаб, ўқувчиларни ташкилотни ташкил этишни қўллаш, ўйин ва ўқув жараёнини бирлаштириш зарур. Таълим мақсадларига эришишнинг асосий йўли- ўйиннинг рағбатлантирувчи салоҳияти ўқув дастурининг мактаб ўқувчиларининг самарали ривожланишига йуналтирилади. Муваффақиятли таълимдаги турткиларнинг роли ҳаддан ташқари кўпчиликни ташкил қилиб уларни фарқлаш қийин. Ўқишда катта ютуқлар юқори ижобий мотиватсия юқори даражада табииятли қобилият бўлмаган тақдирда компенсатсион омилнинг ролини ўйнаши мумкин, аммо қарама-қарши йўналишда бу қоида ишлай олмайди - ҳеч қандай қобилият даражаси ёки унинг паст даражаси этишмаслиги ва таъминотини қоплай олмайди.

Жамият ва оилани давлатнинг муайян маълумотлари, маълум бир билим ва кўникмаларга эга бўлган мактабнинг мақсадлари боланинг имкониятларини ошкор қилиш ва ривожлантириш, унинг табиий қобилиятини амалга ошириш учун қулай шарт-шароитларни яратишдир. Бошланғич синфларда мажбурий бўлмаган табиий ўйин муҳити, ҳар бир бола учун ташаббускорлик ва мустақилликни бошқариш, унинг қобилиятлари ва маърифий эҳтиёжларини қондириш учун ўз ўрнини топиш учун имконият бор.

Дарсда бундай муҳитни яратиш учун мен фаол ўқув усулларидан фойдаланиш мумкин.

Дарсда фаол ўқув усулларидан фойдаланиш қуйидагиларга имкон беради:

- ижобий ўрганиш мотиватсиясини таъминлаш;
- юқори эстетик ва ҳиссий даражасида дарс ўтказиш;
- юқори даражадаги ўрганиш фарқларини таъминлаш;
- иш сабоқида бажарилган миқдор 1,5 кундан 2 баравар ошади;
- Билимларни бошқариш;

Ратсионалал равишда ўқув жараёнини ташкил қилади, дарс самарадорлигини оширади.

Фаол ўрганиш усулларидан таълим жараёнининг турли босқичларида фойдаланиш мумкин: босқич-билимларни бирламчи эгаллашдир. Бу муаммоли маъруза, эвристик суҳбат, ўқув мунозараси ва бошқалар бўлиши мумкин.

Бу босқичда билимларни назорат қилиш (мустаҳкамлаш), жамоавий ақлий фаолият, тест ва бошқалар каби усуллардан фойдаланиш мумкин.

Босқичма-босқич билимларга асосланган кўникмаларни шакллантириш ва ижодий қобилиятларни ривожлантириш; симуляцияланган таълим, ўйин ва ўйин бўлмаган усуллардан фойдаланиш мумкин.

Ўқув ахборотини ривожлантиришни жадаллаштириш билан бир қаторда фаол ўқитиш усуллари таълим жараёнини дарс давомида ва дарсдан ташқари машғулотларда ҳам худди шундай самарали амалга ошириш имконини беради. Жамоада ишлаш, қўшма лойиҳа ва тадқиқот фаолияти, ўз позициясини ҳимоя қилиш ва бошқа одамларнинг фикрига чидамли муносабат, ўзи ва жамоа учун масъулиятни ўз зиммасига олиш жамиятнинг замонавий эҳтиёжларини қондирадиган ўқувчининг шахсий фазилатлари, ахлоқий қарашлари ва қадрият йўналишини шакллантиради. Лекин бу фаол таълим усулларининг барча имкониятлари эмас. Таълим ва тарбия билан параллел равишда, таълим жараёнида фаол ўқитиш усулларидан фойдаланиш ўқувчиларда юмшоқ ёки универсал кўникмаларни шакллanti-

риш ва ривожлантиришни таъминлайди. Бу, одатда, қарорлар қабул қилиш ва муаммоларни ҳал қилиш қобилиятини, алоқа кўникма ва фазилатларни, аниқ хабарларни шакллантириш ва аниқ вазифаларни белгилаш қобилиятини, тинглаш ва ҳисобга турли нуқтаи назар ва бошқа одамлар фикр олиш қобилиятини, етакчилик қобилияти ва фазилатлари, бир жамоа ишлаш қобилияти, ва ҳоказо.

Инновация-замонавий таълимнинг муҳим хусусияти шундаки таълим мазмун, шакл ва методлардаги ўзгаришлар, жамиятдаги ўзгаришларга жавоб беради ва глобал тенденсияларни ҳисобга олади.

Таълим янгиликлари ўқитувчи ва олимларнинг ижодий изланишлари натижасидир: янги ғоялар, технологиялар, ёндашувлар, ўқитиш усуллари ҳамда таълим жараёнининг алоҳида элементлари хисобланади.

Қандай қилиб ўқувчининг дарснинг ҳар бир босқичида ўзини керакли ҳис қилиши, синфнинг ягона жамоасининг тўлиқ аъзоси бўлиши мумкин? «Айтинг-унутаман, менга кўрсатинг, ва мен эслайман», «Ўз устимда ҳаракат қилай – ўрганай» бу тамойилга кўра мактаб фанларини ўрганишда самарадорликни ошириш йўлларидан бири дарснинг турли босқичларида фаол иш шаклларини жорий етишдир.

Таълим жараёнида ўқувчиларнинг фаоллик даражасига қараб ўқитиш усуллари шартли равишда икки синфга бўлинади: анъанавий ва фаол. Бу усуллар ўртасидаги туб фарқ шундан иборатки, улардан фойдаланилганда ўқувчиларга шундай шароит яратиладики, уларда пассив бўлиб қола олмайди ва фаол билим ва иш тажрибаси алмашиш имконияти туғилади.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Занков Л.В. Усвоение знаний и развитие младших школьников / Занков Л.В. – 1965

2. Молокова А.В. Информационные технологии в традиционной начальной школе. Начальное образование №1 2003. г

# МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ РЕЧИ У ДЕТЕЙ

**Бугибаева Патима Баймухамедовна,**
Учитель начальных классов школы №2
Наваийская область Канимехский район

Методика развития речи тесно связана с другими частными методиками дошкольного воспитания, так как речь — одно из важнейших средств развития личности ребенка в целом.

В методической теории отражены объективные особенности обучения детей родному языку, обобщено все лучшее в области методики развития речи, что создавалось в отечественном дошкольном воспитании ранее существует и сегодня. Как известно, методикой устанавливается ряд твердых норм при решении тех или иных задач развития детской речи (необходимость специальных приемов обучения рассказыванию, определенная структура упражнений и занятий по заучиванию стихотворений, разнообразие речевой деятельности детей на утреннике в детском саду и т. п.). Необходимо, на наш взгляд, чтобы указанные нормы были достаточно обоснованны, аргументированы, поняты, осмыслены каждым педагогом.

Бесспорно, методологическая теория развивается в единстве с методической практикой. Понятно, что практика проверяет и обосновывает правильность, жизненность отдельных методологических положений, концепций, теорий. Однако сама практика выдвигает перед современной наукой актуальные и важные, еще не рассмотренные и не решенные исследователями вопросы. Известно, что практика подсказала необходимость уточнений программы подготовки к обучению грамоте в детском саду.

На современном этапе развития науки о детской речи ощутима потребность в более конкретных и чѐтких рекомендациях к рабочему плану занятий по развитию детской речи, в разработке приемов активизации речи детей с различным уровнем речевого развития, разработке эффективных форм и приѐмов. Безусловно, преподаватель, не знающий теории, воспитывает детей вслепую, исходя только из своих предположений или копируя опыт других. Он многое упускает, так как не может предусмотреть всего богатства приемов, методов развития речи, выработанных поколениями лучших педагогов и суммированных в методике.

Знание закономерностей детского речевого развития необходимо для своевременной и правильной диагностики нарушений речи, еѐ отклонений в этом процессе, для грамотного построения коррекционно-воспитательной работы по преодолению речевой патологии. В таких случаях важно обратиться к логопеду. Безусловно, ребенок рождается с готовыми к функционированию органами артикуляции. Но проходит длительный подготовительный период, прежде чем он сможет произносить членораздельные звуки речи. Но это, понашему мнению, не мешает узнать мнение специалиста о существующих каких-либо отклонениях (или наоборот, нормальном течении речевого развития) в речи ребѐнка. Своевременная диагностика может предусмотреть проблему и решить еѐ. Прежде чем говорить об особенностях детской речи, на наш взгляд, важно обратиться к дефиниции понятия «онтогенез».

Термином «онтогенез речи» в логопедической науке принято обозначать весь период формирования речи человека, от первых его речевых актов до того совершенного состояния, при котором родной язык становится полноценным орудием общения и мышления.

Термин «онтогенез» рассматривается также исследователями для обозначения и изучения:

– того периода динамического развития детской речи, которая начинается с появления у ребенка первых слов и продолжается до становления развернутой фразовой речи;

– тех данных о нарушенном и нормальном процессе усвоения детьми родного языка, которые необходимы для построения коррекционного обучения: первоначального словарного запаса, нарушения слоговой структуры слов, нарушения звукопроизношения и др.

Обзор научной литературы показал, что исследователи выделяют разное количество этапов в становлении речи детей, по-разному их, называя и указывая различные возрасты границы каждого.

# БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРНИ ЎҚИТИШДА ТАБИАТ ДАРСЛАРИНИ АҲАМИЯТИ

**Ниёзметова Жамила Шарипбаевна**
Урганч тумани 39 –сон мактабнинг
бошланғич таълим ўқитувчиси

**Аннотация.** Ушбу мақолада табиат дарсларини болалар учун қанчалик аҳамияти катта эканлиги кўрсатиб ўтилган. Ўқувчиларни бошланғич синф давридаёқ табиатни севишга ўргатиш айтиб ўтилган.

**Калит сўзлар**: Қуёш, Ой, ҳаво, сув, ўсимлик, табиат, азот, кисларод, циркульяция, атмосфера

Бошланғич синф ўқувчиларига табиат дарсларида жуда кўп мисоллар билан амалий дарсларни ўтказиб бориш болаларни табиатга бўлган қизиқиш ва муносабатини яхши тамонга йўналтириб боради. Табиат жисмларилари билан болаларни табиат қуйнига олиб чиқиб ҳам таништирса бўлади. Табиат жисмлари қаттиқ, суюқ ва газсимон бўлади. Тош, темир- қаттиқ жисм. Уларнинг шакли доимий бўлади, яъни ўзгармайди. Сув, нефт, бензин-суюқ жисм. Улар шаклсиз бўлиб, оқиб кетиши, ёйилиб кетиши мумкин. Ҳаво, табиий газ-газсимон жисм. Улар ҳам суюқликлар сингари доимий шаклсиз бўлади. Ҳаво бошқа жисмлардан бўшаган барча бўшлиқни эгаллайди. Ҳаво кўзга кўринмайди. Дафтарингингиз билан юзинингизни елпинг. Нима сездингиз?

Стол устида бир қанча майда қоғоз бўлакчалари қуйинг. Уларни картон қоғоз билан елпинг. Қоғоз бўлакчалари билан нима рўй беради? Юзингизда елпиганингизда шабада-ҳаво ҳаракатни сиздингиз. Стол устидаги қоғоз бўлакчалари елпиганингизда улар бошқа жойга учиб кетди йоки столдан учиб тушди. Бунда картон билан елпинганда харакатда келган ҳаво қоғоз бўлакчаларини учириб юборади. Демак, атрофимизда ҳаво бор. Лекин нима учун уни кўрмаймиз? Шунинг учун кўрмайзки, у рангсиз, тиниқ ва кўзга кўринмасдир. Ҳаво таркибида ҳар хил газлар: азот, кисларод, карбонат ангидрид бўлади. Тирик организимлар нафас олгааааанда ҳаводан кислород ютиб, карбонат ангидрид ажратди. Ҳаво ҳам ҳар қандай жисм сингари, заррачалардан иборат бўлиб, мазкур заррачаларнинг ўзаро оралиғи бор. Заррачалар доим ҳаракатда бўлади, бир-бири билан тўқнашади. Ҳаво иситилганда заррачалар тезроқ ҳаракатланади, кучлироқ тўқнашади. Шунга кўра улар бир-биридан кенгайади. Ҳаво совитилганда эса бу жараёнларнинг барчаси аксинча кечади. Ҳаво–сайёрамизни қалин қатлам билан ўраб олган. Унинг қалинлиги бир неча ўн километрни ташкил этади. Биздан жуда юқоридаги қалин ҳаво қатлами осмон деб аталади. Ҳаво очиқ бўлганда осмон мовий тусда бўлади. Иссиқ ва совуқ ҳаво. Иссиқ ҳаво билан совуқ ҳавонинг ҳаракатини мактабда ҳам, уйда ҳам кузатиш мумкин.

Хонанинг очиқ эшиги олдига пастга қўйилган ёниб турган шамнинг алангаси ичкари томонга қияланади. Демак, совуқ ҳаво пастда бўлади ва хонага эшикнинг пастки томонидан киради. Агар шам очиқ эшикнинг юқорисида тутиб турилса, алангаси йўлак томонга қияланади. Демак, иссиқ ҳаво юқорида бўлади ва очиқ эшикнинг юқорисидан йўлакка чиқади.

Иссиқ ва совуқ ҳавонинг ҳаракати. Агар шам очиқ эшикнинг ўрта қисмида тутиб турилса, аланга, қандай ўзгариади. У йўлак томонга ҳам, синф томонга ҳам қияланмайди. Демак, очиқ эшикнинг ўрта қисмида синфда

Ҳам, коридорда ҳам ҳаво ҳаракати бўлмайди. Табиатда иссиқ ва совуқ ҳаво доимо алмашиниб туради. Ҳаво нима таъсирида ҳаракатланади? Ер юзаси қуёш нури таъсирида бир хил исимайди. Ер юзаси кучлироқ исийдиган жойларда ҳаво иссиқроқ бўлиб, юқорига кўтарилади. Унинг ўрнини совуқроқ ҳаво эгаллайди. Бундай ҳаво Ер юзаси камроқ исийдиганжойлардан оқиб келади.

Ер юзасида иссиқ ва совуқ ҳавонинг алмашиниб туриши шамол деб аталади. Ер шарининг турли жойи турлича исийди ва оқибатда босим ҳам турлича бўлади. Юқори босимли ерларда ҳаво босими паст жойларга оқади. Ер юзида атмосфера босимининг бир хил бўлмаслиги натижасидаги ҳаво ҳаракатига шамол дейилади. Ер юзида шамолларнинг ҳосил бўлишига қараб 3 та катта группага бўлиш мумкин: 1. атмосфера умумий иркулья-

циясининг шамоллари; 2. циклон ва антисиклонлар; 3. маҳаллий шамоллар. Атмосфера умумий циркульяциясининг шамоллари. Ер юзасининг ҳамма қсимида температура ва у Билан боғлиқ ҳолда ҳаво босимининг бир хил бўлмаслиги атмосферанинг умумий циркульяциясини вужудга келтиради. Одам ва бошқа тирик мавжудотлар нафас олиши учун тоза ҳаво зарур. Йирик шаҳарлар ҳавоси ифлос бўлади. Чунки фабрика ва заводлардан ҳавога заҳарли газлар, қурум ва чанг чиқади, Автомобиллардан ишланган газлар чиқади, улар таркибида жуда кўп заҳарли моддалар бўлади.

Ифлос ҳаво одамнинг соғлиғи учун, Ер юзасидаги барча тирик организмлар учун хавфлидир! Одамлар ва бошқа тирик мавжудотлар нафас олганда кўп миқдорда карбонат ангидрид гази ажралиб чиқади. Ўсимликлар эса ана шу газни ўзлаштириб, кислород ажратади. Шунинг учун ҳам ўсимликлар кўп жойда одам енгил нафас олади. Сув одам ҳаётида жуда катта аҳамиятга эга. У фақат ичиш, овқат пишириш, идиш ва кир ювиш учун зарур бўлибгина қолмай, балки фабрикада ва заводларда ҳам ишлатилади. Сув бўлмаса тола ва териларни бўйаш, қоғоз тайёрлаш, нон ёпиш, сунъий тола тайёрлаш мумкин эмас. Сув бўлмаса уй, мактаб ва шиффохоналар қуруб бўлмайди. Ҳаттоки, электр стансиялар ҳам сув билан ишлайди. Одам далалар, боғлар ва полизларда ҳар хил ўсимликлар ўстиради. Бу ўсимликларни ўстириш, парваришлаш учун ҳам сув керак бўлади. Одам ўз эҳтиёжи учун фақат тоза, чучук сувдан фойдаланади. Лекин Ерда чучук сув унча кўп эмас. Чучук сув ифлосланиб кетганидан у етишмай қолмоқда. Ёмғир ва эриган қор суви билан дарё ва кўлларга кўп тузлар ҳам тушади ва улар далаларни ўғитлайди. Фабрика ва заводларнинг оқова суви ҳам дарё ва кўлларга оқиб кетишига одамларнинг ўзи айбдордир.

Чучук сув- катта бойлигимиз. Уни асраш керак. Сувнинг ифлосланишидан барча тирик мавжудот зарарланади. Дарё ва кўллардаги ўсимликлар билан бирга ҳайвонлар ҳам нобуд бўлади. Ифлосланган сув одам организми учун ҳам зарарлидир.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Nuraddinova M, Tabiatshunoslikni o’qitish metodikasi.T,2005

# ГЛОБАЛЛАШУВ ВА ИҚТИСОДИЙ ИНТЕГРАЦИЯ ШАРОИТИДА ЎЗБЕКИСТОН ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТИДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

**Ҳамроева Шохсанам Махмудовна,**
Навоий вилояти Кармана тумани 28-умутаълим мактаб
Инглиз тили ва адабиёти фани ўқитувчиси

Инсоният цивилизацияси ривожланишини кузатадиган бўлсак шунга гувоҳ бўламизки, инсонлар турли даврларда уни ўзини ўраб турган дунёни англашнинг ва билишнинг бир қанча восита ва усулларини ўйлаб топишган. Бу воситаларнинг орасида энг муҳими – фандир.

Фан – бу табиат, жамият ва тафаккур ҳақидаги янги билимларни ҳосил қилишга йўналтирилган илмий фаолият соҳасидир. Фан дунёни тушунчалар, гипотезалар, назариялар ва турли хил таълимотлар шаклида ифодалайди ва у дунёни келтирилиб ўтилган тафаккур шаклларида ифодалаш учун тажриба, моделлаштириш, фикрий эксперимент ва бошқа шу каби билиш усулларидан фойдаланади. Шунингдек, фан олимларни, илмий билиш жараёни билан боғлиқ таълим ва энг асосийларидан бири уни ўзлаштиришда муҳим восита сифатида қўлланиладиган тилни ўз ичига қамраб олади. Шунинг учун, фанни ёки билимларни ўзлаштиришнинг биринчи қадами бу тилдир. Шу ўринда, инсоният тарихида фан туфайли юз берган уйғониш даврларига эътибор берадиган бўлсак, бир ҳолат уникал ҳодиса сифатида намоён бўлади, яъни ҳар бир уйғониш даврининг ўз фан тили бўлган.

Антик дунёда фан тили грек тили бўлган бўлса, Ўрта асрлар Европасида эса инсон ҳаётининг барча жабҳаларида лотин тили муҳим аҳамиятга эга бўлган. Бу тилларда дипломатик алоқалар, турли хил савдо муносабатлари ва илмий тадқиқот ишлари олиб борилган.

Ўрта асрлар Шарқ дунёсининг илк уйғониш даврида, хусусан мусульмон дунёсида араб тили фан тили вазифасини бажариб берган. Бу даврда бу тил Ўрта Осиёдан то Ўрта Ер денгизи соҳиллари, Шимолий Африка ва қисман Испания ҳудудларигача бўлган улкан маконда истиқомат қилган халқларнинг умумий мулоқот тили сифатида ишлатилиши ва бу маконда яшаган инсонларни маданий жиҳатдан бирлаштириши билан бирга Абу Райҳон Беруний, Ибн Сино, ал-Хоразмий, Абу Наср Форобий каби буюк инсонларнинг етук инсон бўлиб етишишига ва улардан бизгача улкан илмий меросларини сақланиб қолишига асос бўлган.

Кейинги даврларда, хусусан Янги ва энг янги даврларда фан тили вазифасини француз, испан, немис, хитой, рус ва XX аср охирида бу борада дунё халқларининг мулоқот тилига айланган инглиз тили бу вазифани бажармоқда. Ҳар даврда фан тили мақомига эга бўлган тиллар бир қанча ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, уларнинг энг муҳимлари бу тилни дунёнинг аксарият аҳолиси ўз она тили деб ҳисоблаши, ёки давлат тили мақоми сифатида иккинчи тил бўлиши, бу тил ер юзининг турли континентларида ишлатилиши, давлатлар таълим тизимида, хусусан мактабларда хорижий тил сифатида ўрганилиши, ва халқаро даражадаги турли хил конференциялар, учрашувларнинг расмий тили бўлиши кабилардир.

Мисол учун, бутун дунё аҳолисининг 1,5 млрд.дан ортиғи хитой тилининг, 1,5 млрд. дан ортиғи инглиз тилини, ҳар бири 250 млн.дан 300 млн.гача бўлган аҳоли рус, араб, немис, француз тилининг ташувчиси ҳисобланади. Ёки Интернетдаги кўпчилик веб-сайтлар ва веб-саҳифаларда инглиз тили асосий тил сифатида ишлатилади. W3Techs олиб борган тадқиқотлар натижаларига кўра 2013 йил апрель ойи ҳолатига кўра Интернетдаги барча сайтларнинг 54,8 %и инглиз тилида фаолият юритган. Рус, немис, япон, испан, хитой, француз, италян ва португал тилидаги сайтлар сони эса 2 %ни ташкил этган.

Фан тилларининг маълум бир жамиятда тарқалиши, ишлатилиши ҳам ўша жамиятнинг дунё ривожланиш тенденцияларидан (жамиятнинг фан-техника, индустриал ривожланиши назарда тутилган) ортда қолмаслиги ва унинг фан соҳасида “катта сакрашлар” (уйғониш даврлари каби ёки фан-техника тараққиёти назарда тутилмоқда) қилишидаги муҳим мезон ҳисобланади. Фан тили, ёки унинг эквиваленти сифатида халқаро тиллар, инсоннинг бугунги каби цивилицияга эришишида муҳим аҳамиятга эга бўлган омил бўлган.

Замонавий дунё фани ушбу тилларда ёзилиши эса ҳар қандай ёш олим ёки тадқиқотчининг

уларни ўзлаштириши ва илм-фан дурдоналари асосида янги ғояларини жамиятга ва дунёга тақдим қилиши давр тақозосидир.

Шу боисдан давлатимиз раҳбари ёшларимизнинг инглиз тилини ўрганиши қанчалик муҳим эканлигини ва бу масалани давлат сиёсати даражасига кўтарилишидан асосий мақсад эса инглиз тилининг дунёнинг мулоқот ва фан тили даражасига кўтарилганлигидадир.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, инсон мақсадлари йўлида доимо изланади. Бунинг учун энг зарур нарса тинчлик ва осойишталикдир, улардан самарали фойдаланиш эса белгилаган мақсадларимиз сари бўлган узоқ ва машаққатли йўлнинг мажозий маънода қисқаришига олиб келади. Шуни ҳам таъкидлаш лозимки, ёшларнинг вақт каби буюк неъматни беҳуда сарфламай, жаҳон тилларини ўзлаштириши Ўзбекистоннинг кейинги тараққиёти учун жуда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

# ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ЕЧИМИДА ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

**Юсубова Сабохат Янгибоевна**
Хоразм вилояти Шовот тумани
42-сон умумий ўрта таълим мактаби
Физика фани ўқитувчиси
**Нурметова Моҳира Сафарбаевна**
Хоразма вилояти Шовот тумани
21-сон умумий ўрта таълим мактаби
Бошланғич синф ўқитувчиси
+998909319778 x.nurmetov@cspi.uz

**Аннотация:** Таълим тарбия жараёнлари кенг қўлламда ўрганилиб, уларни амалиётда тадбиқ этиш чора тадбирлари ишлаб чиқилди. Илмий педагогик изланишларни баҳолаш мезонлари тўғрисида фикр юритилганда, аввало тадқиқотнинг замонавийлиги, долзарблиги, ундан кўзланган мақсад хамда натижалар назарида тутилади. Таълимда юқори сифат ва самарадорликка эришиш учун юқори даражадаги касбий маҳорат, ижодий ёндашув, дарс жараёнига илғор педагогик технологияларни жорий этиш, ахборот-коммуникатция технологиялари (электрон дарслик, ўқув фильми, виртуал лаборатория ишлари ва аниматцион кўргазмали тажрибалар)дан самарали фойдаланиш, илғор педагогик тажрибани ҳамда таълим ва тарбиянинг назариясини чуқур ўрганиш, уларни ўз тажрибалари билан солиштириб кўриш, баъзиларини ўз ишида тадбиқ килиш.

**Калит сўзлар:** Педагогик махорат, инновация, кластер, ўқув филмлар, виртуал лабораториялар, электрон дарслик, БКМлар.

Миллий истиқлолни қўлга киритилиши Республикада таьлим тизимини тубдан ислоқ қилиш ва уни янада ривожлантириш имкониятини яратди.Таълим тарбия жараёнлари кенг қўламда ўрганилиб, уларни амалиётда тадбиқ этиш чора тадбирлари ишлаб чиқилди. Таълим тўғрисидаги қонун ва Қадрлар тайёрлаш миллий дастурини қабул қилиниши эса бу борада амалга оширилаётган ишларни янада ривожлантириш ва жадаллаштириш имконини берди.

Илмий педагогик изланишларни баҳолаш мезонлари тўғрисида фикр юритилганда, аввало тадқикотнинг замонавийлиги, долзарблиги, ундан кўзланган мақсад хамда натижалар назарида тутилади.

Таълимда юқори сифат ва самарадорликка эришиш учун фан йўналишидаги янгиликларни излаб топиш ва таълим жараёнига тадбиқ этиш, ўқувчиларнинг мазкур фанга қизиқишларини ошириш, ҳозирги замон фан-техникасини ўрганишга интилишини ўстириш талаб этилади.

Халқимизнинг келажаги мустақил Ўзбекистоннинг истиқболи кўп жиҳатдан ўқитувчига унинг савиясига, ёш авлодни ўқитиш ва тарбиялаш ишига бўлган муносабатига боғлик. Ўқитувчи шахсининг касб сохасидаги хусусиятлари бу-болаларни севиш, улар билан ишлашга қизиқиш, ўз касбига муҳаббатли бўлиш, педагогик назокат, педагогик тасаввур, ташкилотчилик қобилияти, хаққонийлик, дилкашлик, талабчанлик, қатъийлик ва мақсадга интилиш, вазминлик, ўзини тута билиш, касбий лаёқатлик ва бошкалар. Самарали педагогик таъсир кўрсатишни тўғри ташкил этиш болалар билан муомала қилишда, самимий муносабатда бўлишга ёрдам беради. Амалий педагогик фаолиятда илмий ғоялар ва педагогик тарбияни қўллаш, ўқитувчи меҳнатига кўп жихатдан боғлиқ. Лекин бу меҳнат натижалари дархол кўринмайди. Унинг махсулини кўриш учун йиллаб меҳнат қилиш керак. Ўқитувчи фаолиятини ўрганиш шуни кўрсатадики, бу фаолият ўзининг сифат кўрсаткичлари бўйича хам турлича бўлади. Хақиқий фидоий ўқитувчилар ўз фаолиятида энг яхши натижаларга эришадилар. Тажрибали новатор ўқитувчилар болаларга самарали таълим тарбия бериш билан бир қаторда педагогика фанидан янги йул хам очмокдалар.

Педагогик меҳнатни амалга ошириш жараёнида қуйидаги хусусиятларни ўз фаолиятида амалга оширишлари зарур.

1. Ўқитувчининг сиёсий қарашлари ва эътиқодининг аниқлиги ҳамда барқарорлиги,

ўқувчилар олдида чинакам обрў эътибор қозониши.

2. Мамлакатнинг бутун ижтимоий хаётида фаол иштирок этиш ва эгаллаган тажрибаларни таълимга олиб кириш, бу фаолиятга ўз ўқувчиларини жалб килиш, уларни ижтимоий хаётда фаол иштирок этишини таъминлаш.

3. Хар бир ўқувчи шахсига катта қизиқиш билан караш ва барча жамоа ишларини ташкил этиш.

4. Ўкитувчилар ўз ишларига бугунги кун талаби билан эмас, балки келажакни ўйлаб иш юритиш.

5. Болаларга бўлган муносабатлари уларнинг тақдири хақида ғамхўрлик қилиш, ўз тарбияланувчиларининг келажаги билан қизиқиш.

6. Ўқувчи шахсига хар томонлама таъсир кўрсатиш.

7. Илғор педагогик тажрибани ҳамда таълим ва тарбиянинг назариясини чуқур ўрганиш, ҳамма янгиликларни тушуниб олиш, уларни ўз тажрибалари билан солиштириб кўриш, баъзиларини ўз ишида тадбиқ қилиш.

Биз ўқитувчилар олдига қўйилган улкан вазифалардан бири назарияни амалиётга қўллаб дарс ташкил қилиш.

— ўқитувчиларнинг мавзуни тушунтириш жараёнида ўқувчиларга табиатда технологик кузатишлар олиб боришни тўлиқ тушунтирмаётгани;

— мавзулар бўйича мавжуд ўқув филмлари, виртуал лабораториялар, кўргазмали тажрибалар, жиҳозлардан унумли фойдаланилмаётгани;

— ўқувчиларнинг назарий билимларини ҳаёт билан боғлаб олиб бормасдан, фақат дарсликда берилган маълумотлар билан чекланиб қолгани;

Дарсдан ўқувчи ҳайратлансагина устозга эргашади, фанга яқинлашади. Зерикарли, маърузаларга бой дарслар билан БКМларни ҳосил қилиб бўлмайди, натижага эришиб бўлмайди. Бир дарснинг ўзида ҳам мавзуни тушинтириш, ҳам уни амалда кўрсатиш учун вертуал лабораториялар қўл келади. Фақат доскадан фойдаланмасдан экранда Power Point дастурида тайёрланган анимацион кўргазмали дастурлар ўқувчилар онгида узоқ қолиб кетади.

Мураккаб мавзуларни ўқитишда қуйидаги омилларга эътибор қаратиш зарур:

* юқори даражадаги касбий маҳорат;
* ижодий ёндашув;
* дарс жараёнига илғор педагогик технологияларни жорий этиш;
* ахборот-коммуникатция технологиялари (электрон дарслик, ўқув фильми, вертуал лаборатория ишлари ва аниматцион кўргазмали тажрибалар)дан самарали фойдаланиш;
* таълим жараёнининг ўқув-методик жиҳатдан таъминлангани.

Таълим мазмунини ахборот тизимида ўзлаштирилиши, фикр кучи билан эмас, балки хотира асосида билим ўзлаштириш ўқитувчиларимизга хос хусусиятларга айланмоқда

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**


1. Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури». Тошкент,1997 й.
2. А.Т.Ғофуров ,Толипова Ж. " Умумий биологияни ўқитишнинг норасмий усул ва шакллари" Тошкент 1990 й.
3. Толипова Ж.О. "Биологияни ўқитишда педагогик технологиялардан Фойдаланиш". - Тошкент: ТДПУ, 2004й.
4. Рахимов.А.К., Нурметов.Х.С., Саидова.Б.Д. Узлуксиз таълим тизимида педагогик таълим инновацион кластерининг роли . Academic Research in Educational Sciences (ARES) // Чирчиқ, 2020, №1, б.48-53.
5. Зокиров Д.У., Нурметов.Х.С., Общеобразовательная школа - основной источник экологического воспитания. Academic Research in Educational Sciences (ARES) // Чирчиқ, 2021, №2, б.28-31

# MAKTAB O'QUVCHILARIGA KIMYO FANINI O'QITISHDA MASALALAR YECHISHNI O'RGATISH METODIKASI

**Vohidov Ikrom Baxramjonovich**
Namangan viloyati Kosonsoy tumani
33-maktab kimyo fani o'qituvchisi
Ikromjon_scholl33@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda biz umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishda masalalar yechish metodikalarini o'rgatish va o'quvchilarga kimyo faniga doir masalalarni yecish jarayonida oson usullardan foydalanish metodikalarini ko'rib o'tamiz

**Kalit so'zlar:** Molyar massa, moddaning haqiqiy massasi, moddaning formulasi, davriy qonun.

Molekulyar massa: ushbu tipdagi masalalarni oson yechish metodlarini ko'rib chiqaylik. Buning uchun biz bitta shartli masala olamiz. **Masala**: Sulfat kislotaning ($H_2SO_4$) nisbiy molekulyar massasini hisoblang.

***Yechish***. Masalani yechish uchun ushbu formuladan foydalanamiz:

$M_r(H_2SO_4)=\xi A_r(H)+\xi A_r(S)+\xi A_r(O)=2\cdot1+1\cdot32+4\cdot16=98$ *m.a.b*.

**Masala:** 49 g sulfat kislotadagi modda miqdorini hisoblab toping.

***Yechish.*** 1)$M(H_2SO_4)=98$.

2) Modda miqdori $\eta$ ni hisoblash. m – massa, M – molar massa.

$\eta=\frac{m}{M}=\frac{49}{98}=0{,}5$ ***Javob**:* 49 g sulfat kislota 0,5 mol.

5 mol Mis (II)-oksid necha gramm?

***Yechish.*** 1) M(CuO)=64+16=80.

2) Modda massasini hisoblash.

$\eta=\frac{m}{M}$ *formuladan*: $m=M\cdot\eta=80\cdot5=400\ g$ ***Javob:*** 5 mol CuO 400 g.

Natriy karbonatning tarkibi quyidagicha: Na=43.4 %,S=11.3%, O=45.6%. Uning formulasini aniqlang.

***Yechish:*** **1)** modda tarkibidagi elementlarning atom nisbatlarini toping

$$Na:C:O=\frac{43.4}{23}:\frac{11.3}{12}:\frac{45.6}{16}=1.88:0.94:2.85$$

Ma'lumki molekulada atomlar faqat butun sonlar nisbatda bo'ladi. Shuning uchun har birini eng kichik nisbatga bo'lamiz:

$$\frac{1.88}{0.94}:\frac{0.94}{0.94}:\frac{2.85}{0.94}=2:1:3$$

***Javob:*** Natriy karbonatning formulasi:$Na_2CO_3$

**Masala:** Tarkibida 39,7 % kaliy, 27,9 % marganets va 32,4 % kislorod bo‘lgan moddaning eng oddiy formulasini toping.

*Yechish:* Moddaning umumiy formulasini $K_xMn_yO_z$ deb olsak, $x:y:z=\frac{39,7}{39}:\frac{27,9}{55}:\frac{32,4}{16}=\frac{1,01}{0,51}:\frac{0,51}{0,51}:\frac{2,02}{0,51}=2:1:4$.

Demak, moddaning formulasi $K_2MnO_4$ ekan.

**:**Tabiiy marvaridda kalsiy, uglerod va kislorodning massa nisbatlari 10:3:12. Marvaridning eng oddiy formulasi qanday bo‘ladi?

*Yechish:* Masalani yechish uchun massa nisbatga to‘g‘ri keladigan qiymatni har bir atomning nisbiy atom massasiga bo‘lamiz:

$$\frac{10}{40}:\frac{3}{12}:\frac{12}{16}=0,25:0,25:0,75=1:1:3.$$

Demak, marvaridning eng oddiy formulasi $CaCO_3$ ekan.

**Masala:** 2,22 gramm malahit parchalanganda 1,60 gramm mis (II) oksid, 0,18 gramm suv va 0,44 gramm karbonat angidrid hosil bo‘lgan malahitning formulasini aniqlang.

***Yechish:*** **1)** Malahitning sifat tarkibini aniqlaymiz:

Malahit$\rightarrow$ $CuO+H_2O+CO_2$

***Demak*:** Malahitning tarkibida mis, vodorod, uglerod va kislorod atomlari bo‘lishi kerak.

**2)** Misning massasini aniqlaymiz:

$M_r(CuO)=80$

$$\begin{cases}80\ g\ CuO\ da\ \ 64\ g\ .Cu\ bo'ladi.\\ 1,60\ g\ \ CuO\ da\ \ \ x\,g\ \ Cu\ bo'ladi.\end{cases}\qquad m(Cu)=\frac{1.60\cdot 64}{80}=1.28\,g.$$

**3) V**odorodning massasini aniqlaymiz.

$M_r(H_2O)=18$

$$\begin{cases}18\ g\ \ H_2O\,da\ \ 2\,g.H\ bo'ladi\\ 0,18\ g\ \ H_2O\,da\ \ x\,g\ \ H\ bo'ladi.\end{cases}\qquad m(H)=\frac{0.18\cdot 2}{18}=0.02\ g.$$

**5)** Kislorod massasini aniqlaymiz.

Kislorodning massasi: Mis(II)- oksid,suv va korbanat angidiriddagi kislorod massalarining yig‘indisiga teng.

A) 1,60 g CuO dagi O ning m=1,60-1,28=0,32 g.

B) 0,18 g $H_2O$ dagi O ning m=0,18-0,02=0,16 g.

V) 0,44 g $CO_2$ dagi O ning m=1,44-0,12=0,32 g.

0,32+0,16+0,32=0,8 g

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Kimyo fanidan masalalar to'plami. Toshkent 2003
2. Kimyo fanidan abiturientlar uchun qo'llanma Toshkent 2001
3. Kimyo fanidan formulalar to'plami.
4. Kimyo fanidan 1996-2007 yil DTM testlar to'plami

# "ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

## (10-қисм)

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000